

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

**MA'RIFAT RAJABOVA
ZILOLA AMONOVA
NASIMA QODIROVA**

BUXORO ADABIY MUHITI

(O'quv qo'llanma)

Buxoro-2024

KBK: 83.3.(0)5

UDS: 731.544.624.1.2.4.44

R-25

Mazkur o'quv qo'llanmada Buxoro adabiy muhitining yirik vakillari ijodiy merosi tahlil qilingan. Qo'llanma O'zbekiston respublikasi oliy o'quv yurtlari 70230104 – Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) magistratura mutaxassisligi, 60111400 – o'zbek tili va adabiyoti, 60230100 – filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) bakalavriat yo'nalishidagi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, undan oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida o'zbek mumtoz adabiyoti fanini o'qitishda, shuningdek, darsliklar, qo'llanmalar yaratishda, maxsus kurslarni o'qitishda, adabiyot tarixi bo'yicha ma'ruza matnlarini tuzishda samarali foydalanish mumkin.

**Mazkur o'quv qo'llanma AL-662204396 “Buxoro adabiy muhiti
ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo'yicha elektron platforma yaratish”
mavzusidagi amaliy loyiha doirasida tayyorlangan va nashr etilgan.**

BUXORO ADABIY MUHITI

(O'quv qo'llanma)

Ta'lim yo'nalishi: 70230104 – Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)

Mas'ul muharrir:

H. Safarova - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

N. I. Soatova - filologiya fanlari doktori, professor

Sh. G'. Davronova - filologiya fanlari doktori, dotsent

Ushbu “Buxoro adabiy muhiti” nomli o'quv qo'llanma Buxoro davlat universitetining 2024-yil 11-noyabr “711-U” sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya qilingan. Ro'yxatga olish raqami: 711-28

ISBN 978-9910-745-36-2

© Buxoro davlat universiteti, 2024

© “Fan ziyosi”, 2024

KIRISH

Buxoro azaldan ilm-ma'rifat maskani, din-u islom tayanchi bo'lib kelgan. Uning tarixi bir necha asrlargan borib taqaladi. Arxeologok qazishmalar natijasida uning yozi 2500 yildan oshiq ekanligi e'tirof etilgan. Ta'kidlash lozimki, YUNESKO Buxoroni "Ijodkor shaharlar tarmog'i"ga kiritdi. Shu nuqtayi nazardan 2025-yilda Buxoroda birinchi zamonaviy dizayn va hunarmandchilik biyennalesi bo'lib o'tadi, unda mahalliy hunarmandlar va rassomlar xorijlik hamkasblari bilan tajriba almashishlari mumkin bo'ladi. Hozirda mustaqillik sharofati bilan ham iqtisodiy, ham ma'naviy rivojlanayotgan Buxoro dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan bir qancha ulug'larni yetkazib berdi. Bu jihatdan, Abu Ali ibn Sino, Abdulloh Ro'dakiy, Imom Buxoriy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahovuddin Naqshband, Abdurauf Fitrat kabilarning din va ma'rifat, ilm-fan va madaniyat taraqqiyotida xizmatlari nihoyatda katta.

Buxoroda VIII-XII asrlarda madaniyat, ilm-fan o'ziga xos rivojlanish yo'liga o'tdi. O'rta Osiyo, jumladan, Buxoro olimlari arab tili orqali dunyo ilm-faniga yo'l ochdilar. Ya'ni bir qator aniq fanlar (matematika, kimyo, fizika), tabiiy fanlar (astronomiya, botanika, mineralogiya) hamda ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fanlar yuqori bosqichga ko'tarildi. Bu o'rinda yirik tarixchi olim Abu Bakr Narshaxiy nomini alohida ta'kidlash lozim. Uning "Buxoro tarixi" asari Movarounnahr, ayniqsa, Buxoroga oid noyob materiallarni jamlagan babaho manbadir.

Qadimdan madaniyat o'chog'i bo'lgan Buxoroda adabiyot va san'at ham o'ziga xos tarzda rivoj topdi. Buxoroda qomusiy olimlar bilan birgalikda, shoir va adiblar ham yetishib chiqdi. Aytish lozimki, XI asardan boshlab ilmiy asarlar arab tilida, badiiy asarlar esa uch, ya'ni arab, fors, turkiy tilda yaratildi. Shunday bo'lsa-da X-XI asarlarda Buxoroda fors-tojik tilidagi adabiyot ancha rivojlandi. X asrda Buxoroda yaratilgan adabiyot haqida Y.E.Bertels shunday yozgan edi: "Aslini aytganda, til nuqtayi nazardan bu davr adabiyotini fors va arab adabiyotiga bo'lish - haqiqatan shartli narsadir. Aslida biz mavzu, uslub, tashqi ko'rinishi bir xil, faqat tilidagina farqi bo'lgan yagona adabiyotga egamiz. Shuni ham aytish kerakki, shoirlar ko'p holda ikki tilni bilishgan va har ikki tildan birday osonlik bilan foydalanishgan, bir fikrning o'zini goh bu, goh u tilda ifoda etishgan".

Demak, Bertelsning fikrlariga ko‘ra Buxoro adabiy muhitida arab, fors tili ancha taraqqiy etgan, shuningdek, turkiy tilda ham nodir asarlar yaratilgan. Bu xususiyat uni boshqa adabiy muhitlardan ajratib turadi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbek mumtoz adabiyotida Buxoro adabiy muhiti alohida mavqeyiga ega va uning zabardast vakillari asarlarida tarannum qilingan umumbashariy g‘oyalar madaniy, adabiy va tarixiy qadriyatlarimizni tiklanishida, ayniqsa, yosh avlod ma‘naviy kamolotini ta‘minlashiga beminnat xizmat qiluvchi manba hisoblanadi. Shuning uchun Prezidentimiz, *“Bu bebaho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbayi, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz”*¹, deya e‘tirof etganlar. Shunga tayangan holda jahon tamadduniga o‘z hissasini qo‘shgan Buxoro adabiy muhitining zabardast vakillari ma‘naviy merosini o‘rganish va talaba-yoshlarga o‘rgatish ularda vatanparvarlik va o‘z ajdodlari bilan faxrlanish hamda ularga ergashish hissini shakllantirishi, shubhasizdir.

“Buxoro adabiy muhiti” fani tanlov fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 1-kursda o‘qitilishi nazarda tutilgan. Mazkur fan olidiga qo‘yiladigan talablardan biri Buxoro adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodini o‘rganish, ularning o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hissasiga baho berish, badiiy mahorat masalalarini tadqiq qilishdan iborat.

Shu maqsadda tuzilgan “Buxoro adabiy muhiti” fani uchun mo‘ljallangan ushbu qo‘llanmada fan dasturida belgilangan ko‘pgina asosiy mavzular qamrab olingan.

Mazkur qo‘llanma filologiya sohasi mutaxassislari hamda talabalarga, shuningdek, Buxoro adabiy muhiti vakillari ijodi bilan qizquvchilarga mo‘ljallangan.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2017- yil 23- iyundagi PQ-3080-son qarori.

BIRINCHI MAVZU:
ABU ABDULLOH RO‘DAKIY HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Abu Abdulloh Ro‘dakiyning hayot yo‘li.
2. Abu Abdulloh Ro‘dakiy haqida ma’lumot beruvchi manbalar
3. Ijodkor asarlarining g‘oyaviy-badiiy tahlili

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|---|--|
| <ul style="list-style-type: none">• <i>Abu Abdulloh Ro‘dakiy</i>• <i>Odam-ush shuaro</i>• <i>Modari may</i>• <i>Panjrud</i>• <i>Panjakent</i>• <i>Somoniylar</i>• <i>Nasr I</i> | <ul style="list-style-type: none">• <i>Qarilik haqida qasida</i>• <i>Mo‘liyon</i>• <i>G‘azal</i>• <i>Ruboiy</i>• <i>Qasida</i>• <i>Fors-tojik adabiyoti</i>• <i>G‘oyaviy-badiiy tahlil</i> |
|---|--|

Abu Abdulloh Ja’far ibn Muhammad Ro‘dakiy IX asrning 50-60-yillarida Panjrud qishlog‘ida (hozirgi Panjakent yaqinida) tug‘ilgan. X asrning 40-yillarida vafot etgan. Manbalarda qayd etilishicha, u yoshligidayoq chang chalish, qo‘shiq aytish bilan mashhur bo‘lgan. Ayni paytda badiiy ijod bilan ham shug‘ullangan. Hatto, Ro‘dakiy “Odam ush-shuaro” (Shoirlarning Odam Atosi) degan nom bilan ham shuhrat qozongan. Samarqand madrasasida tahsil olayotganda uning shuhrati Samoniylar davlatining poytaxti Buxoroga yetib boradi. Shuning uchun uni saroy xizmatiga olishadi, ammo nima sababdandir qarilik chog‘ida saroydan quvilganligi bilan bog‘liq ma’lumotlar yetib kelgan. Ayrim rivoyatlarda shoirning hurfikrligi uchun ko‘zlarida mil tortilganligi aytiladi. Shoir hayoti va faoliyati bilan bog‘liq yana bir mashhur rivoyat mavjud. Unda aytilishicha, somoniylar amiri Nasr I (914-942) Hirotga ziyofatga borib, ziyofatchilar ichiga ancha muddat qolib ketadi. O‘z yurtini sog‘ingan amirlar esa, bu mulohazalarni shohga to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ochiq-oydin aytishga hadlari yetmaydi va shohga ta’sir o‘tkazishni Ro‘dakiydan iltimos qilishadi. Shunda Ro‘dakiy bir ziyofat chog‘ida, o‘zining (“Dimog‘imga Mo‘liyon arig‘ining hidlari urildi”) degan g‘azalni yozib, changda ijro etibdi. Qo‘shiqdan amir

shunday ta'sirlanadiki, yalangoyoq holda otga sakrab minib, Amudaryo kechuviga qarab yo'naladi. Ushbu g'azal shunday boshlanadi:

Bo'yi jo'yi Mo'liyon oyad hame,
Yodi yori mehribon oyad hame
(Mo'liyon arig'ining hidlari dimog'imga kelmoqda.
Unda mehribon yor yodi ham kelmoqda)

Bu misralar amirning ko'z o'ngida olmazor bog'larni, Mo'liyon arig'idagi suvlarning jildirashini gavdalantirgan. Ayni paytda uzoqda qolgan yor va diyor xotirasi uyg'ongan.

Keyingi misralarda ona yurt bilan bog'liq bo'lgan yanada nozik va ta'sirli tasvirlar keltirilgan.

Ta'kidlash joizki, Davlatshoh Samarqandiy o'z tazkirasida bu voqeaning bo'lganligiga shubha bilan qaraydi. Bunga sabab sifatida qasidaning soddaligi va ta'sir kuchining pastligini dalil qilib keltiradi-da, shunday deydi: "Agar bizning zamonimizda biror shoir shunga o'xshash bir she'rni podshohlar va amirlar majlisida o'qisa, uni rad etadilar, ajab emaski, bu mazkur ta'sir musiqaniki bo'lsa, ajab emasdir".

Bu fikrlarning asosli yoki asossiz ekanligi u qadar ahamiyatli emas. Balki she'rning o'z ijodkori mahorati bilan kuylansa yanada ta'sirchanliroq chiqishini hech kim inkor eta olmaydi. Bu g'azal mulohazasiga oid Davlatshoh Samarqandiyning fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki bu qasida badiiy soddaligi va ommafahmliigi bilan shoh asarlardan biridir. Zotan, Ro'dakiy she'rlarining fazilati haqida Shamsiddin Somiy "Qomus ul - a'lam"da va A.A. Semyonov o'z maqolalarida ta'kidlab o'tganlar.

Somoniylar davlati poytaxti – Buxoro shahri sha'niga madhiyalar aytgan va yangi fors tilini – ya'ni yangi vujudga kelgan tojik adabiy tilini juda yuksak darajaga ko'targan, o'z zamonasidan to hozirgi kunga qadar fors-tojik adabiyotida va Buxoro adabiy muhitida barqaror turgan "Shoirlar sultoni" deb atalgan unvonga ega bo'lgan eng buyuk shoirlardan biri Abdulloh Ro'dakiy edi.

Abu Abdulloh Ro'dakiyning qayerda tugilganligi haqida, adabiy taxallusi qanday tanlanganligi borasida, hatto, to'liq ismi va kuniyasi haqida bir qancha rivoyatlar mavjud. Bularning ko'pchiligi tazkira va tarixiy asarlarda qayd etilgan. Jumladan, "Davlatshohiy" va "Otashkada" asarida uning kuniyasi Abulhasan ekanligini (nomi haqida fikr keltirilmagan), tug'ilgan joyini esa Buxoroning Ro'dak qishlog'i deb yozadi. Ba'zi tazkiralar, masalan, "Xizonayi Omira" Ro'dakiyni

Samarqandiy deb hisoblaydi, ammo nomi va kuniyasi haqida fikr bildirmaydi².

Ammo eng qadimiy Sharq manbalaridan foydalanib yozilgan tadqiqotlarda shoirning nomi va kuniyasi Abu Abdullo Ja'far binni Muhammad, binni Hakim, binni Abdurahmon, binni Odam ekanligi, Samarqandning Ro'dak nomli qishlog'ida tug'ilganligi qayd qilib o'tilgan.

Abdulloh Ro'dakiy haqida bir qancha manbalarda ma'lumotlar berilgan. Masalan, Tojulislom Abu Sa'id Abdukarim binni Abubakr Muhammad Tamimiy Sam'oniul Marvaziyning "Kitob ul-ansob"da shunday deyiladi: *"Samarqand viloyatidagi qishloqlardan Panj (besh) qishloqning biri Ro'dakdir va bu qishloqni Panjro'dak ham derlar"*³. Shuningdek, muallif Ro'dakiyning to'liq ismi haqida quyidagilarni yozgan: *Abu Abdulloh Ja'far binni Muhammad binni Hakim binni Abdurahmon binni Odamning devoni Ajamda mashhurdir. "Kitob ul-ansob"da Abu Said Idrisiy Hofizning ham fikrlari keltiriladi: "Abu Abdulloh Ro'dakiyning qabri Ro'dak qishlog'ida va bu Panjro'dak qishlog'ining ortida. U erni hamma ziyorat qiladi men ham ziyorat qilganman"*⁴.

Abu Abdulloh Ro'dakiy adabiy merosining hajmi haqida tarixiy manbalarda ham turli xil ma'lumotlar keltirilgan. Ba'zi manbalarda uning merosi yuz ming, boshqalarida esa bir million uch yuz ming misra ekanligi ta'kidlangan. Ammo bizgacha ularning ikki ming misrasigina etib kelgan. Abdulloh Ro'dakiy she'rlariga yorqin obrazlilik, tabiatni jonli tasavvur va tasvir etish, xalqona soddalik va musiqiylik, islomgacha bo'lgan davrdgi poyetik obrazlarga moyillik xosdir.

Ro'dakiy somoniylar saroyida katta obro'yga ega bo'lgan. Shuning uchun uning atrofida yosh shoirlar to'planganlar. Jumladan, "Shohnoma" dostonini boshlab berish bilan shuhrat topgan, fors-tojik adabiyotining ulkan vakillaridan biri bo'lgan Abu Mansur Muhammad binni Ahmad Daqiqiy buyuk Ro'dakiyning yaqinlaridan, uning tarbiyasini ko'rganlardan va muxlislaridan bo'lgan. Suningdek, Abulhasan Shahid Balxiy va Abulhasan Murod Buxoriy ham bevosita Ro'dakiy qo'lida tarbiya ko'rib ustozlari barhayot vaqtida vafot etib ketgan yosh talantlilardan bo'lgan. Qolaversa, Ro'dakiyga zamondosh

² Ayniy S. Asarlar. 8 tomlik. 8-tom. T.: G'.G'ulom nashriyoti 1967-yil, 185-b.

³ Ayniy S. O'sha kitob, 185-b.

⁴ Ayniy S. O'sha kitob, 186-b.

bo'lgan ko'pgina shoirlar uni madh etib, she'rlar ham yozgan. Masalan, Daqiqiy shunday deydi:

Kiro Ro'dakiy gufta boshad maneh
Imomi fununu suxanvar bo'vad,
Daqiqiy madeh ovarad peshi tu,
Chu xurmo ba so'yi Hajevar buvad

Mazmuni:

Har kimni Ro'dakiy maqtagan bo'lsa,
U kishi jahonda juda bilimdon,
Daqiqiy maqtovi sening oldingda,
Boqqa bir bosh uzum keltirgansimon.

Xuddi shunday mazmundagi she'rni Unsuriy ijodida ham ko'rish mumkin:

G'azal Ro'dakiyvor bo'lg'ay g'azal,
Po'dakiycha g'azal yoza olmadim.
Juda nozik xayol bilan urinib,
Bu parda ichida yo'l topolmadim.

Manbalarda qayd etilisha, bir mahal bir nodon Ro'dakiyning "Aroyisun nafois" nomli asarini tanqid qilibdi. Nizomiy Aruziy o'sha nodonga javob tariqasida quyidagi baytlarni yozgan ekan:

Ey Ro'dakiy, she'rini kamsitgan kishi,
Bu kamsitmoq jahling taqozosidir.
She'rni bilgan kishi bilur jahonda
Po'dakiy shoirlar podshosidir.

Zamonasining mashhur olimlaridan bo'lib, Somoniylar tomonidan Xurosonga voliy (hokim)ham qilib tayinlangan Abulfayz Bal'amiy Po'dakiy haqida shunday deydi: *"Po'dakiy asrdoshlarining eng peshqadamlaridandir, forsiy she'r yozishda Arabu (Arab mamalakatlari) Ajam (forsiy tilde gaplashuvchi mamalakat)da tengi yo'qdir"*⁵.

Ro'dakiy haqida ma'lumot beruvchi manbalardan yana biri Lutf Alibek ozarning "Otashkadayi Ozariy" tazkirasidir. Muallif o'z tazkirasida Ro'dakiyning she'rlarini badiiy soddalik va tabiiylik ufurib turgan yuksak san'at namunasidir, deb baho beradi.

Manbalarda to'rtlik va ruboiylarning dastlabki ijodkori Abdulloh Ro'dakiy degan fikrlar mavjud. Bu fikrlarga jon bor, albatta. Fors-tojik

⁵ Ayniy S. O'sha kitob, 191-b.

poyeziyasidagi ruboiylar taraqqiyotida Abdulloh Ro‘dakiyning ulkan xizmati borligi ayon.

Bizgacha adibning “Qarilik haqidagi qasida”si, “Modari may” (Mayning onasi) qasidasi, “Bo‘yi jo‘yi Mo‘liyon” g‘azali va bir necha ruboiylarigina to‘liq yetib kelgan. Uning boshqa asarlari ayrim parchalar holidagina saqlangan. Masalan, “Kalila va Dimna” dostonini manbalar 12 ming baytdan ortiqroq hajmda bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bizga esa uning 1000 misrachasi ma’lum xolos. Adibning sherlari ham o‘zbekchaga tarjima qilingan.

Lekin mavjud qismlarning o‘ziyoq uning mutafakkirligi va kuchli poyetik mahoratidan darak beradi. Ta’kidlash joizki, Ro‘dakiy fors-tojik adabiyotida g‘azal janrining paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojida ham alohida o‘rin tutadi. Ro‘dakiy she’rlari g‘ayri tabiiy mubolag‘alardan, o‘rinsiz o‘xshatishlardan, anglashilmaydigan kinoya va istioralardan, qisqacha qilib aytganda, barcha soxtalik va soxtakorliklardan xolidir.

Qolaversa, uning asarlari juda mashhur bo‘lganligi bois, ayrim lug‘at mualliflari o‘z fikrlarini asoslash maqsadida Ro‘dakiy asarlaridan namunalar ham keltirgan. Masalan, Abu Nasr Tusiy fors tilining eng qadimgi izohli lug‘atini yaratadi. Lug‘atda 80 ga yaqin o‘sha davr shoirlarining she’rlaridan namunalar berilgan. Ular orasida Ro‘dakiyning “Kalila va Dimna” dostonidan keltirilgan baytlar ham mavjud. Bu kitob hind tilida Bedpo hakim axloqiy, siyosiy, ijtimoiy va tarbiyaviy qo‘llanma sifatida Hindistonning Dabshalim degan podshociga bag‘ishlab yozilgan edi. Mazkur kitobdagi voqea va suhbatlar hayvonlar o‘rtasida bo‘lib o‘tadi. Kitob to‘rt bobdan iborat.

No‘shiravon bu kitobni hindistondan olib keltirib, pahlaviy (qadimgi fors) tiliga tarjima qildirgan. Xalifa Mahdiy zamonasida 782-yilda kitobni pahlaviy tilidan arabchaga tarjima qildirgan. Ro‘dakiy esa Nasr binni Ahmad Somoniyning iltimosiga ko‘ra, ana shu kitobni yangi fors tiliga she’riy tarjima qilgan yoki tayyor tarjimani she’rga aylantirgan. Mazkur manzumaning vazni “ramali musaddasi mahzuf”. Tazkiralarda bu manzumadan bir bayt keltiriladi. Bu bayt quyidagichadir:

Har k̄n - om̄xt az guzashti r̄zgor,
Hech n - om̄zad, zi hech om̄zgor.

Tarjimasi :

Har kishi olmasa hayotdan ta’lim,
Unga o‘rgatolmas hech bir muallim.

Baxtga qarshi, bu purhikmat, qimmatbaho, buyuk asardan yuqorida keltirganimiz ikki misra “Lug‘ati Hofizi Ubaxiy” va Sururiyning “Majma ul - furs” kitobida Ro‘dakiyga nisbat berilgan va mazmun hamda vaznidan she‘riy “Kalila va Dimna” dan ekani sezilib turadigan bir necha misradan boshqa hech narsa qolmagan. Ro‘dakiyning uchinchi she‘riy asari “Aroisun nafois” deb ataladi. Yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, “Kashfuzzunun” ning muallifi bu forscha she‘riy asarni Ro‘dakiyga taalluqli ekanini aytadi. Lekin bu asarning qanday mundarijaga ega ekani va qaysi vaznda yozilganiligi haqida ma‘lumotlar yo‘q.

Ro‘dakiy o‘z she‘rlaridan devon tuzgan dastlabki shoirlardandir. “Kitob ul- ansob”da naql qilinishicha, uning devoni forscha so‘zlashuvchilar orasida nihoyatda mashhur bo‘lgan. Dunyo ilm-u adab ahlini asrlar davomida hayratga solib kelayotgan muazzam forsiy adabiyotning tamal toshini qo‘ygan, uning “Odam Atosi” deb ulug‘langan, o‘zidan keyingi barcha Sharq shoirlari tomonidan ustod sifatida e‘tirof etilgan Abu Abdullo Ja‘far binni Muhammad Ro‘dakiy alohida qobiliyat sohibi bo‘lib, sakkiz yoshida Qur‘onni xatm qilib, qorilikka o‘tgan va she‘r ham ijod qila boshlagan.

Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, “... ustod Ro‘dakiy advor ham musiqa fanida tamom quvvatga ega edi... uning ilmlar va ko‘p fanlardan tamom voqifligi bordir. She‘riyat turlaridan qasida va masnaviyni (ham) yaxshi aytar erdi. Ustod Ro‘dakiy xosu avom oldida baland martabaga erishgan”⁶.

Adabiy-tarixiy manbalar Ro‘dakiy merosini 700 mingdan 1 million 300 ming misragacha ko‘rsatishadi⁷. Afsuski, bizga qadar bu muazzam merosning juda oz qismi yetib kelgan. Rudakiyning 1956-yili 1100 yillik yubileyi munosabati bilan uning parokanda she‘rlari bir erga jamlanganda 1840 misrani tashkil etgan edi⁸.

Ro‘dakiy va uning izdoshlari forsiy she‘riyatda bir necha asr hukmronlik qilgan Xuroson (yoki Turkiston) uslubiga asos solib, uni rivojlantirganlar. Ro‘dakiy aruzni chuqur o‘rganib, uni xalq orasida keng tarqalgan qo‘shiqlarga tatbiq qilish natijasida o‘nga yaqin yangi vaznlar kashf etgan. Ularning ko‘pchiligi xalq qo‘shiqlarining barmoq vaznlari asosida tuzilgan⁹. Shoirni ruboiy janrining yozma adabiyotdagi

⁶ Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони (Форсийдан Б. Аҳмедов таржимаси). – Тошкент, 1981. 23-бет.

⁷ Bu haqda qarang: Мирзоев А. Абу Абдулло Рудакий. – Душанбе, 1958. С. 143.

⁸ Qarang: Осори Рудакий. – Душанбе, 1958.

⁹ Bu haqda qarang: Шомухаммедов Ш. Одамийлик иншоиси. – Тошкент, 1984. 190-бет.

kashshofi ham deydilar¹⁰. Chunki janrning barcha talablariga javob beradigan ilk ruboiylar Ro'dakiy qalamiga mansub. Ro'dakiy o'zidan keyingi Sharq adabiyotiga kuchli ta'sir o'tkazgan. Xususan, fors-tojik adabiyotida undan ta'sirlanmagan, unga ergashmagan, o'z ijodiy takomilida uni ustoz sifatida e'tirof etmagan shoir yo'q hisobi.

Ro'dakiy asarlari o'zbek tilida bir necha marta nashr etilgan. Shu bois, u o'zbek o'quvchilarining ham o'z shoiriga aylanib ketgan. Shoir asarlarini o'zbek tiliga fors-tojik tili va adabiyotining bilimdonlari, zabardast mutarjimlar Munirxon Muinzoda, Shoislom Shomuhamedovlar tarjima qilganlar. G'afur G'ulom uning mashhur "Qarilikdan shikoyat" qasidasini o'zbekchalashtirgan bo'lsa, Alibek Rustamov va Sulaymon Rahmonlar "Bo'yi jo'yi Mo'liyon oyad hame" nomli g'azalini tilimizga o'giranlar. Buxorolik forsiyzabon shoirlar she'rlaridan tuzilgan "Buxoriylar bo'stoni" to'plamida iste'dodli shoir va mutarjim Samandar Vohidov ham shoirning bir qancha she'rlari tarjimasini e'lon qildi. Ergash Ochilov ham Ro'dakiyning bir turkum ruboiylarini aruziy vaznida tarjima qilgan. Ro'dakiy ijodida turfa mavzular qalamga olingan. Ko'pchiligi axloqiy-didaktik mazmundagi ruboiylardan iborat. Quyidagi ruboiysida boriga qanoat qilish, shukur qilib yashash bosh mezon sifatida ko'tarilgan:

Ko'n borigayu Haqni etib yod yasha!
Dil berma takallufgayu ozod yasha!
G'am chekma sira ko'rib o'zingdan boyni,
Sendan-da faqirlarni ko'rib shod yasha!

Shoir birinchi misrada insonni qanoatli bo'lishga da'vat etadi. Sening qanday ahvoling bo'lsa ham iztirobga tushma, shu holihgga ham rozi bo'l. Hamda Allohni yod etib yasha, deydi. Bu masraning tagzamini islom, tasavvufga borib taqaladi. Chunki Qur'oni Karimda Haq taollo boriga shukur qilsang, ziyoda qilurman, degan mazmundagi oyatlar mavjud. Yoki Haqni yod etish – bu zikr qilishdir. Zikr arabcha eslash, yod etish ma'nolarini anglatadi. Zikr bilan ham bog'liq bir qancha oyatlar mavjud. Masalan, "Oli Imron" surasining 41-oyatida shunday deyiladi: "Rabbing zikrini ko'p qil va ertayu kech tasbeh ayt!"¹¹

Ikkinchi misrada "dil berma takallufga" deyish orqali dunyo tashvishlariga, uning mashaqqatiga ko'ngil qo'yma, ya'ni ko'nglingni dunyo tashvishlari bilan band etma, bilaks ozod yasha deya chorlaydi.

¹⁰ Qarang: Брагинский И.С. Абу Абдуллах Джафар Рудаки. – Москва, 1989. С.21.

¹¹ www.ziyouz.com кутубхонаси. Qur'oni karim. Ma'nolari tarjimasi. Tarjimon va izohlar muallifi: Abdulaziz Mansur, 37-b

O'zingdan boy daragadagi kishi ko'rib g'am chekma, iztirobga tushma, balki o'zingdan past, quyi darajadagi insonlar holiga boq-u shukur qil, deydi.

Ibratli mazmundagi bu ruboiyda shoir o'z mulohazalarini ta'sirchan ifodalash maqsadid badiiy tasviriy vositalaridan o'rinli foydalangan. Jumladan, talmeh (zikr haqidagi oyatga ishora), tazod (boy, faqir) kabi san'atlar shoir fikrlarni badiiy ifodasi uchun xizmat qilgan. Келтирилган puboiy xossa ruboiy turida yaratilgan bo'lib qofiyalanishi (a-a-b-a) tarzida. Qofiyadosh so'zlar: yod, ozod, shod. Radifi: yasha so'zi.

Shoir ijodida ishqiy mavzu ham yetakchilik qiliadi. Ishqiy mavzudagi ruboiylarida ishq qahramonlarining nomlari talmeh asosi sifatida keltirilgan:

Har qayga yo'li tushsa dili mahzunning,
Qonli tig'i shu joyda erur gardunning.
Layli kabilar anglamagaylar bizni,
Majnun biladi holini, bas, Majnunning!

Ro'dakiy oshiqlarni "dili mahzunlar" deb ataydi. Chunki oshiq ahli ma'shuqa hijroni, ishq iztiroblari tufayli doimo dillari mahzun – ma'yus, tushkun holatda bo'ladi. Shunga ishora qilib, shoir istioradan o'rinli foydalanib, to'g'ridan-to'g'ri "dili mahzunlar" deb tilga oladi. Demak, mizradagi dili mahzunlar iztiora hisoblanadi. Ijodkor ikkinchi misrada ifoda ta'sirchanligini yanada oshiradi, ya'ni istiora bilan mubolag'ani birga qo'llaydi. Gardunning qonli tig'i birikmasida ham istiorani, ham mubolag'ani ko'ramiz. Bunda gardun – dunyodan faqat jabr ko'rishlariga ishora bor. Bu jabr ham aslida ishq va oshiqlik ketidan keluvchi sitamlardir. Shoir uchinchi va to'rtinchi misralarda Layli va Majnunning sevgi tarixiga ishora qiladi. Bunda "Layli kabilarning" deganda ma'shuqalarni, "biz kabilar"ga deganda oshiqlarni nazarda tutiladi. Ma'lumki, mumtoz she'rlarning aksariyatida ma'shuqa jofokor, oshiq esa jafokash. Ana shu an'anaviylikning badiiy ifodasi mazkur ruboiyda ham o'z ifodasini topgan. Ro'dakiy ijodida ishqiy mavzu haddi a'losida kuylanganligini ko'rish mumkin. Ayniqsa, badiiy ifoda uslubida o'ziga xos tasvirlar shoirning yuksak iste'dodidan darak beradi. Fikr isboti sifatida quyidagi ruboiyni tahlilga tortamiz:

Nur manbayi bu quyosh yuzingsiz hechdir!
Tun ravshani bu chiroq ko'zingsiz hechdir!
Vasling Isonafas so'zingsiz hechdir!
Bu umr, hayot menga o'zingsiz hechdir!

Oshiq tilidan bayon etilgan dil rozlari sifatida yaratilgan bu ruboiyda tadrijiylik ko'zga tashlanadi. Ya'ni misradan-misraga o'tgan sari fikr ta'sirchanligi oshib borayveradi. Birinchi misrada ma'shuqa yuzining nuri quyosh nuridan ustun ekanligi ta'kidlangan. Shoir quyosh nur va ravshanlikni yuzingdan oladi, sening yuzingsiz uning nuri hech, ya'ni yo'qdir, deydi. Bunda mubolag'a o'z o'rnida va asosli ishlatilgan.

Ikkinchi misrada shoir o'z fikrni ifodalashda hayotiy holatdan mahorat bilan foydalangan. Tunning ravshanligini yulduzlar ta'minlaydi. Shoir yulduzlarni chiroq deb ataydi. Biroq bu yulduzlar ma'shuqaning ko'zi oldida hechdir.

Uchinchi misrada mubolag'a bilan birgalikda talmehning qo'llanishi yanada go'zal tasvir yaratgan. Ya'ni vasling Isonafas, ammo u ham sening so'zingsiz hechdir. Mumtoz adabiyotimizda Iso payg'ambar tiriltiruvchi, jon bag'ishlovchi, Masih sifatida tilga olinib, aksariyat o'rinlarda ma'shuqaga nisbat beriladi. Chunki Iso payg'ambarga o'liklarni tiriltirish mo'jizasi berilgan, ma'shuqa ham o'z so'zlari orqali oshiqqa jon, quvvat, tetiklik bag'ishlaydi. Ruboiyning to'rtinchi misrasida fikr juda chiroyli yakun topadi. Ya'ni oshiq uchun hayot, umr ma'shuqasiz hech – yo'qdir.

Umuman olganda, Rudakiyning ushbu ruboiysida ma'shuqaning yuzi, ko'zi, so'zi, o'zi vasf qilar ekan, shu orqali insoniy muhabbatni ulug'laydi.

Ro'dakiy ijodida bu kabi o'ziga xos ufoda uslubi, badiiy mahorat nuqtalari ko'zga tashlanadiki, 6y shoirga berilgan ta'riflarning bari haqiqat ekanligi, unda so'z qo'llash, tasvir yaratish mahorati alohidalik kasb etishiga amin bo'lish mumkin.

Abu Abdulloh Ro'dakiy ijodi o'zining buyuk insonparvarlik va hayotsevarlik ruhi bilan hozirga qadar insoniyatning ma'naviy olamini boyitib kelmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Abu Abdulloh Ro'dakiyning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
2. Shoir haqida tarixiy manbalarda qanday ma'lumotlar saqlanib qolgan?
3. Abdulloh Ro'dakiy haqida xalq orasida ko'plab afsonalar va hikoyalar tarqalgan. Buning sababini qanday izohlaysiz?

4. Tazkira va tarixiy asarlarda Abdulloh Ro'dakiy haqida keltirilgan ta'riflarni tahlil qiling, unlarda ilgari surilgan g'oyaga munosabat bildiring.
5. Nega Abdulloh Ro'dakiy "Odam ush-shuaro" ta'rifi bilan shuhrat qozongan?
6. Abdulloh Ro'dakiy ijodiy merosining o'rganilishi doir qanday tadqiqotlarni bilasiz?
7. Shoir ruboylarning o'rganilishi va tarjimalariga doir qanday tadqiqotlarni bilasiz?
8. Abdulloh Ro'dakiy qanday asarlarni yozgan va bizgacha qaysi asrlari yetib kelgan.
9. Abdulloh Ro'dakiy o'zining falsafiy, diniy-irfoniy, axloqiy g'oyalarining targ'ibi uchun nega ruboiy janrini tanladi?
10. Shoir ruboiylarining yetakchi mavzulari haqida fikr yuring, fikringizni misollar asosida izohlashga harakat qiling.
11. Abdulloh Ro'dakiy ruboiylarida qanday ramz -u timsollar qo'llangan?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirilar bo'stoni (Forsiydan B. Ahmedov tarjimasi). – T.: 1981.
2. Mirzoev A. Abu Abdullo Rudakiy. – Dushanbe, 1958.
3. Osori Rudakiy. – Dushanbe, 1958.
4. Shomuhamedov Sh. Odamiylik inshosi. – T.: 1984.
5. Braginskiy I.S. Abu Abdullax Djafar Rudaki. – Moskva, 1989.
6. Ayniy S. Asarlar. 8 tomlik. 8-tom. – T.: G'.G'ulom nashriyoti 1967.
7. Ochilov Ergash. Ming bir ruboiy. – T.: 2009.
8. www.ziyouz.com kutubxonasi.

IKKINCHI MAVZU:

ABU ALI IBN SINO HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Abu Ali ibn Sinoning hayot yo'li.
2. Abu Ali ibn Sino haqida ma'lumot beruvchi manbalar.
3. Abu Ali ibn Sino asarlarining g'oyaviy-badiiy tahlili.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- *Abu Ali ibn Sino* *Buxoro*
- *Afshona* *mantiq*

• <i>Tibbiyot</i>	<i>somoniylar</i>
• <i>Nuh ibn Mansur</i>	<i>ruboiy</i>
• <i>Shayxul rais</i>	<i>Qomus ul -a'lam</i>
• <i>Al Qonun</i>	<i>Donishnoma</i>
• <i>Ilohiyot</i>	<i>Ilmi hay'at</i>

Ma'lumki, arablar O'rta Osiyoni istilo qilgandan ikki yuz yilcha keyin bir qancha mustaqil davlatlar shakllana boshladi. Shunday davlatlarning eng buyuk, eng qudratli, eng uzoq umr ko'rganlaridan biri Somoniylar davlati edi". Mazkur sulolasiga asos solgan hukmdorlarning bobosi – Asad binni Somon Balx forslaridan bo'lib, arab voliyarlari tomonidan Movarounnahr va Xurosonning ayrim shaharlariga hokim qilib tayinlanadilar. Jumladan, Nuh binni Asad Samarqandga hokim bo'ladi. Shu tariqa somoniylar asta-sekin kuchayib, Samarqandni o'zlariga markaz qiladilar. Ammo Ismoil Somoniy davrida Buxoro poytaxt bo'ladi va somoniylar 875-yildan to 999-yilgacha Movarounnahrda hukmronlik qiladilar. Somoniylar davrida O'rta Osiyoning madaniyati g'oyatda yuksalgan edi. Shu jumladan, milliy til va adabiyot – keyinchalik O'rta Osiyoda "tojikcha" deb atalgan fors tili va adabiyoti taraqqiy etadi. Bu davrda Abulhasan Buxoriy, Murod Buxoriy, Daqiqiyalar yetishib chiqdi. Ular islomdan keyingi fors-tojik adabiyotining asoschilaridan sanaladi. Shuningdek, somoniylar sulolasi yuksalgan davrda Buxoro ikkinchi Bag'dodga aylandi, bu yerda har tomondan olimlar kela boshladi, qolaversa, mahalliy donishmandlar ham yetishib chiqdi. Bu davrda yetishib chiqqan, shuhrati jahonga tarqalgan mahalliy olimlardan biri Abu Ali ibn Sino edi.

Yetti iqlimga mashhur va ma'lum allomalardan bo'lgan ulug' vatandoshimiz Abu Ali ibn Sinoning to'liq ismi – Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Hasan ibn Ali. Otasi Abdulloh asli balxlik bo'lib, somoniylarning davlat xizmatchilaridan edi. U Nuh ibn Mansur Somoniy (976–997) hukmronligi davrida xizmat taqozosiga ko'ra Buxoroning Xarmaysan (Romitan, hozirgi Peshku) tumanidagi Afshona qishlog'iga kelib, ma'muriy ishlarga boshchilik qiladi. Shu yerlik Sitorabonu degan qizga uylanadi. Husayn Afshonada tug'iladi. 5 yoshida Afshona qishlog'ida xat-savod chiqaradi, Qur'onni, til va adabiyotni o'ganadi. 985- yili Husaynlar oilasi Buxoroga ko'chadi. Shaharda u ilm tahsili bilan mashg'ul bo'ladi. O'z davrining yetuk olimlaridan bo'lgan Abu Abdulloh Notiliy va Ismoil Zohid qo'lida

mantiq, falsafa, fiqh va riyoziyot asoslarini o'rganadi. U 10 yoshidayoq Qur'oni karimni yod bilar, sarf-u nahv va adab ilmini o'zlashtirib olgan edi. Ibn Sino Buxoro shahrida 16 yoshgacha mantiq, handasa (geometriya), hikmat, ilohiyot, ilmi nujum (astronomiya), ilmi tib kabi ilmlarni o'z harakati bilan, mustaqil o'rganadi.

Keyin ko'proq tib ilmi bilan qiziqib, qisqa bir muddatda uni mukammal egallab oladi. Bu sohada u tezda barcha tabiblardan-da o'tib ketadi. U o'z harakati bilan mustaqil 18 yoshida zamonasining deyarli barcha ilmlarini o'rganadi. Buxoro amiri Nuh ibn Mansurni davolaganidan keyin uning shuhrati yanada oshib ketadi.

Abu Ali ibn Sino butun dunyoda tabobat ilmining sultoni sifatida mashhur. Olamshumul tibbiy asarlari tufayli G'arbda Avitsenna nomi bilan dong taratgan bu buyuk inson Sharqda ko'proq zabardast faylasuf sifatida mashhur bo'lgan. "Shayx-ur-ra'is" – "Donishmandlar sarvari" faxriy unvoni ham avvalo uning buyuk faylasufligiga ishora qiladi. Sharqda *Hakim* laqabi faylasuf olim-u va mutafakkir adiblarga berilgan.

Sadriddin Ayniyning ma'lumotiga ko'ra, Ibn Sinoning haqiqiy va beshubha tarjimayi holini uning yaqin shogirdi va doimiy hamsuhbati bo'lgan Abu Ubayd Faqih Jurjoni¹² yozgan. U o'z risolasining avvalida Ibn Sinoning otasi, onasi va tug'ilgan joyidan tortib, to Jurjonga kelgunigacha bo'lgan ma'lumotlarni, olimning o'z og'zidan eshitganligini hamda o'zi unga hamroh bo'lganidan keyin to buyuk olim boshidan kechirgan barcha voqealarni birma-bir yozib, o'z asariga tarjimayi holni ilova qiladi. Bu risola "Ta'rix hukamo" degan kitobda aynan hikoya qilinadi¹³.

Sadriddin Ayniy ibn Sinoni 57 yil umr ko'rganini ta'kidlaydi va uning bosib o'tgan umr yo'lini 3 davrga ajratadi:

- 1) 18 yili ilm tahsilga sarf bo'lgan;
- 2) 2 yili otasi vafotining tashvishi va Samoniylar saroyida siyosat bilan shug'ullangan;
- 3) 37 yili sarson-sargardonlikda bo'lishi bilan asarlar yozishga sarflandi.

Turli manbalarda Ibn Sinoning 450 dan ortiq asar yozganligi qayd etiladi. Lekin bizgacha bu muazzam merosdan 160 tasi yetib kelgan. Shundan 80 tasi falsafaga, 43 tasi tabobatga, qolganlari mantiq, psixologiya, tabiiyot, astronomiya, matematika, kimyo, musiqa, axloq,

¹² Ayniyning ma'lumotiga ko'ra, Abu Ubayd Faqih Jurjoni buyuk olimning so'nggi nafasigacha undan ayrilmagan. "Chahor maqola" muallifining keltirishicha, Ibn Sino ko'p kitoblarini ana shu Abu Ubaydning iltimosiga binoan yozgan va u ulug' olim qoldirgan tarqoq merosni jamlab, kitob holiga keltirgan.

¹³ Айний С. Асарлар. VIII томлик. VIII том. – Т.: Ф.Ғулом нашриёти 1967. 109-б.

adabiyot va tilshunoslikka oid kitoblar hisoblanadi. Shamsiddin Somiyning “Qomus ul-a’lam” asarida Ibn Sinoga nibat berilgan asarlar ro’yxatini to’liq keltiradi. Ushbu manbada qayd etilishicha, Ibn Sinoning 77 ta asar yozgan. Ayniy bu asarlarning nomini to’liq keltirish bilan, birga ayrimlarining bir necha jilddan iborat ekanligini aniq sonlari bilan keltirgan. Masalan, “Shifo” asari mantiq, tabiyot hamda ilohiyotga doir bo’lib, 18 jilddan iborat. “Al Qonun” tibbiyotga doir asar bo’lib, 5 jilddan iborat. “Al - hosilu val-mahsul” 20 jild. Ibn Sinoning sharh xarakteridagi “Kitob ul-insof” asari Arastu asarlarining sharhiga bag’ishlangan bo’lib, 20 jilddan iborat. Uning asarlari orasida ilohiyotga (“Munozorot” (ruh haqida), “Tavhid xutbalari”, “Qazovu qadar haqida maola”), musiqaga, aruzga, axloqqa bag’ishlangan asarlari ham mavjudki, bu ulug’ allomaning qomusiy olimligini ko’rsatuvchi muhim jihatlardan sanaladi. Shamsiddin Somiyning ma’lumotiga ko’ra, bu ro’yxatda yana ibn Sinoning bir qancha arab va fors tilida yozilgan kitoblari kiritilmagan¹⁴.

Ma’lumki, O’rta Osiyoda IX-XIV-asrlarda badiiy ijod uch (fors, arab, turkiy) tilda amalga oshirilgan. Bu, albatta, muallifning ixtiyorida bo’lgan. Ammo ilmiy asarlar tili haqida bu fikrni aytib bo’lmaydi. Chunki, ushbu davrlarda yaratiladigan deyarli barcha ilmiy asarlar arab tilida yozilgan. Bu esa, mazkur davrdagi qat’iy an’analardan biri hisoblangan. Shuning uchun XI asrda Mahmud Qoshg’ariy turkiy tilga bag’ishlangan “Devonu lug’otit turk” asarini ham arab tilida yozgan. Ana shu nuqtayi nazardan, Ibn Sinoning ham aksariyat asarlari arab tilida yozilgan. S.Ayniyning ma’lumotiga ko’ra, uning faqat “Donishnoma” va “Risolayi nabz” (Qon tomir risolasi) asarlarini fors tilida yozgan. Qolgan barchasini arab tilida yaratgan.

Ibn Sino san’atkor shoir, yetuk tilshunos va nuqtadon adabiyotshunos ham hisoblanadi. 1000- yilda Buxoroda yozgan “Al-mazmu” (keyinchalik “Al-hikmat al-aruziya” nomi bilan mashhur bo’lgan) risolasida aruz masalalarini chuqur tekshirgan. Allomaning shogirdi Juzjoniyy sanab o’tgan kitoblari ro’yxatida ham adabiyotshunoslikka oid “Al-mantiq bi ash-she’r”, “Al-qasoid fi-l-uzmat va-l-hikmat” asarlarini uchratamiz. U tilshunoslikka doir “Lison ul-arab”, “Maxorij ul-huruf” asarlarini yaratgan. Juzjoniyy uning tilshunoslik bilan jiddiy shug’ullangan davrida 3 ta qasida yozgani va ularda eng kam ishlatiladigan nodir so’zlarni qo’llaganidan xabar beradi.

¹⁴ Айний С. Асарлар. 8 томлик. 8-том. – Т.: Ф.Фулом нашриёти 1967. 115-б.

Ibn Sino “Risalat ut-tayr” (“Qush haqidagi risola”), “Hayy ibn Yaqzon” (“Uygʻoq oʻgʻli Tirik”), “Salomon va Absol”, “Yusuf”, “Meʼrojnom” nomli falsafiy mazmundagi qissalari bilan ramziy-irfoni adabiyotni ham boshlab berdi. Xususan, “Risalat ut-tayr” qissasi Fariddin Attorning mashhur “Mantiq ut-tayr” va Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonlari yaratilishiga turtki boʻlgan. Bu asar ramz-ishoralar bilan yozilgan boʻlib, allomaning jon, haqiqat, Tangri toʻgʻrisidagi fikrlarini bilish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Ibn Sino qomusiy olim boʻlishi bilan birga, yuksak badiiy mahoratga ega shoir ham edi. U zullisonayn ijodkor sifatida arab va fors tilida ham badiiy asarlar yozgan. Ayniqsa, uning arabcha qasidalari bilan bir qatorda fors tilida yaratilgan qitʼalar, ruboiylar va qasidalari mazmun-mohiyati va ifoda uslubi bilan ajralib turadi. S. Ayniyning maʼlumotiga koʻra, Sinoning ikki asari (“Al-Qonun” va “Donishnoma”) hozirgi Dushanbe shahridagi Tojikiston davlat kutubxonasida saqlanadi¹⁵. Shulardan “Al-Qonun” arab tilida yozilgan boʻlib, hajman, ancha salmoqli 888 varaq, 1776 sahifadan iborat boʻlib, 5 qismdan iborat:

- 1) Tib ilmidagi umumiy masalalar;
- 2) oddiy dorilar toʻgʻrisida;
- 3) odam tanasining boshdan-oyoq har bir tashqi va ichki aʼzolarida paydo boʻladigan kasalliklar toʻgʻrisida;
- 4) bir aʼzogagina xos boʻlmaydigan ayrim kasalliklar toʻgʻrisida;
- 5) murakkab dorilarni tayyorlash va ularning tarkibi haqida.

Mazkur asar Yevropaning bir qator tillariga tarjima qilingan boʻlib, tanqidchi Nizomiy Aruziy Samarqandiy oʻzining “Chor maqola” kitobining 4-qismida tabiblar uchun zarur boʻlgan 15 kitobning roʻyxatini keltirib, shunday deydi: “Agar tabib shularning hammasini oʻqishdan xalos boʻlmoqchi boʻlsa, “Al-Qonun”ning oʻzi kifoya qiladi”.

Tojikiston davlat kutubxonasida saqlanadigan 2-kitob “Donishnoma” boʻlib, asarning 2-nomi “Donishnomayi Uloiy” dir. Mazkur asar Uloud-davlaga bagʻishlangan boʻlib, Ayniy asar Sino umrining oxirgi yillarida Isfahonda yozilgan boʻlsa kerak, deb taxmin qiladi. Kitob fors-tojik tilida yozilgan boʻlib, besh qismdan iborat. Har bir qismi alohida bir fanga oid boʻlib, ular quyidagilar:

- 1) Ilmi mantiq (Logika); 2) Tabiyot; 3) Ilmi hayʼat (Astronomiya); 4) Musiqa;
- 5) Ilohiyot.

¹⁵ Ayniy S. Oʻsha asar. 115-b.

Ma'lumot sifatida aytish lozimki, mazkur asarning qo'lyozma nusxalaridan biri O'zbekiston davlat kutubxonasida ham saqlanadi. Ammo Tojikiston va O'zbekistonda saqlanayotgan nusxalar to'liq emas. Ya'ni ularda kitobning besh qismi to'liq mavjud emas.

Ayniy ushbu asarning ayrim qismlarini joriy yozuvga tabdil qilib, kitobxonlar hukmiga havola qilgan. Ibn Sinoning mazkur asari Sharq musulmon madaniyatida shakllangan kitobatchilik an'anasi asosida yozilgan. Ya'ni mazkur an'anaga muvofiq asar hamd, na't boblari bilan boshlangan. So'ng ushbu kitob Aloud-davlaning xohishi bilan yozilganligi bayon etilgan. Muallif asar muqadimasida quyidagicha ma'lumot bergan: "Porsi dariy tilida kitob yozaman, bunda o'tmishdagi olimlarning ilmu hikmatlarini jamlab, besh xil ilmning asosi hamda bahslarni qisqacha bayon etaman. Birinchisi "Ilmi mantiq" bo'lib, u tarozidir, ikkinchisi "Tabiyot" – bunisi his qilib ko'rish mumkin bo'lgan, harakat qiluvchi va o'zgaruvchi jismlar haqidagi fandir; uchinchisi – ilmi hay'at (astronomiya) va olamning asosi, osmonlarning va yulduzlarning harakati va ular haqidagi haqiqatni qanday qilib bilish mumkinligini, to'rtinchisi musiqa ilmi bo'lib, u musiqiy va musiqiy bo'lgan tovushlar va kuy yaratish; beshinchisi – tabiatdan tashqarida bo'lgan narsalar ilmi"dir.

Mashhur Buzurgmehr Anushirvoni Odil uchun savol-javob tarzida yozgan "Piro'zinoma" ("Zafarnoma") nomli hikmat kitobini ham Nuh ibn Mansur amriga ko'ra 1097-yili Ibn Sino pahlaviy tilidan fors-tojikchaga tarjima qiladi.

"Sarguzasht" asarini Ibn Sinoning o'zi boshlab, shogirdi Juzjoniylar davom ettirgan – 1013-1014-yillardan umrining oxirigacha alloma bilan u birga bo'lgan. Ibn Sinoning zehni o'tkirligi, mulohazalarining teranligi, arab va fors tilida kitoblarni oson va tez bitishi haqida xalq orasida, turli tarixiy va ilmiy asarlarda, tazkiralarda ko'plab ma'lumotlar yetib kelgan. Ayniy shularning orasidan faqat Ibn Sino bilan o'n besh yil olimning xizmatida va suhbatida bo'lgan sadoqatli shogirdi Abu Ubayd Faqih Jurjoniylar yozib qoldirgan ikki hikoyatga e'tibor qaratadi. Shulardan birida aytilishicha, Ibn Sinoning ilmi mantiqqa doir kitobi Sherozga yetib borgan va u yerdagi ba'zi olimlar ushbu asarning ayrim o'rinlaridan shubhalanadilar, va yozib Abdulloh Kirmoniy orqali Ibn Sinoga jo'natadilar. Kirmoniy quyosh botayotgan vaqtda Ibn Sinoning oldiga yetib keladi. Olim uni xufton namozigacha mehmon qilib, uni uxlatadi. O'zi esa bomdod namozigacha har biri o'n varaqday bo'lgan besh qism qog'oz javob yozib, Kirmoniyga topshirgan ekan.

Ikkinchi hikoyat shundan iboratki, Uloud-davla huzurida arab tili lug'ati haqida gap ketadi va Ibn Sino lug'at haqida bilganlarini gapiradi. Shunda Isfahon donishmandlaridan bo'lgan Abu Mansur Jabbon ibn Sinoga dedi:

- Ilm-u hikmat sohasidagi iqtidoringiz tahsinga loyiq, ammo lug'at ilmi maxsus sohadirki, siz bu sohada hech nima qilmagansiz...

Bu fikr Ibn Sinoga qattiq botib, uch yil arab tili lug'ati ustida ishlaydi. Natijada arab tili va adabiyotida shunday natijaga erishadiki, bunday kamolotga kamdan-kam odamlar erishgan. Arab tilida ajoyib lug'atlar ishlatib uch qasida yaratadi: birinchisi, Ibnul Amid uslubida, ikkinchisi, As-Sohib uslubida, uchinchisi, yana bir boshqa mashhur arab shoiri uslubida va bularning har birini alohida muqovalatib Uloud davlaga topshiradi-da, ularni ov qilib yurib topdim, qanaqa kitobligini ayting? deyishini iltimos qiladi. Abu Mansur bu masala yechimiga ojizlik qiladi, shunda Ibn Sinoning o'zi falon kitobda bor, deb aytadi. Shunda Abu Mansur bu kitoblar Ibn Sinoga tegishli ekanligini anglaydi va xijolat chekib, uning fazl-u kamoliga tan beradi. Shundan keyin Abu Ali ibn Sino "Lison ul- arab" nomli o'n jildlik bir kitob yozgan, ammo uni oqqa ko'chirishga ulgurmay, vafot etgan. Afsuski, hech kim bu kitobni oqqa ko'chirib, tartibga sola olmagan.

Ibn Sino arab va fors tillarida qasida, g'azal, qit'a va ruboiylar yozgan hassos so'z ustasi hisoblanadi. Afsuski, uning adabiy merosi bizgacha to'liq yetib kelmagan. Alloma adib badiiy asarlarining tadqiqotchilari hozircha fors-tojik tilidagi 46 ruboiy, 4 g'azal, 5 qit'a va 2 bayt she'ri Shayx ur-ra'is qalamiga mansub sanab, unga nisbat berilgan boshqa she'rlarga bir oz shubha bilan qaraydilar. Bu ijod mahsulining asosiy qismini ruboiylar tashkil etib, ularning bir qismi Umar Xayyomga ham nisbat beriladi. Bundan tashqari, 1957- yili Tehronda chop etilgan devonida Ibn Sinoning 26 ta arabcha she'ri keltirilgan. Ular umrning o'tkinchiligi, qarilikdan shikoyat, pand-u nasihat va ishqiy mavzularda bitilgan. Bu she'rlaridan irfoniy mavzudagi "Qasidayi ayniya"si mashhur hisoblanadi.

Mumtoz adabiyotimizda urjuza deb yuritiluvchi janr ham mavjud. Uijuzalar rajaz bahrida yaratilgan va o'ziga xos talablarga ega bo'lgan. Buyuk hakim Abu Ali ibn Sino bu sohada ancha ibratli ijod qilgan. Undan bizgacha o'nlab tibbiy uijuzalar (dostonlar) yetib kelgan¹⁶

¹⁶ Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 28- 6.

Ta'kidlanshicha, Ibn Sinoni Sharqda falsafiy she'riyatni boshlab bergan. Uning ilmiy qarashlari zahirida ham hatto olam va odam munosabatlariga doir falsafiy, ilohiy-irofoniylar qarashlar singdirilgan. Ayniqsa, Ibn Sino ruboiylarida butun olam Allohning izmida ekanligi, hayot va uning g'animatligi, tug'lish va o'lim bilan bog'liq falsafiy qarashlar hikmat darajasiga ko'tarilgan.

Ketmas yo'qolib hech nima benomu nishon,
G'ayb olamidan joy oladi u shu zamon.
Bir kun yana o'z asliga evrilsa falak,
Sir pardasidan chiqargusi Xaq begumon.

G'ayb - bu Allohgagina tegishli bo'lgan olam. Undagi sirlar faqat O'zigagina ayon. Xalq qilingan maxluqotlar bu dunyoda izsiz ketmaydi. Boshqa shaklda qayta tug'iladi. Jumladan, inson ham ruh ko'rinishida o'z mahzariga qaytadi. Shu lahzada Alloh taolo hech shubhasiz, barcha sir va yashirin ma'nolarni fosh qiladi.

Demak, ruboiyda barcha yaratilqlar o'tkinchi ekanligi, shunday bo'lsa-da biror narsa izsiz ketmasligi haqidagi falsafiy fikrni ilgari suradi.

Quyidagi ruboiyda tasavvuf falsafasining muhim mavzusi bo'lgan nafs va uning g'ulg'ulalari xususida fikr yuritiladi:

Ey nafs, qidirganing mudom hoyu havas,
O'zingni himoya qilgali shosh bu nafas.
Dunyo dema, qo'y hiylani, mansab tilama,
Dushmanlik ishing hamisha, hech do'stlik emas!

"Nafs" so'zi inson qalbidagi xohish-istaklar, hirs-havaslarini anglatadi. Biroq tasavvuf lug'atlarida nafsning izohlaridan biri sifatida "o'z, o'zlik" ekanligi ta'kidlanadi. Ibn Sino ham "Ey nafs" deganda lirik qahramonni nazarda tutadi. Insonning qidirgani mudom hoyu havas. Ya'ni nafs doimo o'zini qondirish, moddiy va dunyoviy zavq-shavqlarga erishishni istaydi.

Ruboiyning ikkinchi misrasida ogohlikka da'vat ohangi kuzatiladi. Shoir nafs hiylalariga o'ralashib qolgan insonga "O'zingni himoya qilgali shosh bu nafas" deya hushyorlikka chaqiradi. Chorasiz holatga tushmaslik, nafsning tizginini qo'lga olish uchun vaqtni boy bermaslik, zarur qadamlarni tezroq tashlash da'vati badiiy talqin qilingan.

Uchinchi misrada shoir dunyoviy mansab, nafsning hiylanayranglariga berilmaslikka da'vat qiladi. Oxirgi baytda do'st va

dushman tazodi orqali inson va nafs bir-biriga qarama – qarshi qo‘yiladi. "Do‘st deb dushmanga" giriftor bo‘lgan inson o‘zining ma’naviy halokatini anglamasdan qoladi.

Umuman olganda, ruboiyda insonning o‘zi bilan kurashuvi, dunyoviy hoyu-havaslardan yuz o‘girish orqali nafsini tarbiyalashi, natijada ma’naviy kamolotga erishishi kabilarga chorlovchi falsafiy qarashlar o‘z ifodasini topgan.

So‘z qolmadi parda ichra hech ma’lum emas,
Dunyoda biror sir men uchun mavhum emas.
Men ma’rifatingda ko‘p tafakkur qildim,
Ma’lum bo‘ldi: hech nima ma’lum emas.

Mazkur ruboiy yuksak falsafiy-tasavvufiy g‘oya – haq ma’rifati talqiniga bag‘ishlangan. Unda banda yuksalib, har bir jihatni anglashga harakat qilishi mumkin ekanligi, ya’ni aqliy ilmlarni mukammal egallay oladi, deyiladi. Ammo muallif xulosasi yakdil va aniq: “Men ma’rifatingda ko‘p tafakkur qildim, Ma’lum bo‘ldi: hech nima ma’lum emas”. Bu bayt orqali Haq ma’rifatini anglash, to‘liq tafakkur qilish inson uchun imkonsiz ekanligiga urg‘u berilmoqda. Ma’rifat - botiniy ilm. Chunki tasavvuf ahli dunyoviy va diniy ilmlarni birga qo‘shib, «zohiriy ilmlar» deb ataganlar. Ularning uqtirishicha, zohiriy ilmlar bilan Xuloni bilish qiyin. Tasavvuf nazariyotchilaridan biri Abdurazzoq Koshoniy Ibn al-Arabiy qarashlariga suyanib, ma’rifatga shunday ta’rif bergan: *“Ma’rifat muxtasar ilmlarni tafsilotlar suratida tanimoqdir, ilohiy ma’rifat ilohiy zot va sifatlarni ahvol va hodisalar tafsili va nuzul bo‘lgan amrlar suratila tanish demak”*¹⁷. Shoir tazod (Ma’lum bo‘ldi: hech nima ma’lum emas) orqali fikr ta’sirchanligiga erishgan. Ushbu she’r ruboiyi xossa shaklida yaratilgan, ya’ni uch misrasi (1-,2-,4-) qofiyalanib, uchinchi misrasi ochiq qolgan. Qofiyadosh so‘zlar: ma’lum, mavhum, ma’lum. Ruboiyning radifi: emas to‘liqsiz fe’lidir. Shoir bu ruboiyda kuylagan g‘oyani ma’lum ma’noda navbatdagi ruboiyda ham davom ettirganini ko‘rish mumkin:

Ko‘k toqigacha yer qa’ridan asli azal
Har qancha tugun bo‘lsa, aql ayladi hal.
Har makr-u firib bandini yechsam-da tugal,
Ko‘nglimda tugun bo‘lib faqat qoldi ajal.

Ibn Sino aql yuksalib, ko‘kdan er qa’rigacha bo‘lgan barcha ilmlarni, sir-sinoatlarni o‘rganib, egallashi mumkin, deydi. Har qancha

¹⁷ Komilov N. Tasavvuf. Тошкент. Movarounnahr-O‘zbekiston. 2009. 38-b.

tugun, chigallik bo'lsa ham inson aqli uni hal etishga qodir, hatto, har qanday "makru firib bandini yechsam-da tugal", faqat birgina tugun qoldi yechilmay, bu ham bo'lsa ajal, deb kuyunchaklik bilan yozadi. Demak, ajal bilan bog'liq tugunlar faqat Alloh bilan bog'liq. Shunday ekan, Haq izmida bo'lgan masalalar inson aqlidan tashqaridadir. Xullas, inson Haq ma'rifatini, Unga tegishli bo'lgan jihatlarni o'rganishi va egallashi inkonsiz ekanligiga urg'u bergan. Shoir badiiyligni ta'minlash maqsadida bir qancha san'atlardan ham o'rinli foydalanilganligini ko'ramiz. Masalan, tazod (ko'k- yer), tanosib (makr-u firib), istiora (makr-u firib bandi).

Mazkur she'r taronayi ruboiy shaklida yaratilgan. Ya'ni to'rtala misrasi ham to'liq qofiyalangan. Qofiyadosh so'zlar: azal, hal, tugal, ajal.

Shoir ijodida ijtimoiy, axloqiy-didaktik mavzudagi ruboiylar ham mavjud. Shunday ruboiylardan birini tahlilga tortamiz:

Bir-ikki jaholat mayidan mast erlar
Dono sanab o'zni, asabingni yerlar.
Eshshak bo'la qolkim, ular eshshakligidan
Kim bo'lmasa eshshak, uni kofir derlar.

Insonlar orasida jaholat botqoqiga botgan, ilm-ma'rifatdan yiroq kimsalar ko'plab uchraydi. Bunday shaxslar muomala madaniyatini ham, tinglash madaniyatini ham bilishmaydi. Ammo shunday bo'lsa-da o'zini dono, aqli sanab, har bir masalaga ham to'g'rimi noto'g'rimi o'z munosabatlarini bildirib, boshqalarga ozor yetakadilar. Bunday shaxslarni Ibn Sino "jaholat mayidan mast" kishilar deb ataydi. Ular bilimsizlik va axloqsizlik botqog'iga botgan shaxslar.

Muallif istiora (jaholat mayi) orqali fikrning go'zal ifodalanishiga erishgan. Istiora san'atidan ruboiyning keyingi misralarida ham foydalangan. Ya'ni johil insonlarni eshakga qiyoslashda bu hol ko'zga tashlanadi. Eshshak, odatda, axloqsizlik va jaholat ramzi. Bunday insonlar boshqa insonlarni ham xuddi o'zlaridek bo'lishlarini xohlaydilar. Ayni shu munosabat bilan shoir insonlarga murojaat qilib, agar johillar (shoir ularni eshshak deb atagan) oldida johil (eshshak) bo'lmasang, ular o'z tushunchasi doirasida (eshshakligidan) seni kofir deb ataydi, degan mulohazalarni ta'kidlaydi. Lekin shoir bunday inson juda ko'p emas, ammo shunday bo'lsa-da, bor demoqchi bo'ladi. Uning bu fikrini "Bir-ikki jaholat mayidan mast erlar" misrasi orqali anglash mumkin. Shuningdek, johil odamlarga xos bo'lgan xususiyatni ham ifodalashda so'z takrori (eshshak)dan unumli foydalangan. She'r ruboiyi

xossa shaklida yaratilgan, ya'ni 1-, 2-, 4- misralari qofiyalanib, 3-misrasi ochiq qolgan. Qofiyadosh so'zlar: erlar, erlar, derlar.

Sharq mumtoz adabiyotida ruboiy janrining taraqqiyotida Abu Ali ibn Sino ham salmoqli hissa qo'shdi. Mazkur janrning g'oyaviy-badiiy ravnaqi, falsafiy-irfoniy yo'nalishining teran ildiz otishini ham uning nomi bilan bog'lash mumkin.

Ta'kidlash kerakki, Ibn Sino "tibbiyotning otasi" sifatida dunyo tamaddunida nom qoldirgan bo'lsa-da, "Salomon va Ibsol", "Hayy ibn Yaqzon" ("Uyg'oq o'g'li tirik", hijriy 414-melodiy 1023) qissalari va "Risalat at-tayr" ("Qush risolasi") kabi falsafiy-didaktik asarlari bilan ijodkor sifatida badiiy adabiyotning rivojiga munosib hissa qo'shdi. Mazkur asarlar falsafiy o'gitnomalar bo'lib, mumtoz nasrning xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

"Solomon va Ibsol" - qadimgi qissaviy adabiyotning yorqin namunasi. Mazkur qissa Sharq adabiyotidagi sayyor syujetlardan biri sanaladi. Shuning uchun bu syujetga Ibn Sanoga qadar va undan keyin ham murojaat qilingan. Jumladan, Husayn ibn Is'hoq (809-873), Tufayl (vafoti 1186) va Abdurahmon Jomiy (1414-1492) kabi ijodkorlarning Solomon va Ibsol syujetiga bag'ishlangan asarlari mavjud.

"Salomon va Ibsol" qissasining mazmuni quyidagicha: O'tgan zamonda Salomon degan kishining Ibsol degan ukasi bo'ladi. Aka ukasini o'z qo'lida tarbiyalay boshlaydi. Bola juda o'qimishli va odobli bo'lib, ham kelishgan, ham juda chiroyli bo'ladi. Balog'atga etgach, yangasi uni yaxshi ko'rib holadi. Buni sezgan Ibsol o'zini chetga tortib yuradi. Xotin ham Ibsolning chetlanib yurishini payqab, yaqinlashishga yo'l axtara boshlaydi. U eri Salomonga, ukang olijanob, xushtab, xush xulq bola bo'libdi. U bolalarimizga ilm-odob o'rgatsin, deydi. Salomon o'z xotini iltimosini qabul qilib, Ibsolga yangasi aytganday qilishni uqtiradi. Lekin Ibsol yangasining oldiga borishga ko'nmaydi. Bunda bir yomonlik borligini payqab qoladi. Keyin akasi nasihat qilib, borishga undaydi.

Ibsol chor-nochor yangasi oldiga boradi. Uning xonasiga kirsa, u Ibsolga har xil qimmatbaho ipak kiyimlar kiydiradi. Bir qancha vaqtdan keyin xotin Ibsolga muhabbat izhor hiladi.

Ibsol hayron bo'lib, nima qilishini bilmay, boshi qotadi. Xotin talabiga bo'ysunmasa, u makr-hiyla bilan bir narsa qilib qo'yishi mumkin; rozi bo'lsa, akasi va vijdoni oldida yomon ish qilib qo'ygan bo'ladi. Boshi garang bo'lib, uyga kirib-chiqib yuradi. Xotin endi jim turolmaydi. Hatto u Ibsol bo'yniga qo'l tashlaydi, lekin Ibsol uni qattiq

jerkib beradi. Xotin bo'lsa Ibsolga katta-katta qasamlar ichib, men seni sinab ko'rmoqchi edim, xolos. Bilsam, sen ancha durust, axloqli bola ekansan, bundan keyin men endi, hech bunday qilmayman, deydi.

Xotin bu yo'l bilan o'z niyatiga erisha olmagach, boshqa yo'l qidira boshlaydi; Ibsolni singlisiga uylantirish yo'li bilan maqsadiga etmoqchi bo'ladi, bu haqda eriga maslahat qiladi. Eri – Salomon taklifga ko'nadi.

Keyin xotin Ibsolga, singlim juda uyatchang qiz, u seni ko'rsa uyaladi. Shu sababdan sen unga kunduzi – yorug'likda ko'rinish berma; uning oldiga kirmoqchi bo'lsang, tim qorong'ida kirib, hatto bir oygacha undan biron og'iz ham so'z so'rama, deydi.

To'y o'tadi. Lekin Ibsol xayolidan qandaydir shubha – gumon ketmas edi. Kechqurun u qallig'i oldiga kiradi. Qirsa, yangasi uyatchan, deb maqtagan qiz Ibsolni quchoqlab olib, bag'riga bosadi. Ibsol hayron qoladi. Uyatchan qiz bunday qilmasligi kerak edi-ku, deydi o'zicha.

Shu vaqt bulut bosgan osmonda birdan chaqmoq chaqnab ketib, Ibsolga qarshisidagi kimsaning yuzi ko'rinadi. Qarasa, uni quchoqlab turgan uning qallig'i emas, balki yangasi ekan. Ibsol nima qilishini bilmay, xotin oldidan qochib chiqib ketadi. Endi Ibsol yangasini o'zidan sovushini va unutishini o'ylab, bu dargohdan ketmoqchi bo'ladi. Lekin u bo'lib o'tgan voqea haqida hech kimga hech narsa demaydi. Akasi oldiga borib maslahatlashib, urushga jo'naydi. Ibsol zafar qozonib, so'ng yurtiga qaytib keladi.

Ibsol o'zicha, yangam endi meni unutgandir, deb o'ylaydi, lekin xotin hali ham Ibsolni unutmagan edi. Xotin Ibsolning g'alaba bilan qaytgani sababli, uni tabriklash bahonasi bilan bag'riga bosmoqchi bo'ladi. Lekin Ibsol yaqinlashmaslikni so'raydi.

Ko'p o'tmay Salomonlarga Bobil tomonidan dushman chiqadi. Ularga qarshi kurashish uchun Salomon askar to'plab, Ibsolni o'sha tomonga yuboradi.

Ibsolni yo'lga solib bo'lmasligiga tamom ishongan yangasi undan umidini uzadi va ba'zi lashkar boshliqlariga mol-dunyo berib, ularni qo'lga oladi. Keyin ulardan Ibsolni halok qilishni so'raydi. Ular xotinning nayrangiga sotiladi va Ibsolni jang maydonida qoldirib, qochib ketishadi. Ibsol qattiq yarador bo'ladi va behush bo'lib yotadi. Shu payt uning tepasiga bolasini yo'qotgan oq kiyik borib qoladi va uni emizadi. Ibsol hushiga kelib, duch kelgan kishidan bo'lgan voqeani so'raydi. Ulardan voqeani eshitib achinadi. Nihoyat, o'z yurtiga jo'naydi. Keyin dushmanga qarshi jangga o'tlanib, ularning ulug'ini asir

oladi. Ibsol Bobil erlarini yana egallab uyiga qaytsa, akasining xotini uni hali ham unutmagan bo'ladi. Xotin o'z sirining oshkor bo'lishidan yana ham battar qo'rqib, Ibsolni yo'q qilishga chora axtara boshlaydi. U ikki oshxona xizmatchisini qo'lga olib, Ibsolga zahar solingan ovqat berdiradi. Ibsol o'ladi. Bir qancha vaqt o'tgach, bu voqea Salomonga ma'lum bo'ladi. Keyin Salomon xotin va ikki oshxona xizmatchisini, ular ukasini nima bilan zaharlab o'ldirgan bo'lsalar, ularga ham shu narsani ichirib, o'sha tahlitda o'ldiradi.

Abu Ali ibn Sino qissada ramziy obrazlar orqali o'zining falsafiy-didaktik qarashlarini badiiy ifodalaydi. Solomon, Ibsol, Solomonning xotini ramziy obrazlar bo'lib, ular orqali Aql, Kuch va Nafsning mohiyati badiiy talqin qilingan. Muallif asarda insonning ma'naviy olami, aql va his-tuyg'ular o'rtasidagi munosabatlarga urg'u beradi. Shu bilan birga qissada inson va tabiat, aql va ezgulik, hayot va o'lim kabi umumbashariy muammolarni ham qamrab oladi.

Xulosa qilib aytganda, Abu Ali ibn Sinoning turli fanlarga oid asarlari jahon ilm-fani rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Uning asarlari jahonning turli tillariga tarjima qilingan bo'lib, umuminsoniyat mulkiga aylanib ulgurgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Abu Ali ibn Sinoning tarjimayi holi haqida nimalarni bilasiz?
2. Shoir haqida tarixiy manbalarda qanday ma'lumotlar saqlanib qolgan?
3. Abu Ali ibn Sino haqida xalq orasida ko'plab afsonalar va hikoyalar tarqalgan. Buning sababini qanday izohlaysiz?
4. Tazkira va tarixiy asarlarda Abu Ali ibn Sino haqida keltirilgan ta'riflarni tahlil qiling, unda ilgari surilgan g'oyaga munosabat bildiring.
5. Nega Abu Ali ibn Sino "Shayx ur-ra'is", "Avitsenna" ta'rifi bilan shuhrat qozongan?
6. Abu Ali ibn Sino ijodiy merosining o'rganilishi doir qanday tadqiqotlarni bilasiz?
7. Shoir ruboylarning o'rganilishi va tarjimalariga doir qanday tadqiqotlarni bilasiz?
8. Abu Ali ibn Sino qaysi asarlarni yozgan va bizgacha qaysi asrlari yetib kelgan.
9. Abu Ali ibn Sino o'zining falsafiy, diniy-irfoniylar, axloqiy g'oyalarining targ'ibi uchun nega ruboiy janrini tanladi?

10. Shoir ruboiylarining yetakchi mavzulari haqida fikr yuring, fikringizni misollar asosida izohlashga harakat qiling.
11. Abu Ali ibn Sino ruboiylarida qanday ramz -u timsollar qoʻllangan?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Абу Али ибн Сино. Уижуза ёки 1326 байт тиббий ўғит. – Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти – 1999.
2. Воҳидов Р., Эшонқулов Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006.
3. Шомухамедов Ш. Одамийлик иншоиси. – Т.: 1984.
4. Айний С. Асарлар. 8 томлик. 8-том. – Т.: Ғ.Ғулом нашриёти 1967 .
5. Очилов Эргаш. Минг бир рубой. – Т.: 2009.
6. www.зиёуз.сом кутубхонаси. Қуръони карим. Маънолари таржимаси. Таржимон ва изоҳлар муаллифи: Абдулазиз Мансур.

UCHINCHI MAVZU:

MUHAMMAD AVFIY BUXORIY HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Muhammad Avfiy Buxoriyning hayot yoʻli.
2. Muhammad Avfiy Buxoriy haqida maʼlumot beruvchi manbalar.
3. Muhammad Avfiy Buxoriy asarlarining gʻoyaviy-badiiy tahlili.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|---|--|
| <ul style="list-style-type: none"> • <i>Muhammad Avfiy</i> • <i>Buxoriy</i> • <i>“Lubob ul-albob”</i> • <i>Tazkira</i> • <i>didaktika</i> • <i>Buxoro</i> | <ul style="list-style-type: none"> • <i>shoir</i> • <i>adib</i> • <i>adabiyotshunos</i> • <i>Hindiston</i> • <i>hikoyat</i> |
|---|--|

Tarixdan maʼlumki, IX-XIII asr boshlarida Markaziy Osiyoda somoniylar, qoraxoniylar, gʻaznaviylar, saljuqiylar va xorazmshohlar davlati hukmronlik qilgan. Bu davlatlar siyosiy maydonda oʻz mavqei jihatidan katta eʼtibor va nufuzga ega edi. Mazkur davlatlarda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish, madaniy hayot ravnaq topganligini

ko‘rish mumkin. Ayniqsa, Buxoro, Samarqand, Urganch va Marv kabi shaharlar ilm-fan hamda madaniyat markazlari sifatida shakllangan. Shuningdek, bir qancha ijodkorlar, qomusiy olimlar yetishib chiqqan. Shulardan biri Muhammad Avfiy Buxoroda (taxminan 1172-1177-yillar) tug‘ilgan. Uning oila a‘zolari ham ilm ahllaridan bo‘lishgan. Manbalarga ko‘ra, umrining oxirgi yillarini Hindiston (Dehli)da o‘tkazgan. Ilk tahsilni ona shahri Buxorodagi Dari Forixok madrasasida o‘z davrining oqil va dono kishilari, olimlari, jumladan, xattot Qutbiddin Saraxsiy, qonunshunos Ali Burhon, Rukniddin Mas‘ud Imomzoda Buxoriylardan saboq olgan. Ijodkorning “Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot” (“Hikoyatlar to‘plami (sandig‘i) va rivoyatlar ziyosi”) asarida turli fanlarga oid ilmiy lavhalar, bahslar va xulosalar hikoya hamda rivoyat tarzida sodda bayon qilingan.

Muhammad Avfiy Buxoriyning hayot yo‘lini tadqiqotchilar uch qismga bo‘ladilar:

- birinchi davr (1172-1201 yy.) hayotining bolalik va ilk tahsil yillari hisoblanadi;
- ikkinchi davr (1201-1220 yy.) uning Samarqandga safaridan boshlangan musofirlikdagi yillarini o‘z ichiga oladi;
- uchinchi davr (1220-1233 yy.) asarlar yaratilgan davr sanaladi¹⁸.

Sharq allomalaridan biri XII asr oxiri va XIII asrning ikkinchi yarmida yashagan buxorolik mashhur adib, tazkiranavis, hikoyanavis Muham-mad Avfiy Buxoriyning Asli ismi Sa‘diduddin, ammo ko‘pgina manbalarda Nuriddin Muhammad ibn Tohir ibn Usmon Buxoriy¹⁹ deyilgan. Alloma nomi “Lubob ul-albob” hamda “Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot” asarlari orqali o‘zbek va jahon mamlakatlari tarixchilari, sharqshunos olimlari, islomshunos va arabshunos olimlari, tilshunos va adabiyotshunoslari, tarjimonlari orasida ma‘lum va mashhur.

Muhammad Avfiy Buxoriy haqida bizga ma‘lum bo‘lgan dastlabki ma‘lumotlar o‘zidan bir asr keyin yashagan ijodkor H.Mustavfiy tomonidan keltirilganligini aytib o‘tish o‘rinli. H.Mustavfiy o‘zining “Tarixi guzida” asarida, “..... *Nuriddin laqabli Muhammad ibni Avfiy,*

¹⁸ Muhammad Avfiy Buxoriy. Javohir hikoyot va rivoyatlar to‘plami. To‘plovchi va tuzuvchi - Umarova S. Buxoro-“Kamolot” nashriyoti. 2022.

¹⁹Хикоят ва ривоятлар. Убайд Зоконий, Муҳаммад Авфий, Фахриддин Али Сафий, Абул Фароҳ. Тўпловчи ва тарж. Кибриё Қахҳорова.—Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. — 240 б.

“Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot»ning sohibi, mo’g’ullar hokimiyatining dastlabki davrlarida yashadi”, deb ko’rsatgan²⁰.

Tarixchi G’iyosiddin Xondamir (1475-1535-yillarda yashagan va Alisher Navoiy umrining so’nggi ya’ni, 1503-yilga qadar uning kutubxonachisi sifatida faoliyat yuritgan) 1520-1529-yillarda yaratgan uch jildidan iborat “Habib us-siyar” yoki “Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar”²¹ (“Suyukli xislatlar” yoki “Inson xabarlar va fardlarida do’stning suyukli xislatlari”) Temuriylar davri ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayoti tarixiga oid asarida Muhammad Avfiy Buxoriy Shamsiddin Eltutmish (Dehli sultonligi hukmdori, 1211-36-yillarda hukmronlik qilgan²²) davrida Dehlida yashaganligini yozadi. Muhammad Avfiy Buxoriy kitobini Eltutmishning vaziri Nizomulmulk bin Abusaid Jo’naydiy nomiga bag’ishlanganini alohida ta’kidlagan.

Muhammad Avfiy Buxoriy asarlariga tarixiy manba sifatidagi ilk murojaatlar 1848-yilda ingliz sharqshunos olimlari N.Blend va E.Broun tomonidan amalga oshirilgan.

N.Blend “Ilk fors shoirlari biografiyasiga oid” nomli maqolasini, 1891- yilda E.Broun esa o’zining “Davlatshoh (Samarqandiy – mual.) manbalari” nomli (“Qirol Osiyo jamiyati” jurnalida bostirib chiqarilgan) maqolalari allomaning “Lubob ul-albob” nomli tazkirasiga bag’ishlangan. E.Broun faqat shu maqola bilan cheklanib qolmasdan tadqiqotlarini davom ettirib, Eron olimi A.Qazvinii bilan birgalikda jami 299 ta shoir haqida ma’lumot beruvchi kitobning birinchi (130 ta) va ikkinchi (169 ta) jildlarini nashr ettiradi. Qolaversa, yevropalik tadqiqotchilardan Elliot nomi bilan mashhur olim G.Mayers Hindiston tarixiga oid juda ko’p izlanishlar olib borgan. Muhammad Avfiy Buxoriy umrining so’nggi choragi Hindiston bilan bog’liqligiga sabab, u haqidagi manbalarni izlash jarayonida H.Elliot nomiga ko’p marta duch kelish mumkin. H.Elliot hind yurti tarixini shu yurtda yashagan va aksariyat hind millatiga mansub tarixchi – olimlarning izlanishlari, yozib qoldirganlarini sinchiklab to’plagan. Ammo ma’lumotlarni yaxlit kitob holiga keltirish uning vafotidan so’ng, 1869- yilda Londonda J.Douson tomonidan amalga oshirildi. J.Douson ma’lumotlarni yig’ib “Hindiston tarixi” (Hind tarixchilari materiallari asosida) asarini nashr ettiradi. Asarning 4-bobi “Muhammad Avfiyning “Javome’ ul-hikoyoti” deb nomlangan. Unda hali o’zbek tiliga o’girilmagan ko’pgina kitobxon va

²⁰ Авфий Мухаммад. Рашкчи эрни жазолаган хотин. Форс тилидан И. Низомиддинов ва Т. Файзиев таржимаси. – Т.: Гафур Гулом нашриёти, 2012, –252 б.

²¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Habib_us-siyar

²² 7-синф жаҳон тарихи. Дарслик. – Т.: ЎзМЭ, 2017.–160.

tarixchilarga ma'lum bo'lmagan ayrim hikoyalar kiritilgan. H.Elliot "Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot"ning Hindiston va O'rta Osiyo tarixidagi tutgan o'rni hamda ahamiyatini - Rim tarixida "Valerius Maksimusning xotiralari" asariga tenglashtiradi. H.Elliot "Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot" haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: *"Bu asar sodda, ravon, o'qimishli tilda yozilgan. Asar garchi tarixiy voqealarni yoritisa-da, kitobni o'qish jarayonida kishida romantik badiiy asarni o'qigandek tasavvur va qiziqish uyg'onadi. Unda insoniylikka oid fazilatlar, illatlar, falokatlar haqida so'zlab beruvchi; zamondoshlari haqidagi fikrlarni hamda xotiralarni tizimlashtiruvchi, jonli-jozibali tarixiy hikoyalar va latifalar jamlangan"*, deydi.

Asarning so'z boshida H.Elliot tomonidan Nizom-ul-mulk Junaydiyning Nosiruddin Qabochani mag'lubiyatga uchratishi, Qabochaning keyingi intihosi haqidagi fikrlar bo'rttirib keltiriladi. Muallifning ushbu voqeada qanday ishtirok etgani aniq ko'rinmaydi, lekin u Nosiruddin bilan Bhakkar qal'asida qamalda bo'lganini va barcha tafsilotlar unga yaxshi tanish ekanligini aytadi. Ushbu voqeaning qisqa xulosasi tarixiy risolaning oxirida beriladi.

"Javome'-ul hikoyot va lavome' ul-rivoyot"ning nusxalari anchagina deydi H.Elliot. Hindistonda biri 850 va boshqa biri 1000 sahifadan iborat bo'lgan ikkita katta dosyalar (ingliz tilidan "dossier" ya'ni biror ish, masala yoki shaxsga doir hujjatlar to'plami, shaxsiy varaqa)ni qo'lga kiritadi va ular ustida ishlaydi. Sharqiy Hindiston kutubxonasida Muhammad Avfiy Buxoriy asariga oid dosyelardan bir nusxasi yaxshi holda saqlangan bo'lib, muharrir (ya'ni: "The history of India" asari muharriri) uchta katta MSS (dosyening nomi)ga va tadqiqotchilar foydalanishlari uchun qimmatli ma'lumotlar yoritilgan sahifalariga, adabiyotlar ro'yxatiga ega.

Tarixiy shaxslar haqidagi hikoyalarda, hech shubhasiz, haqiqat bor, ammo ularning ba'zilarida asliyat sayqallangan bo'lsa, ayrimlari o'qish uchun qulay, sodda bir shaklga keltirilgan. Muhammad Avfiy Buxoriydan iqtibos keltirilganligi aytilgan mo'jizaviy suv bulog'i haqidagi hikoya, hattoki, H.Elliot o'zi qo'lga kiritgan dosyalar bilan tanishganida, tarixiy va biografik izohlarni izlayotgan olimlar uchun muallif (Avfiy)ning maqsadini payqash murakkab emasligiga ishonch hosil qilgan. Chunki xronologik ketma-ketlikda, tartibga solingan barcha parchalar bir butun yaxlitlikni tashkil etgan. Jami 600 betdan iborat ushbu manba bugungi kunda yagona manba sifatida Amerika Qo'shma Shtatlarining Kornell universiteti kutubxonasida saqlanib kelinmoqda.

Avfiy hikoyalari olingan asl manbalarni ham tilga olgan, ammo ayrim ma'lumotlar faqatgina Avfiy asarida original variantda to'liq berilgan deyiladi ushbu kitobda. Asar Hindiston tarixini yoritgan olimlar va hindistonlik tarixchilar bergan ma'lumotlarga asoslanib yaratilgan. Asarning IV bobi aynan "Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot'dan olingan 37 ta original hikoyalar (hind rojalari, sultonlari, hind va Eron hukmdorlari va h.k)ga bag'ishlanadi.

Muhammad Avfiy Buxoriy shaxsi va uning badiiy, pedagogik, tarixiy merosi nafaqat chet elda, balki o'zimizning vatandoshlarimiz tomonidan ham o'rganildi. Jumladan, Muhammad Avfiy Buxoriy hayoti haqidagi ko'pgina ma'lumotlarni I.Nizomiddinov va T.Fayziyevlar yozgan so'z boshi, hikoyat va rivoyatlar tarjimasini to'plangan **"Nodir hikoyalar"** kitobining 1974- va 1977- yildagi ilk nashrlari, 2012- yilda **"Rashkchi erni jazolagan xotin"** nomi bilan o'zgartirilgan va to'ldirilgan ikkinchi nashri adabiyot ixlosmandlariga taqdim etilgan. Shuningdek, to'plovchi va tarjimon K.Qahhorova tomonidan 1983- yilda **«Hikoyatlar va rivoyatlar»** nomi bilan nashr etilgan to'plamda Sharq mamlakatlari hikoyanavis ijodkorlari Ubayd Zokoni, Muhammad Avfiy, Faxriddin Ali Safiy, Abul Faroj hikoyatlardan namunalar keltirilgan. 1987- yilda shu nom ostida ikkinchi marta to'plovchi va tarjimon K.Qahhorova tomonidan qayta nashr qilingan.

Bugungi kunda esa adib hayoti, ijod yo'li va asarlari to'g'risida dunyoning turli mamlakatlarida ko'plab tadqiqotchi olimlar tomonidan bir qancha izlanishlar olib borilganligini kuzatamiz. Ta'kidlash joizki, tadqiqotlarning aksariyati adabiyot, filologiya va tarix yo'nalishlarida olib borilgan. Jumladan, Eron olimi A.Qazvinii, M.Taqi Bahor, Hind tadqiqotchisi M.Nizomiddin Muhammad Avfiy Buxoriyni birinchilardan bo'lib o'rgangan olimlardan hisoblanadi.

Shular qatoriga, Eron olimlari M.Ramazoni va B.Musaffo Karimiylarning ilmiy tadqiqotlarini ta'kidlash o'rinli. Mazkur olimlar "Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot"ning ayrim boblari, undan o'rin olgan hikoyalar tahlili berilgan risolalari hamda ko'p sonli ilmiy maqolalarida Sa'diddin Muhammad Avfiy ijodini tadqiqot obyekti sifatida o'rganganlar.

Qozog'istonlik tarixchi olim T.K.Beysembiev "Muhammad Avfiy Buxoriyning (XIII asrning ikkinchi yarmida yaratilgan) "Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot" asari", "Avfiyning g'aznaviylar davlati va g'aznaviylarning hokimiyat tepasiga kelishi yoritilgan hikoyatlarining yangi tarjimalari" mavzularda ko'p sonli ilmiy maqolalar chop ettirgan.

Olib borgan ilmiy izlanishlari, ilmiy maqolalarida: bu asar Markaziy Osiyoning Mo'g'ullargacha va Mo'g'ullar istilosi davrini yorituvchi fors klassik adabiyotining ulkan tarixiy-adabiy asari ekanligini, unda turli mavzudagi ikki mingdan ortiq (T.K.Beysembiyev: yetarlicha o'rganilmagan) hikoyatlar jamlanganini, bugungi kunda bu katta tarixiy manbaning to'ldirilgan ilmiy nashri mavjud emasligiga urg'u bergan. Qo'lga kiritgan ayrim nashrlari va Fransiya milliy kutubxonasida saqlanayotgan nusxalarini o'rganib, g'aznaviylar, somoniylar, qoraxoniylar, saljuqiylar, xorazmshohlar haqidagi 52 ta tarixiy hikoyat va rivoyatlarni tarjima qilgan, ularni izohlab bergan. Asarning o'zida berilmagan sarlavhalar tarjimon tomonidan qo'yilgan.

Muhammad Avfiy Buxoriyning Markaziy Osiyoda mo'g'ullargacha va mo'g'ullar istilosi davri hamda shu davrlarda hukmronlik qilgan sulolalar tarixiga oid jami 78 ta hikoyatlari (manbadan: shundan 27 tasi ilgariroq tarjima qilingan) akademiklar V.V.Bartold, V.A.Gordlevskiy, S.E.Bosvorz, S.G.Agajanov, Z.M.Buniyatov, N.N.Negmatov, B.D.Kochnevlar tomonidan o'rganilgan. Ammo ushbu o'rganishlarning birortasida mutafakkir shaxsi va asari, uning naqadar qimmatli manba ekanligi to'g'risida urg'u berilmaganligini olimlar ta'kidlashgan.

Tarjima borasida tadqiqotchi-olimlar Y.Borhevskiy, N.Osmanova, N.Tumanovich tomonidan Sankt-Peterburg davlat universiteti Sharqshunoslik kutubxonasida saqlanadigan qo'lyozma nusxasidan beshta hikoyat tarjima qilingan. Aynan ana shu manbadan to'qqizta hikoyatni tojikistonlik olim S.Vohidov tarjima qilgan.

A.K.Arends Muhammad Avfiy Buxoriyning g'aznaviylar to'g'risidagi hikoyalaridan sakkiztasini rus tiliga tarjima qilgan.

Sharq xalqlari tarixi va ularning milliy qadriyatlari azaldan G'arbning katta qiziqishiga sabab bo'lib kelgan. Bunga yuqorida tilga olganimiz Elliot va J.Dousonlarning chuqur o'rganishlari va tahlillari dalildir. Shuningdek, ushbu qatorga Amerika Qo'shma Shtatlari Oklaxoma universitetining tarixchi olimi R.N.Frayni qo'yishimiz mumkin. U o'zining "Buxoro: o'rta asrlar taraqqiyoti" deb nomlangan kitobining "Eron merosi" bobida Muhammad Avfiy Buxoriy degan olim Buxoroda (1176-1200) tug'ilganligini, uning o'zigacha va o'z davrida yashab ijod etgan shoirlar biografiyasi haqidagi "Lubob ul-albob" asari borligi, tarixiy shaxslar ishtirok etgan va ular yashagan davr ijtimoiy hayotini yorituvchi hikoyalar jamlangan "Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyat" nomli asari va uning ahamiyatini ta'kidlab o'tgan.

Ispaniyalik tadqiqotchi olim, Madrid Komplutenze universiteti filologi, arabshunos va islomshunos olim J.R.Vergas 2015-yilda S.A. Haggar rahbarligi ostida yoqlagan doktorlik ishida “Sa’diduddin Muhammad Avfiyning “Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot” asaridan o‘rin olgan siyosiy arboblari va hukmdorlar haqida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etuvchi tarixiy hikoyalarning ispan arabshunoslari va tilshunoslari uchun moslanishi” mazmunidagi mavzuni keng qamrovda o‘rgangan va chuqur tahlil qilgan.

Ispan olimi J.Vergas tadqiqotlarida “Javome’ ul hikoyot va lavome’ ul-rivoyot”ning tarjimalari va nusxalari, jumladan, XV-XVI asrlarda bosilgan Usmonli turkcha nusxasi, o‘tgan asrda rus tiliga qisman o‘girilgan tarjimasini aniqlash, uning fors tilidagi asl matnini o‘qish, davlat va siyosiy arboblarga oid hikoyalardagi voqealarni tarjima qilish hamda moslashtirishga muvaffaq bo‘lgan. Olim tadqiqotida ijodkor asarlaridagi aql-idrokka undovchi elementlarni ajratib olishga e’tiborini qaratadi.

Hind tadqiqotchisi, tarixchi olimi M.Nozim 1971-yilda “Sulton Mahmud G‘aznaviy davri va ijtimoiy hayoti” mavzuida olib borgan tadqiqot ishida Avfiyning g‘aznaviylar, somoniylar, qoraxoniylar, saljuqiylar va xorazmshohlar davri, Mo‘g‘ullarning Markaziy Osiyoga qilgan bosqiniga oid hikoyalarni o‘rgangan, qator ilmiy maqolalarida Muhammad Avfiy Buxoriy ijodi va shaxsiga atroflicha to‘xtalgan.

Tojikistonlik S.Vohidov, X.R.Sangova kabi olimlar Muhammad Avfiy Buxoriyning shaxsi, yorqin ijodi, “Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot” asari, nodir hikoyalar borasida olib borgan tadqiqotlari, monografiyalarida asarni chuqur o‘rganishgan va hikoyalarning ma’no-mazmunini filologik tahlil qilishgan.

O‘zbek tadqiqotchilaridan yana biri tarixchi U.Bekmuhammad o‘zining maqolalarida Muhammad Avfiy Buxoriy shaxsi va hayotini yoritgan, to‘plamga kiritilgan ayrim hikoyatlarni o‘zbek kitobxonlariga havola etgan²³.

Muhammad Avfiy Buxoriy qalamiga mansub asarlar quyidagilar:

1) “Lubob ul-albob” (“Mag‘izlarning mag‘zi”) 1222-1223-yillarda Qabochaning vaziri Faxriddin Husayniy bin Raziyyiddin Abu Bakr nomiga bag‘ishlab yaratilgan. Asar tazkira janriga mansub bo‘lib, forsiy tilda she’riyat yuzaga kelganidan boshlab, o‘z davrigacha - mo‘g‘ul istilosidan avvalgi adabiyot va madaniyat arboblari haqidagi

²³<https://kh-davron.uz/kutubxonasi.Hindistondagi> buxorolik qozi & Muhammad Avfiy. Nodir hikoyalar.

nazmiy asarlardan namunalar keltirilgan yagona va qadimiy manba hisoblanadi. Asar 12 bobdan iborat.

2) “Al-Faraj badhash-shidda” (“Baxtsizlikdan keyingi shodlik”) mazkur asarni 1223- yilda Kanboyatda Qozi Muhsin Tanuhiiy arab tilidan fors tiliga tarjima qilgan. Xattot Muhammad bin Umar bin Muhammad Samarqandiy ko’chirgan.

3) “Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot” (“Hikoyatlar majmuasi va rivoyatlar ziyosi”) asari 1228-1233-yillarda yaratilgan. Kitob to‘rt qismdan iborat bo‘lib, 2000 dan ortiq axloqiy-didaktik xarakterdagi hikoyat va rivoyatlarni o‘z ichiga olgan.

“Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot” asaridagi ayrim hikoyatlarni tahlilga tortamiz. Masalan, quyidagi hikoyat “Dunyodagi eng yaxshi narsa” deb nomlanib, Anushervon va uning vaziri Buzurgmehr orasidagi suhbat asosida berilgan.

DUNYODA ENG YAXSHI NARSA

Anushervon huzuriga uzoq-yaqindan vakillar kelgan ekan. Anushervon ilm-u donishda mumtoz vaziri Buzurgmehrning aql-u zakovatini mehmonlarga ko‘z-ko‘z qilish niyatida undan:

- Ey, hakim, dunyoda eng yaxshi narsa nima?- deb so‘rabdi.
- Dunyoda uch narsadan o‘tadigan hech nima yo‘q,- debdi Buzurgmehr.
- Nima ekan ular?
- O‘lim, ayol va ehtiyoj.
- Anushervon bu javobdan xijolat bo‘libdi va hakim bema’ni gap aytib qo‘ydi, deb o‘ylabdi. Keyin qulay fursat topib, bu nima deganing, durustroq sharhlab ber, debdi. Shunda Buzurgmehr:
- Ey, shahriyori olam, ayol bo‘lmaganda senga o‘xshagan zot qayerdan tug‘ilardi, o‘lim bo‘lmaganda otangning saltanati senga tegarmidi, ehtiyoj bo‘lmaganda menga o‘xshagan odam sening saroyingda turarmidi? - debdi.

Mazkur hikoyatda Anushervon shoh bilan uning dono va o‘ta tadbirkor vaziri Buzurgmehr orasidagi suhbat berilgan. Suhbat davomida vazirning qanchalik dono ekanligi anglashiladi. Shoh dastlab vazirga dunyoda eng yaxshi narsa deb savol beradi. Savol berishdan maqsadi uzoq-yaqindan kelgan vakillariga o‘z vazirining donoligini ko‘z-ko‘z qilish bo‘lgan. Ammo vazirning – O‘lim, ayol va ehtiyoj degan javobi shohni dastlab qanoatlantirmaydi. So‘ng mazkur fikrning batafsil izohini vazirning o‘zidan eshitgandan so‘ng yana uning topqirligiga yana bir bor qoyil qoladi.

Avfiyning hikoyatlari tuli mavzularda bo'lsa-da, ular axloqiy didaktik mazmunga egaligi bilan ajralib turadi. Masalan, quyidagi hikoyatda ilm va uning inson hayotidagi ahamiyati yoritilgan.

ARASTUNING NASIHATI

Qadimgi Yunonning eng buyuk faylasufi Arastu o'limiga yaqin o'g'lini chaqirib shunday debdi:

– Bolajonim, o'z umrimni ilm-u hikmatning sirlaridan voqif bo'lish yo'lida sarf qildim. Ilm-u hikmat nuri bilan juda ko'p tugunlarni yechdim, ammo o'limga kelganda chora topolmadim. Senga qiladigan vasiyatim shuki, o'g'lim, mol-davlat orqasida orttirilgan izzat-obro'da baqo yo'q. Izzat-hurmat, shon-sharaf ilmda. Ilm orqasida qo'lga kiritgan shon-sharaf fano va zavolni bilmaydi, davlat va siyosatning o'zgarishi unga ta'sir qilmaydi.

O'g'lim, shohlar sening otangni ilmi tufayli ulug'lashdi, bo'lmasa, otang ham ular qaramog'idagi bir odam edi. Shohlar tobeligidagi odamlar shohlarga ta'zim qilishadi va sig'inishadi. Obidlar va ma'budlar orasida yer bilan osmoncha farq bor.

Otangni ilmi bo'lmaganda, uning podshohlar uchun kitob yuklagan eshakdan farqi qolmasdi. Ularga sig'inadigan va xizmatni bajo keltiradigan bir g'ulom bo'lar edi, xolos. Izzat-ehtiromga loyiq bo'lay, nomim abadiy qolsin desang ilm orttir!

Hikoyatda Arastu tilidan o'z o'g'liga qilgan vasiyati bayon qilingan. Arastu o'g'liga hayotdagi eng katta boylik ilm va uning sohibi bo'lish ekanligini ta'kidlagan. Muallif asosiy e'tiborni ana shu muhim jihatga qaratadi. Bu bilan barcha kitobxonlarni ilm egallashga, uni o'rganishga qunt qilish lozimligiga urg'u beradi. Hikoyatning xulosasi ham juda ibratli va da'vat ruhida yaratilgan: "Otangni ilmi bo'lmaganda, uning podshohlar uchun kitob yuklagan eshakdan farqi qolmasdi. Ularga sig'inadigan va xizmatni bajo keltiradigan bir g'ulom bo'lar edi, xolos. Izzat-ehtiromga loyiq bo'lay, nomim abadiy qolsin desang ilm orttir!"

"Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot" asarida turli fanlarga oid ilmiy lavhalar, bahslar va xulosalar hikoya hamda rivoyat tarzida sodda bayon qilingan. Muhammad Avfiy Buxoriyning mazkur asari Sharqda xalqlari orasida keng tarqalgan. Ayrim hikoyalari o'zbek tiliga tarjima qilinganligining ham guvohi bo'ldik. Ulug' alloma, shoir va adabiyotshunos, adib Muhammad Avfiy Buxoriy asarlari katta ma'naviy xazina hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Muhammad Avfiy Buxoriyning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
2. Shoir haqida Yevropa va Sharq olimlari qanday ma'lumotlarni yozib qoldirganlar?
3. Muhammad Avfiy Buxoriy qanday asarlar yozgan?
4. Muhammad Avfiy Buxoriy o'z tazkirasida qaysi davr ijodkorlari haqida ma'lumot keltirgan?
5. Shoir asarlarini fors tilidan kimlar tarjima qilgan?
6. Muhammad Avfiy Buxoriy ijodiy merosining o'rganilishi doir qanday tadqiqotlarni bilasiz?
7. Shoir asarlarning o'rganilishi va tarjimalariga doir qanday tadqiqotlarni bilasiz?
8. Muhammad Avfiy Buxoriy hayoti va faoliyatini olimlar necha guruhga bo'lib o'rganishgan?
9. Muhammad Avfiy Buxoriy o'zining falsafiy, diniy-irfoniy, axloqiy g'oyalarining targ'ibi uchun nega hikoyat janrini tanladi?
10. Adib hikoyatlarining yetakchi mavzulari haqida fikr yuring, fikringizni misollar asosida izohlashga harakat qiling.
11. Muhammad Avfiy Buxoriy hikoyatlarida qanday tarixiy timsollar qo'llangan?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Муҳаммад Авфий Бухорий. Жавоҳир ҳикоят ва ривоятлар тўплами. Тўпловчи ва тузувчи - Умарова С. Бухоро- "Камолот" нашриёти. 2022.
2. Ҳикоят ва ривоятлар. Убайд Зоконий, Муҳаммад Авфий, Фахриддин Али Сафий, Абул Фароҳ. Тўпловчи ва тарж. Кибриё Қаҳҳорова.–Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.
3. Авфий Муҳаммад. Рашкчи эрни жазолаган хотин. Форс тилидан И.Низомиддинов ва Т.Файзиев таржимаси. –Т.: Гафур Ғулом нашриёти, 2012.
4. Воҳидов Р., Эшонқулов Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006.
5. Шомухамедов Ш. Одамийлик иншоиси. –Т.: 1984.
6. [https://kh-davron.uz/kutubxonasi.Hindistondagi buxorolik qozi & Muhammad Avfiy. Nodir hikoyalar.](https://kh-davron.uz/kutubxonasi.Hindistondagi_buxorolik_qozi_&Muhammad_Avfiy.Nodir_hikoyalar)
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Habib_us-siyar

TO'RTINCHI MAVZU:
XOJA ISMAT BUXORIY HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Xoja Ismat Buxoriyning hayot yo'li.
2. Xoja Ismat Buxoriy haqida ma'lumot beruvchi manbalar.
3. Xoja Ismat Buxoriy asarlarining g'oyaviy-badiiy tahlili.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|-----------------------------|------------------------------|
| • <i>Xoja Ismat Buxoriy</i> | • <i>"Majolis un nafois"</i> |
| • <i>temuriylar</i> | • <i>"Ibrohim Adham"</i> |
| • <i>Buxoro</i> | • <i>Devon</i> |
| • <i>Xalil Sulton</i> | • <i>g'azal</i> |
| • <i>Mirzo Ulug'bek</i> | • <i>Qasida</i> |
| • <i>Alisher Navoiy</i> | • <i>masnaviy</i> |

Xoja Ismat Buxoriyning to'liq ismi sharifi Xoja Faxriddin Ismatulloh binni Xoja Mas'ud Ismat Buxoriydir. U "Nasiriy" va "Ismat" taxalluslari bilan asarlar yozgan.

Manbalarda keltirilishicha, Xoja Ismat Buxoriyning otasi Xoja Mas'ud Buxoroning hurmatga sazovor fozil kishilaridan biri bo'lgan. Davlatshoh Samarqandiy "*Va dar xittai Buxoro obovu ajdodi Xoja Ismat mardumoni buzurg va fozil budanad, va padari u Xoja Mas'ud akobiri Buxorost*", ya'ni Xoja Ismatning avlod-ajdodlari Buxoroning ulug' va fozil kishilaridan bo'lgan. Uning otasi Xoja Mas'ud Buxoroning akobirlaridandir.

Shoirning hayotiy faoliyati va ijodini o'rganishda ilk manba Davlatshoh Samarqandiyning "Taskirat-ush-shuaro" asari hisoblanadi. Muallif asarning oltinchi tabaqasida Xoja Ismat "fazl ahlidan" sanalib, uni "qasida, g'azaliyot, masnaviy, muqattaot va boshqa" she'riy janrlarda "shoirlik maqomida yagona" ekanligini, "Bisotiy Samarqandiy, Xayoliy Buxoriy va boshqa shoir-u muosirlar, musohiblar uning shogirdi bo'lgan"ligini ta'kidlab, ayrim o'rinlarda rivoyat va afsonalar keltirgan. Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asarining 7-ravzasida "*Xoja Ismat alayhirrahmat Buxorodandir va Amir Xusrav Dehlaviy g'azaliga tatabbu' qilgan*"ligi qayd etiladi. Ko'pgina manbalarda qayd etilishicha, shoirning ismida nisbat berilgan "Xoja" unvoni uning nasl-nasabiga ishora hisoblanadi. Bu zoti sharifning tavallud sanasi deyarli barcha manbalarida 1365 va 137- yillar oralig'ida ekanligi e'tirof etiladi.

Mutafakkirning adabiyotga qiziqishini ortishi, shoir bo'lib yetishishida o'z davrining madaniy, ilmiy muhiti, qasidanavislik an'analari, shoirlar Komil Badaxshiy, Sakkokiy munajjimlar Mavlono Ahmad va Mavlono Abdullohlar bilan zamondoshligi, naqshbandiya ta'limoti namoyandasi Xoja Muhammad Porso bilan maslakdoshligi, olimlar Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy Mirzo Ulug'bek va Ali ibni Muhammad Qushchilarga ustoz-shogirdlik darajalaridagi yaqin aloqalari muhim o'rin tutgan. Shuningdek, Abdurahmon Jomiy fikricha, Xoja Ismat Buxoriy merosida Xusrav Dehlaviyning ta'siri seziladi. Jomiyning "Bahoriston" asarida "Xoja Ismat Buxorodandir va Amir Xusrav Dehlaviy g'azaliga tatabbu' qilgan" degan fikrlaridan anglash mumkin. O'z davrida Bisotiy Samarqandiy, Xayoliy Buxoriy, Rustam Hur'yoni, Tohir Abevardiy, Burunduq Buxoriy kabi shogirdlari ham bo'lgan.

Xoja Ismat Buxoriy yoshligidan juda o'tkir zehqli, qobiliyatli, nozik didli, tafakkuri teran, diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlarni ham mukammal bilgan. Amir Temur va temuriyzodalarning ilm va ma'rifatga, dinu diyonatga xayrixohliklari davrning madaniy yuksalishlariga, jamiyat ma'naviy hayotining barqarorlashuviga xizmat qilgan. Bahouddin Naqshband, Alouddin Attor, Xoja Muhammad Porso, Alouddin G'ijduvoniy, Xoja Ismat Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Faxruddin Ali Safiy, Jaloliddin Davoniy kabi buyuk allomalarning yetishib chiqishida ham tarixiy shart-sharoit, obyektiv va subyektiv omillar o'ziga xos ta'sir ko'rsatgan.

Xoja Ismat Buxoriy nafaqat temuriyzodalarga ta'lim bergan ustoz, balki o'z davrining ilmlarini chuqur egallagan olim, Mirzo Ulug'bekning ehtiromiga sazovor bo'lgan, u asos solgan akademiyaning iste'dodli vakillaridan biri, mutafakkir, orif shoirdir. Uning merosidagi qasidalar, g'azallar, ruboiylar, tarkibband, musammat, qit'a, muxammaslar temuriylar davri badiiy tafakkurini boyitdi. Xoja Ismat Buxoriy temuriylar saroyda nafaqat mudarris, xalq tabobati bilan ham mashg'ul bo'lgan. Xalq orasida u o'z davrining ko'zga ko'ringan tabibi sifatida ham nom qozongan.

Xoja Ismat Buxoriy ma'naviy merosi temuriylar davri tafakkuri mahsuli bo'lib, Amir Temurga marsiya, Mirzo Shohruh, Xalil Sulton, Ibrohim Sulton, Amirzoda Boysung'ur, Shodmulk Og'o, Mirzo Ulug'beklarga bag'ishlab yozilgan qasidalarida, g'azallari, ruboiylarida saltanat va hukmdor, xalq va adolat, ma'rifat va johillik, iymon va

e'tiqod, shariat va axloq, tarbiya va ta'lim masalalarining o'zaro aloqadorligi o'ziga xos tarzida ijtimoiy-falsafiy g'oyalar asosida talqin etilgan. Mutafakkir temuriyzodalarning saltanati, jamiyat, xalq hayoti, ijtimoiy munosabatlarning muhim jihatlariga e'tibor qaratgan. Uning fikriga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti ko'p jihatdan adolatli hukmdorga ham bog'liqdir. Xoja Ismat Buxoriy Amir Temur vafotiga bag'ishlab yozgan marsiyasida hukmdorning naqadar yuksak xislat va fazilatlarga ega bo'lganini yozish bilan birga adolatli podshoh haqidagi qarashlarini ham bayon qilgan:

Din erdi justujo'si, shar'iy edi guftugo'si,
Millatining obro'si, burxon o'ldi g'oyib.
No'shiravondek odil, ham olim erdi, fozil,
Har ishda aqli komil, farzon o'ldi g'oyib.
Davlatda kim Sulaymon, fitratda chun Aflotun,
Hikmatda erdi go'yo Luqmon o'ldi g'oyib.
Ehsonda misli Hotam, shavkatda erdi chun Jam,
Zo'rlikda ham chu Rustam, pahlavon o'ldi g'oyib.
G'ayratda misli arslon, dasht ichra yoki qoplon,
Bahrda nahangu sa'bon, shubon o'ldi g'oyib.
Farzandi ahli no'yon, Tarag'ay Bahodur o'g'lon,
Sayyid Amir Temurxon Ko'ragon o'ldi g'oyib .

Demak, Amir Temur vafoti juda katta yo'qotish ekanligidan Xoja Ismat Buxoriy ham qayg'uga tushadi. Temurning e'tiqod va imon, din-u diyonatda millatning obro'si, dalili ekanligi uning mamlakatni islom ahkomlari asosida adolat bilan boshqargani, fitratda Aflotun, hikmatda Luqmon, ehsonda Hotam, g'ayratda arslon, qoplondek, qudratda Rustam kabi tengsiz pahlavon ekanligini, saltanat egasi xuddi shunday sifatlariga loyiq inson bo'lishi kerak degan, g'oyaga yo'l ochadi. Har bir davrda xalq va saltanat o'rtasida adolatli muloqotni amalga oshirish mutafakkir shoirlar, buyuk shayxlar, donishmandlar, bashoratgo'ylar zimmasiga tushgan. Xoja Ismat Buxoriy ham o'z davrida temuriylar saroyida yashab, temuriyzodalarga ta'lim bergan, keyinchalik ularga o'zining maslahatlarini berib, davlat ishlarida ishtirok etgan. Ularni ma'rifatli bo'lishga, zulm va zo'ravonlikdan tiyilishga, adolatli, insonparvar, saxovatli, mehr-muruvvatli bo'lishga chaqirgan.

Xoja Ismat Buxoriyning o'rta asrning murakkab va ziddiyatli davrida Movarounnahr va Xuroson madaniy muhitida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan, temuriylar davri yuksalishlariga munosib hissa qo'shgan, ikkinchi Renessans davri mutafakkiri, temuriyzodalarning ustoz, mudarris,

shoir va olim ekanligini tarixiy manbalarga tayanib asoslangan.

Islom dini va ta'limoti ustuvor bo'lgan o'rta asrning o'ziga xos muhitida kalom, tasavvuf va falsafa jamiyat ma'naviy hayotida o'z o'rniga ega bo'lgan. Chunki, ijtimoiy madaniy hayot Movarounnahr va Xuroson xalqlari turmush tarzi, tafakkuri Qur'on va Sunna asosida shakllangan edi. Bahouddin Naqshband ta'limotining "Dil ba Yor, dast ba kor" tamoyili Amir Temur va temuriylar davlatining ijtimoiy-ma'naviy, g'oyaviy-mafkuraviy negizlari sifatida amal qilar edi. Chunonchi, Amir Temur va temuriyzodalarning shariat va tariqat shayxlariga ehtiromlari, ixloslari baland bo'lib, ularning maslahatlari va duolarini o'zlarining muvaffaqiyatlari kafolati deb bilganlar. Saroylariga ilimli, ma'rifatli, ulug' kishilarni taklif qilganlar. Alixon Jahonbodiy "Nishtari ishq" asarida *"Xoja Mas'ud Buxoro akobirlaridan bo'lgan. Amir Xisrav Dehlaviyga tatabbu'si bor. Sulton Xalil ibn Mironshoh davrida saroyda osuda hayot kechirgan"* deb ta'kidlaydi. Amirzodalar ularning diniy, dunyoviy, adabiyot, san'at borasidagi suhbatlaridan bahramand bo'lganlar. Farzandlarini ularning tarbiyalariga berib, hurmat ko'rsatganlar. Shular qatorida Xoja Ismat Buxoriy ham temuriyzodalarga mudarrislik qilgan ulug' ustoz, mutafakkir shoir sifatida temuriylar saroyida katta nufuzga ega bo'lgan.

Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" va "Mezon ul-avzon" asarlarida Xoja Ismat asarlari va shaxsiyatiga yuqori baho bergan, uning iste'dodi va nodir qobiliyati borligini alohida e'tirof etgan: *"Xoja Ismatullo Movarounnahr buzurgzodalaridandur. Zohir ilmin takmil qilg'ondur. G'oyat xushtab'ligidin o'zin she'rg'a mansub qilib, devoni mashhur bo'ldi... Xojaning qabri Buxoroda o'z hujrasidadur"*²⁴. Xondamir "Habib-us-siyar" asarida:

Tarixi vafoti Xoja Ismat,

*Har kas ki shunid guft: "tammat"*²⁵.

Ya'ni, Xoja Ismat Buxoriy vafoti abjad hisobi bilan "tammat" hijriy 840 milodiy 1436-yillarga to'g'ri kelishi asoslangan.

Xoja Ismat Buxoriy - zullisonayn shoir. U irfoniy-falsafiy g'azallar, ruboiylar, axloqiy-tarbiyaviy qasidalar yozgan. Ularning hajmi 10000 misradan ortiq.

Ismat Buxoriy o'z zamonasining yetuk qasidago'y shoiri, tafakkuri keng "Movarounnahr buzrukvorlaridan" edi.

²⁴ Навоий Алишер. Мажолис ун-нафоис. 13-том. – Т.: Фан, 1997. – Б. 14

²⁵ Гиёсиддин бин Хумомиддин Хондамир. Буюклик хислати "Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар". Форс тилидан таржима муаллифи: Исмоил Бекжонов. "Шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, Т.: 2011.

Ta'kidlash lozimki, Qasida, ayniqsa, marsiya yozish juda murakkab va nozik masalalardan sanaladi. Zero, hech bir ijodkor ijozat olmasa yoxud talab etilmasa, o'z - o'zidan jur'at etib Amir Temur vafotida marsiya yozishga va sultonlarga bag'ishlab qasida bitishga botina olmas edi. Xoja Ismat Temuriylar saroyida hurmat - e'tiborga va shon- shuhratga munosib shaxs bo'lgani uchun ham bunga erishdi va faqat unga Amir Temur vafoti munosabati bilan marsiya yozish uchun ishonch bildirildi. Davlattoh Samarqandiy: *"Mavlonoyi muazzam Aloiddin Shamshiykim, ilmi hikmatda zamonasining yaktosi erdi, mashondin Xoja Hasan Attor ... va shuarodin Xoja Ismat Buxoriy bilan Komil Badaxshiy Mirzo Ulug'bekning sharofatli zamonida maydonga chiqqan olimlar, tariqat mashoyixlari va shuaro jumlasidandurlar"*, deganda shoirning qasidachilikda mahorati baland ekanligini nazarda tutgandi. Chunki Xoja Ismat qasida ilmni mukammal bilgan va unga ulkan hissa qo'shgan ijodkorlardan biri sanaladi. Xoja Ismat aksariyat qasidalarida janr talablariga qat'iy rioya qilgan. Uning qasidaları lirik kirish (nasib) bilan boshlangan. Temuriylar saltanati hukmdorlari Mirzo Ulug'bek, Xalil Sulton, Boysunqur Mirzo, Shohrux Mirzo, Abdulqosim Bobur, Husayn Boyqaro, Shoh Malik va boshqalarga bag'ishlangan madhiya ruhidagi qasidalar siyosiy lirika sifatida yuqori o'ringa ko'tarilgan. Xoja Ismatning falsafiy - badiiy ijodini shartli ravishda ikki davrga ajratish mumkin :

1) saroy bilan bog'liq ijtimoiy - siyosiy davr, bunga bevosita qasidalar va tasavufiy - orifona g'azallar misol bo'ladi;

2) keksalik va faqirlik davri. Bu davrda u ko'proq zohidlik ruhidagi lirik asarlar yozganlini fahmlash mumkin.

Xoja Ismatning har ikki davrdagi ijodi ham diqqatga sazovordir. Ijodkorning saroy bilan bog'liq go'zal qasida, g'azal va musammatlarida fozil insonning kayfiyatida ruhiy tetiklik va shijoat kuzatiladi. Do'stlik, go'zallik, yor vasfi, tabiat va bahor manzaralari, mamduh (yor)ning nozik xislatlari ko'tarmikilik bilan tarannum etiladi. Keksalik davrida zohidning ilohiy ishq tarannumi, ijtimoiy muammolar girdobida g'arq bo'lgan omadsiz shaxsning firoqlari kabi mavzular she'riyatning o'n uch janrida ko'zga tashlanadi.

Temuriylar davri saroy adabiy muhitida qasidanavislik va qasidago'ylik ma'rifiy, ma'naviy va siyosiy targ'ibot o'chog'iga aylandi. Qasidago'ylik va qasidanavislik saroy arkonlari va davlat arboblari ma'naviy - ruhiy ozuqa va ijtimoiy- siyosiy mushohada yuritishga zamin tayyorladi.

Buyuk mutafakkir shoir Xoja Ismat Buxoriy ma'naviy merosining tahlili shuni ko'rsatadiki, allomaning ijtimoiy - falsafiy g'oyalarining mohiyatini sohibqiron, yirik davlat arbobi, yengilmas sarkarda, o'rta asrlarda eng yirik davlatlardan birining bunyodkori, yetti iqlim hukmdori Amir Temur - Ko'ragon Ibn Amir Tarag'ay Bohodir (1336-1105) vafotlariga bag'ishlab yozgan marsiyasi va mashhur o'zbek astronomi va matematiki, davlat arbobi, Amir Temurning nevarasi, Movarounnahrning hokimi Mirzo Ulug'bek (1394-1449) ga yozgan qasidalarini ko'rsatadi.

Temuriylar saltanati davrida tarixnavislik, me'morchilik, tazkirachilik qatorida qadimiy va an'anaviy sanalgan qasidachilikka talab ortdi. Jomiy o'zinnig " Silsilat uz - zahob " asarida Ro'dakiy, Unsuriy, Mua'zziy, Anvari, Sa'diy, Salmon Savojiy kabi qasidago'ylarning nomini zikr etdi. Alisher Navoiy ham "Majolis un - nafois" tazkirasida Salmon Savojiyning mahoratiga katta baho beradi. Forsiy va turkiy tildagi g'azal, muammo, qit'a , ruboiy, ta'rix , muxammas va boshqa janrlar qatorida qirqa yaqin shoirlar qasidachilikda muvaffaqiyatga erishganliklari qayd qilingan. Ularning yigirmadan ortig'i "hamd va madh qasidalar", ya'ni Alloh va uning payg'ambarlarini zikr etish bilan mashhur bo'lgan. Bundan qasidachilik davr talabiga aylanganligi anglashiladi. Xoja Ismatning aksariyat qasidalarini temuriyzodalar Xalil Mirzo, Shoxrux va Ulug'bek madhiga bag'ishlangan. Qasidalarining asosiy g'oyaviy mazmunida shaxs ibрати kuylanadi. Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida (1409-1449) Movarounnahrda tinchlik hukmron bo'lib, ilm - fan, san'at va adabiyot taraqqiy etdi. Xoja Ismat "Dar borayi Ulug'bek " qasidasida yozadi :

Улуғбек султоне, ки аз ҳайбати боисаш ,
Зару боҳ амин чӯяд , ба ҳар шабиҳи шери нар .
Чу Сухроту Букрот , басе човушу дарбон,
Чу Хуршеду Чамшидат , басе бандаву чокар .
Зи баҳси ту дар ҳайъат Арасту шуд мулзам ,
Зи нутқи ту дар ҳикмат шуд ба ў Али махзар

Mazmuni: Ulug'bek shunday sultondir, uning haybatidan barcha nafs qullari erkak sherdan qo'rqqani kabi omonlik tilardilar. U Suqrot va Buqrot kabi hikmat eshiklarini ochuvchi, uning eshigida Xurshid va Jamshiddek buyuk shohlar ham banda va askar bo'lishga yaraydi. Uning hay'atidan Arastu mulzam bo'ldi. Uning hikmatli nutqidan Ibn Sino mahzar bo'ldi.

Mutafakkir - shoir Ulug‘bekii xurshid, ya’ni quyoshga qiyoslab, undan ilmu ziyo nuri taralib turgani va bu nur asrlar osha xalqqa yog‘du sochishini aytib, uni Firdavsiyning "Shohnoma" sidagi shoh Jamshidga qiyoslaydi. Mubolag‘aviy tashbehlarda uning aql - zakovatini Arastudan ustun qo‘yadi. Donishmandlikda uni Abu Ali Ibn Sino bilan tenglashtiradi. Muallif: "Ulug‘bekning hikmatli nutqi olam uzra eshitilsa, go‘yo Ibn Sino hoziru nozir bo‘lar edi ", - deb uni ta’riflaydi.

Xoja Ismat Buxoriy dunyoqarashi bir jihatdan islomiy ta’limot, ya’ni tasavvufga tayanadi. Ma’lumki, tasavvuf tariqatlar vositasida insonlarda Payg‘ambarimiz amal qilgan axloqni tarbiyalab bosqichma-bosqich oliy kamolot darajasiga yetkazadi. E’tiqod, iymon, ibodat insonni ruhan poklaydi, qalbiga va ruhiga osoyishtalik baxsh etadi. Tariqatga kirmasdanoq, shariat talablarini bajargan inson ma’naviyati yetuk shaxs bo‘lib shakllanishi mumkin. Yuksak insoniy sifatlarga ega bo‘lgan odam, Allohning sifatlarini chuqurroq idrok etish, anglash va unga yetishish uchun tasavvuf tariqatiga kirishi lozim bo‘lgan. Jamiyatda komil inson tarbiyasida so‘fiylar iymonsizlikka, muqaddas ma’naviyatimizga hurmatsizlikka, inson dilining ranjishiga, umuman, jamiki adolatsizlikka qarshi kurashuvchi targ‘ibotchilar bo‘lgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Jumladan, ulug‘ shoir Xoja Ismat Buxoriyning o‘z davri uchun ilgari surgan axloqiy qarashlari hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligini ta’kidlash lozim. Shoirning, ayniqsa, tasavvufiy-falsafiy qarashlari o‘zining peshqadam g‘oyalari bilan ajralib turadi. Bir so‘z bilan aytganda, u Allohni inson qalbida, deb anglaydi. Bu Bahouddin Naqshbandning falsafiy ta’limotidagi tasavvufiy qarashlari bilan hamohangdir. Fikrimizning isboti sifatida mutasavvif shoirning quyidagi she’rlarini tahlilga tortamiz:

Hijron nakashed, badii g‘ami vacl chi doned,
To dard nabined, davoro nashinosed.
Ey ahli ibodat, hama dar ishq nako‘shed,
Gar sajdayu cathi xudoro nashinosed.

Anglashilmoqdaki, Allohni tanimoq uchun banda unga intilishi, bu yo‘lda hijron-u azoblar, o‘ziga xos riyoziyat amallariga tayyor turishi lozim. Mutasavvif shoir fikricha, yuzaki va soxta ibodat chinakam iymon-e’tiqod hisoblanmaydi. Allohni bilish va tanish uchun uning ma’rifatini bilish, anglash zaruratdir. Shuningdek, alloma “ilmi nazar” iborasi orqali Naqshbandiya ta’limotining rashhalaridan biriga e’tiborni qaratganiga guvoh bo‘lish mumkin. Ya’ni solik o‘z maqsadi yo‘lida

qadam bosar ekan, uning e'tiboridan olamning mutlaq mo'jizasi chetda qolmasligi lozim.

Tasavvufiy mazmunda uchraydigan asosiy holatlardan biri botiniy ma'noda yor timsolida Allohni ko'rishdir. Unga shunday sifatlar beriladi: yorning qoshlari gajjak, ular tutashgan joy – mehrob. Islomiy udumlardan ayonki, masjiddagi toat-u ibodat qiblaga – mehrobga qarab amalga oshiriladi. Mutasavvif shoir ana o'sha tasavvufiy mazmunga ishora qilish orqali misralarning faqatgina zohiriy jihatlariga emas, balki botiniy ma'nolariga urg'u berishga erishgan. Buning uchun mehrob timsolidan mohirona foydalaganini ayonlashadi. Namoz-u ibodatdan nazarda tutiladigan tayanch maqsad, Alloh vasliga vosil bo'lish ekanligi nozik ishoralarda o'z aksini topgan. Shu asnoda majoziy va haqiqiy ishq yonma-yon qo'yiladi. Majoziylikning sidq-u sadoqat tufayli haqiqiy ishq maqomiga ko'tarilishi muqarrarligiga urg'u beriladi.

Xoja Ismat ijodida jamiyat osoyishtaligi bilan bog'liq mulohazalar ham muhim o'rin egallaydi:

Murodi odami az zindagi hact xotirja'mi,
Agar chunun nabud zindagiba chikor oyad?

Mazkur baytda inson tabiatning gultoji ekanligi, tiriklik chog'ida xotirjam, osoyishta yashamog'i lozimligi, mavjudotdagi ne'matlardan bahramand bo'lishi kerakligi uqtirilgan. Shuning barobarida, inson o'z haddini bilmog'i, tabiat ko'rkiga ko'rk qo'shmog'i zarur. Ayni choqda, uning umri mazmunsiz o'tadi. Mutafakkir shoirning bunday oliyjanob qarashlari bugun uchun ham ahamiyatli sanaladi.

Mutafakkir shoirning yuqorida tahlilga tortilgan misralaridagi umumbashariy g'oyalar uning quyidagi she'rida mantiqan davom ettirilgan:

Fig'on ohista kun Ismat shabi hajr,
Ki shahr az g'ussa barham zad, jahon ham.

Tarjimasi:

Hijron kechasi fig'oningni pastroq qil, Ismat,
Yo'qsa samo ham ko'rinmay qoladi.

Mumtoz badiiy ifodalarda berilgan ma'shuqa hijronidan oshiqning fig'oni falakka o'rmalashi an'anaviy tasvir hisoblanadi. Ma'lum ma'noda an'anaviylikni davom ettirgan shoir o'ziga xos novatorlikni ham namoyon etadi. Ya'ni Oshiq fig'onining zarbidan "samo ham ko'rinmay qoladi". Bu kabi o'ziga xos ifodada muallif mubolag'a san'atidan o'rinli foydalangan. Oshiq-u ma'shuqa o'rtasidagi ishq tug'yonlariga bog'liq bo'lgan ayni fikrlar chuqur ijtimoiy-siyosiy

tagma'noga ham egadir. Xoja Ismat yashagan zamondagi tarixiy-siyosiy voqealar qiyosida o'rganilsa, ularning tub mohiyati ravshan bo'lib qoladi yoki mutasavvif shoir toj-u taxt, mol-u mulk uchun olib borilgan maqsadsiz kurashlar jamiyatdagi go'zallikni yo'qqa chiqaradi, degan fikrni o'rta qo'ygan, deb ham hisoblash mumkin.

Allomaning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy qarashlariga nazar tashlar ekanmiz, ayniqsa, insonning sabr-qanoatli bo'lishi ulug'langanligining guvohi ham bo'lish mumkin. Xoja Ismat ijodiyotidagi qit'a janriga mansub bo'lgan she'rda insonlar uchun buyuk bir fazilat hisoblangan sabr-qanoat yuksak darajada badiiy ifodalangan.

Agar poktab'ivu pokizaroy,
Tavakko'ba dargohi dunon mabor.

Tarjimasi:

Gar pokta'b san-u pokiza dilsan,
Nopoklar dargohin orzu aylama.

Xushsurat, pokiza, fikr- mulohazasi puxta inson hech qachon past, nopoklar bilan hamjihat bo'la olmaydi. Razil insonlar molidan xomtama bo'lmasdan, ulardan hech nima talab qilmay, sabr-bardoshli, qanoatli bo'ladi. Qanoat – bu inson ma'naviyati xazinasidagi noyob va qimmatbaho gavhar bo'lib, u kishini poklikka chorlaydi. Har bir fazilat sabr va qanoatga muhtojdir. Masalan, shijoat nafs xohishlariga sabr-qanoat qilishdir. Iffat esa shahvatlarga sabr qilishdir. Halimlik esa jahlni chiqaruvchi ko'pgina illatlarga sabr qilishdir. Shuningdek, inson dunyoning hoy-u havas va boyliklariga uchmay ogoh bo'lib yashashi darkorligi ta'kidlangan.

Xondamir “Habib us-siyar” asarida zabardast adiblar jumlasida Xoja Ismat haqida, xususan, uning vafoti haqida alohida ma'lumot bergan:

Tarixi vafoti Xoja Ismat,
Har kas ki shunid guft: «tammat»

Muallif “tammat” so'zi abjad hisobi bilan hijriy 840 (milodiy 1436) yilga to'g'ri kelishini ta'kidlaydi.

Temuriylar tarixnavisi maqomiga sazovor bo'lgan Ibn Arabshoh “Ajoyib ul- maqrur” asarida “Xoja Ismatiddin amirzoda (Xalil Sulton) yonida turib, unga adab fani sirlarini o'rgatardi va shu tavrda uning hurmat-e'tiborini qozonardi. Ammo Xalil Mirzoning Samarqanddagi farmonravonligi juda qisqa bo'ldi, bir oz vaqt o'tmay, o'z amirlari tarafidan Shohruh qal'asida zindonband etildi. Bu voqea Xalil Sulton yonida turgan Xoja Ismatni mushkul ahvolga solib qo'ydi va o'z jonini

saqlab qolish uchun nochorlikdan Samarqandni tashlab, ikki yilga yaqin muddat ichida ovora-yu sargardonlikda, boshqa bir valine'mat uni saroyga taklif etguniga qadar qochib yurdi.

Xoja Ismat Buxoriy temuriylar davrida Markaziy Osiyo jahon tamadduni uchun munosib ulush qo'shgan bir davrda yashab ijod qildi. Bu davrda jahon madaniyati rivojiga yuksak hissa qo'shgan Lutfiy, Atoyi, Gadoiy, Sakkokiy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Behzod, Sultonali Mashhadiy, Mirzo Bobur, Davlatshoh Samarqandiy, Ibn Arabshoh, Xondamir kabi buyuk namoyandalar dunyoga keldi. U ana shu ijodkorlar yashagan yurtning vakilidir. Temuriylar saroyining mudarrisi, fozil inson Xoja Ismat Buxoriyning ijtimoiy-falsafiy va tasavvufiy qarashlari hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Xoja Ismat Buxoriyning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
2. Shoir haqida Yevropa va Sharq olimlari qanday ma'lumotlarni yozib qoldirishgan?
3. Xoja Ismat Buxoriy qanday asarlar yozgan?
4. Xoja Ismat Buxoriy haqida qaysi tazkiralarda ma'lumot keltirgan?
5. Shoir asarlarining bugungi kundagi ahamiyati nimalardan iborat?
6. Xoja Ismat Buxoriy ijodiy merosining o'rganilishi doir qanday tadqiqotlarni bilasiz?
7. Shoir devonida qaysi janrlar mavjud va u qaysi janrlarda shuhrat qozongan va asarlarining o'rganilishi va tarjimalariga doir qanday tadqiqotlarni bilasiz?
8. Xoja Ismat Buxoriy qaysi hukmdorlar davrida yashagan?
9. Xoja Ismat Buxoriy o'zining falsafiy, diniy-irfoniy, axloqiy g'oyalarining targ'ibi uchun qaysi janrlarni tanlagan?
10. Shoir lirikasining yetakchi mavzulari haqida fikr yuring, fikringizni misollar asosida izohlashga harakat qiling.
11. Xoja Ismat Buxoriy asarlarida qanday tarixiy timsollar qo'llangan?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Воҳидов Р. Хожа Исмаат-зуллисонайн шоир/ Йиллардан қолган маънавий ёдгорлик: Илмий мақола, тақриз ва хотиралар тўплами. –Т.: Зарқалам.-2006.
2. Воҳидов Р. Хожа Исмаат Бухорий - зуллисонайн шоир / БухДУ ахбороти.

Бухоро, 2006. № 4.

3. Воҳидов С. Бухорийлар бўстони. Таржималар. “Турондот”. –Т.: 1998.

4. Воҳидов Р., Эшонкулов Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. –Т.: Ўзбекистон Республикаси Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006.

5. Шомуҳамедов Ш. Одамийлик иншоиси. –Т.: 1984.

6. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони (Форсийдан Б. Аҳмедов таржимаси). –Т.: 1981.

7. Бертелс Э. Э. История персидско-таджикской литературы. Избранные

труды. Издательство восточной литературы. М.: 1960. - с 360.

8. Бобокалонов С., Раупова Р. Хожа Исмаи Бухорийнинг маънавий мероси.

- Бухоро, 2009. -48 б.

9. Маънавият юлдузлари (Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адиблар).//Тўпловчи ва масъул муҳаррир: М.М. Хайруллаев. –Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашр. 2001.

10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Habib_us-siyar

BESHINCHI MAVZU:
POSHSHOXO'JA ABDULVAHOBXOJA O'G'LI XOJA
HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Xojaning hayot yo‘li.

2. Poshshoxo'ja Abdulvahobxoja o'g'li Xoja haqida ma'lumot beruvchi manbalar

3. Poshshoxo'ja Abdulvahobxoja o'g'li Xoja asarlarining g‘oyaviy-badiiy tahlili

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|-----------------------|-------------------------|
| • <i>Xoja</i> | • “Gulzor” |
| • <i>Buxoro</i> | • <i>Jonibek Sulton</i> |
| • <i>Samarqand</i> | • “Maqsad ul – atvor” |
| • <i>Darun</i> | • <i>G‘azal</i> |
| • <i>Shayboniyxon</i> | • <i>Doston</i> |
| • <i>hikoyat</i> | • <i>Ruboiy</i> |
| • <i>Miftohul adl</i> | • <i>Qit’a</i> |

Poshshoxo'ja Abdulvahobxoja o'g'li Xoja yirik adid, davlat va jamoat arbobidir. Uning otasi Abdulvahobxoja o'z davrining yirik mutasavvufi va shoiri bo'lgan. Poshshoxo'ja o'z davridagi ilmlarning barchasini puxta egallaydi. Shayboniyxon davrida u Darun viloyatiga hokim etib tayinlanadi. Umrining oxirgi qismini Samarqand va Buxoroda o'tkazgan. U o'z zamonida e'tirof etilgan shayx lavozimida ham faoliyat ko'rsatgan.

Adibning "Mifioh ul – adl" («Adolat kaliti»), "Gulzor" asarlari mashhurdir. Ularda axloqiy - ta'limiy mavzular yetakchilik qiladi. Bu ikki asar ham kichik hajmli hikoyalar to'plamidan iborat. Ularda davlatni boshqarish, hukmdor va xalq munosabatlari, el- yuri osoyishtaligi va obodonchilik, axloq - odob, ma'rifat va ma'naviyat masalalari tilga olinadi.

U lirik shoir sifatida ham ko'plab g'azal, ruboiy va qit'alar yaratgan. "Maqsad ul – atvor" dostoni Jonibek Sultonga bag'ishlangan.

Ulug' adibning "Miftoh ul-adl" kitobi qo'lyozmasining O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida № 885, №1791 va № 7796 inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxalari bor. Shulardan biri № 7796 inventar raqami ostida saqlanadi. Mazkur kitob nasta'liq xat turida chiroyli husnixat bilan yozilgan. Xoja taxallusi bilan qalam tebratgan yirik mutafakkir adib va shoir Ibodulla Sayyid Podshoxoja ibn Abdulvahobxoja o'zining muhim ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy mazmunda yaratgan hajman kichik, mazmunan didaktik nasriy hikoyalari bilan shuhrat qozongan yirik ijodkordir.

Xojaning hayoti va ijodiy faoliyati haqida uning o'z asarlari "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" hamda XVI asr an'anlari asosida yaratilgan Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkir ul-as'hob" tazkirasida ham ma'lumotlar keltiriladi. Hasan Nisoriy tazkirasida Xojaning bir qator poetik asarlari, jumladan, fors va o'zbek tilida tartib berilgan ikki devoni, Nizomiy va Alisher Navoiy dostonlaridan ta'sirlanib yozilgan "Layli va Majnun" hamda "Maqsad ul - atvor" nomli dostonlar muallifi bo'lganligi ham ta'kidlanadi. Bu asarlarning so'ngi vaqtgacha noma'lum bo'lib kelayotganligi Xojaning lirik va liro-epik merosini tahlil etish imkonini bermayotgan edi. Lekin shoirning "Maqsad ul -

atvor" dostonining topilishi, Xoja ijodini o'rganishda alohida voqea bo'ldi²⁶.

Hajman kichik nasriy hikoyalardan tashkil topgan "Mifto'ul-adl" ("Adolat kaliti"), "Gulzor" singari asarlar hamda "Maqsad ul-atvor" nomli pand-nasihat ruhidagi doston yozgan bu ulug' so'z san'atkorining hayoti va adabiy faoliyati, asosan, XX asrning birinchi yarmidan o'rganila boshlandi. Mazkur yo'nalishdagi dastlabki izlanishlarni yirik jadid allomalaridan biri Abdurauf Fitrat boshlab berdi.

Fitratning "O'zbek adabiyoti namunalari" kitobida "Mifto'ul-adl" asaridan "Haj qilmoqni istagan shoh", "Luqmoni hakim", "Mahmud G'aznaviy va Ayozi Xos", "Mahmud G'aznaviy va tolibul ilm" kabi hikoyalar keltirilgan. Fitrat tomonidan "Mifto'ul-adl" hikoyalarining nashr etilishi Xoja ijodini o'rganish va unga qiziqish boshlanganidan darak beradi.

1941 yilda nashr etilgan "O'zbek adabiyoti tarixi" xrestomatiyasining 1-jildida "Mifto'ul-adl" haqida kichik ma'lumot berilib, asardan namuna sifatida etti hikoyat keltiriladi.²⁷ "Mifto'ul-adl" haqida berilgan ma'lumotlarga ko'ra asar qachon va kim tomonidan yozilganligi no'malum, asar, u XIV asrda yodgorligi sifatida beriladi.

Adabiyotshunosligimizda Xojaning ushbu asari va uning yashagan davri bilan bog'liq muammolarni ham qilishda bir qator ishlar e'lon qilindi. Jumladan, Islom Ahmedovning "Podshoxoja va uning "Gulzor" majmuasi" sarlavhali maqolasi e'lon qilindi²⁸. Adabiyotshunos olim S. Qosimov filologiya fanlari kandidati ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida "XIII–XIV asrdagi o'zbek folklorining tematik doirasi va fikriy yo'nalishini aniqlash uchun xarakterli bo'lgan "Mifto'ul-adl" asarining qachon va kim tomonidan yozilganligini bilmaymiz, faqat shunisi ma'lumki, asar shaxzoda Temur degan kishiga bag'ishlab yozilgan²⁹, -deydi. Va asar qachon yaratilgan bo'lishidan qat'iy nazar, uning hikoyalari orasida XIII–XIV asr o'zbek folkloriga oid materiallar, xalq og'zaki ijodi namunalari asosida qayta ishlangan hikoyatlar mavjud bo'lgani uchun "Mifto'ul-adl" asariga ham to'xtalib o'tadi.

Xoja hayoti va uning asarlari bilan bog'liq muammoli mulohazalarni hal qilishda V. Zohidovning xizmatlari katta bo'ldi. V.

²⁶.Тоҳиржонов А. Хожанинг янги топилган асари. Ўзбек тили ва адабиёти. 1975 йил, 3-сон.

²⁷. "Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси". 1-том. Ўқувпеднашр. Тошкент. 1941 йил.

²⁸ И. Ахмедов. "Подшохожа ва унинг "Гулзор" мажмуаси". "Ўқитувчи"газетаси. 17 май, 1947 йил.

²⁹. С. Қосимов. "Хоразмий ижоди". Кан. диссертацияси. –Т.: 1950.

Zohidov "Mifto'ul-adl" va "Gulzor" kabi maqolalarida shu davrgacha avtor noma'lum, o'zi XIV asrda yaratilgan deb hisoblangan "Mifto'ul-adl" asari XIV asrda emas, XVI asrda yaratilganligini, u XIV asrda yashagan Amur Temurga emas, balki XVI asrda yashagan Shayboniyxonning o'g'li Muhammad Temur sultonga bag'ishlanganligi va XVI asrda yashab ijod etgan Podshoxoja qalamiga mansub ekanligi aniqlanadi³⁰.

Bulardan tashqari, B. Ahmedov va Q. Munirovning "Hofiz Tanish Buxoriy"³¹ kitobchasida, Akram Ibrohimovning "Xoja hayoti va ijodi haqida ba'zi bir ma'lumotlar"³² sarlavhali maqolalari e'lon qilinadi.

Ta'kidlash lozimki, Xojaning hayoti va ijodiy merosi haqida nomzodlik dissertasiyasi ham yaratildi. Ushbu dissertasiya muallifi olim Marg'uba Mirzaaxmedovadir. Olima Xoja ijodining Fitrat tomonidan o'rganilishi borasida quyidagi fikrlarini qayd etadi: "Fitrat tomonidan "Mifto'ul-adl" hikoyalarining nashr etilishi Xoja ijodini o'rganish va unga dastlabki qiziqish boshlanishidan darak beradi". Mirzaaxmedova Abdurauf Fitrat, Natan Mallayev, Vohid Zohidov, Sodiq Qosimov singari adabiyotshunoslarning bu boradagi ilmiy izlanishlarini borasida ham o'z mulohazalarini qayd etib o'tadi.

Ya'ni "Mifto'ul-adl" asarining yozilgan davrini XVI asr sifatida qayd etadi. Abdurauf Fitrat "O'zbek adabiyoti namunalari" majmuasida "Mifto'ul-adl"dan sakkizta hikoya keltiradi. Biroq olim asar noma'lum muallif tomonidan yaratilganligini e'tirof etadi. Qolaversa, u "Mifto'ul-adl"ning yozilgan davrini XIV asr sifatida ko'rsatadi. Bu ilmiy mulohaza keyingi yillarda nashr etilgan ko'pgina kitoblarda, shuningdek, sharqshunos olim E.E.Bertels tadqiqotlarida ham o'z ifodasini topgan. Yirik adabiyotshunos olim Vohid Zohidov esa Xoja va uning adabiy merosi haqidagi tadqiqotlarida "Mifto'ul-adl" XVI asrning mashhur ijodkori Xoja tomonidan Shayboniyxonning o'g'li Muhammad Temur Sultonga atab yozilganligi haqida ma'lumot beradi.

Shuningdek, olim S.G'aniyeva bilan hamkorlikda har ikkala asardan namunalarni nashr ettirdi (Podshoxoja. "Mifto'ul-adl" va "Gulzor"dan. Toshkent, 1962.). Adibning hayoti va faoliyatiga oid mavjud fikrlarga aniqlik kiritish adabiyotshunos A.Ibrohimovning ilmiy izlanishlarida ham ko'zga tashlanadi. Tadqiqotchi "Xoja hayoti va ijodi haqida ba'zi ma'lumotlar" ("O'zbek tili va adabiyoti" jumali, 1965- yil,

³⁰ . В. Зоҳидов. Ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: ЎзССР Бадий адабиёт нашриёти. 1961.

³¹ . Б. Аҳмедов, Қ. Мунировнинг "Хофиз Таниш Бухорий" Ўз. ФА нашриёти. –Т.: 1963.

³² . Ўзбек тили ва адабиёти. 1965. № 4-сон.

4-son) nomli maqolasida Hasanxoja Nisoriy adibning o'g'li ekanligini keltirilgan asosli dalillar bilan isbotlaydi. Xojaning hayotiga doir birmuncha mufassalroq ma'lumotlar Ismoil Bekjonning "Shoir va davlat arbobi" ("O'zbekiston adabiyoti va san'ati" haftanomasi. 1991-yil 15-mart) nomli maqolasida uchraydi³³.

Podshohxoja Abdulvahobxoja o'g'li Xoja 1480-yilda Xurosonning Niso viloyatida o'z davrining yirik ziyolilaridan bo'lgan, turkiy va fors-tojik tillarida ajoyib she'rlar hamda nasr namunalarini yaratgan Abdulvahobxoja binni Sulaymonxoja oilasida dunyoga keladi. Manbalarda qayd etilishicha, bu kishining shajarasi turk shayxlaridan Zangi otaga, undan esa Ahmad Yassaviyning ustozlari Arslonbobga borib taqalar ekan. Abdulvahobxoja Bug'raxonning qizi Anbar onaga uylangan va Niso viloyatida istiqomat qilgan. Uning "Orif" taxallusi bilan ijod qilganligi ilohiy va irfoniy ilmlardan yaxshi xabardor bo'lganligini ko'rsatadi. Oila muhiti Podshohojani ilm-ma'rifatga bo'lgan havasini juda erta uyg'otgan ko'rinadi. Manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, u dastlab otasi qo'lida, keyinchalik Niso va Marv madrasalarida ilm olgan. Ma'rifatli insonlar oilasida tarbiya topgan Podshohxoja adabiyot, she'riyat bilan birga fiqh, tasavvuf, riyoziyot va handasa kabi fanlarni puxta o'rganadi. Uning yoshlik yillari Husayn Boyqaro hukmronligining tobora inqirozga yuz bura boshlagan paytlariga to'g'ri keladi. Tarixdan ma'lumki, Badiuzzamon Mirzoning o'g'li qatl etilgandan so'ng ota-o'g'il, aka-ukalar o'rtasidagi adovat yanada kuchayadi. Bu davrlarda, ya'ni 1496-yildan Podshohxoja rasmiy lavozimlarda faoliyat ko'rsata boshlaydi. U Niso va Obivard hokimi Kepak Mirzo (asli ismi Muhammad Muhsin Mirzo) tomonidan vaqf mulki hisob-kitoblarini yuigizuvchi-sadrlik lavozimiga tayinlanadi. Tarixdan ma'lumki, Shayboniyxon 1507- yilda Hirotni o'z hukmronligiga olgach, temuriy shahzodalar Kepak Mirzo hamda Abumuhsin Mirzolar Mashhad yaqinidagi mavzelardan birida Shayboniyxonning o'g'li Temur Sulton va Ubaydulloxon tomonidan asir olinib qatl etiladi. Qolaversa, bu ikki shahzodaning yaqinlari ham shu davrda yo asir olingan, yo o'ldirib yuborilgan. Nazarimizda, Xoja 1500-yildanoq temuriylarga xizmat qilishni to'xtatgan ko'rinadi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, 1508-yilning aprel oyida Shayboniyxon Movarounnahrda qaytayotib, Nisoda to'xtaydi va Hirotdan Muhammad Solihni chaqirtirib, uni shu viloyatning hokimi etib tayinlaydi. Bu

³³ Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 512- 6

davrda Podshoxoja esa yetuk shoir va adib sifatida ancha tanilgan edi. Shayboniyxon Xojaga Durun nohiyasining hokimligini ishonib topshiradi. Podshoxoja 1508-1510- yillarda shayboniy valiahd Temur Sultonga bag'ishlab «Miftoh ul-adl» nomli asarini yozadi.

1510-yilda Muhammad Shayboniyxon Hiroti Ismoil Safaviy qo'shinlariga jangsiz topshirib, mustahkam istehkom sifatida Marvga chekinadi. U yaqin atrofdagi hokimlar, jumladan, Xojani o'z oldiga chaqiradi. Shu yilning 10-dekabrida esa u qurshovda qolib, fojiali o'lim topadi. Ubaydulloxonning o'z vaqtida yetib kelishi Xoja, Shayboniyxonning boshqa a'yonlari va odamlarining o'limdan qutulib qolinishiga sabab bo'ladi. Bu mudhish voqealardan so'ng Xoja ma'lum muddat Samarqandda, 1513-yilning oxiridan Buxoroga kelib, isteqomat qila boshlaydi. 1514-yilgacha u shayboniyzodalardan, Temur Sulton, keyinroq Ko'chkunchixon xizmatida bo'ladi. 1515-1516-yillardan e'tiboran esa u Karmana hokimi Jonibek Sulton xizmatida sadrlik lavozimida faoliyat ko'rsata boshlaydi. Jonibek Sulton Xojaning halol va pok insonligiga amin bo'lgach, unga sadrlikka qo'shib “eshik og'o”ligi lavozimini ham beradi. Adibning bu davrdagi hayoti birmuncha osoyishta kechadi. Shu bois u Nizomiy Ganjaviyning “Panj ganj”iga javoban Jonibek Sultonga bag'ishlangan “Maqsad ul-atvor” dostonini bitadi. Keltirilgan ayrim ma'lumotlarga ko'ra, shoir Karmanadagi siyosiy barqarorlikka ishonib “Xamsa” (beshlik dostonini) yozish fikrida ham bo'lgan. Biroq davlat ishlari, harbiy safarlar ijodkoring ushbu orzusini amalga oshirishiga imkon bermagan. Ma'lumki, 1529-yilda shayboniy shahzoda Jonibek Sulton vafot etadi. Shu yilning yozidayoq Ubaydulloxon Xojani sadrlikka ishga oladi. Kuzda esa u Hiroti qamal qiladi. Shahar aholisi bilan har ikkala tomonning manfaatlarini ko'zlab sulh tuzishga erishgani uchun Ubaydulloxon Xojani shahar “shayxulislom”ligi va Abdulla Ansoriy mozori shayxligiga tayinlaydi. 1533-yilda Ubaydulloxon bosh xonlikni qabul qilgandan so'ng, Xoja Buxoroga kelib, “sadri a'zamlik” mansabiga ko'tariladi. 1534-yilda Ubaydulloxon Xurosonga navbatdagi zafarli yurishini amalga oshiradi. U Nishopurga kelganida, katta harbiy yig'in o'tkazadi. Mashvaratda 1526-yildan beri Balx viloyatini idora etayotgan Kistan Qaro ibn Jonibek ham ishtirok etadi. U otasi Jonibek Sulton huzurida ko'p yillar faoliyat ko'rsatib, davlatni idora etish borasida katta tajribaga ega bo'lgan Podshoxojani Balxga yuborishni Ubaydulloxondan iltimos qiladi. Shundan so'ng, Xoja Balxda avval sadrlik, ko'p o'tmay shayxulislomlik vazifasini bajaradi. U mazkur shaharda o'ziga xos

adabiy muhit tashkil etishga harakat qiladi. Ma'lumotlarga qaraganda, 1539-yili Kistan Qaroyi Odilga bag'ishlab "Layli va Majnun" dostonini, "Gulzor" asarini yozadi. 1543-yilda Balx hokimi Kistan Qaro ruhiy kasallikka chalinganidan keyin, Xoja o'z vazifasidan kechib, ijod bilan mashg'ul bo'ladi. Adib 1566-1567-yillar oralig'ida Buxoroda vafot etadi va Bahouddin Naqshband maqbarasi yoniga dafn qilinadi.

"Miftoh ul-adl" ("Odillik kaliti") asari mumtoz o'zbek adabiyoti tarixida muhim o'ringa ega. Bu kitobning muqaddima qismidan ma'lum bo'lishicha, asar Muhammad Shayboniyxonning o'g'li shahzoda Temurbekka bag'ishlangan. "Gulzor"ga kiritilgan hikoyalar har jihatdan "Miftoh ul-adl"ning hikoyalariiga tamomila muvofiqdir, uning mazmun-mohiyatini oydinlashtiradigan materiallardan iboratdir. Sharq mumtoz adabiyoti an'anasi bo'yicha, asarning oxiriga "Kitobning so'nggi" deb qo'yiladi. "Miftoh ul-adl"ning qo'lyozma nusxalarining so'nggida esa bu yozuv yo'q va odatdagi "Bismilloh..."dan keyin "Gulzor" asari boshlanadi. "Gulzor"ning oxirida esa "Kitobning so'nggi" berilgan. Ba'zi qo'lyozmalarda "Miftoh ul-adl" bilan "Gulzor" bir kitob shaklida muqovalangan holda kitobat qilingan. Bu ikki asar o'zining tili, uslubi, g'oyaviy va badiiy xususiyatlari bilan ham bir-birga juda yaqin turadi.

Xojaning "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" asarlari XI asrdan mumtoz adabiyotda o'ziga xos an'ana tusini olgan pand-nasihat (didaktika) ruhida yozilgan badiiyat namunalari turkumiga mansubdir. Turkiy yozma adabiyotda bu hodisa ilk bor Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida o'z ifodasini topgan. Undan so'ng, Ahmad Yugnakiy ushbu yo'nalishni "Hibat ul-haqoyiq" dostoni asosida davom ettirdi. Bu an'ana Alisher Navoiy tomonidan ham davom ettirildi, jumladan, uning "Hayrat ul-abror" dostonida va "Lison ut-tayr"ida hikoya va masallar tarzida ifodalangan. Aytish mumkinki, Xojaning kichik nasriy hikoyalardan tarkib topgan "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" asarlari ko'proq fors-tojik adabiyotining taniqli vakillari Kaykovusning "Qobusnoma", Shayx Sa'diy Sheroziyning "Guliston", "Bo'ston", shuningdek, turkiy mumtoz adabiyotning ulug' mutafakkir adibi Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarlariga o'xshab ketadi. Hajman kichik nasriy hikoyalar yaratish an'anasini Xoja davriga qadar Nosiruddin Rabg'aziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida ham ma'lum ma'noda uchrash mumkin. Demak, Xoja o'ziga qadar vujudga kelgan boy adabiy an'anadan ijodiy foydalanib, ixcham hikoyalarini yozishga kirishgan. Fikrimiz isboti sifatida "Miftoh ul - adl" dan ayrim hikoyatlarni tahlilga tortsak:

“Kunlardin bir kun bir podshoh bor erdi. Bisyor adil erdi. Bir kun bir vazirina aydi: haj tavof qilmoqg'a berurman, san borurmusan ? Vazir aydi: ey podshohim, taxtni bo'sh qo'yub Ka'bag'a borsangiz el - xaloyiq boshtoq bo'lmasin, tedi. Podshoh aydi: boshtoq bo'lmas, yo'q ersa, manga haj qilg'on hojining savobin sotgun olib berging, qiyomatda hojilar bila turgayman. Vazir Podshoh uchun haj sotg'un olmoq kerak” deb istab yurar erdi, bir kimarsag'a yo'luqti (Ul kishi) aydi . Falon yerda bir zohid bor turur. Yigirma qatla Ka'bag'a yayog' boribturur va taqi haj qilibturur va hech kishining oshdin emas, ange boring. Ul bir haj sotsa, podshoh uchun oling. Burib ul zohidni podshohga olib keldilar. Podshoh aydi: ey zohid, bir yo'li qilg'on hajining savobin bizga soturmisan? Zohid aydi: nega olursiz? Sulton aydi: ming qizil tanga berayin. Zohid aydi: ming qizil tanga oz turur. Sulton aydi: ey zohid, oz bo'lsa, o'n ming qizil tanga berayin. Zohid aydi: oz turur. Sulton aydi: o'zing na tilasang tilagil. Zohid aydi: ey podshohim, bir haj na bolg'ay, yigirma hajimning savobini sanga berayin, san bir soat adl qilg'oningning savobini manga bersang. Sulton aydi: ey zohid, bir soat adl qilg'onning savobi na bo'lur? Zohid aydi: bir soat adl qilg'onning savobi odamlarning va parishtalarning va hurlarning ibodatidin ortuqturur”.

Mazkur hikoyatda adolat va uning qiymati haqida muallifning badiiy mulohazalari berilgan. Darhaqiqat, davlatni adolat bilan boshqarish barcha zamonlar uchun ham eng ahamiyatli jihatlardan bo'lgan. Ana shu nuqtayi nazardan, muallif zohid tilidan adolat masalasini yigirma marta yayov haj tavofini amalga oshirishdan ham ustun sifatida ifodalagan. Darhaqiqat, hukmdor adolat qilsa, xalq osoyishta, roziyona hayot kechiradi. Bu degani butun xalq podshohdan rozi, farovon isteqomat qiladi. Xalqni rozi qilish – bu eng ulug' va savobli amallardan hisoblanadi. Shu munosabat bilan ayni masala qalamga olingan. Xojaning ayni masalani yoritishi ham bejizga emas, chunki uning o'zi ham shayx-ul islom, qozilik, sadrlik lavozimlarida adolat bilan faoliyat yuritgan. Hikoyat hajman ixcham, soda, xalq uchun tushunarli tarzda ifodalangan. Xoja hikoyatlarida oilaviy-maiyshiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy g'oyalar talqin qilingan. Ular qanday mavzuda bo'lishidan qat'iy nazar, ularni bog'lab turadigan bir mavzu –axloqiy-ta'limiy (didaktik) mavzu mavjud. Ayni shu bilan bog'liq yana bir hikoyat tahliliga e'tibor qaratsak:

Hikoyat: Ayturlarkim, Shayx Bahlul devona alayhi rahma bir kun Horun ar - Rashid xalifaning devonxonasiga kirdi. Ko'rdikim, xalifaning

o'zi haramga bormishdur, ko'rishga chiqmoydur. U devona borib xalifaning taxti ustig'a minib o'ltirdi. Yasovullar Shayx Bahlulni tonimas erdilar. Shayxni tushkil, deb boshig'a tayoq birlan urdilar. Shayxning boshidin qon oqaberdi. Ushbu holda Hornun ar - Rashid haramdin chiqib keldi. Ko'rdikim, Shayxning boshidin qon oqaturur, Shayx taxtning ustida kulub o'lturubdur. Halifa Shayxning qoshig'a adab va ta'zim birla keldi va aydi: ey Shayx, sizg'a ne bo'ldi va ne uchun mundog ' kulasiz? Shayx aydi: man bir soat saning taxtingda o'lturdum, ersa urub boshimni yordilar. Sankim, yillardurki bu taxtning ustida o'lturubsan, saning holing ne bo'lg'oy deb kularman. Shayx bu so'zni degach, xalifa zor - zor yig'ladi va Shayxning ayog'ig'a tushub uzrxohlik qilib, ta'zim va ikrom birlan uzotti ...

Ushbu hikoyat ham o'ta ibratli, didaktik xarakterga ega hikoyatlardan sanaladi. Ya'ni shohlik va shayxlik orasidagi tavovutga ishora qilib o'tilgan. Shayx Bahlul Horun ar - Rashid xalifaning devonxonasiga keladi. Ammo bu paytda shoh devonxonada emas, nalki haramda bo'ldi. Shunda Shayx Bahlul bosh qolgan xalifa taxtiga o'tiradi. Xalifaning yasavullari esa, Shayx Bahlulni tanimaydi va taxtdan tushishini talab qilib boshiga kaltak bilan uradi. Shunda boshidan qon oqsa-da Shayx Bahlul taxt ustiga kulib turayveradi. Shu payt xalifa haramdan devonxonaga kirib keladi. Shayx Bahlulni ko'rib, undan nima sababdan kulib turganini so'raydi. Muallif ayni ibratli fikrni Shayx Bahlul tilidan ifodalaydi. Hikoyatda toju-taxtning o'tkinchiligi, shohning har bir soniyada e'tiborli bo'lishi, xalq haqqi, uni rozi qilish, adolat bilan taxtni boshqarish kabi masalalar badiiy talqin etilgan.

Xoja ijodida shu kabi turfa mavzular ifodalangan nodir hikoyatlar juda ko'p. Ularning mutalaasi, albatta, kishini komillik sari yetaklaydi. Ana shunday yana bir ibratli hikoyatini mustaqil o'qish uchun e'toboringizga havola qilamiz:

Hikoyat: Kunlardan bir kun Staton Mahmud G'aznaviy tush vaqtida o'lturub erdilar. Bir tolibul ilm yigit kelib salom qildi, taqi aydi: ey Sultonim , qozi elidin dod. (Sulton) aydi: ne qildi ? Ul tolibul ilm aydi: otam bir qari kishi erdi, o'ldi, ersa moli ko'b qoldi. Man tahsili ilm qilmoq uchun Turkiston viloyatiga bormoqchi bo'lub, ming qizil tilloni bir kissaiki ipakdan to'qulg'on erdi, ong'a solib qoziga olib borib amonat qo'ydim, taqi ul kisaning og'ziga muhr ham qilib erdim. Bir necha vaqtdin so'ng tahsili ilm qilib keldin, ersa qozi oldig'a bordim, o'shul amonat qo'yg'on nimarsani bering deb. Ul kissani muhri birlan chiqarib berdi. Uyga borib o'shul kissani ochub ko'rsam, mis tanga bo'lubdur.

Ondin so'ng qozidin borib so'rdum, ersa ul qozi aydi: man bilmon, manga bir muhrlik kissa berdung, oltinmu va yo boqirmu bilmaymen, muhrin sang'a buzmay berdim, tedi. Emdi sizg'a keldim, siz bilursiz. Sulton aydi: ont berg'il. Ul tolibul ilm aydi: ey Sultonim, bu qozining onti laklak qushning hikoyatiga o'xshar, ong'a nechuk ont berayin, tedi. Sulton aydi: laklak qushning hikoyati nechukturur? Ul tolibul ilm aydi: laklak doim yilon yer ermish. Bir kun yilonlar jam' bo'lib aydilar: bizlar laklak birlan murosqa qilib qismat qiloli: har kunda bir yilon oning xo'rokiga berali, o'zgamizg'a zahmat bermasun. Borchalari aydilar: andoq bo'lsun. Bir yilonni elchi qilib laklakning yoniga yibordilar. Laklak ham bu so'zni qabul qildi, ont ichtikim, kunda bir yilondin ziyoda emasman, deb. Bir necha kun kechkandin so'ng laklak bolaladi, bolasi och bo'ldi, bir yilonga qorni to'ymos bo'ldi. Bir kun yilonlar inidin chiqib, hama jam bo'lub o'lturur erdilar. Laklak uchub borur erdi. Bularni ko'rub, yonlarig'a keldi taqi salom qildi, fikr birlan turib erdi, yilonlar kelib borchalari ziyorat qildilar. Bir soat kechti ersa yilonlar g'ofil bo'lub turub erdilar, burnin uzotub besh - olti yilonni tutti, ikki tirnog'i birlan ikki yilonni tutub uchub, bolalarning yonig'a keldi. Ondin so'ng yilonlar faryod qilib, laklakni keynidin bordilar taqi aydilar: ey laklak, san ont ichib erding, kunda bir yilondin boshqa yilong'a tegmas bo'lub erding. Nechuk ontini buzdung? Ul aydi: sizlar bilurmusizlar, man kim tururman? Doim man minora ustida o'ltururman taqi minoradin turub masjidga song'urman, gunohdin qo'rqmasman. Minora boshidin masjidga song'urg'on (ning) onti bo'lurmu, tedi. Emdi ey Sultonim, birovkim qozi bo'lub xoin bo'lsa, erta - yu kech rishva olib o'lturg'on bo'lsa, oningdek kishi nechuk ont ichmas, tedi. Bu so'z Sultong'a bisyor xush keldi. Sulton aydi: ul kissani maning yonimda qo'yub borg'il, man bir fikrin qiloyin, deb ul kissani olib qoldi, aydi: holo saning so'zing birlan bul qozini o'ltursam, xaloyiq ayturlar: qozining puli uchun o'ldurdi deb malomat qilurlar, odim yamon bo'lur. Tolibul ilm ketti. Sulton bu kissani qo'lg'a olib boqti, hech bir yerinda teshukning gumoni yo'q erdi, Sulton fikr qildikim, ajab ermas, bu kissani teshub dog'i tukutg'on bo'lsa, deb gumon qildi. Bu kecha yotib, erta turg'onda to'shakning bir yeridin pichoq birlan yordi. Odin so'ng o'zi ovg'a chiqib ketti. Ondin so'ng farrosh kelib, tushakni yig'or bo'ldi. Ko'rsakim, pichoq birlan kesilg'on turur. Aydi: agar muni Sulton ko'rsa, ne qilg'oyman, deb qo'rqunchdin. Ondin yaxshiroq yo'qtururkim, muni eltib to'qutg'oymen, tedi. Bir ustod to'qug'uvchi bor erdi. Ang'a aydi: ey ustod, muni andog' to'qig'ilkim, hech kishi bilmosun, tedi. Ul aydi: andog' qiloyin, tedi.

Besh oltun berdi. Ul ustod qabul qildi, bir kun ichida to'qudi, farroshning qo'liga berdi. Farrosh kelturub to'shakni to'shakxonag'a qo'ydi. Sulton ovdan keldi, ko'rdikim to'shak butun bo'lubdur. Farroshdin so'rdi: bu to'shakni man kesib erdim, muni kim tuzatti? Farrosh aydi: siz ketkandin so'ng to'shak yig'arda ko'rdumkim, to'shak kesilmish. Ondin so'ng qo'rqqonimdin, bir kishi bor erkan, olib borib tuzatturdum. Sulton aydi: ul ustoni ertong birla olib kelg'asan. Ajab bo'lur, deb er o'pti, taqi tong birla borib ul ustoni olib keldi, ersa Sulton aydi: ey ustod, bu to'shakni sanmu to'quding ? Ul aydi: ore, man to'qudim. Sulton so'rdi: bu shaharda sandin boshqa hech usto bormu ? Ul aydi: yo'qtur. Sulton aydi: o'z boshing uchun ayg'il: qozi sang'a hech kissa to'qutturdimu? Ul aydi: ore. Sulton aydi: ko'rsang tonurmusan? Ul aydi: tonurman. Sulton ul kissani chiqorib, ustodning oldig'a tashladi. Ustod olib ko'rdikim, ul kissa turur dedi. Sulton aydi: borib pulchilarni olib keling, dedi. Ondin so'ng borib pulchilarni olib keldilar. Sulton alardin so'rdi: qozi uchun mis tanga qoqtingizmu? Ular aydilar: ore. Sulton aydi: tonurmusizlar? Aydilar: tonurmiz. Chiqarib ko'rguzdi, ersa alar aydilar, shul turur. Ondin so'ng bularni bir uyga kirguzub qo'ydilar. Ondin so'ng tolibul ilm birlan qozini olib keldilar. Sulton tolibul ilmga aydi: so'zlog'il, tedi. Tolibul ilm har ne so'zi bor erdi, borhasin bayon qildi. Qozi aydi: yolg'on aytur. Mang'a bir muhrlik kissa berdi. Bilmadim, ichinda ne borturur erdi. Man taqi muhrin buzmoy, ul berg'ondek o'z qo'liga berdum, tedi. Sulton aydi: amonatni xiyonat qilmog'oning uchun ont ichormusan? Qozi aydi: ichorman, tedi. Sulton aydi: pulchi ustod birlan kissa to'qug'on ustod guvohlik bersalar o'larmusan? Ul aydi: o'larman. Sulton aydi: pulchi birla kissa to'qug'onni undang. Undadilar. Kissa to'qug'on aydi: ey qozim, kissani man to'qub sang'a berdim. Pulchi aydi: ey qozim, bu pulni man sang'a ishlab bermadimmu, san tonarsan, tedi. Qozig'a tavahhum bo'ldi. Sulton aydi, donishmandlardan so'ranglar, bu qozig'a ne kesilur? Donishmandlar aydilar: o'lum kerak. Ondin so'ng Sulton hukm qildikim, bu qozini dorg'a osing. Taqi osdilar. Ondin so'ng Sulton ul tolibul ilmg'a buyurdikim, san qozi bo'l , tedi. Ul tolibul ilm aydi: man shuncha vaqtdan berli ilm tahsil qildim xudo rizosi uchun. Emdi Ollo taolo yorlagag'ay ... Emdi san tilarsankim, man qozi bo'lsom, taqi o'lsam, imonsiz ketsam, tedi. Sulton aydi: nechuk ? Ul aydi : Ozarbayjon shahrinda bir qozi bor erdi. Xasta bo'lg'on erkan. Man ustodim birlan ul qozining ko'chasidin o'tub borur erduk. Kelib aydilar: qozini so'rmossizlarmu? Ustodim so'rg'oli kirdi, ersa man ham birga kirdim. Qozini ko'rduk ersa, qozi bizlarg'a qarab yig'ladi, taqi kalimayi shahodat

o'qidi, taqi aydi: ey ustodim, man o'lsam, mandin rizo bo'lung, tedi. Ustodim aydilar: ey qozi, qo'rqmag'il, o'lmassan bu xastalikdin, turarsan. Qozi aydi: ne bildingiz, tedi. Onda ustodimiz aydilar: holo kalimayi arza qilding, imon kelturding, kitob ichinda ko'rubmankim, qozi rishva olsa, imon keltursa o'lmas. Taqi ul xastalikdin o'lmay turdi. Ondin so'ng bir sharob ichib, otga minib borur erkan, oti urkub, ko'tarib yerg'a urmish, ul taqi o'lmish. Ul qozi bu dunyodin imonsiz ketmish.

Emdi mang'a qozilik kerakmas, deb javob berdi (tolibul ilm). Sulton aydi: qozilarg'a go'r azobi qotig'mi bo'lur? Ul tolibul ilm aydi: bir kun Kufa shahrida amiral mo'minin Ali ... yonlarig'a bir kishi keldi, aydi: yo Ali, uch yil bo'ldi ekin ekarman, ul yer hech hosil bermas, tedi. Ali aydilar: davot - u qalam kelturunglar. Davot birla qalam keltirdilar. Bir xat yozib berdi ekin ekoturg'on kishining qo'liga, aydi: bu xatni eltub ekinning o'rta yerinda ko'mg'il. Eltib ko'mdi, ersa ul yer ziyoda ko'b hosil berdi. Ul kishi tahsin qoldi, ajabtur, tedi. Bu xat ne xat erkon, ul yerdin ochib ul xatni olib o'qudi, ersa yozilmishkim, ey yer, bu yil ham hosil bermasang, bir zolim qozi o'lgan bo'lsa, o'likini kelturub saning o'rtongda ko'marman, degan xat erkan. Emdi mundin ma'lum bo'ldikim , qozilarni yer ham qabul qilmas erkan - aning azobidin qo'rqor ...

Bir zolim qozining hukmxonasining eshikidin o'tsa, quli ozod bo'lmag'ay. Taqi aytibdurlarkim, it har tunda aytur ermish: Ollo taologa shukurkim, mani qozi qilmay, it qilibturur.

Taqi zolim qozining so'zi ko'pdur, ammo emdi muxtasar qilduk.

Emdi, sulton yo bek bo'lg'on juvonmard bo'lmoq kerak, nechukkini Sulton Mahmud taxtga o'ltirmoqchi bo'lg'onda vazirlarig'a aydi: bu xaloyiqqa bu sulton ko'rkluk bo'lsa oni sevarlar, man ko'rksizman, yanogim rasvo turur, burnim ulug' turur. Xaloyiqlar mani tilamaslar. Vazir aydi: ey sultonim, siz molni yag'mo qilishni sevmasangiz borchaxaloyiq sizni sevarlar, tedi. Ersajamixaloyiq, andoqturur, deb rozi bo'ldilar. Ondin so'ng, taxtga mindi ...

Axloq-odob masalalari Xoja asarlarining etakchi g'oyasinim tashkil etadi. Fikrimizni adibning "Maqsad ul-atvor" asari ham tasdiqlaydi.

"Maqsad ul - atvor" "Xamsa" turkumiga kirgan birinchi dostonlar "Mahzan ul-asror" (Nizomiy), "Matla ul-anvor" (Dehlaviy), "Tuhfat ul-ahror" (Jomiy), "Hayrat ul-abror" (Navoiy)larga o'xshatma tarzida yozilgan bo'lib, quyidagi misralar Xojaning ham "Xamsa yaratish niyati yo'q emasligidan darak beradi:

Rahbari bu fanda Nizomiy edi,
Pir anga Xisravu Jomiy edi.

Hotifiy erdi biri ul qavmdan,
Biri Navoiy edi bilgil chiqin.
Andaki tartib kamol ettilar,
Har biri bir "Xamsa" tamom etdilar.
Menga tushganda bu ish navbati,
Bo'ldi manga borisining himmati.

Xojaning bu asari salaflari asari kabi aruzning sari' bahrida yozilgan bo'lib, u yagona syujet chizig'iga ega emas. Dostonning har bir bobida ma'lum bir mavzu, ma'lum bir masala yozuvchi fikr-mulohazalari orqali bayon etiladi. Shunga ko'ra, bu asar ijodkorning dunyoqarashi, uning g'oyalarini, mavjud tuzum va uning tartib-qoidalarga munosabatini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

"Maqsad ul - atvor" dostonida axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-ma'rifiy mavzular o'zining badiiy talqinini topganki, uning bu jihatini nazarda tutib, asarni "Nasihatnoma" deb atashimiz mumkin. Asarning "Nasihatnoma" deb atalgan maxsus bobida farzandi arjumandi Mir Abdusalomgaga nasihat qilib, sabr-qanoatli bo'lish, g'azabdan o'zini tiyish, boylikka hirs qo'ymaslik kabi masalalarda nasihat qilar ekan, o'z fikr va qarashlarini ma'vizia va tanbehlarda beradi. O'z fikrlarini hayotiy misollarda berishishi asarning didaktik ruhini yanada oshirishga yordam bergan.

"Maqsad ul - atvor" dostonida pand va nasihat ruhining ufurib turishini biz Xojaning o'g'li Mir Abdusalomga bergan o'gitlarida ham ko'rishiimiz mumkin.

Mustame' o'l, har nafas pand ol,
Panadu nasihatni quloqqa sol,
Din tilasang dahrda davlat bila
Ko'nglingni shod ayla nasihat bila³⁴.

Xoja o'gitda davom etib, hoyu-havasga berilmasdan, haq ishda sobit bo'lishni ta'kdlab, shunday deydi:

Parvarishi nafs etibon ema osh,
Nafs tilar oshg'a indurma bosh.
Harnaki haq bersa, rizo bo'l anga,
Toki xudo lutflar etgoy sanga.
Mol tilasangkim, yo'q anda vafo,
Mol tilaganlarga tegar ko'p jafo.
O'z gunohingni yod etib, tavba qil.

³⁴. Asrlar nidosi. –T.: Fan. 1982. 93-17-betlar.

Bandasan, o'zingni gunohkor bil³⁵.

Yuqoridagi keltirilgan iqtiboslardan ko'rinib turibdiki, Xoja naqshbandiya tariqatining vakili sifatida tasavvuf g'oyalarini targ'ib qiladi. Bu yo'l esa pand-nasihati berishning eng ta'sirchan yo'lidir.

O'z pandlarini farzandi Abdusalomga qarata aytgan Xoja faqat axloqiy masalar bilangina cheklanib qolmaydi. U asarda ko'tarilgan masalalar doirasini kengaytirib borib, saltanat hukmdori "arshi xilofot uzra ham moh" bo'lgan Jonibekka ijtimoiy-siyosiy masalalar yuzasidan pandlar bera boshlaydi: Uni ko'klarga ko'tarib maqtay ekan, "lutf qilib so'zimga quloq solsang, sanga rahmat bulog'i ochilgay" deb o'z fikr mulohazalarini bayon qiladi. Xojaning fikricha, xoqon adli saxovatda, shijoatda o'rnatilgan bo'lishi, pok e'tiqodi, xalqiga namuna bo'lishligini ta'kidlaydi. Xoja adolatli shoh:

Biru bu, odilsanu pok ettiqod,
Shohki, adl etti topar murod.
Biru bahodirlik erur, bil oni
Yaxshi sifatdur, bu sifat qil oni, deya uqtiradi.

Biz Alisher Navoiy o'zining "Xamsa", "Mahbub ul-qulub" kabi shoh asarlarida mamlakatning obod, yurtning tinch, xalqning farovon yashashida shohlarning adolatli bo'lishi to'g'risidagi olijanob g'oyalarni ilgari surganligini, adolatli shohning esa ilmi, fozil bo'lishi xususidagi ilg'or fikrlarini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, "Nazmul-javohir"da shohlarning ilmi bo'lish g'oyasini shoirning quyidagi ruboiysida kuzatishimiz mumkin:

Har kimdakim, ilm qiylu qoli bo'lmas,
Ilm ahliga so'z derga majoli bo'lmas,
Olim mulkning intiqoli bo'lmas,
Shah olim agar bo'lsa, zavoli bo'lmas.³⁶

Adolatli shohning ilmi bo'lishi to'g'risida Xojaning fikri esa quyidagicha:

Ilmu adab bila bo'lu toat et,
Toati haqni o'zingga odat et.
Ilmga har kishiki hurmat tutar,
Tengri taolo onga hurmat tutar.

³⁵ Asrlar nidosi. Toshkent. Fan. 1982. 93-bet.

³⁶ Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. XV жилд. Назм ул - жавоҳир. –Т.: "Фан", 1999. 171-бет

"Maqsad ul-atvorda" axloqiy masalalarga keng o‘rin berilganligini "Hilmni ilm maosh qilib, sabru tahammulda o‘zin fosh qilib, g‘azabdin andesha va sabrni pesha qilur" bobida ham ko‘rishimiz mumkin.

Hilmni o‘z tavring yor aylagil,
Sabru tahammulni shior aylagil.
Hilm bila ayla jahonda maosh,
Kim, ul ish sani olamga fosh.
Qahr-u g‘azab xossi shayton erur,
Hilm pisandidai rahmon erur.

Biz yuqorida doston yosh hukmdor Jonibek sultonga bag‘ishlab yozilganligini ta’kidlagan edik. Shuning uchun pand-nasihatlar ham ko‘proq mansab egalariga, hukmronlarga qaratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Xoja odlil sulton "haq toatini o‘ziga saodatu ibodtin maqsadi hojat" bilsa, "adolat bila saltanat saroyin obodu saodat bila mazlumlar xotirin shod" aylab, "saxovat bila muhtojlarga inoyat", "bemorlarga shafqat ila iloj" qilsa, "muxoliflarni mag‘lub etib", ilmu fazl ahliga yaqin turishlikni asosiy vazifalardan biri deb bilsa, u No‘shiravon kabi odil, Hotami Toyi kabi saxiy degan nom chiqara oladi, degan xulosaga keladi. Hukmron elga saxovatli, muruvvatli, adolatli bo‘lishi bilan birga o‘zining shaxsiy xulq-odabida ham biror kamchilikka yo‘l qo‘ymasligi, bu kamchilik bor bo‘lgan holda esa, u xalq bilan to‘g‘ri va samimiy munosabatda bo‘lishiga ta’sir etmasligi kerakligini uqtiradi. Jumladan, qahr-u g‘azab hukmron uchun nomunosib xislat ekanligi quyidagicha yozadi.

Qilma g‘azabni oshuqub elga bot,
Kim, sanga ul kelturur oxir uyot.
Qahr kelur damda ketar aql tez,
Qahr solur xalq aro rustaxez.
Qahr o‘ti bo‘lsa ko‘ngilda ayon,
Hilm suyidan oni so‘ndir ravon.

Ko‘rinadiki, Xoja o‘z asarida axloqiy-tarbiyaviy masalalarni ijtimoiy nuqtai nazaridan yoritish yo‘lidan boradi. Bu masalalarni ijtimoiy-siyosiy masalalar bilan qorishiq holda berishi esa asarning qimmatini yana oshirgan.

Biz yuqorida "Maqsad ul - atvor" "Xamsa" turkumiga kirgan birinchi dostonlarga o‘xshatma tarzida yozilganligini ta’kidlagan edik. Bu fikrimizni asoslash maqsadida Alisher Navoiyning "Hayrat ul abror" va Xojaning "Maqsad ul - atvor" asarlaridagi ba’zi bir masalalarni qiyosiy tahlil qilishga harakat qilib ko‘ramiz.

Xoja Navoiy dostonida ko'tarilgan barcha masalalarni "Maqsad ul-atvor"da etarlicha qamrab ola olmagan, ularni Navoiy darajasida chuqur falsafiy mushohada qilmagan bo'lsa-da³⁷, saroyda egallagan mansabi, tutgan maqe', davr ijtimoiy voqealariga munosabati va o'z dunyoqarashi chegarasida fikr yuritgan. O'z hukmroni va uning atrofidagi amaldolarga mamlakatni idora qilish ishida to'g'ri, xalq mafaatlari ko'zlagan holda yo'l-yo'riqlar ko'rsatgan, ilmi, odobli, sabr-qanoatli bo'lishga chaqirgan, riyokor shayxlarning kirdikorlarini ayamay fosh etgan va shu masalalarni o'z davrining dalzarb massalalari sifatida o'z asarida ko'rsata olgan.

Shunga qaramasdan, "Hayrat ul-abror" dostonining asosini tashkil etgan maqolatlardagi bir qator masalalar Xoja asarida ham o'z aksini topgan. Ular riyokor shayxlar xususida, odoblik odati, qanoat haqida, ishq ta'rifida, odil sultonlar vasfida, Hotam Toyi, No'shiravoni Odil hikoyatlaridir.

Alisher Navoiy dostonining to'rtinchi maqolati sarlavhasida shayxlar xususida qo'yidagilarni yozadi: "Riyoyi xirqapo'shlar sulukidakim, o'z qoshlarida xirqai talbislarig'a haqiqiy libosotdurur va haqoyiqu maoriflari avomga libosot. Va haqiqiy bodano'shlar ravishidakim, xirqai vujudlari fano ilgi zo'ridin chok durur va masihodek jonbaxsh nafasleri ruhi muqaddas kibi pok va mahali tavoflari sohati aflok".³⁸ Mana shu bob (o'ninchi tanbeh) sarlavhasi Xojaning quyidagicha ta'riflangan: "Sufiylar bobidakim, zohirlarin zarqu riyo bila tuzub, botinlarin nifoq bila buzub, solus xirqasig'a nomus obosin elga berib,riyo luqmasidin qoirnlari to'q qilib, haqiqatdan xabarlari yo'q"³⁹. Sarlavhadan ko'rinib turibdiki, ikki muallif ham hiylakor, munofiq shayx haqida fikr yuritadilar, ammo ularning masalaga yondashishlari bir muncha farqli.

Xulosa qilib aytganda, XV asr oxiri va XVI asr so'ngi choragida yashab, ijod etgan Podshoxoja binni Abdulvahhobxoja o'zbek adabiyoti tarixida "Gulzor", "Miftoh ul-adl" hamda "Maqsad ul-atvor" kabi axloqiy-didaktik xarakterdagi asarlari bilan o'ziga xos o'rin egalladi. Adibning o'z asarlari uning hayoti, ijodi, o'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rnini aniqlashda muhim adabiy manbadir.

³⁷. Навоий ва ижод сабоқлари. -Т.: Фан . 1981. 85-бет

³⁸. Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик, 6-том. -Т.: 1965. 59-бет.

³⁹. Асрлар нидоси. -Т.: 1982. 112-бет.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Poshshoxo'ja Abdulvahobxoja o'g'li Xojaning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
2. Shoir haqida qanday ma'lumotlarni yozib qoldirilgan?
3. Poshshoxo'ja Abdulvahobxoja o'g'li Xoja qanday asarlar yozgan?
4. Poshshoxo'ja Abdulvahobxoja o'g'li Xoja haqida qaysi tazkiralarda ma'lumot keltirgan?
5. Shoir asarlarining bugungi kundagi ahamiyati nimalardan iborat?
6. Poshshoxo'ja Abdulvahobxoja o'g'li Xoja ijodiy merosining o'rganilishi doir qanday tadqiqotlarni bilasiz?
7. Shoir o'z ijodida qaysi janrlarda shuhrat qozongan?
8. Poshshoxo'ja Abdulvahobxoja o'g'li Xoja qaysi hukmdorlar davrida yashagan?
9. Poshshoxo'ja Abdulvahobxoja o'g'li Xoja o'zining falsafiy, diniy-irfoniy, axloqiy g'oyalarining targ'ibi uchun asosan qaysi janrlarni tanlagan?
10. Shoir ijodining yetakchi mavzulari haqida fikr yuring, fikringizni misollar asosida izohlashga harakat qiling.
11. Poshshoxo'ja Abdulvahobxoja o'g'li Xoja hikoyatlarida qanday tarixiy timsollar qo'llangan?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Воҳидов Р., Эшонқулов Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006. – 528 б.
2. Бертелс Э. Э. История персидско-таджикской литературы. Избранные труды. Издательство восточной литературы. -М.: 1960. - с 360.
3. Жумахўжа Н., Адизова И. Ўзбек адабиёти тарихи XVI-XIX аср биринчи ярми. – Т.: “Ношир”, 2019.
4. Мирзаахмедова М. Хожа. –Тошкент: “Фан”, 1975.
5. Зоҳидов В. “Мифтоҳ ул-адл” ва “Гулзор” ҳақида. – Т.: 1961.
7. Пошшоҳўжа “Мифтоҳ ул-адл” ва “Гулзор”дан. ЎзССР Давлат бадий адабиёт нашриёти. – Т.: 1962.
8. Маънавият юлдузлари (Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адиблар).//Тўпловчи ва масъул муҳаррир: М.М. Хайруллаев. –Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашр. 2001. 172-180-бетлар.

OLTINCHI MAVZU:
QUL UBAYDIY HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Qul Ubaydiyning hayot yo'li.
2. Qul Ubaydiy haqida ma'lumot beruvchi manbalar.
3. Qul Ubaydiy asarlarining g'oyaviy-badiiy tahlili.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|-------------------------|----------------------|
| • <i>Qul Ubaydiy</i> | • <i>tasavvuf</i> |
| • <i>Shayboniylar</i> | • <i>Fiqh</i> |
| • <i>Temuriylar</i> | • <i>Kulliyot</i> |
| • <i>Muhammad</i> | • <i>Devon</i> |
| • <i>Shayboniyxon</i> | • <i>Qo'lyozma</i> |
| • <i>Ahmad Yassaviy</i> | • <i>Zullisonayn</i> |
| • <i>Hikmat</i> | • <i>Xattot</i> |
| • <i>Yassaviylik</i> | |

Muhammad Ubaydulloxon, ya'ni Ubaydiy o'zining serqirra faoliyati bilan XVI asr ijtimoiy-siyosiy va adabiy-madaniy hayotida katta rol o'ynagan siymolardan biri. U shariat ilmini o'rgangan faqih, qolaversa, ilm-u ijodga hamisha vaqt topa olgan shoh-shoirdir. Zero, muarrix Hofiz Tanish Buxoriy ta'kidlaganidek, "*U g'oyat fazilatli bo'lib, fazlu kamol bezaklari bilan ziynatlangan edi*"⁴⁰. Uning fazl-u kamoli, axloq-u fazilati haqida boshqa manbalarga ham juda ko'p iliq fikrlar aytilgan. Ubaydiy serqirra faoliyat sohibi bo'lib, turli sohalar: fiqh, tasavvuf, xattotlik, musiqaga oid asarlar yaratgan. U o'z she'rlarini "Ubaydiy", "Qul Ubaydiy" taxalluslari bilan yozib, "ijod sohasida birinchi ustoz deb Alisher Navoiyni tanir va bu to'g'risida faxr bilan shunday degan edi:

She'rlar aytib Ubaydiy ham Navoiy she'ridek,
Ko'rki, shoirlar aro ul dog'i shoir bo'lg'usi"⁴¹.

Ubaydiy ijodida diniy-tasavvufiy g'oyalar, haqiqiy va majoziy ishq tarannumi, charxu falakdan, johil kishilardan shikoyat ohanglari ufurib turadi. Ayniqsa, unda tasavvufga qiziqish va so'fiylarga bo'lgan e'tiqod ko'zga yaqqol tashlanadi. Fitratning qayd etishicha, "*O'zining*

⁴⁰ Хофиз Таниш Ал - Бухорий. Абдулланом. – Тошкент: Шарк, 1999. – 59- бет.

⁴¹ Хайитметов А. Адабий меросимиз уфклари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 14- бет.

*hukumat ishlariga qaramasdan, shayxliq ham qilar edi. Shoir she'rlarida ko'pincha yassaviylik va naqshbandiya tariqatining ta'siri seziladi. Ubaydullohning yassaviylar bilan juda qat'iy bog'langaniga yana bir dalil yassaviy shayxi Xudoydodning muridi Muhammadiyori No'g'ay otag'a o'z qizini berganidir*⁴². Shuningdek, jang-u jadallarda uning Ahmad Yassaviy ruhidan madad tilab, ijodda esa unga ergashib hikmat janrida qalam tebratganini ham qayd etish lozim. Ammo shoirning otasi Mahmud Sultonning naqshbandiya tariqatining o'sha davrdagi ulug' peshvosi Xoja Ahror Valiyga yuksak ehtirom ko'rsatganligini ham inobatga olish lozim. U o'g'liga ism qo'yishni ulug' shayxdan so'ragan.

Abdulg'ozi Ubaydulla Baxodirxon ibn Mahmud Sulton ibn Shox, Budog' Sulton ibn Abulxayrxon 1486-yili Muhammad Shayboniyxonning Xorazmni egallash uchun olib borgan harbiy yurishlari vaqtida Vazir shahri yaqinidagi Yamani Tirsak mavzesida tug'ilgan. Aziz-avliyolar, xususan, naqqshbandiya shayxlariga muhabbat va e'tiqodi baland bo'lgan otasi - Buxoro hokimi Mahmud Sulton Turkiston mulkining o'sha davrdagi shayx ul-mashoyixi, mashhur diniy va siyosiy arbob Xoja Ubaydulloh Ahror Valiydan o'z o'g'liga nom qo'yishni iltimos qo'iladi. U esa chaqaloqqa o'z ismini beradi. "O'z nomlarini berishlari ul zotning zo'r marhamatlaridan bo'ldiki, shuning uchun ham uning bebaho asarlari va yaxshi nomlarining oqibati olamda boqiydir"⁴³, - deb yozadi bu haqida mashhur tarixchi Hofiz Tanish Buxoriy.

Yoshligidan alohida fazilatleri va favqulodda qobiliyatlari bilan ajralib turgan Ubaydullaxon Amir Abdulla Yamaniy, Xoja Muhammad Sadr, Xoja Mullo Isfaxoniy, Mavlono Mahmud Azizon, Mavlono Yormuhammad Qori kabi o'z davrining yetuk allomalari qo'lida tahsilini kamolga yetkazadi. Chunonchi, zamona muhaddislari sarvari Xoja Mavlono Isfaxoniydan Hadis ilmini, faqihdar peshvosi Mavlono Maxmud Azizondan fiqhni, mashhur hofizi Qur'on Yormuhammad Qoridan qiroatni o'rganadi. U tasavvuf bilan bog'liq saboqni dastlab otasining piri Mavlono Muhammad Qozidan olgan. Keyin uning xalfasi – "xojagon-naqshbandiya tariqatining balandparvoz shahbozi", deya ta'riflangan Maxdumi A'zamga shogird tushgan. Xususan, Mir Arab nomi bilan shuhrat qozongan Amir Abdulla Yamaniyga Ubaydullaxonning e'tiqodi baland bo'lib, unga irodat nisbati bor edi.

⁴² Фитрат. Танланган асрлар. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 35- бет.

⁴³ Хофиз Таниш Ал - Бухорий. Абдуллонома. – Тошкент: Шарк, 1999. – 59- бет.

Qolaversa, Mir Arab uning ma'naviy piri bo'lish bilan birgalikda saltanat yumushlari va harbiy masalalarda ham Ubaydullaxonga yaqindan maslahatlar berib turgan.

Ubaydullaxon serqirra iste'dod egasi bo'lgan: adabiyot, san'at, ilohiyot, xattotlik kabi bir necha sohalarda o'z iqdidorini namoyon etib, ularning barchasida yuksak natijalarni qo'lga kiritgan. U xususan, "she'r ilmlarida sohibi fan" (Hasanxoja Nisoriy) bo'lib, Ubaydiy, Qul Ubaydiy, Ubaydullo taxalluslari bilan o'zbek, fors-tojik va arab tillarida birday mahorat bilan qalam tebratgan. Uning har uchala tildagi devonlarini o'z ichiga olgan va o'z davriniig mohir xattoti Mir Xusayn al-Husayniy tomonidan 1583-yili kuchirilgan "Kulliyot"ining yagona nusxasi O'zbekistan Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida 8931-raqam bilan saqlanadi. Ubaydiy turkiy devonining "qiblat ul-kuttob" ("kotiblar qiblasi") Sultonali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan yana bir nusxasi Britaniya (Angliya) muzeyida 7907-raqam ostida saqlanadi. 78 varaqdan iborat hajman kichik ushbu devonning afzalligi unda shoir "Kulliyot"ida bo'lmagan bir qancha she'rlar mavjudligidadir. Shuningdek, shoh shoir she'rlarini o'z ichiga olgan "Devoni Ubaydullaxon" kitobi qo'lyozmasi Turkiyaning Nuri Usmoniya kutubxonasida 4904-raqam bilan saqlanadi⁴⁴.

Ubaydullaxon Qur'oni Karim mutolaasini osonlashtirish uchun turkiy tilda "At-tajvid" risolasini yaratgan ilohiyot olimi, shariat qonunlari bo'yicha maxsus kitob bitgan faqih, qolaversa, yetti xil husnixatda yoza oladigan, xususan, nastaliqni go'zal bitadigan, Qur'oni karimdan nusxa ko'chirib, Makkatullohga yuborgan "zamona kotiblarining ustodi", Qur'onni tajvid bilan qiroat qiladigan hofizi Qur'on, kuy va qo'shiq ijrosida iste'dodli sozanda va bastakor ham bo'lgan. Taniqli tarixchi Muhammad Yusuf Munshiy ta'biri bilan aytganda, Olloh taolo "hech qanday fazilat va kamolotdan uni benasib etmagan edi".

Ubaydullaxonning otasi – Muhammad Shayboniixonning yurishlardagi doimiy hamrohi, jangovar safdoshi, suyangan tog'i Mahmud Sulton 1504-yili Qunduzda vafot etgach, 18 yashar Ubaydullaxon uning o'rniga Buxoro hokimi qilib tayinlanadi. O'rusbek Do'rmon unga otaliq qilib belgilanadi. Ubaydulaxonning nafaqat mohir sarkarda va yetuk davlat arbobi, balki inson sifatida shakllanishi va

⁴⁴ Қаҳрамон Ражабов, Эргаш Очидов. Убайдуллохон. Тошкент, «Абу матбуот консалт», 2011. 5-б.

kamol topishida ham amakisi Muhammad Shayboniyxonning ta'siri va xizmatlari katta bo'lgan. Chunki Ubaydullaxon 15 yoshidan boshlab yaxshi ta'lim-tarbiya olgan, diniy va dunyoviy ilmlardan xabardor yetuk va fozil kishisi, iste'dodli shoir, va hofizi Qur'on bo'lgan Shayboniyxonga hamroh bo'lib, to 1510- yili Marv yonida Shoh Ismoil Safaviydan yengilib, shahid bo'lguniga qadar uning barcha yurishlarida qatnashgan. Shayboniy sultonlar ichida eng jasoratlisi va shijoatlisi edi. Shayboniylar saltanatining qaror topishi va mustahkamlanishida Ubaydullaxonning xizmatlari katta. Shayboniyxonning deyarli barcha harbiy muvaffaqiyatlarini Ubaydullaxon nomi bilan bog'lashadi. Shayboniyxonga fatxu zafar eshigi hamisha Ubaydullaxonning muzaffar qilichining kuchi bilan olgan. Muhammad Yusuf Munshiy ham uning jang olib borish va urushlarni boshqarishda favquddodda iste'dodga ega ekanligi haqida ma'lumot beradi. Muhammad Shayboniyxonning vafotidan so'ng, shayboniy sultonlar orasida davom etib kelayotgan an'anaga ko'ra, sulolaning eng yoshi ulug'i bo'lgan Kuchkunchixon bosh xon, 24 yashar Ubaydullaxon esa uning noibi etib tayinlanadi. Ubaydulla Sulton (Ubaydullaxon) 1512-yilning sakkiz oyi mobaynida o'zaro birlashgan tashqi dushman (Eron safaviylari) va ichki dushman (temuriyzoda Bobur) kuchlariga qarshi bo'lgan ikki jangda (Ko'li Malik jangi va Gijduvon jangi) porloq g'alabaga erishgan. Buxoro vohasida bo'lgan bu janglarda Ubaydullaxon oz sonli harbiy kuchlarga tayanib, qo'shin soni taxminan 20 marta ortiq bo'lgan dushman lashkarlarini mag'lubiyatga uchratgan.

“Shayboniyxondan keyin o'tgan shijoatli va harbiy hukmdorlardan biri” bo'lgan Ubaydullaxon hokim, noib va xon sifatida jami 36 yil hukmronlik qiladi. “Uning poytaxti bo'lgan Buxoro olim-u fuzalolarning to'planadigan joyi bo'lib, Ubaydullaxon zamonida shunday darajaga yetdiki, Mirzo Husayn Boyqaro davridagi Hirotini yodga solardi”, - degan edi Mirzo Haydar. “O'z davrining No'shiravoni” (Mahmud ibn Vali) Ubaydullaxonning mamlakatdorligini ta'riflab, Hofiz Tanish Buxoriy ham u “adolat shevasida dinparvar va siyosat yo'lida g'oyatda mashhur bir podshoh edi”, - deb yozadi. “Uning davri va xalofati zamonida Movarounnahr, xususan, Buxoro viloyati gullab-yashnadi”, - deb guvohlik beradi yana mashhur tarixchi.

Muhammad Yusuf Munshiy ta'biri bilan aytganda “adolat shevasida yagona, jang sohasida nihoyatda farzona” bo'lgan, “dilovar va bahodir” Ubaydullaxon jang-u jadal olib borish, mamlakatni siyosiy-

iqtisodiy jihatdan mustahkamlash bilangina kifoyalanib qolmay, ilm, madaniyat va adabiyotga ham katta e'tibor bergan. Hasanxoja Nisoriyning ma'lumot berishicha, bu xon "dargohining mulozimlari ko'pincha fozillar bo'lardi". U tasavvufga oid asarlarni yig'ib, boy kutubxona tashkil etgan.

Manbalarga qaraganda, XVI asrning boshidan to o'rtalarigacha Buxoro adabiy muhitida 112 shoir yashab ijod etgan. Ulardan 11 nafari sohibdevon shoirlar edi. Ro'zbexon Isfaxoniy, Zayniddin Vosifiy, Abdurahmon Mushfiqiy, Hasanxoja Nisoriy, Naxliy Buxoriy, Devona Xusomiy kabi mashhur shoirlar shular jumlasidandir. Ubaydullaxon saroyida ham ko'plab shoirlar to'plangan edi. Buxoro adabiy muhiti Movarounnahrda alohida nufuzga ega bo'lgan. Zayniddin Vosifiyning yozishicha: «*Ul Hazratning odati shu ediki, har kuni bir she'rni o'rtaga tashlab, unga tatabbu' va javob yozishga shoirlarni undardilar. Derdilarki, ta'bni bekorga o'tkazmanglar, uni mashg'ul qilmoq lozim. Sustlik ta'bning bo'shashishiga sabab*

bo'ladi va zehnni o'tmaslashtiradi". Bu borada Ubaydullaxonning o'zi barchaga o'rnak bo'lib, hozirjavoblik va topqirlikda hech kim uning oldiga tusholmasdi. Ubaydullaxon, ayniqsa, muammoni yechishga juda usta edi. Zayniddin Vosifiyning 79 muammosidan 65 tasini nomsiz topgan. U o'zining she'rlaridan birida shunday yozadi:

Бухоро хуштар омад аз тамоми шахрҳо моро,

Зи чашми бад нигоҳ, дорад Худо мулки Бухоро,

Ya'ni: "Buxoro barcha shaharlardan ko'ra bizga sevimliroqdir, Xudovandi karimning o'zi Buxoroni yomon ko'zlardan asrasin!" – deb lutf etgan "Ubaydullaxon baloyu ofatlarni daf' qiluvchi Buxoro shahrini obodonchiligi va qurilishi uchun ko'p sa'y-harakatlar ko'rsatdi", - deb xabar beradi Hasanxoja Nisoriy. Podshohlikni xalqqa xizmat qilish deb bilgan Ubaydullaxon Buxoro taxtiga o'tirishi bilanoq, bu mansabdan xalq, mamlakat uchun faqat yaxshilik qilish yo'lidagina foydalanishni maqsad etgani haqida bir g'azalida shunday yozgan edi:

Ey Ubaydiy, Haq seni olamda qildi podshoh,

Sendin uldurkim, raiyatsa rioyat qilgasen.

Ubaydullaxon hukmronligi davrida Buxoroning siyosiy mavqeyi kuchayadi, iqtisodiy ahvoli yaxshilanib, madaniy jihatdan yanada yuksaladi. Ilm-fan, adabiyot va san'at, hunarmandchilik va dehqonchilik rivojiga alohida e'tibor qaratilgan, ko'plab obodonchilik va bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan, masjidu madrasalar, xonakohu yo'llar qurilgan. Ustozi va rahnamosi sharafiga bunyod etilgan mashhur

Mir Arab madrasasi, Mirak Said G'iyos bog'i, Ko'hak (Zarafshon) daryosiga qurilgan Mehtar Qosim ko'prigi Ubaydullaxon davrining ko'zga ko'ringan obidalaridan hisoblanadi.

Ma'lumki, zullisonaynlik (ikkitillilik) – o'zbek mumtoz adabiyotida an'ana tusini olgan hodisa edi. Ubaydiy ham mana shu an'anani davom ettirib uch tilda (turkiy, forsiy hamda arab) ijod qildi. U har uchala tildagi she'rlarini to'plab, uch devon tartib bergan. Ubaydiy hayoti va ijodini maxsus o'rgangan iste'dodli olim Muhammad Abdullayevning aniqlashicha, shoirning turkiy devonida 310 dan ortiq, g'azal, 428 ruboiy, 25 qit'a, 11 tuyuq, 18 masnaviy, 7 muammo, 2 yor-yor mavjud. Shuningdek, diniy-tasavvufiy, axloqiy-didaktik ruhdagi "Omonatnoma", "Shavqnoma", "Gayratnoma", "Sabrnoma" manzumalari o'rin olgan.

Forsiy devonida esa 163 g'azal, 418 ruboiy, 7 qit'a, bittadan fard, masnaviy, tarje'band va 3 muammo bor. Arab tilidagi merosi 35 ga yaqin g'azal, qit'a va fardlardan iborat. Ubaydiyning adabiy xizmatlaridan biri Ahmad Yassaviy asos slogan hikmatnavislik an'anasiga yangi hayot bag'ishlaganidir. Undan 1786 baytdan iborat 220 dan ortiq hikmat yetib kelgan.

Abdurauf Fitrat ham *"Ubaydiyning forsiycha va o'zbekcha chiroylik parchalari ko'p. Bu kungi materiallarga ko'ra, uni bu davrning eng yaxshi shoiri deb qabul tsilishga to'g'ri keladi"*, - deb yozgan edi.

Ubaydiy ijodida diniy-tasavvufiy g'oyalar yetakchilik qiladi: ularda islom ta'limoti va so'fiyona g'oyalar targ'ibi bilan bir qatorda, ilohiy va dunyoviy ishq, tarannumi, shoh-shoir olam va odam haqidagi falsafiy mulohazalarining badiiy talqinlari, charx-u falakdan, zamonadan va nokas kishilardan shikoyat ohanglari, pand-nasihat ruhidagi va hasbi hol xarakteridagi she'rlarni ko'rish mumkin.

Ta'kidlash joizki, Ubaydiy ijodida ham ma'lum ma'noda hurufiylikka qiziqish mavjud. Bu jihatdan uning hikmat janrida yaratilgan quyidagi she'ri alohida e'tiborga molik:

أ (Alif) – Al – kitobu val – hadisi,
ب (Be) – "Bayanun – lin – nasi" – emish, bilolinga!
ت (Te) – "Tu'izzu man tashau"ning lutfi bila,
ث (Se) – "Siyabu sundusin" – din bilolinga!⁴⁵

⁴⁵ Mazkur hikmat Z.Amonovanning "Hurufiylik va badiiy ijod" (Toshkent: Paradigma 2017-y. 93-b)nomli monografiyasiga hikmatning to'liq 32 satri boshdan oxir g'oyaviy-badiiy tahlil qilingan.

Ubaydiy ushbu she'rdagi yer-u ko'kning sohibi bo'lgan Parvardigori olamni ulug'laydi, unga munajat qilib, odamlarni yaxshilikka undaydi. Shoir hikmatda diniy, tasavvufiy, ma'rifiy va axloqiy ma'nolardan o'quvchiga saboq berarkan, birinchi navbatda Qur'onga suyanib ish ko'radi. Zero, butun musulmon olamining dasturul amali **أ** (Alif) – "Al-kitob val-hadis"dir. Shoir o'z fikrlarini dalillash maqsadida iqtibos (Qur'on oyatlari va payg'ambar hadislarini she'r ichida keltirish) san'atini ishga solib, insonlarni **ب** (Be) – "bayanun-lin-nas"(Qur'on odamlar uchun bayonot hamda taqvodorlar uchun hidoyat va nasihat manbaidir. "Oli-Imron", 138) ekanligini bilishga chaqiradi. Zotan, odamlar orasidagi mehr-oqibat, yaxshilikka muhabbat va yovuzlikka nafrat g'oyasi Qur'on hamda hadis orqali adabiyotga ko'chgan.

Ma'lumki, Olloh insonlarni yaratib, ulardan xohlaganiga "anbiyo" va istaganiga "avliyo" maqomini nasib etadi. Ya'ni **ت** (Te) – "Tu'izzu man tashau" – xohlagan kishiga hukmronlik ato etur, xohlagan kishidan hukmronlikni tortib olur. ("Oli-Imron", 26) Jumladan, hurufiylar ham - Te orqali ilohiy martabaga bejiz ishorat etmagan. Ubaydiy hurufiylardagi harflarning ilohiy-irfoniy ma'nosiga mos holda Qur'on oyatlarini tanlagan.

Xullas, Ubaydiy ushbu hikmatida poklik, to'g'rilik, diyonat kabi yuksak insoniy fazilatlarni targ'ib qiladi. Shoir komil inson haqidagi qarashlarini ifodalashda, albatta, Qur'oni Karimdan ilhomlangan. Demak, uning ijodida yassaviylik va naqshbandiylik kabi hurufiylikning ham ma'lum ma'noda ta'siri mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Shoir yuqoridagi hikmatida insonga xos noyob va oliy his-tuyg'ularni harflar va qur'oniy oyatlar orqali ifodalashga harakat qilgan.

Umuman she'riyatda majoziy va ilohiy ishq, komillik haqidagi fikrlar harflar orqali ham tadqiq etilib, ibratli xulosalar chiqarilgan. Bular nafaqat mazmun rang-barangligi, balki shakl xilma-xilligiga ko'ra ham ta'sirlidir.

Ma'lumki, XVI asr adabiyotida an'anaviy mavzular davom ettirilishi barobarida asarlarga real hayot tasviri, tarjimai hol xususiyatlari kirib kela boshladi, ommaga tushunarli bo'lgan xalqona oddiy til va yengil uslubda asar yaratish tamoyili kuchaydi. Ubaydiy ijodida ham bu hol yorqin ko'rinadi. Uning o'zi bevosita guvohi bo'lgan, boshdan kechirgan voqea-hodisalar bayoni, ko'nglidan kechirgan kechinmalar tasviri, xayolidan o'tgan o'y-fikrlar ifodasi, shaxsiy turmushiga oid lavhalar talqini bilan bog'liq yaqin kishilariga

bag'ishlangan, turli munosabat bilan badiha tarzida aytilgan she'rlar shoir ijodida ko'pchilikni tashkil etadi. Uning shayboniy shahzodalarga bag'ishlab yozgan she'rlari ham mavjud:

Qardoshlarekim, podshodur borisi,
O'z ishlari birla muhtalodur borisi.
Borisi bo'lub ne ishga, ne elga yaror,
Bosh boshqa, ko'zung boshqa balodur borisi.

Manbalarning ma'lumot berishicha, Ubaydullaxon Mahmud Sultonning yolg'iz farzandi bo'lgan. Boshiga og'ir kunlar tushib, chigal vaziyatlarda qolganida uning o'zi bundan o'ksinib, jumladan, shunday yozadi:

El ko'blugini ko'zga necha ilgaysiz,
Yolg'uz kishidan ham necha kesilgaysiz.
Yolg'uz deb oni kesilgaysiz ondinkim,
Yolg'uzning erur yori Xudo, bilgaysiz.

Ubaydullaxon ham Movarounnahr taxti uchun kurash olib borar ekan, goh yenggan bo'lsa, gohida yengilgan, ba'zan qarindoshlari, do'st-u birodarlari unga pand berishgan; goho yaqin kishilardan ayriliq, alamini tortgan. Ana shunday damlarda alam-iztirobdi satrlarni bitgan. Masalan, quyidagi ruboiy taqdirning, hayotning hamisha ham inson orzu-intilishlari bilan hisoblashmasligi xususida:

Har lahza falak mening sori evrulmas,
Mahzun ko'nglum furqat aro shod o'lmas.
"Ko'nglung ne tilar?" - deb ne so'rarsen mendin
Kim, ne tilamas ko'ngul - muyassar- bo'lmas.

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida ruboiy janrini rivojlantirgan, uning ravnaqiga o'z hissasini qo'shgan ulug'ijodkor – bu Ubaydulloxonidir. U lirik she'rlarida ko'proq Alisher Navoiydan ilhomlangan bo'lsa-da (buni o'zi she'riy misralarida qayd etadi), ruboiylarining tili soddaligi, xalqonaligi bilan Z.M.Bobur ruboiylariga yaqin turadi. Qul Ubaydiy nafaqat turkiy ruboiylari bilan mashhur, balki forsiyda ham ajoyib ruboiylar bitgan. Forsiy ruboiylarida Umar Xayyom, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Jaloliddin Rumiy kabi Sharq mumtoz ruboiynavislarining ta'sirini sezish mumkin. Ruboiylarida orif va oshiq shaxsning ruhiy kechinmalari, qalb tug'yonlari, ishq iztiroblari, hayot qadri, vaqt g'animatligi kabi tasavvufiy-falsafiy masalalar targ'ib etilgan. Misol tariqasida quyidagi ruboiyni tahlilga tortsak:

Har kimsaki, johillar ila bo'lg'aydir,

Din hikmicha, gofillar ila bo'lg'aydir.
Har kimsa yaqin bo'lsa kamol ahli bilan,
Haq lutfi-la komillar ila bo'lg'aydir.

Ushbu ruboiy komil inson va unga erishish masalasining yoritilishi bilan ahamiyatli sanaladi. Bunda johillar va g'ofillar ma'nodosh sinonim sifatida keltirilgan. Shoir ilmsiz kishini johil sanab, ana shu johil kishi bilan qolgan, hamsuhbat bo'lgan kishini g'ofillar deya e'tirof etadi. G'ofillar – xato yo'lda borayotgan odamlar, ular bilan vaqt o'tkazish insonning kamolotiga to'sqinlik qiladi. Komillar — dono va bilimli odamlar, ular bilan bo'lishish insonning ma'naviy o'sishiga olib keladi. Ya'ni kamol ahli bilan yaqin bo'lgan kishi “Haq lutfi-la komillar ila bo'lg'aydir”. Demak, kamol ahli bilan komillar mutanosib so'zlar bo'lib, tanosib san'ati imkoniyatidan o'rinli foydalanilganligini ko'rsatadi. Mazkur she'r ruboiyi xossa shaklida yaratilgan bo'lib, 1-,2-,4- misralari qofiyalanib, 3-misrasi ochiq qolgan. Qofiyadosh so'zlar: johillar, g'ofillar, komillar. Radif: bo'lg'aydir so'zidir.

Xullas, Ubaydiyning asarlarida poklik, to'g'rilik, diyonat kabi yuksak insoniy fazilatlarni targ'ib qilinadi. Shoir komil inson haqidagi qarashlarini ifodalashda, albatta, Qur'oni karimdan ilhomlangan. Demak, uning ijodida Ahmad Yassaviy, Nasimiy va Navoiy kabi ulug' salaflarning ma'lum ma'noda ta'siri mavjud. Shoir lirik she'rlarida insonga xos noyob va oliy his-tuyg'ularni tasavvufiy ramzlar va qur'oniy oyatlar orqali ifodalashga harakat qilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Muhammad Ubaydulloxonning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
2. Shoir haqida olimlar qanday ma'lumotlarni yozib qoldirishgan?
3. Muhammad Ubaydulloxon qanday asarlar yozgan?
4. Muhammad Ubaydulloxon haqida qaysi tazkiralarda ma'lumot keltirgan?
5. Shoir asarlarining bugungi kundagi ahamiyati nimalardan iborat?
6. Muhammad Ubaydulloxon ijodiy merosining o'rganilishi doir qanday tadqiqotlarni bilasiz?
7. Shoir devonida qaysi janrlar mavjud va u qaysi janrlarda shuhrat qozongan?
8. Uning asarlarini o'rganilishi va tarjimalariga doir qanday tadqiqotlarni bilasiz?

9. Muhammad Ubaydulloxon qaysi sulolaga mansub va qaysi hukdorlar bilan bir davrda yashagan?
10. Muhammad Ubaydulloxon o'zining falsafiy, diniy-irfoniy, axloqiy g'oyalarining targ'ibi uchun qaysi janrlarni tanlagan?
11. Shoir lirikasining yetakchi mavzulari haqida fikr yuring, fikringizni misollar asosida izohlashga harakat qiling.
12. Muhammad Ubaydulloxonning manzuma-dostonlarida nimalar haqida fikr yuritiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amonova Z. "Hurufiylik va badiiy ijod" . –T.: Paradigma 2017.
2. Qahramon Rajabov, Ergash Ochidov. Ubaydulloxon. Toshkent, "Abu matbuot konsalt", 2011.
3. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. –T.: O'qituvchi, 1997.
4. Fitrat. Tanlangan asrlar. 2-jild. –T.: Ma'naviyat, 2000.
5. Hofiz Tanish Al - Buxoriy. Abdullanoma. – –T.: Sharq, 1999.
6. M. Abdullayev. Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati. Nomzodlik disser. –T.: 2000.
7. Eshmuhamedova M.Yassaviy maktabi shoirlari.
www.journal.fledu.uz.

YETTINCHI MAVZU: TURDI FAROG'IY HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Turdi Farog'iyning hayot yo'li.
2. Turdi Farog'iy haqida ma'lumot beruvchi manbalar.
3. Turdi Farog'iy asarlarining g'oyaviy-badiiy tahlili.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|-------------------------|-------------------------------|
| • <i>Turdi Farog'iy</i> | • <i>Oqbo'tabiy</i> |
| • <i>Buxoro</i> | • <i>Tor ko'ngulli beklar</i> |
| • <i>Nodirmuhammad</i> | • <i>G'azal</i> |
| • <i>Abdulaziz</i> | • <i>Qo'ng'irotlar</i> |
| • <i>Subhonqulixon</i> | • <i>Mang'itlar</i> |
| • <i>Minglar</i> | • <i>Xiva</i> |
| • <i>Xo'jand</i> | • <i>Qo'qon</i> |

O'zbek adabiyotida hajviyot rivojiga sezilarli hissa qo'shgan shoir Turdi Farog'iy XVII asr o'rtalarida Buxoroda tug'ildi. Ushbu maskandagi adabiy muhitda tarbiyalandi va shoir sifatida shakllandi. Iste'dodli shoirning hayoti va ijodiy faoliyati Buxoro xonlari Nodirmuhammad va uning o'g'illari Abdulaziz hamda Subhonqulixon hukmronligi davriga to'g'ri keldi.

Ma'lumki, XVII asr yurtimiz tarixi uchun ziddiyatli va murakkab bir davr bo'ldi. Chunki bu davrda Xivada qo'ng'irotlar, Buxoroda mang'itlar, Qo'qonda minglar o'z hukmronligini o'rnatib, Turkistonning uch xonlikka bo'linib ketishiga zamin yaratdilar. Shuningdek, XVIII asrda esa ular o'rtasida toj- taxt, hudud uchun kurashlar kuchaygandan kuchayib bordi. Bu holat vijdonli, millat taqdiriga befarq qaramaydigan yurt vakillarining noroziligiga sabab bo'lishi tabiiy edi. Ana shunday qirg'in barot urushlardan biri 1645-yilda Nodirmuhammadning Xivani o'ziga bo'ysundirish uchun qo'shin tortishi bo'ldi. Natijada bir yurtda yashovchilar, bir millat vakillari o'zaro to'qnashishga majbur bo'ldilar, qon to'kilishi esa aniq edi. Aytish lozimki, xondan norozi bo'lgan yuz urug'i Xo'jandda Boqi yuz boshchiligida qo'zg'olon ko'taradi. Shoir Turdi Farog'iy shular orasida edi. Chunki birodarkushlik harakati uning ham g'azabini qo'zg'agan edi. Isyonni bostirish uchun yuborilgan Abdulaziz esa otasiga xiyonat qilib, qo'zg'olonchilarga qo'shildi. Ular bilan Buxoroga yurish qilib, taxtni egalladi. Nodirmuhammadning boshqa o'g'li Subhonquli bilan taxtni qaytarish harakatlari natija bermaydi va u hajga ketishga majbur bo'ladi.

Aka-uka o'rtasidagi taxt talashishlar Abdulazizxonning ham Buxoroni tashlab haj safariga jo'nashi bilan yakun topdi. U otasiga ravo ko'rgan qismat endi o'zining boshiga tushdi. Xalq otasiga tik boqqan Abdulazizdan insof va adolat ko'rganidek, akasiga tig ' ko'targan Subhonquli davrida ham ro'shnolik topmadi.

Tarixdan ma'lumki, 1681 - yilda Samarqand yaqinidagi Miyonkolda unga qarshi qo'zg'olon ko'tarilgan. Qo'zg'olonchilar orasida yakdillik bo'lmay, bir qismi xonga taslim bo'lgan. Ikkinchi qismi Xo'jand va O'ratepa hokimi Rahimbiy yuzdan yordam so'rab, kurashni davom ettirgan. Natijada madad kelmay, mag'lubiyatga uchraganlar. Turdi Farog'iy mana shu ikkinchi qism orasida bo'lgan. Chunki uning tabiatiga zolimga bo'ysunish, zulm bilan kelishish yot jihatlardan edi. Umrining so'nggi davrini Xo'jandda Oqbo'tabiy huzurida muhtojlikda o'tkazgan. Butun umri va ijodini xalq farovonligi, tinchligi yo'lida safarbar etgan

shoir o'z she'rlarida xalqni, millatni birlikka, hukmron tabaqa vakillarini esa adolatga da'vat etgan.

Ta'kidlash lozimki, Turdining nomi ham, hozir bizga ma'lum bo'lgan she'rlari ham 1925-yili kashf qilindi. O'sha yillari Kattaqo'rg'onlik hajvchi shoir va adib Abdulhamid Majidiy Kattaqo'rg'onida o'tgan shoir-adiblar adabiy merosini aniqlash va o'rganish jarayonida qo'lyozma asarlar orasidan Turdi, Farog'iy taxalluslari bilan bitilgan 12 g'azal, 5 muxammas, 1 fardni aniqlaydi. U o'sha yillari Samarqandda chiqib turgan "Maorif va o'qit'uvchi" jumalining 1925-yil 9-10-sonlarida "O'zbek shoiri Turdi" maqolasini hamda o'zi topgan she'rlarini e'lon qiladi. Bu yangi topilma ko'pgina adabiyotshunoslarning e'tiborini tortdi. Jumladan, S.Ayniy va Abdurauf Fitrat Turdi she'rlari haqida fikr yuritganlar, Majidiy ma'lumotlarini to'ldiruvchi, chuqurlashtiruvchi fikrlar bayon etganlar. O'sha she'rlar keyinchalik, 1960-yili professor H.Yoqubov, 1971-yili professor A.Hayitmetov tomonidan kirish so'zlari bilan nashr qilindi. Shoiming boshqa asarlari hozircha topilgan emas. Turdi o'zining sanoqli g'azal va muxammaslari bilanoq o'zbek mumtoz she'riyatida yangi bir g'oyaviy-badiiy yo'nalishni yuzaga keltirdi. U hayotiy voqea-hodisalarni, real tarixiy shaxslar timsollarini she'rlariga mavzu qilib oldi. Turdining bizga ma'lum she'rlari uning murakkab hayot yo'li va mashaqqatli ijod bosqichlarini boshidan kechirganligidan dalolat beradi. Uning, ayniqsa, "Muxammasi turki" asarida shu holatlarni aniqlab olishga imkon beruvchi avtobiografik lavhalar uchraydi. Hajm jihatidan kattagina bu asarda shoir o'zining Xo'jand hududida sezilarli nufuzga ega, 1645-yili ashtarxoniy hukmdorlardan Nodir Muhammadxonga qarshi isyon ko'tarib Buxoroda uning o'g'li Abdulazizxonning hokimiyatga kelishini ta'min etgan yuz urag'idan, shu urug'ning boshliqlaridan bo'lganini aytadi. Turdi va u mansub bo'lgan yuz urug'i boshliqlari 1646-yildan 1680 -yilgacha Buxoroda xonlik qilgan Abdulazizxon hukmronligi davrida saroyda "katta mavqe" tutganlar, imtiyozlarga ega bo'lganlar. Davlat ishlari va mamlakat taqdirida ularning ta'sirii sezilib turgan. XVII asming oxirgi choragida o'z akasiga qarshi toj-u taxt uchun tinimsiz urushlar olib borib, 1681-yili hokimiyatni qo'lga olgan Subhonqulixon davriga kelib esa Turdining hayotidagi ro'shnolik yo'qoladi. Abdulazizxonning yaqin kishilaridan va tarafdorlaridan biri bo'lganligi sababli yangi hukmdor, boshqa yuz urug'i boshliqlari qatori, Turdini ham saroydan chetlashtiradi, ta'qib qila boshlaydi. "Muxammasi turki"da bunga shunday aniq ishoralar bor:

Hukm jori, so 'z qabuli, bir duri dargo 'sh edim,
Ahli davlatlar bilan yoru harif hamdo'sh edim.
Hoy-hoyi bazmlarda shahdi no'sho no'sh edim,
Xush zamonlar yuz qazoni boshida sarxush edim,
Bu zamon yuvg'on qozon ostida qolg'on yundiman.

She'r mazmunidan muxammas shoir umrining oxirlarida yozilganligi anglashiladi. Chunki unda shoir o'z umri davomida boshidan kechirgan voqea-hodisalar, hayotining achchiq-chuchuk onlari, qiyinchiliklar, ulaming shoir taqdiriga ko'rsatgan ta'sirii xususida fikr yuritadi. Quyida yana ana shunday mazmundagi g'azali bilan tanishamiz:

Tor ko'ngillik beklar, man - man demang, kenglik qiling.

To'qson ikki bo'vli ' o'zbek yurtidur, tenglik qiling.
Birni Qipchoq - u Xito - yu, birni Yuz, Nayman demang,

Qirq - u Yuz, Ming son bo'lub, bir xon oyinlik qiling.
Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to'ng'a kirib,
Bir o'ngurlik, bir tirizlik, bir yaqo, yenglik qiling.
Kim qo'yubdur, uhdai o'z mulkugizdin chiqmayin,
Ikki, uch, to'rt da'vosin etmakni ko'tahlik qiling.
Mardlar maydon chekib, rangin ko'tarib zaxmlar,
Sizga yo'q, ul javhar - u yuzga upo - englik qiling.

Mazkur g'azalni g'oyaviy-badiiy tahlil qilishdan oldin, millatni birlikka chorlagan shoirdan yetib kelgan ma'naviy meros haqida to'xtalib o'tamiz. Turdidan bizga ijodining juda oz qisini 400 atrofidagi o'n sakkizta she'r yetib kelgan. Ularning ko'pchilig g'azal va muxammaslardan iborat. Bir g'azal va bir muxammasi tojik tilida bitilgan. Bu uning zullisonayn (ikki tilda ijod qiluvchi) shoir bo'lganligidan darak beradi. Bixoro adabiy muhitida faoliyat yuritgan iste'dodli shoir uchun bu tabiiy hol edi. U she'rlarida "Turdi" hamda "Farog 'iy" taxalluslarini qo'llaganligini bizga yetib kelgan she'rlaridan bilish mumkin.

"Tor ko'ngullik beklar ..." deb boshlanuvchi she'ri g'azal janrida yozilgan. U adabiyotimiz tarixidagi xalqni milliy birlikka chaqirgan, o'zaro tenglikka da'vat etgan, hududiy yaxlitlikni targ'ib qilgan siyosiy ruhdagi birinchi she'r sifatida alohida e'tiborga molikdir.

O'zbeklar etnik jihatidan to'qson ikki urug'dan iborat bo'lgan. Ular qirq, yuz, ming, jaloyir, jig'alboyli, oytamg'ali, boyovut, qo'ng'irot,

so'loqli, qaroqchi, kenagas, mangit, xitoy, qipchoq, nayman, boymoqli, sirg'ali, o'roqli, bolg'ali kabi nomlar bilan atalganligi tarixdan ma'lum. Bu urug'larning boshliqlari, yurt kattalari mavqe, amal, hudud talashib urug' - aymoqlar o'rtasida o'zaro nizolarni kuchaytirdilar. Bundan oddiy xalq aziyat chekdi, qishloqlar vayron, ekinzorlar payhon bo'ldi. O'lka parokundalikka yuz tuta boshladi. Bu holdan qattiq g'azablangan shoir Turdi mamlakat, mansab uchun qirpichoq bo'layotgan beklarni ko'ngillaridagi tor shaxsiy g'arazlarni qo'yib, keng miqyosda millat uchun qayg'urishga chaqiradi:

Tor ko'ngullik beklar, man - man demang, kenglik qiling.

To'qson ikki boqli o'zbek yurtidir, tenglik qiling.

Navbatdagi baytda parokandalik, tarqoqlikdan voz kechib, bir hukmdor qo'l ostida yaxlit bir mamlakat, yurt, yagona bir milliy davlat haqidagi orzularini bayon etadi. Keyingi uch urug'ning nomi sonlarga uyg'unligidan foydalanib, tazod vositasida mazmunga mos shakl topa biladi. Ya'ni urug'ingiz nomi qirq, yuz, ming bo'lsa - da, siz bir xonlikda yashashni, bir mamlakat bo'lib birlashishni odat qiling, deydi shoir. Bu kabi o'lmas g'oyalar hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Turdining ushbu da'vat xarakteridagi chaqiriqlari zamonlar osha yangrab turishi, shubhasizdir. Uchinchi baytda g'azalning umumiy g'oyasi yanada yorqinroq, ta'sirliroq ifodalangan. Birlikka da'vat etayotgan shoir baytdagi misralarda "bir" so'zining bir maromda besh marta takrorlaydi va uni bitta kiyimning qismlari misolida ifoda etadi:

Bir yagodin bosh chiqorib, barcha bir to'ng'a kirib,

Bir o'ngurlik, bir tirizlik, bir yaqo, yenglik qiling.

Oxirgi ikki baytda o'z mulki, ya'ni mamlakatini boshqarishni uddasidan chiqmagani holida boshqa yerlarga ko'z olaytirayotgan beklarni tanqid qiladi, yuragida mardlar kabi maydonda zahmat chekish javhari – jur'ati yo'q yurt kattalariga o'zining achchiq kinoyasini, istehzosini bildirishga jur'at etadi. G'azalda o'zidan kechib maydONTALAB bo'lolmaydigan, ammo turli bo'htonu ig'volar bilan el orasini buzadigan kimsalar pardoz qiluvchi satang ayollarga o'xshatib "yuzga upo - enlik qiling", deya kulgi qilinadi:

Mardlar maydon chekib, rangin ko'tarib zaxmlar,

Sizga yo'q, ul javhar - u yuzga upo - enlik qiling.

Mazkur g'azalda shoir o'z milliy davlatchiligiga ega bo'lgan xalqimiz tarixi, ajdodlar sha'ni, ularga munosib farzand bo'lish bilan

bog'liq mulohazalarni ifoda etgan. Qolaversa, ushbu g'azal totuvlik va bag'rikenglik istagi asosida yaratilganligini qayd etish lozim.

Shoir ijodida hasbi hol asosida yaratilgan ajoyib g'azal mavjudligini ham alohida ta'kidlash lozim. Masalan, uch baytdangina iborat "Turdiman" radifli g'azali mana shunday hasbi hol, ya'ni o'z ahvolini bayon etish tarzida yaratilgan. Unda ma'lum darajada shoirning taqdiri, kechmishlari aks etgan deyish mumkin. G'azal shoirning hasbi holi bilan boshlanadi:

Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman,
Kelturan amvojga bahri talotun Turdiman.

Baytda tazod san'atidan mohirona foydalanilgan. Bunda shaxsiyati va holatidagi qarama - qarshilik orqali fikr bo'rttiriladi. "Qatradek nochiz", ya'ni oddiy odam bo'lsa-da, o'z tirishqoqligi, jonkuyarligi, izchil harakatlari bilan ezilgan kishilarni oyoqqa turg'izgan, isyon va qo'zg'olonlarni keltirib chiqargan, she'rlari bilan amaldorlar yuziga ham haqiqatni tik ayta olgan shoir: "Kelturan amvojga bahri talotun Turdiman", deya faxrlanishga haqli edi. Ikkinchi baytda esa shoir tolesizligining sababi ko'rsatiladi:

Qirg, Yuz, Ming agrabolar ettilar mandin nufur,
Ne balo, baxti qaro - yu toleyi shum Turdiman.

Turdi Farog'iyning olijanob harakatlarini, yakdillik haqidagi yonib-kuyishlarini qirg, yuz, ming va boshqa urug'lardagi millatdoshlari anglab yetmaydilar, ba'zilar, hatto, nafrat bilan qaraydilar. Bundan iztirobga tushgan shoir o'zini "baxti qaro tolevi shum" deb biladi. Bu holat uning turmush tarzi, hayot kechirishga ham ta'sir etmay qo'ymadi:

Rishtadek ming bor ro'ze chashmi so'zandin o'tar,
Bovujudi e'tibori chashmi mardum Turdiman.

Baytdagi lug'atlarga e'tibor qartsak, rishta - ip, ro'ze - kun, chashmi so'zan -igna teshigi demakdir. Demak, shoirning moddiy ahvoli ancha tang tirikchiligi "chashmi so'zan", ya'ni igna teshigidan o'tkazilayotgan ip kabi qiyin o'tadi. Shoir shu taxlit o'zining o'tmishini, iztirobli kechinmalarini, turmush tarzini siqiq, lo'nda. shaklda bayon etadi.

Hayotligida iztirobli kunlarni boshidan o'tkazgan bo'lsa-da, millatni birlikka chorlagan she'ri ila shoir har bir davrning o'lmas g'oyalarini tarannum etdi. Ya'ni o'zidan keyin so'zi yashab kelayotgan shoir eng baxtli ijodkorlardan sanaladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Turdi Farog'iyning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
2. Shoir haqida olimlar qanday ma'lumotlarni yozib qoldirishgan?
3. Turdi Farog'iy qanday asarlar yozgan?
4. Turdi Farog'iy haqida dastlab kim ma'lumot bergan?
5. Shoir asarlarining bugungi kundagi ahamiyati nimalardan iborat?
6. Turdi Farog'iy ijodiy merosining o'rganilishi doir qanday tadqiqotlarni bilasiz?
7. Shoir o'z she'rlari orqali adabiyot tarixida ilk bor qanday yangi g'oyaviy-badiiy yo'nalishni yuzaga keltirdi?
8. Turdi Farog'iy qaysi sulolaga mansub va qaysi hukdorlar bilan bir davrda yashagan?
9. Shoir lirikasining yetakchi mavzulari haqida fikr yuring, fikringizni misollar asosida izohlashga harakat qiling.
11. Turdi Farog'iyning "Muxammasi turki" asarida nimalar haqida fikr yuritiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. –T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti 2006.
2. Fitrat. Tanlangan asrlar. 2-jild. – T.: Ma'naviyat, 2000
3. Turdi. She'rlar. – T.: 1971 (kirish so'zi muallifi A.Hayitmetov).
4. Yoqubov H. Turdi: Adabiy maqolalar. – T.: 1971.
5. Abdullaev V. Turdi. Farog'iy: O'zbek adabiyoti tarixi. Darslik, 2-kitob. – T.: 1980.
6. Jumaxo'ja N. Milliy birlik kurashchisi. "Tafakkur" jurnali, 1998, 3-son.

SAKKIZINCHI MAVZU: MUJRIM OBID HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Muja'rim Obidning hayot yo'li.
2. Muja'rim Obid adabiy merosining o'rganilishi.
3. Muja'rim Obid lirikasining mavzular olami, g'oyaviy-badiiy tahlili.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|------------------------|-------------------------------|
| • <i>Muja'rim Obid</i> | • <i>Ruboiy</i> |
| • <i>Shoir</i> | • <i>Masnaviy</i> |
| • <i>Devon</i> | • <i>Qasida</i> |
| • <i>G'aza</i> | • <i>Fors-tojik adabiyoti</i> |

Mujrim Obid XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi choragidagi yashab ijod etgan Buxoro adabiy muhitining zabardast vakillaridan biridir. Uning tarjimai holi haqida to‘liq ma’lumotlar saqlanmagan bo‘lsa-da, hayoti, ijodiga doir ayrim ma’lumotlar turli manbalar orqali yetib kelgan. Aksariyat buxorolik ijodkorlar kabi Mujrim Obid ham zullisoniy shoir bo‘lib, ham turkiy, ham forsiy tilda qalam tebratgan. Turkiy ijodida Alisher Navoiy va Boborahim Mashrab, forsiy she’rlarida Mirzo Bedilga izdoshlik qilgan Mujrim Obid o‘zbek mumtoz so‘z san’ati tarixida alohida o‘rin tutadi.

Mujrim Obid Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi Kumushkent qishlog‘ida tug‘ilgan. Bu haqda shoir devonining debochasida keltirilgan parchadan bilish mumkin.

Kumushkent ul ki sarmanzil, kolibman anda po dar gil
Ishimdir nazmi behosil, ki yolg‘on so‘zga chin
bo‘ldim.

Mazkur debocha Mujrim - Obid haqida ko‘pgina faktik ma’lumotlarga oydilik kiritadi. Debocha Oллоhga hamd, Muhammad Mustafo Sallollohi alayhis-salomga bag‘ishlangan na’t bilan boshlanadi. Shoir debochada o‘zini *"bechorayi boe’tibori beixtiyor, xoru zoru parishon ro‘zgor"* kishi sifatida ta’riflaydi.

Mujrim Obid ijodi bir qancha olimlar tomonidan o‘rganilgan. Biroq bu o‘rganilishda yanglish fikrlar ham aytilgan. Bu borada olimlar R.Komilov, V.Abdullayev fikrlari hamda M.Abdurahmonovning "Buxoro haqiqati" ro‘znomasi 1991-yil 9-yanvari sonida chop etilgan "Kumushkent farzandi" maqolasidagi fikrlarga munosabat bildirib, shoir hayoti va ijodini tadqiq qilgan olim G‘afurjon Eshmonov xizmatlari e’tiborga loyiq. Olim manbalarni qiyosiy tahlil etgan holda Mujrim Obid hayotiga doir ko‘plab ma’lumotlarga oydinlik kiritdi.

Ba’zi manbalarda Mujrim Obidning ismi Obidxo‘ja, otasining ismi Mirakxo‘ja ekanligi qayd etilgan. Mujrim Obid 9 yoshigacha bo‘lgan damlarni o‘z asarlarida tez-tez xotirlaydi. U bolaligida ona qishlog‘idagi eski maktabda o‘qigan va tezda savod chiqargan. 11 yoshiga qadar o‘z qishlog‘ida, keyin Buxorodagi Mirarab madrasasida tahsil oladi. Bo‘lajak shoir ustozlari xizmatida bo‘lib, darsxonalarda yotib, o‘tkir qobiliyati bilan mudarrislar hurmatini qozonadi. "Qur’on" ilmini puxta o‘rganadi. Shu sabab uning she’riyatida diniy, tasavvufiy mavzular yorqin ko‘zga tashlanadi.

Shoir hayoti Buxorodagi ashtarxoniylar sulolasi inqirozga uchrab, mang'itlar hokimiyat tepasiga kelgan alg'ov-dalg'ov bir davrda kechdi. U mang'itlar sulolasining asoschisi Muhammad Rahim (1747-1753), Amir Doniyolbiy otaliq (1753-1785), uning o'g'li Amir Shohmurod (1785-1800), zurriyodi Amir Haydar (1800-1827)lar hukmronlik qilgan yillarda yashab, ijod etdi. Shoir, asosan, Amir Shohmurod va Amir Haydar zamonida shuhrat topdi. U Amir Haydar saroyida muboshirlik vazifasida ishlagan. Mujrim Obidning Amir Haydar nazariga tushishiga unga atab yozgan qasidasi sabab bo'lgan, degan qarashlar bor. Bu qasidasida u Amir Haydar va uning farzandlarini madh etgan. Aslida Mujrim Obidning saroyga jalb etilishida shu davrda amirlik devonining bosh munshiysi sifatida faoliyat ko'rsatgan zabardast so'z ustasi Mirzo Sodiq Munshiy Jondoriyning yordami bo'lgan. Ushbu qasidasini shoir hukmdor qo'l ostida ishlayotgan vaqtida yozgan bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas.

Mujrim ham, Obid ham shoirning taxalluslari. U dastlab Mujrim taxallusi bilan she'r yozgan. Mujrim – gunohkor, “gunohlari uchun jarima to'lovchi” degani. Islom dinini yaxshi bilgan shoir hamisha o'z gunohlariga tavba qilib, Yaratgan oldida bandaning gunohkorligiga ishora qilib, o'ziga bu taxallusni tanlagan. Bu taxallusni nima sababdan tanlaganligi bilan bog'liq ishoralarni lirik merosidagi baytlarda ham ko'rishimiz mumkin:

Bag'rimga barq tushti, jon-u tanim tutashti,
Isyon boshimdin oshti, “Mujrim” deb ot qildim.

Baytdagi “isyon” so'zini “ijtimoiy-siyosiy norozilik” tarzida tushunmasligimiz kerak. Bu so'z islomiy aqida va tasavvufda Ollohning buyruqlarini ko'ngildagidek bajara olmaslikni anglatadi.

XIX asrning boshlarida Amir Haydar unga Obid taxallusi bilan she'rlar yozishni amr etadi. *Obid – ibodat qiluvchi, parhezkor, taqvodor demakdir.* Shoir Obid taxallusi ostida ijod qilishga kirishgan bo'lsa-da, u Mujrim taxallusidan ham voz kechmagan, ko'pchilik g'azallarida esa har ikkala taxallusini baravar qo'llagan.

Xalq orasida uning Obid taxallusini tanlashi bilan bog'liq shunday rivoyat mavjud: Emishki Buxoro hukmdori amir Haydar atrofiga o'z mulozimlari, shoirlarni to'plaganicha, xos kursiga suyanib o'tirganmish. Shunda uning ko'zi shoirlar davrasidagi bir yigitga tushadi va unga savol tashlaydi:

- Xo'sh , qayerliksan?
- Vobkent muzofotidan, Kumushkentdanman.

– Borakallo. Narshaxiyni bilasanmu?
– Albatta, taqsir! Ul kishi buyuk olim bo‘lganlar.
– Borakallo! Menga aytishdi, shoir ekansan. Hozir mushoira boshlanadi. Katta shoirlar davrasida o‘ltirib, senga bir savol bermoqchiman.

– Bosh ustiga, hazratim!

– Agar so‘zim ma‘qul bo‘lsa, tezda javob aytgaysan. Aytolmasang, seni darra kutadi. Shunday emasmu, ahli bayt?! - murojaat qiladi amir atrofida qilarga qarab. Ular kulib, qulluq qilishadi. Amir yigitga qaraydi:

– Gap bunday, – deydi u miyig‘ida kulib, – aytadurg‘on so‘zlarimni qulog‘ingga quyib ol. Mana: Gul, Qilich, Non, Dutor! Eshitdingmu?

– Eshitdim, hazratim!

– Badihani bilurmisan?

– Albatta, amirim!

– Unda o‘yla va ... so‘ngra so‘yla!

Yigit bir lahza osmonga, tevarakka qarab, “Allohim, o‘zing madad ber, o‘zing qo‘lla!” deya pichirlaydi. Bir pas o‘yga tolqach, kulimsiragan holda so‘zlay boshlaydi:

Quchoq‘imga dastalab gul qo‘ying, So‘ngra qilich bering, yayratgayman.

Va lekin qornim och, non bersangiz, Uni dutor kabi sayratgayman!

Yigit she‘rini tugatqach, amirga, shoirlarga qulluq qiladi. Shunda amir o‘tirgan joyidan turib ketadi. Mo‘ylovini burab, "Go‘zal, go‘zal, tasanno!" deya yigitni bag‘riga bosadi. "Ahli bayt, bu badiha sizlarga ham maqbulmi?" deya davraga qaraydi u. Mushoira qatnashchilari "ajoyib, tashakkur!" deya e‘tiroflarini izhor etishadi. Amir yigitga yuzlanadi:

– Taxallusing nedur, inim?!

– Mujrim, xazratim!

– Otangga rahmat! Nima, gunohing shu qadar ko‘pmi, gunohkor deya taxallus tanlabsan?

– Beayb Parvardigor, hazratim...

Amir bir pas o‘yga tolib, so‘ngra mamnun jilmayadi:

– Unday bo‘lsa, o‘zingga Obid taxallusini qabul qil. Shoyad gunohlaringdan forig‘ bo‘lsang...

Amirning topqirligidan hayratga tushgan yigit avvaliga bir lahza gangib qoladi. So‘ngra ta‘zimga egilib, hurmat bajo qiladi:

– Qulluq, hazratim! Shunday qilganim bo‘lsin!

Amir mamnun bo‘lib, yigitning elkasiga qoqadi. So‘ngra vazirga qaraydi:

– Udaychiga ayting. To‘n keltirishsin! Shu kundan boshlab bu yigit saroyimizning mulozimi bo‘lg‘ay. U shoir degan unvonga munosibdur!...

Shu zaylda u qo‘sh taxallusli shoir sifatida ijod eta boshladi.

Mujrim Obid – sohibdevon shoir. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida uning turkiy devonining uch qo‘lyozma nusasi: 976, 1797, 3798 raqamlari, forsiy devoni 991 raqami ostida saqlanadi. Bundan tashqari, Tojikiston RFA Sharqshunoslik bo‘limida ham shoir devoning bir necha nusxalari saqlanmoqda. Shoirning 206 g‘azalini o‘z ichiga olgan forsiy devoni mukammal emas. 3798 raqamli turkiy devonida 459 g‘azal, 80 ruboiy, 2 ta qit‘a, 10 muxammas va “Hasbi hol” deb nomlangan masnaviysidan tarkib topgan. Muxammaslarning 7 tasi Navoiy, bittasi Bedil g‘azaliga bog‘langan. Ikki mustaqil muxammasning biri turkiy bo‘lsa, ikkinchisi forsiy.

Mujrim Obid merosi hozirgacha to‘la holida nashr etilmagan. 1960-yili taniqli sharqshunos olim Rustam Komilov shoirning 47 g‘azal, Navoiyga bog‘langan 3 muxammas va “Hasbi hol” masnaviysini nashrga tayyorlab, “G‘azallar” nomi ostida bosmadan chiqargan. Bu mo‘jaz to‘plamga uning “Mujrim Obid” nomli kirish maqolasi ham ilova qilingan.

Shoir ijodi bo‘yicha G‘afurjon Eshmonov 2002-yilda “Mujrim Obid”ning turkiy ijodiyoti” mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Mazkur olim tomonidan 1996-yili shoirning 80 ta ruboiy va qit‘asi “Ruboiy va qit‘alar” nomi bilan alohida to‘plam holida nashr ettirilgan. Shuningdek, Mujrim Obid ijodi va faoliyatini o‘rganishgda buxorolik olim Ergash Ochilovning hissasi nihoyatda katta. Olim “Barhayot siymolar” to‘plamida shoir haqida alohida to‘xtalgan va yangi ma’lumotlarni taqdim etgan.

Mujrim Obid haqida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, shoir tarjimayi holining barcha nuqtalari oydinlashtirilgan emas, ijodining mazmun-mohiyati va ahamiyati ham yetarli darajada keng va chuqur ochib berilmagan. Bu hol uning hayoti va ijodini o‘rganish, asarlarini nashrga tayyorlash borasidagi ishlarni yana davom ettirishni taqozo qiladi. Xususan, shoirning forsiy ijodi tadqiqot doirasidan chetda qolib kelmoqda. Holbuki, Bedilga ergashib, sabki hindiyda g‘azallar

bitgan Mujrim Obidning forsiy merosi ham badiiy jihatdan yuksak ekanligi shubhasiz.

Mujrim Obid ijodini koʻzdan kechirar ekan, shoir sheʼriyatida ikki yoʻnalish ustuvorligini koʻramiz: birinchisi – anʼanaviy uslubdagi ishqiy gʻazallar, ikkinchisi – dunyo, zamon, odamlardan hasrat-shikoyat ruhida isyonkor sheʼrlar. Uning kichik janrdagi asarlari – qitʼa va ruboiylarida esa asosan maʼnaviy-axloqiy qarashlari, pand-nasihatlari aks etgan.

Gʻafurjon Eshmonov oʻz tadqiqotida shoir ruboiylarini mavzu eʼtiboriga koʻra quyidagicha tansif qiladi:

1. Axloqiy-taʼlimiy ruboiylar
2. Rindona ruboiylar
3. Orifona ruboiylar
4. Oshiqona ruboiylar
5. Peyzaj ruboiylar

Bu mavzular orasida axloqiy-taʼlimiy ruboiylar yetakchi oʻrinni egallaydi.

Siringni xaloyiqqa bayon qilma sarih,
Fahm aylaki, bormu ekan ul qavli qabih.
El ogʻzidin oni jamʼ etib boʻlmas soʻng,
Vahm ulki, muʼallil boʻladur qalbi sahih.

Mazkur ruboiyda shoir sirni saqlash kerakligi, uni aslo xaloyiqqa bayon etaslik lozimligini uqtiradi. Chunki xaloyiqdan qabihroq qavm yoʻq, deydi shoir. Kimki sirini elga oshkor qilsa, u barchaga tarqalib ketadi va uni qayta yigʻishning imkoni yoʻq. Va bu holdan toza qalbli asl insonlar baloga giriftor boʻlishlari, ozor chekishlari mumkin.

Mujrim Obid Sharq soʻz sanʼatining peshqadam shoirlari anʼanasini davom ettirib, shaklan goʻzal, mazmunan teran, badiiy yuksak asarlar yaratdi. Ularda goh soʻfiyona ruh ustunlik qilsa, goh dunyoviy muhabbat talqinlarini koʻramiz, baʼzida esa haqiqiy va majoziy ishq tasvirlari ajoyib bir tarzda omuxtalashib ketgan. Shoir sheʼrlari ohorli va nozik tashbihu timsollarga boy, uslubi sodda va ravon, ularda yoniq qalb sohibining haroratli nafasi sezilib turadi.

Mujrim Obid faqirona turmush kechirgan. Shoirning 7 nafar farzandi – ikki oʻgʻilu besh qizi boʻlgan. Lekin ota keksayib, amalidan ayrilib, maoshsiz qolgach toshbagʻir farzandlar, xotini ham undan yuz oʻgirdilar, ahvolidan xabar olmay qoʻyadilar. Nochor ota oʻziga achinadi va zorlanib shikoyat qiladi. Bu haqda “Hasbi hol” masnaviysida, jumladan, shunday misralarni oʻqiymiz:

Ikki o'g'ilu besh qiz barisi,
Har biri bo'ldilar bir uy egasi.
Har kim o'z ro'zg'ori birla xush,
Ko'hna vayronada man bila boyqush.
Ko'rdilarkim otada yo'q dirham,
Borish-kelishni qildilar barham.
Volidalari bevafo bo'ldi,
Bizga bo'ldi nakim jafo bo'ldi.
Ushbu qaridin etmadilar yod,
Aning uchun man u ko'ngul noshod.

Ana shu davrdan boshlab uning ijodida hasrat-shikoyat ohanglari kuchayadi: amir-amaldorlar yoshligida uning iste'dod-u g'ayratidan foydalanib, qariganda bir chetga surib qo'ydilar; pul topib turganida yonida parvona bo'lgan ayol-u farzandlari maoshsiz qolgach, uni tashlab ketdilar; biror naf' ko'rish ilinji qolmagach, boshqa do'st-u yaqinlari ham undan uzoqlashdilar. Shu tariqa, shoir umrining shomida oilasiz, ishsiz, do'st-u yaqinsiz – yolg'izlik, qashshoqlik, qarilik va kasallik iskanjasida qoldi. Mujrim Obidning fig'oni falakka chiqib oh-u faryod chekishi, bevafo dunyo, adolatsiz zamon, oqibatsiz kishilarni mazammat qilib, otashin she'rlar yozishi shundan. G'azallaridan birida u “dard-u g'am tog'i-yu ranj-u alam xirmoni bilan qolgan”ligini qayg'u-hasrat bilan quyidagicha tasvirlaydi:

Ketarman dahrin bir kun – qolur ranju alam meros,
Ki qolg'ondek g'aniylardin necha mol-u hasham
meros.

Emasdur hech davlatmand man monand mustag'niy,
Qolur mandin hamono hech tuganmas dard-u g'am
meros.

Sharq mumtoz so'z san'atida Iso Masih o'likni tiriltiruvchi payg'ambar sifatida talqin qilinadi. She'riyatda uning bu xususiyati ko'pincha ma'shuqaga ko'chiriladi. Ma'shuqaning bir qiyo boqishi, bir tabassumi, bir og'iz so'zi oshiqqa jon bag'ishlaydi.

Quyidagi baytida shoir ana shu an'anaviy tashbihdan foydalanib, go'zal bir badiiy fikrni ilgari suradi – Iso Masih balki o'likni tiriltirar, lekin mening dardimga davo topishga ojiz:

Sihatlikdan umidim yo'q, tabiblar minnatin cheksam,
Agar Iso yonimga kelsa, dardimga davo bo'lmas.

Boshqa bir o'rinda esa men shunchalik qonli yosh to'kamankim, uning girdobida g'arq bo'lmay desangiz, ko'ch-ko'roningizni ko'tarib, tezroq bu yerni tark eting deydi:

Ko'ching, ey mardumki, bir kun bo'lg'aysiz g'arqi xun,

Muncha selobi balokim, chashmi giryonimdadur.

Shoir o'z she'rlarida xalqona tashbihlar, obrazli so'z va iboralardan ham mahorat bilan foydalanadi. Chunonchi, boyqush – vayronalar shohi, ayni paytda, ganjning manzili ham – vayrona. Kimsasiz qolgan Mujrim Obid o'zini boyqushga, xaroba kulbasini – vayronaga o'xshatadi. Farq shundaki, boyqush – baxil bo'lsa, u – saxiy, vayronada – ganj bo'lsa, uning uyida faqat dardu alam bor:

Har kima dardi alam darkor, kelsun – manda bor,
Chug'zi olihimmatam, bu ganj vayronimdadur.

Mujrim Obid she'rlarida shikoyat motivlari kuchli bo'lsa-da, shoir faqat hayotdan zorlanish bilangina kifoyalanmaydi. Uning ijodidagi shikoyat motivlari ba'zan o'tkir hajviy ohanglarlar bilan qorishib ketadi. Shoir hayotdagi illatlarni beayov tanqid qiladi. Binobarin, Mujrim Obid satirasi fosh qiluvchiligi bilan qimmatlidir. Bu jihatdan uning shayx-zohidlarning riyokorligini tanqid ostiga olgan "Shayx", "Qilur" radifli g'azallari diqqatga sazovordir.

El firibig'a uzatdi turrai dastor shayx
Toki bo'lgay xalq ichra oti buzrukvor shayx.
Aldab el molin yeguncha zahr no'sh etgan qulay,
Holiyo davron g'animat, ayla istig'for shayx.

Islom dinining quvvati bo'lgan Buxoroda Mujrimning shayxlarni tanqid qilishga bu taxlitda qo'l urushi katta jasorat edi. Shoirni g'azablantirgan narsa ayrim din va shariat ahllarining nafs bandasiga aylanib qolib, yuqori sinflar uchun xizmatda kamarbastaligi, xalqning xonavayronligiga ham shoir shu kabi ikkiyuzlamachi shayxlarni aybdor deb biladi. Shoirning bu xildagi qarashlari o'z davri uchun g'oyat ahamiyatli edi.

Mujrim Obid ijodida lirika yetakchi o'rin egallaydi. Uning adabiy merosi, asosan g'azal, muxammas, masnaviy, ruboiy janrlaridan iborat. Mujrim Obidning ishqiy g'azallari hayotiyliigi, obrazlarining o'ziga xosligi, badiiy-tasviriy vositalarining originalligi bilan diqqatga sazovordir:

Tong otti, chiqma uydin har tarafga qilma nazzora,
Mabodo bo'lmag'ay oyu quyoshning pardasi pora.

Labingdan g'uncha kulmak istaru nargis nigohingdin,
Tarahhum ayla, poymol o'lmasin gul, kirma gulzora.

O'ynoqi vaznda yozilgan ushbu g'azalda hayotiy ma'shuqa madh etilgan. Shoir tasviridagi ma'shuqa shu qadar go'zalki, mabodo uydan chiqib, xirom etgudek bo'lsa, uning husnu jamolini ko'rgan "oyu quyosh" ham pardalarini yirtib, "ko'ksini pora-pora" etadi. Chamandagi gullarning esa uning oyog'i ostiga poyandoz bo'lishi-ku turgan gap. Keltirilgan she'riy parchadagi obrazlar, tashbehlar garchi an'anaviy bo'lsalar-da, Mujrim ularni o'ziga xos uslubda qo'llagan. Natijada ular yangicha mazmun kasb etganlar.

Ma'lumki, ishq dardiga davo yo'qligi, uning oldida tabib ham ojizligi xususida Sharq mumtoz she'riyatida "ko'b va xo'b" yozilgan. Quyidagi baytda shoir ayni fikrni ijodiy rivojlantirib, ishq dardiga kelganda tabibning zaifu muztarligini-ku bir chetga qo'ying, bu borada hech narsaga yaramasligini ko'rib, hatto davoning o'zi ham zor yig'laydi, deydi:

So'rarman har tabibdan: "Ishq dardiga davo bormu?"

Tabib darmonda qolgay, holi zorimga davo yig'lar.

U o'z she'rlarida xalqona qarashlar, tashbihi timsollardan ham mahorat bilan foydalanadi. Chunonchi, quyidagi baytida ma'shuqasiga shunchaki xalq ko'zidan yashirincha kulbamga tashrif et, deyish o'rniga, xuddi pari kabi ko'zdan nihon bo'lib kel, deydi. Zero, pari har qanday kishining ko'ziga ham ko'rinavermaydi:

Jismim ichinda shishai jondur maqomingiz,

Monandai pari hama ko'zdan nihon keling.

Shoirning xalqona sodda va samimiy uslubda yozilgan "Yorginamni bir ko'rsam" radifli go'zal g'azali esa qo'shiqqa aylanib, ko'p yillardan buyon sevib ijro etib kelinadi:

Ko'nglim ochilur guldek yorginamni bir ko'rsam,

Xizmat aylaram guldek yorginamni bir ko'rsam.

Ul mohi paripaykar, ilgida zaru zavar,

Har kalomi jonparvar, yorginamni bir ko'rsam.

Orazi chaman oro, ko'ngli porai xoro,

Shoni-shavkati doro, yorginamni bir ko'rsam.

Toza dilbarim kelsun, mehrparvarim kelsun,

Sho'ri mahsharim kelsun, yorginamni bir ko'rsam.

Har zamon chekarman dod, yorimni qilurman yod,

Ohu nolayu faryod, yorginamni bir ko'rsam.

Mujrimi adoyi man, zoru benavoyi man,

Ko'yida adoyi man, yorginamni bir ko'rsam.

Xulosa qilib aytganda, Mujrim Obid Sharq mumtoz so'z san'atining qator an'analarini davom ettirgan va rivojlantirgan, Navoiyni o'ziga ustoz deb bilib, har jihatdan unga ergashishga intilgan. O'z ijodi orqali jamiyat va insonlar fe'l-atvorining turfa manzaralarini haqqoniy va katta mahorat bilan aks ettirib, she'riyatni hayotga yana bir qadam yaqinlashtirgan. Mujrim Obid sakson yoshlarida vafot etgan. Uning ijodi o'zbek adabiyotining yorqin sahifalaridan birini tashkil etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Mujrim Obidning taxalluslari va ularning ma'nosini ayting.
2. Shoir ijodining mavzular olami haqida so'zlang.
3. Shoir qaysi davrda yashab ijod qilgan?
4. Mujrim Obid adabiy merosining mavzular ko'lamini haqida so'zlang?
5. Shoir ijodi qaysi olimlar tomonidan o'rganilgan?
6. Tazkira va tarixiy asarlarda Mujrim Obid haqida keltirilgan ta'riflarni tahlil qiling, munosabat bildiring.
7. Shoir ijodining umumiy hajmi qancha, uning qo'lyozmalari haqida ma'lumot bering.
8. Mujrim Obid g'azallarida qanday ramz -u timsollar qo'llangan?
9. Shoir ruboiylari kim tomonidan to'plab, nashr etilgan?
10. Mujrim Obid ruboiylaridan yod oling, g'oyaviy-badiiy tahlil qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. – Бухоро. 2015.
2. Мужрим Обид. Рубоий ва қитъалар. Нашрга тайёрловчи: Гафуржон Эшмонов. – Т.: 1996.
3. Очилов Э. Барҳаёт сиймолар. – Т.: “Ўзбекистон”, 2012.
4. Жумахўжа Н., Адизова И. Ўзбек адабиёти тарихи ХВИ-ХИХ аср биринчи ярми. – Т.: “Ношир”, 2019.
5. Самандар Воҳидов. Бухорийлар бўстони. – Бухоро. 1991.
6. Садриддин Айний. Тожик адабиётидан намуна. Душанбе, 2010.

TO'QQIZINCHI MAVZU:
MIRZO SODIQ MUNSHIY HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Sodiq Jondoriyning hayot yo'li.
2. Sodiq Jondoriyning adabiy merosi.
3. Sodiq Jondoriy asarlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|-------------------------|--------------------------|
| • <i>Sodiq Jondoriy</i> | • <i>g'azal</i> |
| • <i>Munshiy</i> | • <i>ruboiy</i> |
| • <i>Shoir</i> | • <i>masnaviy</i> |
| • <i>Devon</i> | • <i>"Dahmai shohon"</i> |
| • <i>Tasavvuf</i> | |

Mirzo Muhammad Sodiq ibn Abduvali Munshiy Jondoriy Buxoriy XVIII asrning ikkinchi yarmida va XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan bo'lib, taxminan 1753-1758-yillarda Buxoro viloyati Jondor tumanidagi Xayrobod qishlog'ida tug'ilgan, Sodiq taxallusi bilan she'rlar bitgan.

Dehqon oilasidan yetishib chiqqan Mirzo Sodiq o'z iqtidori bilan dong taratdi. Shoirning Jondoriy taxallusi tug'ilgan joyini bildirsa, Munshiy laqabi xizmat vazifasidan kelib chiqqan. Sodiq Jondoriy davlat ishlari bilan badiiy ijodni birgalikda olib borgan. Chuqur bilimi, chiroyli husnixati, iste'dodi va donoligi bilan xalq ichida tanilgan bu yigitni dastlab Jondor qozisi o'ziga mirzaboshi qilib oladi. Bu yerda yaxshi faoliyat olib borganligi sababli Sodiqning ta'rifi Buxoro amiri saroyigacha yetib keladi. Buxoro amiri Doniyol otaliq taklifi bilan saroyga kelgan Sodiq Jondoriy amir Shohmurod va amir Haydarlar hukmronligi davrida ham sarmunshiy (bosh munshiy) bo'lib xizmat qiladi. Mirzo Sodiq Munshiy Jondoriyning amir saroyidagi mavqei juda baland bo'lib, amir - amaldorlar chiqarayotgan har bir hujjat uning qo'lidan o'tar edi. Ma'lumki, Munshiy chiroyli xusnixat egasi bo'lishidan tashqari, savodli va dunyoqarashi keng kishi bo'lishi talab kilingan. Chunki inshoning (insho so'zi bu yerda keng ma'noda bo'lib, nasrning bir turi, san'at, yozishmalar, muhim hujjatlarni bitmoq ma'nosini ifodalaydi) ijtimoiy- siyosiy, adabiy-badiiy ahamiyati katta edi. San'atlar, badiiy tasvir vositalaridan imkoni boricha unumli

foydalanish avvalo shaxsiy yozishmalargagina emas, balki rasmiy insholarga ham birdek taalluqlidir, deb yozgan edi K.Ergashev.

Ikkinchidan, yozishmalarning o'ziga xos odobi bo'lganki, ularga amal qilish shart edi. Umuman olganda Mirzo Sodiqda Munshiylik uchun talab qilinadigan barcha xususiyatlar mujassam edi. U Amir Shohmurod va Amir Haydarlarning turli yurishlarida ishtirok etgan. Chunonchi, Amir Shohmurodning Eron va Afg'onistonga qilgan yurishlarida birga bo'lgan, uni maqtab qasida va qit'alar yozgan.

Mirzo Sodiqning zamondoshi bo'lgan Noseh Xatloniy "Majlisafro'z" ("Majlis ahlining guli") masnaviysining muqaddimasida uni "so'z iqlimining shahanshoi" deb ataydi. Mirzo Sodiqning shoirlik iqtidori va munshiylik iste'dodini ta'riflab shunday yozgan edi:

Xususan Munshiyi ma'nimuvofiq,
Sipehri nazmro subh ast Sodiq.
Utorid fitrat-u taxmis bayzost,
Uruji poyai nazmash surayyost.
Ba dasti xomai mu'jizbayoni,
Birezad obihayvon az siyohiy.
Kunad tahriri insho on guharrez,
Qalam gardad saropo nayshakarrez.

Tarjimasi: "Sodiq nazm osmonining tongidir. Yuksak aql-u zakovat egasi. Taxmis bog'lashda tengi yo'q. Nazmining darajasi surayyo yulduzi qadar baland. Sehrli qalamining qudrati bilan oddiy siyohni obihayvon (tiriklik suvi)ga aylantiradi. U insho yozganda, qalami boshdan oyoq gavhar tuquvchi shakarqamishga aylanadi".

Rahmatiloh Vozeh Mirzo Sodiqni "*Fazlu donish va lutfu marhamatda hammadan baland*" desa, Mirsiddiq Hashmat o'zining "Tazkirat ush-shuaro" tazkirasida Sodiq Jondoriyning fazilatlari xususida so'z yuritib, uning tarix, hadis va lug'at ilmlarida iqtidori yuksak ekanligini ta'kidlaydi. Uni "*Abulma'oniysi soniy*" ("Ikkinchi ma'nolar otasi" – birinchisi Mirzo Bedil) deb ataydi.

Abdulazim Somiy ham Mirzo Sodiqning "*fazlu kamol bezagi bilan muzayyan, donish libosiga o'ralgan, xushqalam va zeborakam kotib, yozish va tahrir qilishda yaktoi zamon, she'r va inshoda benazir*" ekanligini qayd qilib, uning munshiylik borasidagi mahorati va shuhrati haqida quyidagicha yozadi:

Dar in bob yak nusxai bebadal
Zi guftori Sodiq - balog'atsamar.
Ki u buda munshiyi jannatmakon

Amir Shohmurodi shujoatnishon.

Tarjimasi: "Bu yerda yana bir benazir nusxa - Sodiqning badiiy yuksak asarlari. U jannatmakon, shijoatli amir Shohmurodning munshiysi edi."

Forsiy soʻz sanʼatining zabardast namoyandalari Shayx Saʼdiy va Xoʻja Hofiz anʼanalarini sheʼriyatda davom ettirganligi, sabki hindiy – hind uslubida ijod qilgan Soib Tabriziy va Mirzo Abdulqodir Bedilga ergashganligini nazarda tutib, uni Abulmaʼoniy soniy (ikkinchi Abulmaʼoniy, ikkinchi maʼnolar otasi), Buxoro Bedili deb ulugʻlaganlar. Chunki u Buxoro adabiy muhitining peshqadam shoiri boʻlgan.

Mirzo Sodiq tarix, hadis va lugʻat ilmlarida ham maʼlum va mashhur boʻlgan. Uning hayoti mangʻit amirlari: amir Doniyol, amir Shohmurod, amir Haydar saroylarida kechgan. Oltmish uch yoshida vazifasidan boʻshatilgan va Darvozga badargʻa qilingan. Bu haqda shoir oʻz sheʼrlaridan birida ham yozib qoldirgan.

Umrining soʻngida muhtojlikda kun kechirgan shoir 1819-yilning 20-oktyabrida Qarshida vafot etadi.

Adabiy merosi. Mirzo Sodiqdan gʻazal, qasida, muxammas, ruboiy, fardlardan iborat katta adabiy meros qolgan. Sodiq Jondoriy hayoti va ijodiga qiziqish shoir yashagan davridayoq boshlangan. Uning ijodi haqida dastlab, yuqorida qayd etilganidek, Qori Rahmatullo Vozehning "Tuhfat ul-ahbob", Mirsiddiq Hashmatning "Tazkirat ush-shuaro", Hoji Hakimxonning "Muntaxab ut-tavorix", Abdulazim Somiyning "Tuhfai shohi", Sadr Ziyoning "Shuaro-i mutaaxxirin va fuzaloi muosirin" asarlarida fikr bildirilgan boʻlsa, XX asrga kelib S.Ayniyning "Namunai adabiyoti tojik", N.Maʼsumiyning "Adabiyoti tojik dar asri XVIII va nimai avvali asri XIX", V.Abdullayevning "Oʻzbek adabiyoti tarixi" darsligi, M.Abduraxmonovning "XVIII asr oxiri va XIX asrning boshlarida Buxoroda oʻzbek adabiyoti tarixidan", U.Karimovning "Mirzo Sodiqi Munshi" asarlarida bu maʼlumotlar yanada kengaytirildi hamda chuqurlashtirildi. Sodiq Jondoriy hayoti va ijodini batafsil oʻrgangan U.Karimov maʼlumoticha, Munshiy asarlarini oʻz ichiga olgan 41 ta qoʻlyozma mavjud. Shundan 27 tasi OʻzR FA Sharqshunoslik institutida, 8 tasi Tojikiston FA Sharq qoʻlyozmalari fondida, 4 tasi Sankt - Peterburgda, bittasi Dushanbe davlat kutubxonasida va biri sharqshunos olim A.Semyonovning shaxsiy kutubxonasida saqlanadi.

Shoir ijodini tadqiq etgan buxorolik olim Dilorom Karimova Sodiq Munshiy adabiy merosiga tegishli yana ayrim qoʻlyozmalarni topishga

muvaffaq bo'ldi. Olima 1997-yilda Munshiy ijodi bo'yicha "Sodiq Munshiy Jondoriy adabiy merosining janriy tarkibi va badiiyati" nomli nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Olima izlanishlari natijasida Sodiq Munshiy qalamiga mansub "Daxmai shohon" masnaviysi qo'lyozmasining bir nusxasi Buxoro San'at muzeyida ham mavjud (tartib raqami -23720)ligi, bundan tashqari, Jondor tumanining Hojikana qishlog'ida istiqomat qiluvchi Shohsanam Yoqubovanning shaxsiy kutubxonasida Mullo Rafiqjon Shoshiy tomonidan tartib berilgan bir bayoz saqlanadi. Unda Sodiq Jondoriyning ham tojik tilidagi bir muxammasi keltirilganligi borasidagi yangi ma'lumotlarni fanga taqdim etdi.

Ba'zi manbalarda shoirning lirik merosi 15 ming bayt atrofida, deb aytilsa-da, qo'lyozmalarda ularning adadi 4670 baytni tashkil etadi. Umuman, Sodiq Jondoriydan ikki she'riy devon (biri g'azallar 2291 bayt, ikkinchisi masnaviylar, muxammaslar, qit'alar jami: 2400 baytdan ortiq) hamda maktublar va rasmiy hujjatlardan iborat bir bayoz saqlanib qolgan.

Sodiq Jondoriyning g'azallar devoni 345 g'azal, 14 muxammas, 59 ruboiy, axloq mavzusidagi 20 qit'a, 2 qasida, 34 muammo va 20 farddan iborat. Ikkinchi devoni "Daxmai shohon"("Shohlar qabristoni"), "Raf'i tumani Ohugir va Xayrobod" ("Ohugir va Xayrobod tumanlariga sayohat"), "Qazovu qadar" ("Qismat"), "Oshiq shudani darvesh ba duxtare" ("Darveshning bir qizga oshiq bo'lgani") masnaviylari hamda 33 ta'rix – qit'ani (2400 bayt) o'z ichiga oladi.

Sodiq Jondoriy ijodini tadqiq qilgan yana bir olim Ergash Ochilov uning "Axloq" nomli bir risola ham yozganligi, bu risola 1890-yili Husayn Xorazmiy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinganligini aytadi. Mazkur risola nomidan ham ko'rinib turganidek, insoniy kamolot uchun muhim mavzu – tarbiya masalalariga bag'ishlangan. Nazm aralash nasrda yozilgan ushbu risolada axloqning asosiy ruknlari nazariy yoritilib, ular hadislar va donishmandlarning hikmatlari, pand-nasihati ruhida she'rlar bilan to'ldiriladi. Ergash Ochilov Sodiq Jondoriyning bir qancha ruboiylarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Sodiq Jondoriyning xizmat taqozosi bilan yozgan maktublari va hujjatlari ham bir to'plam holiga keltirilib, unga "Munshaot" deb nom berilgan. Shuningdek, u mohir va xushxat xattot ham bo'lgan bir qancha bayozlar tuzgan, turli to'plam va devonlarni ko'chirgan.

Mirzo Sodiq avvalo lirik shoirdir. Shu sabab uning iste'dodi ko'proq kichik lirik janrlarda, xususan, g'azallarida namoyon bo'ladi.

Uning gʻazallari favqulotda topilma va obrazlar, oddiy va goʻzal, ayni choqda murakkab tashbehlar, badiiy tasvir vositalariga boy. Shoir garchand anʻanaviy mavzularda qalam tebratgan boʻlsa-da, ohorli fikrlar aytishga, oʻzining yangi fikru mulohazalarini ifodalashga, shu tariqa anʻana bagʻrida yangilik yaratishga intiladi:

Boshad muhabbat onchunon pokiza durri bebaho,
Natvonad oʻro doshtan har siflayu dun dar bagʻal.

Mazmuni: “Muhabbat shunday pokiza gavharki, har qanday pastkash va tuban kimsa ham uni bagʻrida asrolmaydi”.

Muhabbat oʻzi eski bir narsayu har bir koʻngil uni yangilaydi, deganlari kabi har qanday kishining ham buyuk neʼmat boʻlmish sevgiga munosib emasligi xususida “koʻb va xoʻb” yozilgan. Necha ming marta, necha ming usulu uslubda aytilgan bu fikrni Mirzo Sodiq ham oʻziga xos shaklda aytadi: hech narsa oʻz ziddi bilan birga boʻlolmagani kabi, mazmun-mohiyatiga koʻra ezgu va pok xilqat boʻlmish muhabbat ham yovuz va nopok koʻngillarda makon tutolmaydi.

Maʼlumki, Soib Tabriziy va Bedil kabi Hindistondagi forsiy adabiyot namoyandalari gʻazal janrini ham shaklan, ham mazmunan yangiladilar, uning mundarijasini kengaytirdilar. Shu tariqa, hind uslubi sifatida ular gʻazalchilikka kiritgan yangilik Sharq mamlakatlarida mashhur boʻldi. Sadriddin Ayniyning shahodat berishicha, XVIII asr oxiri va XX asr boshlarigacha yashab ijod qilgan oʻzbek va tojik shoirlarining aksariyati Bedilga ergashgan, uning taʼsirida boʻlgan. Sodiqning qator gʻazallari ham xuddi shu – hind uslubida yozilgan.

Hind uslubining mohiyati shundan iboratki, birinchi misrada shoir bir fikrni ilgari suradi, ikkinchi misrada uni tasdiqlovchi hikmatli yoki obrazli fikrni keltiradi. Bu badiiy adabiyotda irsoli masal sanʼatining oʻziga xos koʻrinishi. Bu uslubda bitilgan sheʼrlarining badiiy teran va yuksakligi ham, ularni tushunishning ogʻir va murakkabligi ham shunda. Ayni jihatdan ular koʻpincha bir-biriga bogʻlanmaganday ham tuyuladi, alohida-alohida mustaqil misralarday taassurot qoldiradi. Ular aslida shaklan emas, mazmunan, zohiran emas, botinan bogʻlangan. Chunonchi, Mirzo Sodiqning:

Aloiq menihad domoni hojat bar kafi zolim,

Naboshad zahmati choki girebon shaxsi urʼyonro, –
baytidagi misralar zohiran qaraganda bir-biriga bogʻlanmaydi, ular oʻzicha mustaqil. Birinchi misrada “Dunyoga hirs qoʻyish ehtiyoj etagini zolim qoʻliga tutib beradi”, yaʼni manfaat boʻlmaganda birov birovga muhtoj boʻlmas edi, degan falsafiy fikr ifodalangan. Ikkinchi misrada

esa “Yalang‘och kishi yoqasini chok etish tashvishidan xoli, chunki unda yoqaning o‘zi yo‘q”, degan tamomila boshqa bir mulohaza aks etgan. Bu ikki misrani bir-biriga bog‘laydigan mantiq quyidagicha: “Yalang‘och kishi yoqasini chok etish tashvishidan xoli bo‘lgani singari manfaati bo‘lmagan odamning ham birovga ehtiyoji yo‘q”. Darhaqiqat, birovni ulug‘u birovni tuban qiluvchi, birovning boshini ko‘kka yetkazib, birovning boshini yerga tekkazuvchi aynan manfaat va ehtiyojdir. Bu ikkisidan xoli bo‘lgan kishining birovga bog‘liqligi ham, ehtiyoji ham bo‘lmaydi.

Sodiq Jondoriyning bir qancha she‘rlarini tarjimon va shoir Samandar Vohidov o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Chehrasi gul, sham‘i har maxfilligingni istamam,
Har taraf gul shoxiday moyilligingni istamam.
Bu jahonbin ko‘zlarimning mardumisan, berahm,
O‘z ko‘zimdan o‘zgaga manzilligingni istamam.
Istamam dil bog‘lasa sarv qaddingni o‘zgalar,
Ey, sanavbar, bandi o‘zga dilligingni istamam.
Qobili bazming emasdir istagan har notavon,
Shul sababdan hamdami noqobilligingni istamam.
Labga keldi jon shoshib, bu shitobkorlik nechun,
Jonim-yey, umrim kabi chopqirligingni istamam.
Mastsanu husning bila, holimga hech yo‘qdir ishing,
Bunchalik loqaydliging, g‘ofilligingni istamam.
Xushdurur oqilligingdan ishq jununi, Sodiqo,
Aql hushni ayla tark, oqilligingni istamam.

G‘azalda oshiq o‘z sevgilisining vafoli bo‘lishini istaydi. Uning boshqa oshiqlarga nazar qilmasligini istaydi va buni go‘zal o‘xshatishda ifodalaydi – gul shoxi kabi har yonga moyillik. Shuningdek, oshiq sevgilisini aqlda ham, husnda ham hammadan baland ko‘radi. Shu sabab uni noqobil oshiqlar suhbatidan yiroq bo‘lishini xoxlaydi. Chunki ular ushbu go‘zal ma’shuqaga munosib emas.

G‘azalda mumtoz adabiyotdagi ko‘plab a‘analar ham davom ettirilgan. Masalan, ma’shuqaning o‘z husniga mahliyo bo‘lib, oshiqning holi bilan qiziqmasligi ko‘plab shoirlar ijodida uchraydi. Ma’shuqaning ushbu fe’li Sodiq Munshiy g‘azalida ham o‘ziga xos tarzda ifodalangan.

Sodiq Jondoriy lirikasida tasavvuffiy g‘oyalar talqiniga ham alohida diqqat qilingan. Quyidagi misralarda ham olam, uning ashyolari, tirik mavjudotlar, inson hamma - hammasi Mutlaq ruhning muhabbati tufayli vujudga kelgan, degan tasavvufiy aqidani ko‘ramiz. Tasavvuf

ta'limotiga ko'ra boshida mutlaq ruh javharidan boshqa hech narsa yo'q edi. Mutlaq ruh o'z husn-u jamoli, qudratiga mahliyo bo'ladi, ya'ni o'zi o'zini sevib qoladi va xusn-u jamolini namoyish etish uchun ko'zgu - dunyoni yaratadi. Demak, dunyo Mutlaq ruhning ko'zgusi. Bu ko'zguda ko'ringan, jilvalangan barcha narsa Olloh sifatlarining ko'rinishlaridir. Shunday ekan, Ollohnı sevgan kishi u Yaratgan narsalarnı ham sevishi kerak. Chunki hamma narsada Xudoning tajallisi namoyon bo'ladi:

Nazar bar lola z - on doram, ki rangi yoriman dorad

Ba gul z - on ro'y xursandam, ki dar vay hast bo'yi u.

Tarjimasi: Lolaga shuning uchun nazar solamanki, unda yorimning rangi bor. Guldan shuning uchun zavqlanamanki, gulda uning bo'yi (hidi) bor.

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra eng buyuk oshiqlik – Haqqa oshiqlik. Va bu ishq cheksiz dard. Sodiq Jondoriy ham o'z she'rlaridan birida ilohiy ishqni yonib kuylaydi. Quyidagi baytlarda u ana shu buyuk ishqqa muhtalo bo'lganligi uchun ham she'rlarida “dard hidi” kelishini qayd etib o'tadi:

O'zimni ketaman tashlab, ki ko'rsam ul pariruyini,
Bu behudlik menga qaydan bino erkan, bilib oldim,
Bu tarz bitgan g'azallardan nuqul dard hidi anqiydi,
Netay, ishq dardiga Sodiq muhtalo erkan, bilib oldim.

Sodiq Jondoriyning butun umri shohlar xizmatida o'tgan bo'lsa-da, u faqirona kun kechirgan. Chunki u, o'zi aytganidek, “tavakkul etagini mahkam tutib, tama' yoqasidan sira boshini chiqarmagan”:

Nakardam hech sar az gireboni tama' berun,
Bihamdillah, ki domoni tavakkul bud dar dastam.

Boshqa bir qit'asida esa faqirligi, qo'li kaltaligidan nolib, shunday yozadi:

Yake g'aribamu nomam ba shoiri mashhur,
Ba g'ayri she'r nadoram matoi do'koni.

Mazmuni: “O'zim bir bechoramanu nomim shoirlikda mashhur: bu dunyoda she'rdan bo'lak hech narsam yo'q!”

Shoir o'z saroydagi mavqeidan foydalanib boy - badavlat hayot kechirishi mumkin edi. Ammo u dunyoviy boyliklarga ko'ngil bog'lamaganligi, qalbida Haq ishqı va boqiy dunyo ne'matlaridan umidvorlik bo'lgani uchun o'z ehtiyojidan boshqa narsa yig'maydi, moldavlat to'plamaydi.

Mana bu qit'asida shoir o'zining faqirligi, omadsizligidan nolish barobarida, o'z fazl-u kamolidan shukronalik tuyg'ularini izhor etadi:

Sodiq az ro‘zgor shokir bosh,
Nest g‘am, gar na simu zar dori.
Bar tu bas on javohiri ma’ni,
Sadafi sina purguhar dori.

Mazmuni: “Sodiq, agarchi molu dunyong bo‘lmasa-da, hayotindan shukr qil: ko‘ksing sadafining ma’ni durlariga limmo-lim ekanligining o‘zi senga kifoya emasmi?”

Mazkur baytlardan shoirning naqshbandiya tariqatiga mansubligini ham ko‘rish mumkin. Bahouddin Naqshband bir ruboiylarida shunday deydilar:

Hech narsamiz yo‘q, hech narsadan kamimiz ham
yo‘q,

Hechsizlikdan g‘amimiz ham yo‘q.
Yelkamizda janda, ortimizda qabriston,
Bir kuni o‘lsak, motamimiz ham yo‘q.

Sodiq Jondoriy ham mol-davlati yo‘qligi uchun ko‘p aziyat chekmaydi. Faqirlik shoirni aslo qo‘rqitmaydi. Uning uchun eng muhim boylik – ma’naviy boylikdir.

O‘tmish shoirlaridan birining kinoya bilan aytgan go‘zal bir bayti bor. Mazmuni quyidagicha: “Agarda podshoh kunni tunga mengzab, quyoshni oy desa, sen shartta uning bu gaplarini ma’qullab, to‘ppa-to‘g‘ri, ana atrofida yulduzlar ham g‘ujg‘on o‘ynayapti, deyishing kerak...” Bu baytda podshoh atrofidagi odamlarning qiyofasi juda to‘g‘ri ifodalangan. Sodiq ham Buxoro amirlari saroyida munshiylik bilan umr kechirgan. Uning ko‘pgina she‘rlarida ana shu saroydagi mute’ hayoti, qafasdagi qushdek holati o‘z aksini topgan. Jumladan, u bir she‘rida ablahlarning bema’ni so‘zlarini “Ofarin!” deb qo‘llab-quvvatlab turishdan ham ortiq azob bormi bu dunyoda, deb yozadi:

Xud chi boshad z-in batar k-az iztirobi ro‘zgor,
Har chi go‘yad ablahe ahsant boyad guftanam.

Sodiq ruboiylari xayyomona chuqur falsafiy mazmunga egaligi bilan ajralib turadi:

Ne lutfi butoni sarvqad memonad,
Ne javri raqibi dev-u dad memonad.
Neku badi ro‘zgor hama darguzar ast,
Ne nek ba olamu na bad memonad.

Mazmuni: “Bu dunyoda na sarvqad mahbubalarning lutfiyu va yovuz dushmanlarning jabri qoladi. Hayotning yaxshiyu yomonligi ham o‘tkinchidir: olamda na yaxshi qoladi-yu, na yomon!”

Yoki:

Bo har ki du ro‘z oshno xohi bud,
Mag‘rur mashav, az o‘ judo xohi bud.
Sad sol giriftam, ki baqo xohi dosht,
Oxir hadafi tiri fano xohi bud.

Mazmuni: “Birov bilan bir-ikki kun qadrdon bo‘lganingga mag‘rur bo‘lmaki, bir kuni undan judo bo‘lishing muqarrar. Yuz yil yashasang-da, bu dunyoda mangu qolaman deb o‘ylama, baribir bir kuni fano o‘qiga nishon bo‘lasan”.

Bu dunyoning g‘am-u quvonchi o‘rin almashib turiadi: bugun quvonch mehmon bo‘lsa, erta u o‘z o‘rnini g‘amga bo‘shatib berishi mumkin. Bugina emas. G‘am faqat sening nasibang emas, boshqalar ham undan bebahra qolmaydilar. Demak, boshiga g‘am tushganda kishi o‘zini ikki jihatdan ovutishi kerak: birinchisi, har qanday g‘am ham abadiy emas, u bir kuni o‘z o‘rnini quvonchga bo‘shatib beradi; ikkinchisi, g‘am faqat sening emas, balki barchaning peshonasida bor. Shoirning quyidagi bayti shu xusuda:

Ey xastadil, az gardishi in charxi mino g‘am maxo‘r,
Tanho nabar tu merasad in ranju izo, g‘am maxo‘r.

Mazmuni: “Ey qayg‘uli ko‘ngil, bu feruza falakning aylanishidan g‘am yema – bu azob-u mashaqqat birgina sening nasibang emas”.

Adabiyotshunoslar R.Orzibekov va N.Komilovlarning "Navoiy va adabiy ta‘sir masalalari" to‘plamiga kiritilgan "*Fors-tojik adabiyotida Navoiyga izdoshlik tarixidan*" nomli maqolalarida ikki tilda ijod qilgan zullisonayn shoirlar haqida fikr yuritib, Sodiq Jondoriyning "Ko‘zgu" radifli g‘azalini misol keltiradilar. G‘azal matlai quyidagicha:

Garchi ul orazidur bargi guliston ko‘zgu,
Ashki hayronimdadur shabnami g‘alton ko‘zgu.

Yana shu maqolada Mirzo Sodiqning "shiru-shakar" tarzida yozilgan muxammasidan parchalar keltirilib, Alisher Navoiy asarlari bilan chog‘ishtiriladi.

Mazkur misollardan Sodiq Jondoriyning o‘zbek tilida ham ijod qilgani ma‘lum bo‘ladi. Biroq uning bu asarlari bizgacha yetib kelmagan. Buning sababini olima D.Karimova shunday izohlaydi: birinchidan, ehtimol, Mirzo Sodiq yozgan o‘zbekcha she‘rlaridan alohida devon tartib bermoqchi bo‘lgan va shu sababli ularni forsiy to‘plamiga kiritmagan yoxud devon shakliga kiritgan bo‘lsa-da, bizgacha yetib kelmagan; ikkinchidan, o‘zbek tilida yozgan asarlari barmoq bilan sanarli bo‘lganidan shoir ularni e‘lon qilmagan. Aytish

mumkinki, Buxoro zaminida yashagan ijodkorlarning aksariyati uchun bir necha tilda ijod qilish an'anasi asrlar osha yashab kelgan. Binobarin, Sodiq Jondoriy ham faqat bir, ya'ni fors-tojik tilida ijod qilish bilan kifoyalanmagan bo'lishi tabiiydir.

Xulosa qilib aytganda, Mirzo Sodiq Jondoriy o'zining ham shaklan, ham mazmunan barkamol she'rlari orqali fors-tojik adabiyotini yuksaltirgan salohiyatli ijodkordir. Uning adabiy merosini o'rganish adibiyotimizni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Sodiq Jondoriy hayoti va ijodi haqida ma'lumot beruvchi manbalar qaysilar?
2. Shoir ijodini o'rgangan olimlar kimlar?
3. Sodiq Jondoriy qanday muhitda yashab ijod qilgan?
4. Shoir she'rlarining ko'lami haqida to'xtaling.
5. Shoir ijodida qaysi mavzular yetakchilik qiladi?
6. Shoir asarlarining bugungi kundagi ahamiyati nimalardan iborat?
7. Sodiq Jondoriyning "Dahmai shohon" asarida nimalar haqida fikr yuritiladi?
8. Munshiylik qanday lavozim, uning qanday odoblari bor?
9. Shoir asarlaridan namunalar tarjima qilgan tarjimonlarni bilasizmi?
10. Mirzo Munshiy she'rlaridan namunalar yodlang.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Воҳидов Р., Эшонқулов Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006. – 528 б.
2. Бертелс Э. Э. История персидско-таджикской литературы. Избранные труды. Издательство восточной литературы. -М.: 1960. - с 360.
3. D. Karimova. Sodiq Munshiy – Jondorning shirinkalom shoiri. – Т.: 2001.
4. D. Karimova. Mirzo Sodiq Munshiy Jondoriy adabiy merosining janriy tarkibi va badiiyati. Nomzodlik dissertatsiyasi. – Samarqand, 1997.
5. Жумахўжа Н., Адизова И. Ўзбек адабиёти тарихи XVI-XIX аср биринчи ярми. – Т.: "Ношир", 2019.
6. Samandar Vohidov. Buxoriylar bo'stoni. – Buxoro. 1991.
7. Ochilov E. Ming bir ruboiy. – Т.: "O'zbekiston". 2009.
8. Ochilov E. Barhayot siymolar. – Т.: "O'zbekiston". 2012.

O'NINCHI MAVZU:
SHAMSIDDIN SHOHIN HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Shamsiddin Muhammad Shohinning hayot yo'li.
2. Shamsiddin Muhammad Shohin asarlarining mundarijasi.
3. Shamsiddin Muhammad Shohin asarlarining g'oyaviy-badiiy tahlili.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|-------------------------------------|---------------------------------|
| • <i>Shamsiddin Muhammad Shohin</i> | • <i>g'azal</i> |
| • <i>Ma'rifatparvar</i> | • <i>masnaviy</i> |
| • <i>“Layli va Majnun”</i> | • <i>qasida</i> |
| • <i>“Do'stlarga tuhfa”</i> | • <i>fors-tojik adabiyoti</i> |
| • <i>“Badoye-us-sanoye”</i> | • <i>g'oyaviy-badiiy tahlil</i> |

Shamsiddin Muhammad Shohin 1865-1866-yillarda Buxoroda tug'ilib, butun umrini shu yerda o'tkazgan yetuk shoirlardan biri. Shamsiddin Shohin Buxoroda kambag'al mulla oilasida tug'ilgan. Otasi Mullamon asli Xatlonzaminlik (hozirgi Ko'lob) bo'lib, yoshligida ilm o'rganish uchun Samarqandga borgan, so'ngra Buxoroga borib, shu yerda madrasani tamomlagan. Madrasani tugatgach, 1887-yildan boshlab bir necha vaqt amir Abdulahadning parvonachisiga Mirzolik xizmatini bajaradi va parvonachining qiziga uylandi. Bir muddat Buxorodagi madrasalardan birida mudarrislik qildi. Shamsiddin Shohin bolaligidan favqulotda o'qish va yozish qobiliyatiga ega edi. O'zining ta'kidlashicha, u taxminan sakkiz-to'qqiz yoshlaridan maktabda she'r ayta boshlagan. U Hofiz Sheroziy she'riyatidan ilhomlangan. Shamsiddin Shohinning husnixati juda chiroyli bo'lgan. Shuning uchun otasi uning nafis va chiroyli yozuvini ko'rib, maktabni tugatgach, uni mirza xizmatiga shogirdlikka beradi.

Shamsiddin Shohin o'n to'rt-o'n besh yoshlarida ilm o'rganish uchun madrasaga o'qishga kiradi. Madrasada ustozlari, tengdoshlari oldida katta iste'dod va qobiliyatni namoyon etadi. Ammo moddiy jihatdan bu yillarda uning hayoti juda og'ir edi. Otasi ancha keksaygan, oila boqish, o'g'lini o'qitishda ko'p muammolarga duch kelgan. Biroq o'sha davrning ayrim olimlari, tadbirkorlari shoirning iste'dodini, ilm o'rganishdagi qobiliyatini ko'rib, unga moddiy yordam ko'rsatishgan.

Shamsiddin Shohin nodir she'rlar, kitoblarning nusxalarini ko'chirar, ular bilan kun kechirar, kambag'al oilasiga ham yordam berar edi. Shamsiddin Shohin Buxoro maktab va madrasalarida tahsil olgan, madrasani tamomlagach, Buxoroning masjidlaridan biriga imom etib tayinlangan. 1885-yildan shoir amir Abdulahad Adulqodir Parvonachiga mirzalik qiladi. Parvonachi Shamsiddin Shohinning iqtidori, bilimi va insoniy fazilatlarini sababli uni juda hurmat qilgan, shuning uchun uni moddiy jihatdan ta'minlab turgan.

1887-yilda Shohin Sherobod hokimi bo'lgan Abdulqodir Parvonachining qiziga uylanadi. Biroq shoirning baxtli hayoti uzoqqa cho'zilmaydi, turmush o'rtog'i to'ydan 10 oy o'tib olamdan o'tadi. Shoir "Layli va Majnun" masnaviysini turmush o'rtog'i xotirasiga bag'ishlab yozgan.

Umrining so'nggi yillarida Shohinning sog'lig'i juda yomonlashadi. Unda sil kasalligi belgilari bor edi. Ammo amir uni o'z lavozimidan chetlashtirmaydi va sayohatlarga o'zi bilan olib ketdi. Qarshiga tashrif chog'ida Shohinning ahvoli og'irlashadi, biroq amir uni Buxoroga jo'natmaydi. Shoir 1895-1896 yillarda shu shaharda sil kasalligidan vafot etadi. U shu shaharning qabristoniga dafn etilgan.

Shohin mirzolik vazifasini bajarishdan tashqari, she'rlar yozgan va parvonachining iltimosiga ko'ra amir Abdul Ahadni madh etib, bir qancha qasidalar ham bitgan. Bu bilan Parvonachi Shohinning amir oldida hurmat qozonishini, ro'zg'orini yaxshilashini istaydi. Shu orqali Shohin amir huzurida va saroyda obro' qozongan. Saroyda Shohinning mavqeiga hasad qiluvchi, amir bilan munosabatini buzishga harakat qiluvchi savodsiz, johillar ko'p edi. Bu orada parvonachi Buxoroni tark etadi. Shohinni yolg'iz ko'rgan dushmanlari uning atrofida fitna uyushtirib, g'iybat qila boshladilar. Shu bilan birga, Shohin amir saroyi davrasining qandayligi, amir atrofiga johil va ochko'zlarning to'planib, mansab va martaba uchun kurashayotganliklarini ko'rib turardi. Parvonachi Abdulqodir Shohinni juda sevgan, uni har tomonlama himoya qilishga uringan. Xalq Shohinni Sherobod hukmdorining kuyovi ekanini anglasin, unga adovat qilmasin deb, unga qizini beradi. Darhaqiqat, bu nikoh Shohinni raqiblarining hujumlaridan ma'lum darajada himoya qildi. Boshqa tomondan, o'zini juda bilimdon va she'riyatga mehrli qilib ko'rsatgan Amir Abdulahad Shohinni suhbatlariga taklif qiladi. Amir Shohinni ahyon-ahyonda o'z yig'inlariga, bazmlariga taklif qilar, shoirning xohish-istaklari va kayfiyatidan qat'i nazar, safarlarga olib boraradi. Shohin bu safar va

bazmlar bilan shunchalik band ediki, hatto oilasidan ham xabar ola olmasdi. Bu orada uning yosh xotini farzandli bo'lib, bir hafta o'tib vafot etadi. Xotining to'satdan vafot etishi Shohin uchun katta fojia bo'ldi. Bu dahshatli voqea Shohinning ko'z o'ngida ko'p voqealar mohiyatini oydinlashtirdi. U nafaqat amir atrofida gilar, balki amirning o'zi ham nodon va zolim, davlat va mamlakatni boshqarishga noliyiq va beparvo shaxs ekan, degan xulosaga keladi. Shohin davr hukmdorlariga yaqinligidan foydalanib, ularga mulkchilik va hukmronlik o'lchovlari haqida kitob va risolalar yozgan, shu orqali ularga adolat bilan hukmronlik yo'lini ko'rsatmoqchi bo'lgan. Shu maqsadda u "Do'stlar tuhfası" nomli she'r yozgan. Shohin bu masnaviyda amirga adolat va insof tamoyillarini, davlat boshqaruvining eng yaxshi yo'llarini o'rgatmoqchi bo'lgan, ammo amirga saboq bermoqchi bo'lgan yosh shoirning bu jasorati zamon hukmdoriga yoqmagan. Amir Abdulahad g'azablanib, Shohindan o'ch olmoqchi bo'ladi. Amir Shohinni u haqida madhiya va qasidalar yozishga majbur qilgan. Qolaversa, u shoirni hamisha o'z nazoratida ushlab, uzoq safarlarga olib chiqib, o'yin-kulgi "asbobi"ga aylantirgan. Bu Shohin uchun katta haqorat edi va amir buni eng qattiq qasos deb hisobladi. Shu davrdan (ya'ni, to'qsoninchi yillarning ilk yillaridan) boshlab, Shohin she'rlarida hayotidan shikoyat va norozilik ohanglari, davr va uning odamlari illatlari tanqidi ko'zga tashlanadi. Bu davrda Shohin Ahmad Donishning "Navodir-ul-vaqoe" asari bilan yaqindan tanishadi va o'sha davr jamiyatining barcha illatlarini yanada yaxshi tushunadi. Shuningdek, u nasihat va qisman islohot bilan mamlakat ahvolini va davlat tartibini yaxshilash mumkin emas degan fikrga keldi, uning nazdida amir va uning atrofida gilar shu qadar johilki, bunday maslahatlarni qabul qilishga qodir emaslar. Shu yillarda Shohin "Badoe-us-sanoe" asarini yaratdi. Bu risolada u o'z davrining ijtimoiy illatlarini, davlat rahbarlari va amirning manmanlik va boshqa ko'plab illatlarini kinoyalar bilan fosh etadi. Qolaversa, bu vaqtda u amir va uning tarafdorlarini maqtash bilan yosh umrini behuda o'tkazganini aytadi. Umrining so'nggida yozgan masnaviyida butun o'tmish yoshligini afsus va pushaymonlik bilan o'tkazib, zamon va uning ahlini qattiq ayblaydi. Shoirning ayrim she'rlari tahlilida ham buni ko'rishimiz mumkin:

Bu dahrda buncha ko'p fitna-yu kin bo'lmasa,
Bu davrda hunar ayb, xor-u zabun bo'lmasa,
Ilmda zarardan o'zga biror yakun bo'lmasa,
Eshak odam sanalsa, odamga kun bo'lmasa,

Bir joy ketayki, boshim uzra gardun bo'lmasa,
Ammo netayki, o'zga joy men uchun bo'lmasa?

Tokay shirin va'dalar qilib Shirin berar pand,
Ko'hkan kabi besutun tog'lariga qilar band,
Qon arig'i yurakdan bo'lur ko'zimga payvand,
Tesda qani, "oh" yo'lin dildan ochsa daf'atan?..
Bir joy ketayki, boshim uzra gardun bo'lmasa,
Boshga bu zol boltasin zahmi har kun bo'lmasa...

(Samandar Vohidov tarjiması)

Shamsiddin Shohin ijodini o'rganish Buxoroda Ahmad Donish boshlab bergan XIX asr oxiridagi ilg'or adabiy va tafakkur harakati - ma'rifatparvarlik harakatini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Shohin o'z ijodida mumtoz adabiyotning eng yaxshi an'alarini davom ettirib, asarlarida adolat, insonparvarlik, ozodlik g'oyalarini hamda o'z davrining yetakchi g'oyasi – axloqiy tarbiyani ilgari suradi.

Shohin ijodini rivojlanish xususiyatiga ko'ra 3 davrga bo'lish mumkin:

1. Mumtoz adabiyotdan saboq olish va uning ta'sirida asarlar yaratish. Shohin ijodining bu davridagi ijodiy mahsuli "Layliyu Majnun" qissasidir.

2. Xalq ozodlik g'oyalarini ilgari surishda amirlarning yordamiga tayanish, adolatni targ'ib qilish uchun amirlarga goh tanqid, goh maqtov yo'li bilan murojaat qilish. Shohin ijodining bu davrida "Do'stlar tuhfasi" asari yuzaga keldi.

3. Shohin ijodida tanqidiy ruhning paydo bo'lishi va shu ruhda asarlar yaratish. Bu davrning namunasi – "Badoye-us-sanoye" asari.

Shohin ijodida "Layli va Majnun" qissasi alohida o'rin tutadi. Bu qissa hajmi jihatidan katta bo'lmasa-da, mumtoz adabiyot an'alari asosida yaratilgan. Ta'kidlash joizki, shoir bu qissasida zamon va muhit haqidagi o'z his-tuyg'ularini, o'y-fikrlarini ifodalashga harakat qilgan.

Ma'lumki, "Layli va Majnun" qissasining yozilishiga shoir hayotida sodir bo'lgan fojiali voqea sabab bo'lgan. Shoir "Layli va Majnun" asarini 1 oy davomida yozdi. Mazkur asar 2200 misradan iborat bo'lib, forsiy tilda yozilgan. Nizomiy qissasidan keyin kuylangan an'anaviy qissalardan tashqari fors-tojik she'riyatida bu mavzuda yozilgan boshqa asar yo'q edi. Shohin bu adabiy an'anani qayta tikladi va "Layli va Majnun" qissasini o'ziga xos uslubda yozdi. Asarda shoirning Nizomiy masnaviylari va Xusrav Dehlaviydan ilhomlanganligi

yaqqol seziladi. Shohin bu qissada Layli va Majnunning muhabbati fojiasini ko'rsatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lsa-da, unda o'zining tarjimai holi hamda sevgisini ham tasvirlagan. Shoir obrazidan Majnun zamon voqealari oldida ojiz. Majnun ishq va mehr tuyg'ularida Layliga teng kela olmaydi. Muallif Majnun-Shohin timsoli orqali o'sha davrning illatlarni, insoniy muhabbatning qadrsizligini ko'rsatishga harakat qiladi. Shu bois "Layli va Majnun" qissasi garchi an'anaviy mavzuda yozilgan bo'lsa-da, shoir yashagan davri bilan juda chambarchas bog'liq.

"Do'stlar tuhfası" Shohinning Sa'diy Sheroziyning "Bo'ston"ıga ergashib yozgan axloqiy-ma'rifiy asaridir. Muallif mazkur asarni yozishni ancha oldin rejalashtirgan. Asar Sa'diynıng asari kabi 10 bobdan iborat bo'lishi kerak edi. Biroq shoir hayotida yuz bergan ko'plab fojealar sababli asarni 10 bobga yetkaza olmaydi. İjodkor niyatiga ko'ra har ikkala asarning mazun mundarijasi ham bir biriga muvofiq bo'lishi lozim edi. Faqat asarning to'qqizinchi bobi "Bo'ston"ning to'qqizinchi bobidan farq qiladi. "Bo'ston"da to'qqizinchi bob "tavba" haqida bo'lsa, Shohin asarida mazkur bob "sabr"ga bag'ishlangan.

Muallif asarning kirish so'zi, birinchi bobi va yana bir qismini yozishga muvaffaq bo'lgan, xolos. Bobning mazmunidan anglashiladiki, Shohin saroyga yaqinlashgan sari amir va xalqining ahvolini anglab yetgan, o'sha davrdagi davlat va uni boshqarish haqidagi dunyoqarashi, fikrlari o'zgargan. Madrasa talabasi bo'lgan chog'larida amirni adolatli, saroyini esa pokiza adolat maskani deb hisoblargan. Amir, vazir va saroy a'yonlarini ko'rgach jamiyatdagi ko'plab illatlar va baxtsizliklarga o'sha davr hukmdorlari sababchi degan xulosaga keladi. "Do'stlar tuhfası" masnaviyi Shohin ijodi, ijtimoiy tanqidiy g'oyalari rivojida juda muhim davr bo'ldi. Garchi bu masnaviy to'liq yozilmagan, shoir fikrlari to'la ifoda etilmagan bo'lsa-da, uning keyingi ijodi, g'azallari, ayniqsa, "Badoe us - sanoe"da ijtimoiy-tanqidiy mulohazalarning rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi.

"Badoye-us-sanoye" risolasi Shamsiddin Shohin umrining oxirida yozilgan. Shohin mazkur asarida o'z davrining ijtimoiy illatlarini dadil tanqid qiladi, bu tanqidlar asosan ramz va metaforalar pardasi ostida, kinoya bilan ifodalangan. Asarni mavzu-mundarijasiga ko'ra uch qismga bo'lish mumkin:

1. O'sha davr muhiti va jamiyatining tanqidi.
2. Davlat rahbarlari va saltanat egalarini tanqid qilish.

3. Jamiyatdan ko'ngli to'lmagan, o'zini yolg'iz his qilgan shaxs sifatida shoirning o'z ruhiyati, ahvoli tasviri.

Shohin lirasining janriy tarkibi ham rang-barang bo'lib, g'azal, qasida, ruboiy, musaddas, mavnaviy janrlarida ijod qilgan. Bular orasida g'azal yetakchilik qiladi. Shoir g'azallarining mavzusi rang-barang bo'lib, ta'lim-tarbiya, sof insoniy muhabbatni tarannum etish, insonparvarlik, ezgulik g'oyalari, ijtimoiy munosabatlar kabi masalalarni qamrab oladi. Shohin ijtimoiy hayotning deyarli barcha mavzulariga to'xtalib o'tdi. She'rlarida fors -tojik adabiyoti shoirlarining ming yillik an'analarini davom ettirdi. Uning bu ergashuvi g'azallarining shakl va mazmunida ham seziladi.

Uning lirik she'rlarida oshiqning ma'shuqaga cheksiz muhabbat, ma'shuqaning go'zalligiga oldiga boshqa barcha narsalarning rangsizligi, sevgining oshiqqa hayot baxsh etguvchi tuyg'u ekanligiyu, ma'shuqasiz oshiqning xarob ahvoli go'zal tashbehlarida ifodalanganligini ko'rish mumkin.

Lablaring-u tishlaring ishqida, ey ofati jon,
Goho diydandan oqar yosh, goh to'kilgay marjon.
Bu kecha jonima ishqdan yog'diki dardu azob,
Bu azob tog' qalbiga tushsa, qilardi tog' fig'on.
Ul olovli yuzlaring otash urardi jismima,
O'rtaga tushdiyu zulfing, asradi jonim omon.
Soldi yodga bu qaro kecha qaro zulfingni, yor,
Gar shikoyat aylasam, arzimga tor kelgay jahon.
Zarra nisbat yo'q erur, qaddi bo'yingga, dilbarim,
Sarv niholga aylanar, boqqa kirsang nogihon,
Ul qadah monand labingga bo'sa deb bossam labim,
Ko'zadan quygan kabi og'zinga kelgay bori qon.
Gar oyoqdan qolsa Shohin hajru hijroning sabab,
Hayf ketar qaddi niholi, ko'klami kelmay xazon.

Shoir ruboiylari ham mavzu hijatdan rang-barang bo'lib, ularda sevgi-muhabbat, zamondan norozilik, o'z holidan shikoyat kabilar yetakchilik qiladi. Masalan, quyidagi ruboiyda shoir o'z ijodi bilan faxrlanishi, unga yuqori baho berishini ko'ramiz. Ammo shoir ahli nodon uchun gul, dur, tikanning bir xil ekanligini ta'kidlaydi, bu orqali shoir o'ziga bo'lgan e'tiborning kamligi, atrofida nodonlarning ko'pligidan shikoyat qiladi.

Men kabi dur yo'qdir ummon qa'rida,
Men kabi gul yo'qdir bo'ston bag'rida.

Lek, netayki, ahli nodon ko‘zida
Xoru gulu duru tosh teng narxida.

U qisqa umr ko‘rgan bo‘lsa-da, o‘zidan juda boy va qimmatli meros qoldirdi. Uning merosi g‘azaliyot kitobi, “Layli va Majnun” masnaviyi, tugallanmagan “Do‘stlar tuhfası” masnaviyi, “Badoye-us-sanoye” risolalaridan iborat.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Shamsiddin Shohin hayotidagi muhim sanalar va shaxslar haqida ma’lumot bering.
2. Shamsiddin Shohin ijodi haqida qaysi manbalarda ma’lumotlar uchraydi?
3. Ijodkor asarlari kimlar tomonidan tarjima qilingan?
4. Shoirning bizgacha yetib kelgan asarlari qaysilar?
5. Shoirning “Layli va Majnun” asari kimga bag‘ishlangan va u o‘zigacha bo‘lgan shu kabi asarlardan qaysi jihatdaori bilan farqlanadi?
6. “Do‘stlar tuhfası” masnaviysining mazmuni va g‘oyasi haqida nimalar bilasiz?
7. “Badoye-us-sanoye” risolasini yozishdan ijodkorning maqsadi nima edi?
8. Shoir ruboiylarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tahlil qiling.
9. Shoir asarlarining janriy tarkibi haqida xulosa yozing.
10. Shoir she’rlaridan yod oling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov O. Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. Buxoro.2015.
2. Samandar Vohidov. Buxoriylar bo‘stoni. Buxoro. 1991.
3. Садриддин Айний. Намунаи адабиёти тоҷик // Мухит - Плеханов.- Д.:СИЭСТ, 1984.
4. Ochilov E. Ming bir ruboiy. – T.:“O‘zbekiston”.2009.
5. Ochilov E. Barhayot siymolar. – T.: “O‘zbekiston”. 2012.
6. Ҳасанхожа Нисорий.Музаккири аҳбоб. Форс тилидан Исмоил Бекжон таржимаси. –Тошкент: Халқ мероси, 1993.
7. Шамсиддин Шоҳин. Саду як ғазал. – Душанбе: “Ирфон”, 2009.
8. Шамсиддин Шоҳин. Лайли ва Мажнун. – Душанбе: “Дониш”, 2018.

O'N BIRINCHI MAVZU:
ABDURAUF FITRAT HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Abdurauf Fitratning hayot yo'li.
2. Abdurauf Fitrat asarlarining mundarijasi.
3. Abdurauf Fitrat asarlarining g'oyaviy-badiiy tahlili.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|--------------------------|---------------------------------------|
| • <i>Abdurauf Fitrat</i> | • <i>Drama</i> |
| • <i>Buxoro</i> | • <i>miliy uyg'onish davri o'zbek</i> |
| • <i>Mijmar</i> | <i>adabiyoti</i> |
| • <i>jadid</i> | • <i>Qutadg'u bilig</i> |
| • <i>Turkiston</i> | • <i>"Chin sevish"</i> |
| • <i>Teatr</i> | |

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat 1886-yilda Buxoroda ziyoli oilasida tug'ilgan. 1903-1913- yillarda adib "Tarbiyati atfol" (Bolalar tarbiyasi) xayriya jamiyati orqali Turkiyaga jo'natilgan besh nafar talabalarning biri sifatida Istanbulda tahsil oladi. U yerda zamondoshlari bilan birgalikda "Buxoro ta'limi maorif jamiyati"ni tuzadi. O'smirlik yillari u Mijmar ("Cho'g'don") taxallusi bilan so'ngra Fitrat ("Tug'ma iste'dod") taxallusi bilan ijod qilgan. Fitratning "Muxtasar islom tarixi" (1915) va "O'qu" (1917) asarlari bolalar tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Adibning hayoti va ijodini adolatli o'rganish XX asrning 80-yillari oxirida boshlandi.

Abdurauf Fitrat – o'zbek milliy uyg'nish davri adabiyotining zabardast vakili. U o'zining butun umri davomida ona-yurtini mustaqil va obod qilish dardi bilan yongan buyuk qomusiy olimdir. Abdurauf Fitrat XX asrda O'rta Osiyoda yetishib chiqqan ijodkorlar orasida eng zarifi hisoblanadi. Shoir, adib, dramaturg, muarrix, munaqqid, adabiyotshunos, tilshunos, san'atshunos, mutarjim, mutafakkir-faylasuf, jamoat arbobi, siyosatchi, pedagog – bir o'zida shu qadar ko'p sifatlarni jam etgan Abdurauf Fitrat madaniyat va ma'naviyatimiz rivojida o'chmas iz qoldirdi. Eng avvalo, qayd etish lozimki, Fitrat Vatanni yuksak bir muhabbat bilan sevardi va shu sevgi uning butun faoliyatini yorqin nur bilan yoritib turardi. Bu ulkan ishtiyoq uni Vatan va millat fidoyilaridan tashkil topgan "Yosh buxoroliklar" jamiyatini tuzishga muvaffaq bo'ldi. Keyinroq mustaqil partiya sifatida faoliyat yuritgan

ushbu jamiyatning pirovard maqsadi qadam-baqadam borib, istiqlolni qoʻlga kiritish va islohotlar yordamida mustaqil davlat qurishdan iborat edi. Fitrat ham oʻz zamondoshlari Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Choʻlponlar kabi Ona-Yurtini erkin va ozod koʻrmoqni istardi. Shu bois hech narsadan qoʻrqmay, xalqini uygʻonishga undadi, jaholat va nodonlik, bidʼat va xurofot iskanjalaridan qutulib, hur fikr bilan yashashga, oʻzligini tanishga chaqirdi.

Erksevarligi, ziyoga intilishi, el-u yurt taqdiri uchun kurashishi Fitratni madaniyatimizning eng yorqin siymolaridan biriga aylantirdi. Uning dovrugʻini qator kun chiqish va kun botish mamlakatlariga taratdi. Biroq ayni shunday fidoyi harakatlari tufayli Fitrat oʻz zamonasiga sigʻmadi. Uning ijodi nohaq tanqidlarga uchradi va bu holat 1937- yilda – uning otilganidan keyin ham davom etdi. Fitratni ham xalqimizning koʻpgina asl farzandlari singari avval “millatchi” deb tahqirlashdi, “xalq dushmani”ga chiqarishdi. Uning asarlarini oʻqishni, hatto, nomini tilga olishni taqiqladilar. Fitratni tarix sahifalaridan chiqarib tashlamoqchi boʻldilar. Shaxsga sigʻinish oqibatlari tugatilgandan soʻng ham bu munosabat maʼlum muddat oʻzgarmay turdi. Faqat 70-yillarga kelib, I.Sulton, E.Karimov, X.Mirzozoda kabi olimlar uning ijodi haqida yoza boshladilar, 80-yillardagina bu jarayon bir qadar izchillasha bordi. Kechikib boʻlsa-da, haqiqat qaror topdi. Bugun Fitrat madaniyatimiz va adabiyotimiz tarixida oʻz oʻrniga qaytdi. Fitratshunos olimlar uning badiiy va ilmiy ijodini jiddiy va keng qamrovli tadqiq etishga kirishdilar. Istiqlol ibtidosida – 1991- yilda Abdulla Qodiriy va Choʻlpon bilan birga Abdurauf Fitratga ham Mustaqil yurtimizning oliy mukofoti – Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berildi.

Mustaqillika erishganimizdan keyingina Fitrat ijodini toʻlaqonli oʻrganish imkoniyatlari kengaydi. Uning qator ilmiy maqolalari, shuningdek, nasriy, sheʼriy va dramatik, tarixiy asarlari qaytadan chop etila boshlandi. 1996- yilda "Chin sevish" va 2000- yilda ikki tomlik, keyinchalik besh jildlik tanlangan asarlari nashr etildi. Bu faktlarning oʻziyoq mustaqillik bergan imkoniyatning nechogʻlik ahamiyatli ekanligini koʻrsatadi.

Abdurauf Fitrat 20-yillarda Sharq xalqlarining madaniy merosi va mumtoz adabiyotini oʻrganishga katta hissa qoʻshdi. Fitratning Bartold,

Samoylovich, Krachkovskiy, Bertelslar singari akademik yo‘nalishdagi yirik qomusiy olim ekanligini fitratshunos olimlar ta’kidlab keladilar. U xalq badiiy merosiga ilmiy nuqtayi nazardan yondashib, Abulqosim Firdavsiy, Ahmad Yassaviy, Umar Hayyom, Lutfiy, Alisher Navoiy, Muhammad Solih, Bedil, Boborahim Mashrab, Turdi, Nodira, Muqimiy, Furqat singari ijodkorlar merosini yig‘ish, tartibga solish, tadqiq etish, qolaversa, matnshunoslik ishlarida alohida g‘ayrat ko‘rsatdi. Bir qancha tadqiqotlar yaratib, keng qamrovli qomusiy bilim sohibi ekanligini namoyish etdi.

O‘zbek xalqining qomusiy daholari an‘analarini XX asrda davom ettirgan so‘nggi fenomenal namoyandasi bo‘lgan Abdurauf Fitrat ijodiga xorijda qiziqish o‘tgan asr davomida bir lahza ham to‘xtagani yo‘q. Uning ijodiy iste’dodi Zaki Validiy To‘g‘on, turk Fuod Kupruli va Mexmet Saroy, yapon Xisao Kumatsu, amerikalik Edvard Olvort, farang Ellen Karrer Enkous, olmon Ingeborg Baldauf, rus A.Klimovich va jahonning boshqa olimlari qiziqishlariga ham sabab bo‘lgan.

Ma’lumki, jamiyat tarixida shunday ulug‘ san’atkorlar bo‘lganki, ular o‘z hayotini, ijodini, fikr-u zakovatini xalqining bugungi turmushini yaxshilashga, ertangi kunini farovon qilishga bag‘ishlagan. Ana shunday fidoyilar qatorida Abdurauf Fitrat ham o‘z elining qalbiga, o‘chmas xotirasiga aylangan. Yurak va qalb amri bilan yashagan, o‘z yurti, xalqi qismatini mudom o‘nglamoqqa tirishgan va bu ulug‘ maqsad yo‘lida o‘z umrini xavfga tikkan, adabiyot va madaniyatimiz homiysi Abdurauf Fitrat chinakam ijodiy jasorat sohibi edi.

Fitrat lirikasi haqida fikr yuritganda, uning zullisonayn ijodkor ekanligini e’tirof etish lozim. Shoirning ilk she’rlar to‘plami bo‘lgan “Sayha” ham fors-tojik tilidagi she’rlardan iborat edi. Shoirning vatanparvarlik hislari bilan to‘lib – toshgan “Sayha” (sayha – bong urmoq, zarba, nido) deb nomlangan ilk she’riy to‘plami haqida jadidchilik harakatining ishtirokchilaridan biri Fayzulla Xo‘jayev “Buxoro inqilobi tarixi va O‘rta Osiyodagi milliy chegaralanishga doir” kitobida shunday yozadi: *“To‘plamni o‘qigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, balki, rus hukumati ham ta’qib qila boshladi. Chunki, bu she’rlarda Buxoro - Vatan mustaqilligi g‘oyasi birinchi marta juda yorqin shaklda ifodalab berildi”*. Fitrat o‘z she’rlari orqali

millatparvar va yoniq shoir sifatida tanilgan edi. Bu haqda Abdurahmon Sa'diy shunday yozadi: “...Fitrat hozirgi o'zbek she'riyatida arab va fors so'zlariga yo'lni berkitdi, o'zbek she'r tuzilishining rivojlanish yo'llarini belgilay borib, ko'pgina yosh shoirlarni o'zining uslubi va tili bilan ergashtira oldi, atrofiga yosh shoirlarni to'pladi, ularga til va uslub yog'idan yo'l ko'rsatmoqdadir”.

Fitratning poetik merosida “Sharq“ deb nomlangan kichik doston salmoqli mavqega ega. Dostonda o'tli Sharq dardlari qalamga olinadi. Shoir o'tli Sharqni tasvirlash barobarida “Nega bo'yla” deb ajabsindi, uni yondirgan, xarobaga aylantirgan nimalar ekanini farqlaydi:

“Kim bergan bu o'g'urli o'lkaga buncha o'tni,
Kim to'kkan bu muqaddas ishga buncha qonini”

Yarali Sharq mavzusi shoirning qator she'rlarida o'z aksini topadi. Yurt hurligini muqaddas bilib, bu yo'lda kurashgan qator zamondoshlari qurbon bo'ldilar. Jumladan, haqiqatning timsoliga aylangan mufti Mahmudxo'ja Behbudiy Qarshi begi tomonidan o'ldirildi. Bunga sabab birgina zamona zayli emas, balki xalqning o'z vatandoshlari taqdiriga loqayd qarashi, uning kelajagi uchun kurashgan qahramon o'g'lonlarni asray bilmagani ham sababdir. Fitrat “Ovunchoq”, “Behbudiyning sog'onasin izladim” she'rlarida ana shunday ajralish saboqlaridan so'z ochadi. Fitrat o'zining bor tug'ma iste'dodini o'zi tug'ilib o'sgan, ardoqlagan Vatanining taraqqiyoti yo'lida safarbar etdi, o'z nafratini mustamlakachilarga ochiq bayon ayladi. Xalqni uyg'onishga da'vat etib, jaholat va nodonlik, bid'at va xurofot iskanjalaridan qutulishga, o'zligini tanishga chaqirdi. Shoir “Sharq” she'rida yurtini jannatga qiyos etib, undagi har bir daraxt, gul, giyoh tangriga topinish uchun harakat qiladi, deb ramziy ifodalardan o'rinli foydalangan:

Qardoshlarim, mana sizga bir o'lka,
Kim, topilmas yer yuzida singari.
Har yonida keng, yam –yashil uchmohlar
Jon suvidan yetishkandir gullari...
Og'ochlari yashil kiyimlar kiygan
Evrilishar toping'ali tangriga.

Shoir o'z mulohazalarini davom ettirib, bu yurt aholisi azaldan “har ulus butxonasiga, o'txonasiga, ka'basiga” e'tiqod qilib tinch, farovon yashaganligini ta'kidlaydi. Ammo Sharq xalqlarining tinch turmushi uzoqqa cho'zilmadi, chunki “madaniyat degan g'arbli olbasti ulus ko'krigidan o'tqa bosdi” deb, Chor Rossiyasiga mustamlaka bo'lganimizni qat'iy ta'kidlaydi:

Bunda turdi har ulusning har sasi,
Butxonasi, o't uyasi, Ka'basi,
Ham munda o'q yashadi.
Biroq bu kun, essizlarkim, bu o'lka,
Har tomondan talanmishdir yo'lsizcha
Madaniyat degan g'arbli olbasti,
Boqing, buni ko'krigidan o'q bosdi.

Fitrat ijodida Vatan mavzusi o'ziga xos tarzda yoritiladi. Jumladan, bir mansurasida Vatanni “bosh-ayog'lari yalang'och, tirsaklarigacha qop-qora loyqaga botg'on, baqirurg'a tovushi, qutilurg'a kuchi qolmag'an!..” bir ayol qiyofasida tasvirlaydi. Bu timsol – “g'amgin xotun”, “mungli ona” farzandlarining himoyasiga muhtoj edi. Lirik qahramon ayol qiyofasida Vatanni, Turonni ko'radi va uni qutqarmoqqa ont ichadi:

Ey, turlikning muqaddas o'chog'i!
O'lim seni o'limingni istaganlarga,
Nafrat seni ko'mgani kelganlarga!

Bu achchiq nido haqiqiy jasorat sohibining so'zlari edi. Boshdan oyoq ana shunday yuksak pardalarda yozilgan ushbu mansuralar qalbni larzaga soladi, kitobxon qalbida vatanparvarlik hissini yanada kuchaytiradi.

Abdurauf Fitratdan bizgacha boy va rang-barang meros qolgan. Ta'kidlash joizki, Fitrat ijodiga qiziqish va uni talqin etish bugungi kungacha dolzarbligini yo'qotmadi. Buning sababi Fitrat ijodining ko'pqirraliligi va sermahsulligidadir. Garchand, uning ijodi qisqa muddat davom etgan bo'lsa-da, inson kamoloti uchun uning oz va soz lirikasi, ko'pqirrali dramaturgiyasi, jangovar publitsistikasi va katta hajmdagi chuqur ilmiy-tadqiqotlari samarali xizmat qilmoqda. Uning ijodiy ishlari va ijtimoiy faoliyati xalqni jaholat, turg'unlik, g'aflatdan

uygʻotish, ilm-maʼrifatga chorlash, erkin, ozod, baxt-saodatli hayotga, birinchi navbatda milliy mustaqillikka chorlashga qaratilgan edi.

Biz Fitratni nafaqat ijodkor, balki oʻzbek mumtoz adabiyotining zarif tadqiqotchisi sifatida bilamiz. Ayniqsa, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asari va uning fan olamidagi yangi nusxasining topilishi bevosita Abdurauf Fitrat nomi bilan bogʻliq. Bizgacha yetib kelgan yozma turkiy adabiyot namunalarining eng koʻhnalaridan hisoblangan “Qutadgʻu bilig” asarining ikki nusxasi (Qohira, Vena) maʼlum edi. Fitratning saʼy-harakatlari tufayli bu asarning uchinchi qoʻlyozma nusxasi Namanganda topilgan va shu munosabat bilan “Qutadgʻu bilig” maqolasi eʼlon qilingan edi.

Fitratning “Qutadgʻu bilig” qoʻlyozma nusxasining topilishi bilan bogʻliq maʼlumotlari bir qancha tadqiqotlar uchun asos boʻldi. Q.Karimov (“Qutadgʻu bilig” asari haqida) va N.Karimovlarning (“Qutadgʻu bilig” ning topilishi) tadqiqot va maqolalari shular jumlasidandir. Hodi Zarifning esdaliklariga qaraganda, Fitrat 20-30-yillarda Oʻzbekistonda topilgan madaniyat obidalarini oʻrganish va nashr etish ustida qaygʻuribgina qolmay, noyob Sharq qoʻlyozmalarining chet elga valyuta hisobiga sotilib yuborilishiga ham qarshi chiqqan⁴⁶. Fitrat eng nodir qoʻlyozmalarni saqlab qolishga harakat qilgan. Balki shunday yoʻl tutmaganida “Qutadgʻu bilig” ning Namangan nusxasi ham bugun Parij yoki Londondagi kitob xazinalaridan birida saqlanayotgan boʻlardi. Jahon yozma madaniyatining oʻlmas obidalari sirasidan joy olgan “Qutadgʻu bilig” dostonining Namangan nusxasi ana shunday mashaqqat yoʻlini bosib oʻtib, bizning davrimizga qadar yetib kelgan.

Fitrat “Qutadgʻu bilig” bilan tanishib chiqishi bilanoq u haqda maqola eʼlon qilib, qoʻlyozmaning yozilish tarixi va saqlanish holatiga doir fikr-mulohazalarini bildiradi. Fitrat asarning yaratilish davri, bu davrdagi ijtimoiy-siyosiy sharoit haqida maʼlumot berish uchun tarix sahifalarini varaqlaydi. Maqola “Maorif va oʻqitgʻuvchi” jurnalining 1925-yil 2-soni (68-73 betlar) da arab yozuvida eʼlon qilinadi. Maqolaning joriy yozuvimizdagi matni Fitrat Tanlangan asarlarining II jildidan oʻrin olgan. Fitrat bu maqola bilan cheklanmay, keyinroq birinchilardan boʻlib, oʻzining “Oʻzbek adabiyoti namunalari” (1-jild)

⁴⁶ Каримов Н. Қутадғу билигиниң топилиши. Фан ва турмуш.1993.№2, 8-б.

majmuasida asardan bir necha parchalar ham e'lon qilgan, uni zamonaviy o'zbek tiliga tabdillashtirib, izohtalab so'zlar uchun izohlar ham yozgan. Maqolada "Qutadg'u bilig" to'g'risida "Inqilob" jurnalining 9-10- sonlarida A.Sa'diy tomonidan bir maqola yozilganligini va kitobning uchinchi nusxasi topilganligi munosabati bilan asar to'g'risida yangidan to'laroq maqola yozishni munosib ko'rganligini ta'kidlaydi.

Ma'lumki, asarning yozilish tizimi "ikkilik" (masnaviy) shaklida bo'lib, vazni mashhur Eron ijodkori Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asari vaznidadir. Ta'kidlash joizki, uzoq davrlardan to hozirga qadar adabiyot olamida adabiy ta'sirlanish kuzatiladi. Fitratning fikricha, yuqoridagi asarlar uchun ham adabiy ta'sir xos. Jumladan, Xos Hojibning Firdavsiyning "Shohnoma"sidan ta'sirlanganligini quyidagicha ifodalaydi: *"Bu eski turk shoiri turklar uchun juda qiyin bo'lg'an bir vaznda juda muvaffaq bo'lib yozg'an. Bir ko'p olimlarning aytg'onlarig'a ishonib, men ham bu kitobning vaznida ancha kamchiliklar, to'lmag'an o'runlar bor, deb ishong'an edim. Bu kun esa bu fikrda emasman. Vazn juda tuzuk chiqqan, ba'zi joylaridan "Shohnoma"ning hidi kelib turadir. Biroq vaznni to'ldirmoq uchun so'z orasida hech kerak bo'lmag'an holda – "ko'r", "ul" so'zlarini tez-tez aytib turadirkim, shoirni bunga, albatta, ma'zur ko'rishimiz kerakdir. Buning tasdig'i sifatida shoir o'z asarida Afrosiyob, Faridun, Zakhok kabi Firdavsiyning qahramonlarini tilga olganini aytish mumkin"*⁴⁷. Olimning aniqlashicha, "Qutadg'u bilig" masnaviy (ikkilik tizim) shaklida yozilgan bo'lsa ham, unda bir qancha to'rtliklar mavjud bo'lib, bular "Shohnoma" vaznida, qofiyalanishi Eron shoirlari orasida mashhur bo'lgan ruboiylar tartibidadir. Fitrat qo'lidagi nusxada ruboiylarga alohida e'tibor qaratilib, oltin suvi bilan yozilganligini va nusxada 180 ta ruboiy borligini aytib o'tadi. Bundan tashqari ruboiylar keltirilib, so'ngida "endi shoir so'zini tingla" deb asarning masnaviy shaklidagi qismi davom etib ketgani, bir ruboiy vazni asardagi vazn bilan nomunosib kelishi kabi chalkash masalalarga duch keladi. Sharq adabiyotining bilimdoni bu masalani shunday hal qiladi: "Yusuf Xos Hojib zamonida Xitoy adabiyotida, turk xalq adabiyotida, fors

⁴⁷ Фитрат.А. Танланган асарлар. 2 том. Нашрга тайёрловчи ва изохлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Т.: Маънавият, 2000, 12-б.

adabiyotida hikmatli soʻzlar koʻb boʻlgʻon. Shoir shunlardan foydalangan, shunlarni oʻz kitobining vazn ham uslubigʻa aylantirib, kitobini shoir tomonidan “bu kitobni Chin- Mochin hakimlarining maslahatlari, sheʼrlari bilan bezadim”, degan soʻzini shu fikrimiz bilan izoh etishimiz mumkindir”.

Fitratning asar haqidagi quyidagi mulohazalari alohida ahamiyatga molik: “Qutadgʻu bilig” ni sanʼatli bir sheʼr majmuasi emas, balki manzum bir axloqiy, idoriy kitobdir”. Bunda inson sifatlaridan adolat, davlat, aql, qanoatni majoz yoʻli bilan toʻrt kishi etib koʻrsatib, “mana shul toʻrt majoziy kishilarni shoir bir-biriga koʻrushtirib, soʻylashtiradi. Aytmak istagani soʻzlarni, bermak istagani nasihatlarini shularning tilidan aytib eshittiradir. Berilaturgan nasihatlarini xoqongʻa vazir, elchi, kotib, xazinachi, qopqachi (eshik ogʻasi, darbon), boʻlaturgʻan kishilarning qanday boʻlishlari; shoirlar, sayyidlar, olimlar, boʻlduchilar (“boʻldu” boltasimon urush quroli. Demak, jangchi maʼnosida qoʻllangan), sunʼuchilar (“sun”-ish, hunar, hunarmandlar), qurishchilar (quruvchilar), bilan xoqonning qanday munosabat qilishi, soʻzlamak shartlari, dunyoning foniyligʻi davlatning vafosizligʻi toʻgʻrularinda uzun, juda uzun qilib soʻzlamakdan iboratdir”⁴⁸. Dehqonlar, hunarmand, chorvadorlarni jamiyatning moddiy neʼmatini yaratuvchi bunyodkor kishilar toifasi sifatida alohida taʼriflagan, ularning hayoti, odatlari, odob-axloqlari toʻgʻrisida nozik fikrlarni bildirgan. Firdavsiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Nosir Xisrav anʼanalarini davom ettirgan.

Xullas, Fitratning “Qutadgʻu bilig” haqidagi tadqiqoti dastlabki ishlardan boʻlishiga qaramasdan koʻpgina muhim masalalarni hal qilgan. Asarning yaratilish davri, bu davrdagi siyosiy hayot, ijtimoiy-adabiy muhit tahlil doirasiga tortilgan. “Qutadgʻu bilig” kitobi asnosida yondosh millatlarning adabiy taʼsir masalalari ustida ham toʻxtalib oʻtilgan. Shuningdek, Fitratning mazkur maqolasi “Qutadgʻu bilig” haqidagi tadqiqotlar uchun asos boʻlib xizmat qildi.

Abdurauf Fitrat mumtoz adabiyot tadqiqotchisi sifatida Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Mashrab, Turdi Farogʻiylarga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlari alohida ahamiyatga molik. Olim Yassaviy merosi haqida toʻxtalibgina qolmay, uning izdoshlari, yaʼni “Yassaviy maktabi

⁴⁸ Фитрат.А. Танланган асарлар. 2 том. Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Т.: Маънавият, 2000, 14-б

shoirlari to'g'rusida tekshirishlar" nomli maqola yaratdi. Mazkur maqolada yassaviya tariqatiga mansub bir qancha mutasavvuf shoirlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Maqola dastlab, 1928- yilda "Maorif va o'qituvchi" jurnalining 5-6-sonlarida nashr etilgan bo'lib, mustaqillikdan keyin adabiyotshunos olim H.Boltaboev tomonidan tabdil qilinib, "Qalb ko'zi" gazetasida chop etilgan. Shuningdek, Fitrat tanlangan asarlarining 2-jildiga ham kiritilgan.

Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida Yassaviy maktabi alohida o'rin egallaydi. Bu maktab va uning o'ziga xos jihati haqida Fitrat shunday yozadi: *"O'rta Osiy turk adabiyotining islomdan so'nggi maktablari orasida Yassaviy maktabi juda nufuzli, katta o'rin tutadi. Bu maktab asrlar bo'yicha bizning o'lkamizda xonaqoh, ibodat adabiyoti yarata keldi"*⁴⁹. Fitrat O'rta Osiyoda yassaviylik va naqshbandiylikning faoliyati haqida to'xtalar ekan, temuriylar davrida naqshbandiylikning keng yoyilganligini, keyinchalik, ya'ni Mahdumi A'zami Dahbediyning o'zi xojagoniylardan bo'lishiga qaramay, yassaviylikni qabul qilganligi yassaviya tariqatining keng yoyilishiga sabab bo'lganligini qayd etib o'tadi. Keyin olim Yassaviy maktabi shoirlari haqida fikr yuritib, avvalo, Ahmad Yassaviyning muridi va shogirda Hakim Sulaymon ota haqida to'xtaladi: *"Hakim Sulaymon ota Ahmad Yassaviyning uchinchi xalifasi bo'lib, uning ko'rsatishi bilan Xorazmg'a borib shayxlik qilgan. Milodiy 1186 da (piridan yigirma yil so'ngra) o'lgan. Qabri Xorazmda Boqirg'on degan joyda..."*⁵⁰. Shuningdek, yana bir qancha yassaviy maktabi shoirlari nomlarini sanab o'tadi. Faqat ayrimlari haqida kengroq to'xtalgan. Jumladan, Iqoniy haqida gapirib, taxallusidan uning Farg'onadagi Iqondan ekanligini qayd etadi. Fitrat Iqoniyni katta nufuzli shayxlardan bo'lib, "Ikkinchi Ahmad Yassaviy" deb nom qozonganligi "Samarat ul-mashoyix" asarining muallifi Mufti Zinda Ali tomonidan ta'kidlanganligini aytadi. Yassaviy shogirdlaridan Shayx Kamol haqida gapirib, uning Iqoniy bilan bir kishi ekanligi xususida o'z mulohazalarini bayon etib, shayxning 19 she'riy parchasi "Boqirg'oniy kitobi"da keltirilganligini mazkur maqolada yozadi.

Ushbu maqolada Shams ismli yassaviy maktabi shoirlaridan biri haqida ham to'xtalib o'tgan: "Boqirg'on kitobidagi hikmatlarda buning

⁴⁹ Fitrat. Tanlangan asrlar. 2-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000, 34- bet.

⁵⁰ Fitrat. Tanlangan asrlar. 2-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. 32- bet.

ko‘proq Shams, bir o‘rinda Shamsiddin, bir-ikki o‘rindag‘ina Shams O‘zgandiy taxallus qo‘yg‘anini ko‘ramiz”⁵¹. Fitratning ma‘lumotiga ko‘ra, “Ikkinchi Xoja Ahmad” nomi bilan mashhur bo‘lgan Kamol Shayx Iqoniyning Sayid Ahmad ismli muridiga Shams O‘zgandiy murid bo‘lgan.

Fitrat shu o‘rinda Qul Ubaydiy haqida ham aytib o‘tgan: *“Ubaydiy, Ubaydulloh, Qul Ubaydiy taxalluslari bilan hikmatlar yozgan bu odam, bizning fikrimizcha, mashhur o‘zbek xoni Ubaydulloh (xon) dan boshqa kishi emas”*⁵². Fitratning qayd etishicha, “o‘zining hukumat ishlariga qaramasdan, shayxliq ham qilar edi”. Shoir she‘rlarida ko‘pincha yassaviylik va naqshbandiya tariqatining ta’siri seziladi. Ubaydullohning yassaviylar bilan juda qat’iy bog‘langaniga yana bir dalil yassaviy shayxi Xudoydodning muridi Muhammadiyor No‘g‘ay otag‘a o‘z qizini berganidir⁵³. Shuningdek, jangu jadallarda uning Ahmad Yassaviy ruhidan madad tilab, ijodda esa unga ergashib hikmat janrida qalam tebratganini ham qayd etish lozim. Ammo shoh-shoirning otasi Mahmud Sultonning naqshbandiya tariqatining o‘sha davrdagi ulug‘ peshvosi Xoja Ahror Valiyga yuksak ehtirom ko‘rsatganligini ham inobatga olish lozim. U o‘g‘liga ism qo‘yishni ulug‘ shayxdan so‘ragan. Chunonchi, tarixchi Hofiz Tanish Buxoriy iborasi bilan aytganda “o‘z nomlarini berishlari ul zotning zo‘r marhamatlaridan bo‘ldiki, shuning uchun ham uning bebaho asarlari va yaxshi nomlarining oqibati olamda boqiydir”.

Fitrat o‘sha davrda Ubaydulloxonning Buxorodan topilgan devoni orqali Navoiy maktabiga ergashib turkiy tilda g‘azallar yozganligini hamda Yassaviy maktabiga ergashib hikmatlar yozganligini ta’kidlash bilan o‘z xulosalariga yakun yasaydi.

Yassaviy shayxlaridan yana biri Xudoydod haqida shunday yozadi: *“Yassaviy shayxlaridan bo‘lib, Shayboniyxonga yordam qilmagani uchun Samarqanddan Hirotg‘a haydalg‘an Jamol Shayxning murididir, Yassaviylikning nufuzli shayxlaridan bo‘lg‘an Olim Shayx tomonidan yozilg‘an “Lama‘ot” kitobi muning manoqibidir”*⁵⁴. Fitratning ma‘lumotiga ko‘ra, shayx zullisonayn ijodkor bo‘lib, forsiy

⁵¹ Fitrat. Tanlangan asrlar. 2-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000, 34- bet.

⁵² Fitrat. Tanlangan asrlar. 2-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000, 35- bet.

⁵³ Fitrat. Tanlangan asrlar. 2-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000, 35- bet.

⁵⁴ Fitrat. Tanlangan asrlar. 2-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000, 36- bet.

tildagi she'rlari "Lama'ot" kitobida keltirilgan bo'lsa, turkiy tildagi hikmatlari esa, "Boqirg'on kitobi"ga kiritilgan.

Fitratning ushbu maqolasi orqali "Boqirg'on kitobi"dagi hikmatlarning muallifi faqatgina Hakim Sulaymon ota emasligi, unda Yassaviy tariqatiga mansub bir qancha shayx-shoirlarning hikmatlari jamlanganligi haqidagi ma'lumotga ega bo'lamiz. Mazkur maqola Fitratning tasavvuf adabiyoti haqidagi qarashlarini aks ettiruvchi maqolalardan biri bo'lib, turkiy tasavvuf she'riyatiga xos ayrim jihatlarni yoritganligi hamda Yassaviy tariqati shayxlari haqidagi nodir ma'lumotlarni o'zida jamlaganligi bilan ham alohida ahamiyatga molikdir.

Abdurauf Fitrat ana shunday keng qamrovli ijod sohibi sanaladi. Shu nuqtayi nazardan uni qomusiy olim sifatida haqli e'tirof etiladi. Fitrat tilshunos, adabiyotshunos, tarixchi, islomshunos, musiqashunos, shoir, dramaturg, yozuvchi, olim sifatida faoliyat yuritdi. Afsuski, jadidlar qatag'onining qurboni bo'ldi. Undan katta adabiy meros sohibidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Abdurauf Fitratning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
2. Abdurauf Fitrat qanday asarlar yozgan?
3. Abdurauf Fitrat haqida dastlab kim ma'lumot bergan?
4. Shoir asarlarining bugungi kundagi ahamiyati nimalardan iborat?
5. Abdurauf Fitrat ijodiy merosining o'rganilishi doir qanday tadqiqotlarni bilasiz?
6. Shoir o'z she'rlari orqali adabiyot tarixida ilk bor qanday yangi g'oyaviy-badiiy yo'nalishni yuzaga keltirdi?
7. Abdurauf Fitrat o'zining falsafiy, ijtimoiy, axloqiy g'oyalarining targ'ibi uchun qaysi janrlarni tanlagan?
8. Shoir lirikasining yetakchi mavzulari haqida fikr yuring, fikringizni misollar asosida izohlashga harakat qiling.
11. Abdurauf Fitratning mumtoz adabiyot tadqiqotchisi sifatidagi faoliyati haqida fikr yuriting?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fitrat. Tanlangan asrlar. 2-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
2. Hofiz Tanish Al - Buxoriy. Abdullanoma. –T.: Sharq, 1999.

3. Karimov N. Qutadg‘u biligning topilishi. Fan va turmush.1993. №2.
4. Qosimov V. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti -Toshkent, 2006.
5. Jumaxo‘ja N. Milliy birlik kurashchisi. «Tafakkur» jurnali, 1998, 3-son.

O‘N IKKINCHI MAVZU: **AHMAD DONISH HAYOTI VA IJODI**

Reja:

1. Ahmad Donishning hayot yo‘li
2. “Navodir-ul-vaqoye”- nodir voqelar jamlanmasi
3. Ahmad Donishning lirik merosi

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|---|---|
| <ul style="list-style-type: none"> • Ahmad Kalla • Peterburg • “Navodir ul-vaqoye” • sayohat • maktab va madrasa • falsafa • axloq | <ul style="list-style-type: none"> • xulq • tasavvuf • xilvat • tavakkul • faqr • ishq-muhabbat |
|---|---|

Ahmad Donish o‘z davri va muhit bag‘rida, o‘z vatani tuprog‘ida yetishgan keng tafakkurli, ilg‘or fikrli, shu bilan birga o‘zi yashagan tarixiy sharoitning nodir vakili edi. Ahmad Donish yoki Ahmad Kalla nomi bilan shuhrat topgan Ahmad ibn Mir Nosir ibn Yusuf al-Xanafi as-Siddiqiy al-Buxoriy 1827 - yilda Buxoro shahrida tug‘ilgan. Ota – onasi uning ilm olishiga katta e‘tibor beradi. Shuning uchun boshlang‘ich savodni chiqargandan so‘ng, otasi Mulla Mirnosir uni 12 yoshida, ya‘ni 1838-yilda maktab-internatga beradi. U Buxorodagi maktab va madrasalarda turli fanlarni o‘zlashtiradi. Riyoziyot, falakiyot, adabiyot, musiqa, me‘morchilik, tarix va falsafa bilan shug‘ullandi, ayniqsa, sharq shoirlari va mutafakkirlarining asarlarini ko‘p o‘qidi va o‘rgandi. U falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, badiiy masalalar bilan qiziqdi. Xattot, me‘morlik sohasida ham katta tajriba to‘pladi.

U XIX asrning 50-yillarida Buxoro amiri Amir Nasrulloh saroyida xizmat qildi. 1870 - yili saroy xizmatidan ketdi.

Ahmad Donish o'z davrining ijtimoiy va siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy muammolarini teran anglar edi. Shu bois, 1857, 1869 va 1874-yillarda uch marta Buxoro elchilari tarkibida Peterburgda bo'ldi. G'arb madaniyati, ilm-fan sohasidagi yutuqlari bilan yaqindan tanishdi. Bunday sayohatlar, albatta, uning dunyoqarashiga ijobiy ta'sir qildi. O'z taassurotlari ta'sirida Buxoroda mavjud tartiblarni isloh qilish loyihasini ilgari surdi. Bu esa Amir Muzaffariddin (1860 - 1885) noroziligiga sababchi bo'ladi va amir Ahmad Donishni Huzarga qozi etib jo'natadi. Donish amir o'limidan oldin Buxoroga qaytadi va 1897- yili vafot etadi.

Ahmadi Donish sayohatlari davomida ilm-fan va madaniyat, davlat tuzumi, Rossiya va Yevropadagi ayrim siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishdi va bu sayohatlar uning dunyoqarashi va tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatdi. Rossiyaning Buxoroga nisbatan taraqqiyoti, sanoat va harbiy texnika, me'morchilik san'ati va hokazolar rivojini ko'rgan Ahmadi Donish inson ilm va bilimdan zavqlansa, yer yuzida hayratlanarli mo'jizalar yaratishga qodir ekaniga amin edi.

Manbalarda ta'kidlanishicha, o'z davrning ziyoli va taraqqiyparvar shoir va olimlari orasida uni sidqidildan qo'llab-quvvatlagan, aql-zakovati, ilmi, bilimini qadrlaydigan muxlislari, do'stlari ko'p bo'lgan. Donish hovlisida shoirlar, yozuvchilar, olimlar, sozandalar doimo to'planib, adabiy, ilmiy, musiqali yig'inlar o'tkazilgan. O'sha davrning mashhur shoirlaridan Shamsiddin Shohin, Muztarib, Tamkinlar gohida uning huzuriga borib turishardi.

Ustoz Sadriddin Ayniy Ahmad Donishni "Buxorodagi ilmiy, adabiy, ijtimoiy-siyosiy inqilobning yetakchisi" deb baholaydi. Ahmad Donish juda aniq va teran tafakkurga ega bo'lib, ko'plab masalalarni bayon etishda bevosita tahlillari natijasida ilmiy-ijtimoiy xulosalar chiqargan. Ustoz Ayniy ta'kidlaganidek: "... o'sha davrda Buxoroda yangi g'oyalar, yangi adabiyotlardan asar ham qolmagan edi. Xullas, bu tug'ma iste'dod birovning nasihati yoki kitobidan emas, balki o'z tashabbusi va tafakkuridan uning barcha fikrlarini yaratgani ma'lum bo'ladi⁵⁵. Ustoz Ayniy Ahmadiy Donishni shu zaminning ma'rifatparvar

⁵⁵ Садриддин Айний. Тожик адабиётидан намуна. Душанбе, 2010. 175-бет.

va taraqqiyparvar shaxslari uchun inqilobiy harakat yo‘nalishini ko‘rsatgan, amirlikning xarob tuzumiga qarshi kurashda kelajakda baxtli hayotga da’vat etgan “Buxoro zulmatidagi yulduz” deb atagan.

Ahmad Donish qator fanlarga doir asarlar yaratdi. O‘zbekiston Respublikasi FA Beruniy nomli Sharqshunoslik institutining qo‘lyozma fondida Ahmad Donishning 16 ta risolasi va bir qancha she‘rlari kiritilgan tazkiralari, G‘azzoliy, Jomiy asarlaridan ko‘chirgan qo‘lyozma nusxalari saqlanadi. Ta’kidlash kerakki, yuqorida ta’kidlangan manbalar asl nusxalar bo‘lib, muallifning o‘zi tomonidan bitilgandir. Ahmad Donishning “*Majmuai hikoyati Ahmadi Kalla*” nomli asari 1877-yilda yozilgan bo‘lib, unda turli tarixiy, adabiy, falsafiy masalalar xususida fikr yuritilgan.

Ahmad Donish astronomiya, kosmologiya muammolari ustida ham doimiy tadqiqotlar olib borgan va bu sohada qator asarlar yozib qoldirgan. U o‘zining “*Munozir al-Kavokib*” (“Yulduzlarni kuzatish”) degan asarida falakiyot ilmiga oid muhim kuzatishlari o‘z ifodasini topgan. Bundan tashqari, uning “*Risalat dar ilmi kurra*” (“Globus haqida risola”) asarida globusning vazifasi va undan amaliy foydalanish haqida gap boradi. 12 bobdan iborat bo‘lgan “*Iztig‘roji bul va arzi balat*” (“Joylarning uzunligi va enini o‘lchash”) asarida Ahmad Donish joylarning o‘rnini o‘lchab chiqarish osmon meridianini soatlarda belgilash masalalari haqida mulohaza yuritadi.

“*Risolai muxtasare az tarixi saltanati xonadoni mang‘itiya*” asarida Buxoro xonligidagi Mang‘it sulolalarining hokimiyati tarixi bayon qilingan. Risolada Amir Doniyol (1758-1785) hokimligidan Amir Abdulloh (1885-1910) hokimligi davrigacha bo‘lgan tarixiy davr haqida ma’lumot berilgan.

U Ibn Sino, Umar Xayyom, Navoiy, Fuzuliy, Bedil kabi mutafakkirlarning muhibi bo‘lgan. Ayniqsa, Bedil asarlaridagi falsafiy g‘oyalar uning qalbida yashashga, hayotga muhabbat uyg‘otdi. “Navodir ul-vaqoye” (Nodir voqealar) Ahmad Donishning falsafiy - adibning butun umri davomida hayotiy kuzatishlarining natijasi o‘laroq yaratilgan.

Ahmad Donishning adabiy, ilmiy va falsafiy merosida “Navodir-ul-vaqoye” (G‘aroyib voqealar) katta ahamiyatga ega. Muallif o‘n yildan ortiq umrini “Navodir-ul-vaqoye”ni yaratishga bag‘ishlagan.

Ahmadi Donish "Navodir-ul-vaqoye"sida yosh avlod tarbiyasi, maktab va madrasalardagi noto'g'ri ta'lim usuli va hayot ehtiyojlaridan uzoqligi haqida mulohaza yuritadi. Ahmad Donish "Navodir-ul-vaqoye" asarida Rossiyaga qilgan ikki safari tavsifini ham kiritgan. Ushbu hikoyalarda muallif Rossiya madaniyati va ilg'or ilm-fani, ushbu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi haqida juda qiziqarli ma'lumotlar va hikoyalarni beradi. Shu tariqa Ahmadi Donish buxoroliklarni Rossiyada juda mashhur bo'lgan dunyoviy ilm - san'at va hunarlarni o'rganishga, jamiyat taraqqiyoti yo'lida foydalanishga da'vat etdi. "Navodir ul-vaqoye" Ahmad Donishning siyosiy islohotchilik g'oyalarini o'zida aks ettirgan tarixiy-publisistik asardir. Bu asarda o'sha davrdagi Buxoro jamiyatining ahvoli, muammolari, islohot takliflari bayon etilgan.

Ta'kidlash kerakki, "Navodir ul-vaqoye" Ahmad Donishning falsafiy-adibning butun umri davomida hayotiy kuzatishlarining natijasi o'laroq yaratilgan. Asarning mundarijasi nihoyatda boy. Unda falsafa, axloq, xulq, tasavvuf masalalari keng qamrab olinadi. Olamning yaratilishi, ruh va uning tanaga munosabati, kasb-hunar, ishq-muhabbat, oila, bola tarbiyasi kabi masalalar ham Ahmad Donish nazaridan chetda qolmadi. Ayniqsa, u tasavvuf falsafasi bilan bog'liq fikrlarini Qur'oni karim Hadisi sharif kabi ilohiy-irfoniy manbalarga suyangan holda yoritib berishi asarning qimmatini yanada oshirgan.

Qur'oni karimning "Va laqad karamno bani Odama" (Biz odamni eng yaxshi tuzatishlar bilan yaratdik) (1...) oyatida inson yaratilgan maxluqotlarning eng oliysi ekanligi ta'kidlanadi. Bu haqda A. Donish shunday yozadi: *"Haqiqatda esa inson ulug' olamdir. Agar vijdonan uylab qarasang, shu ko'rimsiz gavdangga qanchalik hikmat va maslahatlar yashirinib yotganligini bilasan"*.⁵⁶ Ana shunday ulug'lik sifatlari bilan siylangan inson vujudidagi qarama-qarshi jihatlar ham Ahmad Donish nazaridan chetda qolmaydi va buni donolik bilan bayon qiladi: *"...agar qahr – g'azabing kelsa, yo'lbarsni mushukday ham ko'rmaysan; agar mehribonliging tutar ekan, bechora chumolini kipring ustida saqlaysan; agar saxiyliking jilva qilsa, kiygan to'ningni muhtojga berib, o'zing yalang'och qolasan; agar baxilliging tutsa, qumursqa og'zidan don talasasan...."*⁵⁷

⁵⁶ А. Дониш. Наводир ул- вақоеъ. Ўзбекча таржима. ЎЗ.ССРФА. Т.: Ўз. Фаннашр, 1964.154-б.

⁵⁷ А. Дониш. Наводир ул- вақоеъ. Ўзбекча таржима. ЎЗ. ССРФА. Т.: Ўз. Фаннашр, 1964. 155-б.

Keltirilgan iqtibosdan ayonlashadiki, Ahmad Donishning tasavvufiy qarashlari dastlab insoning o'zligiga, o'z-o'zini anglashga qaratilgan. Ayniqsa, tasavvuf maslagidagi nafs tarbiyasi, uni ruhga munosabati masalasi Ahmad Donishning tasavvufiy qarashlari o'zagini tashkil qiladi. Mazkur ta'limotda Ollohning rizoligiga erishning yo'li nafsga qarshi kurashishdan iborat ekanligi ta'kidlanadi. Bu haqda "Navodir ul-vaqo'"da o'qiymiz: *"Oz yeb, oziga qanoat qilsanglar, ikki dunyoda baxtli bo'lasizlar. Yeyish-ichishning foyda, zararini bilmaguncha, uning tagiga tushunmaguncha, oziga qanoat qilmaysizlar. O'ylab ko'ringlar, hamma zararli narsalar, buzuqchilik, gunoh ishlar ko'p yeb-ichishdan kelib chiqadi.Qisqasi shulki, agar tekshirib ko'rsang, odamning u dunyo va bu dunyoning foyda va zararlari ko'p yeb-ichishdan kelib chiqadi"*.⁵⁸ Ahmad Donish nafsning g'alayonlarini so'zdagina ifodalab qolmaydi, balki kitobxonga undan qutilishning yo'l-yo'riqlarini ham ko'rsatadi: *"Agar inson uzlat tutib, riyozat, ibodat ixtiyor qilsa, oz yeb, oz uxlasa, yuqori olamdagi aql va nafslarga aloqa bog'laydi; agar bunday qilmasa, pastlik olamida bo'lgan yomon hayvonlar qatoriga kirib shunda qamalib qoladi"*.⁵⁹ Demak, Ahmad Donishning fikricha, insonning yaratilishidan maqsad yeb-ichish emas, balki, toat-ibodat vositasi bilan ko'ngil oynasiga sayqal berib, nafsni yomon xulqlardan tozalashdir. Yoki jahon obodligiga xizmat qilib, unga o'z hissasini qo'shishdir. Nafsi havas yo'liga kirish insonni asl maqsadidan yiroqlashtiradi. Ahmad Donish buni o'z hayotiy tajribasiga bog'lab tushuntirishga harakat qiladi: *"...bir vaqtlar ko'nglimga xalqdan uzoqlashish, dunyoni tark etib, hech kimga aralashmaslik talabi tushgan edi. Xilvatdan xilvatga o'tish uchun har qancha qasd qilsam ham, bunga nafs shayton to'siqlik qilar: bu duyoning naqshi nigorini ko'z oldimga keltirib ziynatlanar edi. Dushmandning, ya'ni nafs shaytonning hujjatlarini zehnga keltib, uning dalillarini buzdim. Ular so'zdan ojiz qolishib, butunlay yengilib mag'lub bo'ldilar. Shunda men yana matlubga qarata yuz qo'yib, bu yo'lda bir necha qadam ilgari bosdim"*.⁶⁰ Ko'rinib turibdiki, Ahmad Donish "Matlub (Olloh)ga yuz burishi"ni nafsga qarshi kurashishdan boshlagan.

⁵⁸ Юқоридаги манба, 130-б.

⁵⁹ Юқоридаги манба, 122-б.

⁶⁰ Юқоридаги манба, 88-б.

Umuman olganda, Ahmad Donish asarda haqiqiy inson bo'lishning talab va tamoiyillarini, sur'at va siyratni poklash, Oллоhni anglash, tavakkul va faqr talqiniga oid masalalarni yetuk bir faylasuf sifatida yoritib beradi.

Ahmad Donish nazmda ham ijod qilgan. Shoirning o'zi "Navodir-ul-vaqoye"da she'rlarini jamlanmaganligini ma'lum qilgan. Ustoz Ayniy "Tojik adabiyoti namunasi"da Ahmad Maxdumning she'riy asarlari haqida ma'lumot bergan, ammo uning "yo'qligi"ni tilga olgan. U bu haqda shunday yozgan edi: "Ahmad Maxdum ruboiy, g'azal, syujet va qasida shaklida ko'plab she'rlar yozgan bo'lsa-da, e'tiborsizlik tufayli nusxalarini yig'magan. Shu sababdan uning asarlari to'plami mavjud emas⁶¹, degan ma'lumotni ta'kidlab o'tadi.

Ahmad Donish she'rlarini aniqlash borasida ham samarali ishlar amalga oshirildi. Fayzxo'ja Mahmudov sa'y-harakati bilan Ahmad Donish she'rlarining tojik tilida nashr qilindi.

Ahmad Donish she'riyatida yetakchi mavzulardan biri ishq-muhabbat sanaladi. U ana'anaga muvofiq bunday she'rlarida ma'shuqaning go'zalligini vasf qildi, oshiqning ruhiy kayfiyatni o'ziga xos tasvirlarda badiiy talqin etadi.

Hilol monand qoshing jonni shikor qildi,
Yurakni kipriging ko'p beqaror qildi.

Umidvor ko'zlara surma erur xoling,
Yuzing rangi zaminni lolazor qildi.

Bu billur qo'llaring past urgay guharii,
Aqiqdek lablaring yoqutni xor qildi.

Kumushday oq bilak jonimni kuydirdi,
Rakobi - oy oyog'ing yoqutni xor qildi.

Qadi sarving firibgar yog'du cho'qqisi,
Saodatmand kishi o'ziga yor qildi.

⁶¹ Садриддин Айний. Тоҷик адабиётидан намуна. Душанбе, 2010. 176-бет.

Boshingda kaj kulohing ko‘rgan odam
Ushal lahza aziz jonin nisor qildi.

Bu zar do‘ppiki, boshingga kiyibsan,
Bo‘yingga duru gavhar intishor qildi.

Sen osmonu zamin, menman, netay, lek,
Gohi lutfing visolga intizor qildi.

Oyog‘ingga to‘shalmam soyadek, naylay,
Kamandmonand bu zulf dilni shikor qildi.

Belingda halqa soch zarrinkamardir,
Uzining yog‘usidan iftixor qildi.

Qo‘ling o‘pmoqqa Donish bo‘lsa muyassar,
Ikki dunyo g‘ulomlik ixtiyor qildi.

E’tibor bersak, g‘azalning har bir baytida ma’shuqa vujudining bir uzvi ta’riflangan. Dastlabki baytda ma’shuqa qoshi hilolga qiyos qilingan. Bu oddiy qosh emas, balki oshiqning jonini shikor (ov) qiluvchidir. Kipriklari esa oshiq yuragini beqaror qiluvchidir.

Ikkinchi baytda shoir mubolag‘ani kuchaytira boradi. Oshiqning ruhiy holatini “umidvor ko‘zlar” birikmasi bilan beradi. Bu ko‘zlarga ma’shuqaning qora xoli surma bo‘lsagina, u davo topadi.

Bilamizki, mumtoz she’riyatda ma’shuqaning qoshi, ko‘zi, kiprigi, labi, qaddi bilan bog‘liq tasvirlarga ko‘p murojaat qilingan. Ahmad Donish esa shu an’nani davom ettirgan bo‘lsa-da, o‘ziga xos yangilik kiritishga ham erishgan. G‘azalning uchinchi baytida ma’shuqaning qo‘llarini billurga qiyoslangan. Bu bilan kifoyalanmagan shoir “billur qo‘llar”ning oldida gavharning qimmatini past bo‘ldi, deydi. Baytning ikkinchi misrasida lab aqiqqa o‘xshatiladi. Ma’shuqa lablarining oldida yoqut ham xor bo‘ldi, deya mubolag‘ani kuchaytira boradi.

Mumtoz she’riyatida oshiq va ma’shuq obrazlari tasvirida shoh va gado tazodiga ko‘p murojat qilingan. Shoir g‘azalning quyidagi baytlarida osmon – zamin qarshilantirilishidan foydalangan. Ma’shuqa – osmon, oshiq-zamin.

Sen osmonu, zamin menman, netay, lek,
Gohi lutfing visolga intizor qildi.

Ma'shuqa o'z husnidan kibrlanadi. Shoir buni soch timsoli orqali badiiy talqin etadi. Buni quyidagi baytida ko'rishimiz mumkin.

Belingda halqa soch zarrinkamardir,
O'zining yog'dusidan iftixor qildi.

Baytda ma'shuqa sochi zarrinkamarga o'xshatilgan. Ya'ni bu oddiy soch emas, zarrin – nur sochuvchi soch. Shuning uchun u o'z yog'dusidan iftixor qiladi.

Qo'ling o'pmoqqa Donish bo'lsa muyassar,
Ikki dunyo g'ulomlik ixtiyor qildi.

G'azal maq'tasida oshiqning sodiqlilik sifatiga urg'u berilgan. U birgina ma'shuqaning qo'lini o'pishga muyassar bo'lishni istaydi. Buning uchun esa ikki dunyoda ham ma'shuqaning qulli bo'lishga tayyor.

Ko'rinib turibdiki, shoir an'anaviy mavzuni o'ziga xos ko'rinishda badiiy talqin etadi. Metafora va ramziy ifodalardan foydalanib, oshiq va ma'shuq timsolini badiiy chizgilarda berishga erishadi.

Ahmad Donish she'rlarida axloqiy, tasavvufiy mavzular ham yetakchilik qiladi. U hayot, inson va jamiyat haqidagi falsafiy fikrlari sodda uslubda badiiy talqin etadi.

Qahru shahvat zulmatidan qil hazar.
Tutuni dil ko'zini tiyra qilgay.
G'azab kirgan zahot, aqling etar tark,
Havasni yengmasang, jon xira bo'lgay.⁶²

Shoir hayotiy xulosalarini she'rda ifodalar ekan, xalq hikmatlaridan ham o'rinli foydalanadi. Yuqorida keltirilgan qit'ada "Jahl chiqqanda, aql ketadi" degan xalq maqolidan shoir o'z fikrining tasdig'i uchun o'rinli foydalangan.

Qay kun kirar ekan ajal to'rt yondan,
Muhlat so'rolmaysan bir nafas undan,
Yordamga kelolmas hech kimsa, hayhot,
Bor hoyu havasing bo'lgusi barbod.⁶³

⁶² Samandar Vohidov. Buxoriylar bo'stoni. – Buxoro. 1991.

⁶³ Samandar Vohidov. Buxoriylar bo'stoni. – Buxoro. 1991.

Keltirilgan misralarda shoirning didaktik qarashlari o‘z ifodasini topgan. Shoir inson umrining g‘animatligini ta’kidlar ekan, “berilgan muddat”ni xayrli ishlar sarf qilishga da’vat etadi.

Umuman olganda, Ahmad Donish she’rlari oz sonli bo‘lsa-da, uning dunyoqarashi, islohotchilik g‘oyalarini aks ettirishda muhim o‘rin tutadi. Uning ijtimoiy va madaniy tafakkuri tarixidagi o‘rni haqida ustoz Sadriddin Ayniy, so‘ngra akademiklar Zarif Rajabov, Alouddin Bahovaddinov, Abdulg‘ani Mirzoyev, professorlar Rasul Hadizoda, Xoliq Mirzozoda va boshqa bir qancha olimlar tadqiqotlar yaratdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Donish, Ahmad. Navodir – ul vaqoye. (Nodir voqealar). //I.M.Mo‘minov tahriri ostida. –T.: Fan, 1964.
2. Mo‘minov I.M. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tafakkurning rivojlanish tarixidan. –T.: Fan, 1960.
3. Nosirov R., Karimov T. Ahmad Donish ilm-fan ravnaqi va inson axloqiy kamoloti haqida // TIU Ilmiy-tahliliy axborot. 2006. - № 2.- 19 s.
4. Sadriddin Ayniy. Tojik adabiyotidan namuna. Dushanbe, 2010.

O‘N UCHINCHI MAVZU:

SADRIDDIN AYNIY HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Sadriddin Ayniyning hayot yo‘li.
2. Sadriddin Ayniy asarlarining mundarijasi
3. Sadriddin Ayniy asarlarining g‘oyaviy-badiiy tahlili

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|-------------------|-------------------|
| • Sadriddin Ayniy | • qisqartma matn |
| • Buxoro | • Qomusiy olimlar |
| • Zullisonayn | • Ibn Sino |
| • fors-tojik | • Esdaliklar |
| • Matnshunos | • Doxunda |
| • roman | • Qullar |
| • Xamsa | |

XX asr o'zbek va tojik adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan atoqli adib, olim va jamoat arbobi Sadriddin Saidmurodzoda Ayniy 1878- yilning 15- aprelida Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi Soktare qishlog'ida dunyoga kelgan. Olti yoshidan maktabga qatnay boshlagan Sadriddin 1890-1900-yillar Buxoroga kelib Mir Arab, Badalbek, Olimxon, Hoji Zohid, Ko'kaldosh madrasalarida tahsil oladi. Unga Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe", Xoja Marog'iyning "Ibrohimbekning sayohati" asarlari va ma'rifatparvarlar ijodi jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Kalkutta, Bog'chasaroy, Ufa, Orenburg, Qozon singari shaharlarda nashr etilgan gazeta va jurnallar bilan tanishish, ayniqsa, Fitratning "Munozara", "Sayyoh hind qissasi" singari asarlarini mutolaasi bo'lajak yozuvchining dunyoqarashida inqilobiy o'zgarishlarni vujudga keltirdi. U amirlik tuzumining chiriganini, mamlakatni boshqarish usulini yangilash, demokratik islohotlar o'tkazish va xalq ommasini ma'rifatlashtirish zarurligini sezdi.

Madrasa tahsili tugagach, Ayniy Buxoroda yangi usuldagi maktablar ochadi, ular uchun o'quv qo'llanmalar, xalqni ilm-ma'rifatga chaqiruvchi she'r va hikoyalardan iborat "Tahsib us-siyobon" – "Yoshlar tarbiyasi" (1909) darsligini tuzadi. "Yosh buxoroliklar" harakatida faol qatnashadi.

Sadriddinning birinchi g'azali "Guli surx" ("Qizil gul") 1895-yilda yozilgan. Sadriddin Ayniyning 1917- yilga qadar yaratgan asarlari u qadar ko'p emas. U garchand inqilobga qadar bo'lgan davrda "Oyna", "Ulug' Turkiston", "Al-isloh", "Hurriyat", "Sadoyi Turkiston", "Taraqqiy" singari gazeta va jurnallarda o'z she'rlari va maqolalari bilan yosh ijodkor sifatida qatnashadi, vaqt o'tishi bilan jiddiy hayotiy mavzularga qo'l urishga intiladi. 1896 -1904-yillarda "Guli surx", "Bazm" singari katta mazmundan xoli she'rlarni yozgan bo'lsa, keyinchalik yaratgan "Yoshlarga murojaat", "Hasrat", "Na o'ldi, yo rab!", "Moziy va hol", "Yerni yana sotmang" singari she'rlarida jadid adabiyotining nafasi ufurib turadi. Sadriddin Ayniy 1917-yilga qadar kechgan ijodida, boshqa jadidlar singari maqolanavislik (publitsistika) bilan ham samarali shug'ullandi. Uning "Oyna" jurnalida chop etilgan "Har bir millat o'z tili ila faxr etar" degan maqolasi muallifning 1915-

yildayoq Turkiston xalqlari o'rtasida o'zbek tilining mavqeyini ko'tarish vazifasini o'z oldiga qo'yganini namoyish etdi. U shu davrda nazariy xarakterdagi ishlar bilan band bo'lib qolmay, fors-tojik tilida "Buxoroyi sharif", o'zbek tilida "Turon" gazetalarini nashr etishning tashabbuskorlaridan biri bo'ldi. "Buxoro jallodlari" (1922) povesti, "Buxoro mang'it amirligining tarixi" (1921) asarida Buxoroning ijtimoiy-siyosiy hayoti ifodalangan. "Odina", "Qiz bola yoki Xolida" (1924), "Tojik adabiyotidan namunalar" (1926), "Qul bobo yoki ikki ozod" (1928) kabi qissa, hikoya, ocherklari muhim ahamiyatga ega. Ayniy 1927-29-yillarda yirik romani "Doxunda"ni tojik tilida nashr ettirdi. 1934-yilda esa o'zbek tilida "Qullar" romanini yaratdi. Unda o'zbek va tojik xalqining yuz yillik hayoti aks etadi. Ayniyning "Eski maktab" (1935) asarida eski maktabdagi o'qish va o'qitish haqida hikoya qilinadi. Yigirmanchi yillarda e'lon qilingan qator hajviy asarlari, "Yana bu qaysi go'rdan chiqdi", "Puling halol bo'lsa, to'y qil" (1924), "Mashrab bobo", "Ye, to'nim" (1925), "Bilganim yo'q", "Kengash" (1926) kabi o'zbekcha feletonlari, hajviy she'r va maqolalari, ayniqsa, "Sudxo'rning o'limi" (1939) hajviy povesti yozuvchining mohir satirik ekanligini ko'rsatdi.

Muqanna va Temurmali boshchiligidagi xalq qo'zg'olonini aks ettiruvchi adabiy-tarixiy ocherklar yozdi. U to'rt qismdan iborat "Esdaliklar"ida (1949-1954) Buxoroning o'tmish hayoti va o'sha davr ijtimoiy-madaniy muhitini yoritadi. Ayniy adabiyotshunos, tilshunos, sharqshunos olim sifatida "Firdavsiy va uning "Shohnoma»si haqida" (1934), "Kamol Xo'jandiy", "Shayxurrais Abu Ali ibn Sino" (1939), "Ustod Rudakiy" (1940), "Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy" (1942), "Alisher Navoiy" (1948), "Zayniddin Vosifiy" (uning «Badoe ul-vaqoe» asari haqida»), "Mirza Abdulqodir Bedil", Muqimiy, G'afur G'ulom va Said Nazar haqidagi asarlari o'zbek va tojik adabiyotshunosligi va tanqidchiligida, "Fors va tojik tillari haqida", "Tojik tili" kabi ilmiy ishlari tojik tilshunosligida muhim voqea bo'lgan.

Sadriddin Ayniy Tojikiston Fanlar Akademiyasi akademigi va birinchi prezidenti (1951-54), O'zbekiston Fanlar Akademiyasi faxriy a'zosi (1943), Tojikistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1940), filologiya fanlari doktori (1948), professor (1950) sanaladi. O'zbekiston va Tojikiston Respublikalarida haykallari o'rnatilib, bir qator shahar,

tumanlar, qishloqlar, ko'chalar, maktablar, kutubxonalar, san'at va madaniyat muassasalari Ayniy nomiga qo'yilgan. 1967-yilda Samarqandda Ayniy yodgorlik uy-muzeyi ochilgan.

O'zbek va tojik adabiyotining zabardast vakili, nazm va nasrda birdek ijod etgan, buyuk mutafakkir Sadriddin Ayniyning Sharq adabiyoti tarixida o'z o'rnini mavjud. U o'zining serqirra faoliyati davomida adabiyotshunos, tilshunoslik, tarjimon, matnshunos, shoir va yozuvchi-adib sifatida shuhrat qozondi. Shu nuqtayi nazardan olim I.Haqqulov u haqida: "Oллоh ustod Ayniyga bir necha yaxshi olim, sermahsul yozuvchiga etadigan iste'dod bergandi. Ayniy yaratgan ilmiy tadqiqotlarning hajmiga teng asarlar yozish, ehtimolki ikki – uch zahmatkash olimning qo'lidan kellar. Ammo bu asarlarning Ayniy tadqiqotlari sifat va saviyasi bilan bellasha olishiga hech kim kafolat berolmasa kerak, deb o'ylayman. Ayniyning "Sudxo'ring o'limi", "Esdaliklar" kitobi manaman degan ulug' bir iste'dodning shon-shuhratini jahonga taratish va muallifiga badiiy haykal o'laroq boqiy yashash qudratiga ega, desa aslo xato bo'lmaydi", deganda mutlaqo haq edi. Qolaversa, uning nodir ijodi qardosh qirg'iz xalqining buyuk yozuvchisi Chingiz Aytmatov tomonidan ham keng e'tirof etilgan. U o'zining "Ikki san'atkor" nomli maqolasida "Men Muxtor Avezov bilan Sadriddin Ayniy doimo hurmat qilishimni, ularni sevishimni kitobxonlar oldida e'tirof etmoqchiman. Ularning har ikkisi ham nodir hodisadir", -deb yozgan edi.

Ayniy ijodkor sifatida yuksak iste'dod sohibi bo'lishi bilan birga, o'ta mahoratli, daqiq olim ham edi. Shoir, nosir bo'lish bilan birga, adabiyot va tarixga oid ko'pgina ilmiy asarlar yaratgan zabardast olim Sadriddin Ayniy ilmiy faoliyati davomida Alisher Navoiy ijodiy merosiga alohida diqqat va e'tibor bilan qaragan.

Olimning bu borgan faoliyati ikki yo'nalishda yuzaga chiqdi:

1. Matnshunoslik doirasidagi faoliyati.
2. Tanqidchilik faoliyati.

Sadriddin Ayniy ilmiy-ijodiy faoliyatida uning matnshunoslik borasidagi xizmati muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. U buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy "Xamsa"sining qisqartirilgan tanqidiy matnini tayyorlashdek ulkan ishga qo'l uradi. Mazkur nashrda olim Alisher Navoiy "Xamsa"sining ayrim o'rinlarini nasriy shaklda bayon etadi va

sahifalar ostida sharhlar hamda asarning she'riy qismlaridan parchalar keltiradi. Mazkur nashr 1939- yilda tayyorlangan va 1940- yili lotin alifbosida chop etilgan bo'lib, 1947- yilda esa Solih Muttalibov, Sobirjon Ibrohimov va Porso Shamsiyev kabi olimlar tomonidan asarning nasriy qismlari va sahifalar ostidagi sharhlar qisqartirilgan va ixchamlashtirilgan holda krill alifbosida bosilib chiqqan⁶⁴.

Sadriddin Ayniy yaratgan qisqartma nashrda "Xamsa" mazmuniy butunligini to'la saqlab qoladi va xalqqa tushunarli va soddaroq shakldagi ifodaga ega. Mazkur shakl bir qarashda xalq dostonlarining ko'rinishini esalatadi, ya'ni nasriy va she'riy qismlardan tarkib topadi. Aynan ana shunday shakliy tanlanish matnshunosning xalqona uslublarga o'rgangan ommaning dunyoqarashi, ko'nikilgan shaklga yana murojaat etish ehtiyojining tug'ilishi va shuning orqali ularning "Xamsa"ni o'qib-o'rganishlari uchun sharoit yaratish mumkinligini ko'rsatadi. Mazkur ish Sadriddin Ayniyni keng xalq ommasini savodli, mumtoz adabiyotni tushunadigan bilimdon va undagi donoliklardan bahramand bo'lib, ma'naviy olamini, hayotini yaxshilash sari burishga hozir bo'la oladigan komil insonlarni ko'rishga bo'lgan kuchli intilishlarini, ulkan xalqparvarlik fazilatlarini namoyon etadi.

Sadriddin Ayniy matnshunos olim sifatida Alisher Navoiy ilmiy merosini o'rganish va keng targ'ib qilishda ko'p xizmat qildi. Shu bilan birgalikda o'z hamyurtlari qadim Buxoro farzandlarining hayoti va ilmiy merosini o'rganish borasida ham salmoqli ishlarni amalga oshirdi. Bu borada Abu Ali ibn Sino va Abdulloh Ro'dakiyga bag'ishlangan tadqiqotlari o'zning keng qamrovligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Ibn Sinoga bag'ishlangan tadqiqot "Shayxul rais Abu Ali ibn Sino" deb nomlangan bo'lib, bunda olimning fors-tojik tilida yozilgan ba'zi asarlaridan parchalar ham keltirilgan. Olim dastlab Ibn Sinoning Yevropada Avitsena nomi bilan shuhrat topganligini, to'liq ismi Husayn binni Abdulloh binni Sino ekanligini, Abu Ali ibn Sino esa uning kuniyasi, Shayhur rais esa ilmiy laqabi ekanligiga urg'u beradi⁶⁵. Ayniy shu o'rinda kuniya va "Shayhur rais" tushunchalariga ham izoh berib o'tadi. Ya'ni arab ta'biricha "ab", "abu", "abi", "ibn" bilan

⁶⁴ Navoiy A. Xamsa. (Qisqartirib nashrga tayyorlovchi S.Ayniy). – T.: O'zdamnashr, 1947. – 432 b.

⁶⁵ S.Ayniy. Asarlar. 8 tomlik. 8-tom. Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti 1967-yil, 97-b. Bundan keying iqtiboslar ham shu manbadan Olinda. Shuning uchun faqat sahifasini qayd etish bilan cheklanamiz.

boshlanadigan kishi nomlari kuniya deb ataladi. “Shayhur rais” esa “ulug’, bosh olim” demakdir.

Sadriddin Ayniy bu olimning ilmiy va adabiy faoliyatini yoritish bilan cheklanib qolmay, dastlab Ibn Sino yashagan tarixiy davr va muhitga ham alohida e’tibor qaratadi. Ayni masala tadqiqi uchun bir qancha tarixiy asarlarni ham o’rganib chiqadi. Sino hayoti haqida gapirishdan oldin u tug’ilib, faoliyat boshlagan podshohlik – Somoniylar haqida ma’lumot beradi. Hatto, mazkur podshohlikning yuzaga kelish tarixini ham keltirib o’tadi: “Arablar O’rta Osiyoni istilo qilgandan ikki yuz yilcha keyin mamlakatning chekka o’lkalarida Bag’dod (xalifalik poytaxti)ga tobe’ bo’lsalar-da, haqiqatda o’zlariga mustaqil bo’lgan davlatlar mavjud edi. Shunday davlatlarning eng buyuk, eng qudratli, eng uzoq umr ko’rganlaridan biri Somoniylar davlati edi”⁶⁶. Ayniy tarixchi olim sifatida Somoniylar davlatining asoschi, uning yaratilish tarixini batafsil, manbalar bilan asoslab yoritgan. Ya’ni somoniylar sulolasiga asos solgan hukmdorlarning bobosi – Asad binni Somon Balx forslaridan bo’lib, arab voliylari tomonidan Movarounnahr va Xurosonning ayrim shaharlariga hokim qilib tayinlanadilar. Jumladan, Nuh binni Asad Samarqandga hokim bo’ladi. Shu tariqa somoniylar asta-sekin kuchayib, samarqandni o’zlariga markaz qiladilar. Ammo Ismoil Somoniy davrida Buxoro poytaxt bo’ladi va somoniylar 875-yildan to 999-yilgacha Movarounnahrda hukmronlik qiladilar. Somoniylar davrida O’rta Osiyoning madaniyati g’oyatda yuksalgan edi. Shu jumladan, milliy til va adabiyot – keyinchalik O’rta Osiyoda “tojikcha” deb atalgan fors tili va adabiyoti tashkil topdi. Bu davrda Abulhasan Buxoriy, Murod Buxoriy, Daqiqiylar yetishib chiqdi va ular islomdan keying fors-tojik adabiyotining asoschilaridan hisoblanadilar. Ayniy ushbu ma’lumotlarni ham e’tibordan soqit qilmagan. Qolaversa, somoniylar davridagi eng rivojlangan shaharlar, ulardagi madaniy ahvol, savdo va hunarmandchilikka ham alohida to’xtalib o’tgan. Bu borada somoniylar sulolasi yuksalgan davrda Buxoro ikkinchi Bag’dodga aylanganligini, bu yerda har tomondan olimlar kela boshlagani, qolaversa, mahalliy donishmandlar ham yetishib chiqqanligiga urg’u beriladi. Sadriddin Ayniy bu davrda yetishib, shuhrati jahonga tarqalgan mahalliy olimlardan biri sifatida Abu Ali ibn Sinoning nomini keltiradi.

⁶⁶ S.Ayniy. O’sha manba. 97-b.

Eng e'tiborli jihatlaridan biri shundaki, Ayniy somoniylar davrining so'nggi olimlaridan bo'lgan Abu Ali ibn Sinoning tarjimai holi bilan o'sha davrning so'nggi shoiri bo'lgan Firdavsiyning tarjimai holi bir-biriga nihoyatda o'xshashligini misollar asosida isbotlashga harakat qilgan.

Sharq adabiyoti klassiklari Rudakiy, Firdavsiy, Sa'diy, Hofiz, Navoiy, Jomiy va Soib asarlariga ishtiyoqi baland edi. Keyinchalik badiiy so'z san'atkorlariga ergashib, o'zi ham "Sifliy", "Muhtojiy" va "Jununiy" taxalluslari bilan she'rlar va g'azallar yoza boshlaydi. Shulardan uning "Guli surx" (Qizil gul) nomli birinchi g'azali bizgacha yetib kelgan xolos. Shoirning 48 ma'no anglatuvchi "Ayniy" taxallusi bilan yozgan mana shu birinchi g'azalidayoq zulmkor zamon adolatsizliklariga, ijtimoiy tengsizliklarga qarshi kuchli norozilik nafratini ko'ramiz.

Sadriddin Ayniy mashhur ma'rifatparvar olim Ahmad Donishning ilg'or gumanistik g'oyalarining sodiq davomchisi sifatida maydonga chiqdi. Sadriddin Ayniy ommani nodonlik va jaholatdan qutultirishning birdan-bir yo'li xalqqa ilm-ma'rifat tarqatish deb bildi. U Buxoroda birinchilardan bo'lib xalqning farzandlari uchun yangi tipdagi maktablar ochdi va ular uchun o'quv darsliklar yaratdi. Ko'hna Buxoroda matbaa va matbuotning paydo bo'lishi tarixi ham Ayniy nomi bilan chambarchas bog'liqdir. "Buxoroyi sharif" va "Turon" nomli tojik va o'zbek tillarida chiqadigan birinchi gazetalar sahifalarida Ayniy boshliq ko'pgina ma'rifatparvar ijodkorlarning amir reaksiyasiga qarshi xalqni maktab, maorif, ilm va ma'rifatga da'vat etuvchi she'rlari va maqolalari bosilib turdi.

Sadriddin Ayniy o'zbek va tojik adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan zullisonayn ijodkordir. "U mansub bo'lgan yozuvchilar avlodi, - deb yozadi, - olim N.Karimov xalq va jamiyat hayotidan uzoqlashib qolgan mumtoz Sharq adabiyotiga yangi to'lqin berishga, uni tarixiy davrning g'oyalari bilan boyitishga intildi. Shu ma'noda Sadriddin Ayniy va uning qalamkash birodarlari XX asrning 10-yillarida yangi tipdagi o'zbek va tojik adabiyotiga poydevor qo'ydilar".

Ayniy asarlari orasida uning "Esdaliklar"i – alohida ahamiyatga molik. Asarda Buxoroning o'tmish hayoti va o'sha davr ijtimoiy-ma'daniy hayotini yorituvchi bir qator lavhalar, shuningdek, shahar

xalqining hayoti, turli tabaqalarning bir-biriga munosabatlari ham atroflicha bayon etilgan. Sadriddin Ayniy bolaligida birinchi marta "she'r" va "shoir" so'zlarini otasi Saidmurod xo'jadan eshitadi. Birinchi ko'rgan shoiri - otasining o'rtog'i, Sektare qishlog'idagi hovlilariga mehmon bo'lib kelgan Iso taxallusli shoir edi. Qo'shni kampir To'taposhsha aytib bergan ertaklar, otasi aytgan g'azallar, akasi Muhiddinxo'ja hujrasida ko'rilgan kitoblar yosh Sadriddin iqtidorini uyg'otdi, unda she'r yozish ishtiyoqini kuchaytirdi. Shoir 1891-1892- o'quv yilining boshlarida buxorolik Latifjon Maxdumning hovlisiga xizmatkor bo'lib keladi. Ijodkorning "Qisqacha tarjimayi holim" nomli asarida bu hovli Sharifjon maxdum hovlisi deb ataladi. Ammo "Esdaliklar" ning III va IV qismlarida Latifjon maxdum deb tilga olinadi. Mazkur hovlida Ayniydan tashqari yana uch nafar erkak xizmatkor bor edi. Bularning eng kattasi Mirzo Bade nomli kishi bo'lgan. Mirzo Bade xat-savodli bo'lib, o'qisa bo'ladigan kishi bo'lgan. Mirzo Badening bir bayozi bo'lib, unda tog'asi Doiyning ba'zi she'rlarini va Latifjon Maxdumning uyida eshitgan ayrim she'rlarini o'z xati bilan ko'chirgan edi. Mirzo Bade she'r yozishga uncha tushunmasa ham, tarbiyachisi Doiy va xo'jayini Latifjon Maxdumning ta'sirida she'r to'plashga jiddiy kirishgan. Xizmatkorlarning ikkinchisi Mirzo Abdulvohid bo'lgan. Uning vazifasi asosan mehmonxonada xizmat qilish bo'lgan. Uchinchisi Abdulkarim isimli savodsiz bir kishi bo'lgan. Sadriddin Ayniyning vazifasi asosan shu uch nafar erkak xizmatkorlarga ko'maklashish bo'lgan. Bundan tashqari, u ichkari hovliga ham dastyor bo'lgan. Sadriddin Ayniyning ijodida Latifjon Maxdumning xizmatlari katta bo'lgan. Chunki Sadriddin Aynining hayoti va ijodida Latifjon Maxdumning uyida o'tkazgan kunlari alohida ahamiyatga molik.

Latifjon buxorolik domla Abdushukur qozi kalonning ikkinchi o'g'li bo'lib, uning otasi va aka-ukalarining kasbi ohorchilik bo'lgan. Latifjon Maxdum xushxatlilik, savodlilik, she'rshunoslik, ma'rifatparvarlikda Buxoro mullazodalari orasida tengsiz bo'lgan. Odatda Buxoro katta mullalarining farzandlari otalarining davlat va shuhratiga mag'rur bo'lib, yoshlikda tarbiyasiz qolar yoki yomon tarbiya olib, yoshlari ulg'ayganda ham har xil axmoqona ishlardan o'zlarini tiya olmas edilar. Shunga qaramasdan,

ko'pincha mansablarini suiste'mol qilardilar. Buxoro xalqi maxdumlar haqida g'alati latifalar to'qib, qiziq she'rlar aytganlar. Bu xildagi maxdumlar orasida donishmandlari kam topilar va shu kam topiladiganlardan biri Latifjon Maxdum edi.

Latifjon Maxdumning uyida, haftaning uch kechasida-ish yo'q edi. Seshanba, chorshanba va payshanba kunlari shoirlar, she'rshunoslar, latifa aytuvchilar va qiziqchilar to'plangan. Sadriddin Ayniy Abdulvohid bilan mehmonlarga dasturxonchilik qilganligi sababli, shunday kechalarda doim mehmonxona ichida bo'lib, bunday adabiy suhbatlardan bahramand bo'lgan. Sadriddin Ayniy dastlabki, lekin muhim adabiy materiallarini shu hovlida to'plagan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Sadriddin Ayniy bu hovlida mulla Nazrullo Lutfiy, Abdulmajid, Zufunun, Yahyoxoja, Sodiqxoja Gulxaniy, Hodimbek Homid, mulla Burxon, Mushtoqiy, Mirzo Azim Somiy Bo'stoniy, Azizxoja Aziz va boshqalarni taniydi. Bularning hammasi shoir yoki she'rshunos bo'lgan.

Sadriddin Ayniy o'zining "Esdaliklar" asarida yuqorida tilga olingan shoir va she'rshunoslar haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tadi. Jumladan, Abdulmajid Zufunun haqida ma'lumot berib o'tadi. Abdulmajid Zufunun –yulduzlar ilmida Ahmad Donishning shogirdi bo'lib, she'r va adabiyot hamda Buxoro madrasalarida o'qitiladigan boshqa rasmiy fanlar sohasida ham mahorat ko'rsatgan. U turli fanlar va ilmlarni ko'p bilgani sababli, zamondoshlari unga "Zufunun" laqabini bergan edilarki, buning ma'nosi "fanlar egasi" demakdir. U zamona va zamona ahliga, xususan, amir va saroy ahliga tanqid ko'zi bilan qaraydi. U o'zini jinnilikka solib yuradi. Latifjon Maxdum: Zufununning jinniligi yolg'on jinnilik, aslida u hamma narsaga fahmi etadigan ulug' donishmand, ammo amirning g'azabidan qo'rqib, o'zini jinnilikka solib yuradi, - der edi. Sadriddin Ayniy "Esdaliklar" asarida yana ko'plab allomalar haqida ma'lumot bergan. Uning asarlari biz uchun go'zal san'at namunasigina bo'lmasdan, ko'rgazmali o'qish asari hamdir. Bu asarlar o'zbek xalqining o'tmishi va yangi muvaffaqiyatlarini aks ettiribgina qolmaydi –ular shu yutuqlarning jonli dalillari hamdir.

Xulosada aytish mumkinki, "Esdaliklar" adib umr bayonining benazir sahifalaridir. Asar bugungi kun uchun ham qimmatli ahamiyatga

ega, uni varaqlar ekanmiz adib bilan birga o'tmish tariximizga sayohat qilamiz, bevosita o'sha davr kishilari bilan hamsuhbat bo'lamiz, asosiysi davr nafasini his qilamiz. Xotiralarda adabiy to'qimalar uchramaydi. Tasvirlangan voqealar sinchkovlik bilan kuzatilgan, yozuvchining o'tkir nigohidan o'tgan sof haqiqatdir. Ta'kidlash joizki, ulug' shoirning hayot faoliyatida Sharifjon maxdumning alohida o'rni mavjudligi haqidagi xulosaga "Esdaliklar" asari sahifalaridagi ma'lumotlar asos bo'ladi.

Sadriddin Ayniy o'z ijodiy faoliyati davomida mashhur yozuvchi va olim, ulkan tarixchi va publitsist, adabiyotshunos va tilshunos, sharqshunos olim va yirik jamoat arbobi sifatida butun dunyoga tanildi. Sadriddin Ayniy adabiyotimizda ulug' Alisher Navoiy boshlab bergan zullisonaynlik – ikki tilda ijod qilish an'alarini davom ettirdi va o'z ijodi bilan uni yuqori bosqichga ko'tardi. U ikki xalq yaratgan boy adabiy merosdan bahramand bo'lib, o'zbek va tojik tillarida yaratgan barcha asarlari ana shu ikki xalqning umumiy mulkiga aylanib qoldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Sadriddin Ayniyning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
2. Shoir haqida olimlar qanday ma'lumotlarni yozib qoldirishgan?
3. Sadriddin Ayniy qanday asarlar yozgan?
4. Shoir asarlarining bugungi kundagi ahamiyati nimalardan iborat?
5. Sadriddin Ayniy ijodiy merosining o'rganilishi doir qanday tadqiqotlarni bilasiz?
6. Shoir faoliyatining serqirraligi nimalarda ko'rinadi?
7. Sadriddin Ayniy o'zining falsafiy, ijtimoiy, axloqiy g'oyalarining targ'ibi uchun qaysi janrlarni tanlagan?
8. Shoir asarlarining yetakchi mavzulari haqida fikr yuring, fikringizni misollar asosida izohlashga harakat qiling.
11. Sadriddin Ayniyning mumtoz adabiyot tadqiqotchisi sifatidagi faoliyati haqida fikr yuriting?
12. Sadriddin Ayniyning jadidchilik harakatiga munosabati qanday edi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyotimiz avtobiografiyasi. G'afur G'ulomnomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1973.

2. Said Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim. «Sharq», Toshkent, 1998, 38-bet.
3. Paustovskiy K. Oltingul. G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, Toshkent, 1967.
4. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. «O‘zbekiston» nashriyoti, Toshkent, 2001.
5. Ayniy S. 8 tomlik. 3-tom. Qullar. T., Badiiy adabiyot nashriyoti, 1964.
6. Ayniy S. 8 tomlik. 6-tom. Esdaliklar. III qism. T., Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.
7. Ayniy S. Sudxo‘rning o‘limi. T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1978.
8. Hasanov M. Fayzulla Xo‘jaev. T., “O‘zbekiston” nashriyoti, 1990.
9. Ayniy zamondoshlar xotirasida. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1978.

O‘N TO‘RTINCHI MAVZU:
HOZIRGI O‘ZBEK NASRIDA JO‘RA FOZIL IJODINING
O‘RNI

Reja:

1. Jo‘ra Fozil hayoti va ijod yo‘li.
2. Adib ijodining mavzular olami.
3. Jo‘ra Fozilning qahramon yaratish mahorati.
4. Adib tarixiy romanlarining o‘ziga xosligi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|--|---|
| <ul style="list-style-type: none"> • <i>Jo‘ra Fozil</i> • <i>Nosir</i> • <i>Hikoya</i> • <i>Qissa</i> • <i>Roman</i> • <i>Avtobiografiya</i> | <ul style="list-style-type: none"> • <i>“Ayriliq ostonasi”</i> • <i>“Xongul”</i> • <i>“Sahrodagi daraxt”</i> • <i>tarixiylik.</i> |
|--|---|

Buxoroning bugungi kundagi taniqli adiblaridan biri Jo‘ra Fozil 1949-yil 5-oktyabrda Buxoro viloyati Romitan tumanidagi “Musicha” qishlog‘ida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Abduvahob Fozilov xonadonida tug‘ilgan. Adibning onasi Hikmatoy opa uy bekasi edi.

Jo'ra Fozil oilada yettinchi farzand edi. Ammo Oydin, Sur'at, Munavvar, Maxfirat singari opalari va Olim ismli akasi uzoq yashamagan. Yahyo ismli akasi esa ijodkorning hayot yo'llaridagi ustozi edi. Bolaligidan oiladagi muhit sabab adabiyotga muhabbat qo'ydi. "Mening qizil gulim" asarining so'z boshisida yozilishicha, adib 4-5 yoshlaridayoq maktab kutubxonachisi Ismatovadan "goh yolvorib, goh yig'lab" yangi kitobni olardi-da, boshqa tengqurlari singari o'yin bilan emas, hali o'qishni bilmagani bois kitob suratlarini tomosha qilib vaqt o'tkazardi. O'zbek va jahon adabiyoti namunalarini zo'r ishtiyoq bilan o'qidi. Professor O.Safarovning yozishicha, uni "ilk bor hayratga solgan, maftun etgan, qoyil qoldirgan kitob Daniel Defoning "Robinzon Kruzo" asari" edi⁶⁷. Bu asarni bo'lajak adib qiziqish bilan qayta-qayta mutolaa qilgan. "Inson irodasi, bardoshiga qoyil qolaman. Va imon keltiramanki, yozuvchi irodasi undan ham yuqori bo'lmog'i lozim. Zero, cheksiz so'z saltanatida yozuvchi Robinzon Kruzo singari yolg'izdir. Robinzon aql idroki, irodasi bilan oxir oqibat yolg'izlikdan qutuladi. Lekin yozuvchi so'z saltanatida bir umr yolg'iz, bir umr so'z uchun yakkama-yakka kurashadi" – deb adibning o'zi e'tirof etadi. Bu aslida adibning nafaqat kitob mutolasidan, balki so'z mashaqqatlaridan chiqargan xulosasi edi.

Jo'ra Fozil O'rta maktabda o'qib yurganida gazetaga kichik xabarlar yoza boshladi. Matbuotda bosilgan dastlabki xabari "Yosh voleybolchilar"dir. Shundan so'ng unga turli mavzularda xabarlar yozishni taklif qila boshladilar. U qarovsizlikka tashlab qo'yilgan kolxoz klubi haqida maqola yozdi va uni "Mushtum" jurnaliga jo'natdi. Maqola jurnalda bosildi. Biroq kutilmagan tashvishlarni boshdan kechirdi. Muaallif bu haqida ilk kitobi, ya'ni "Muhabbatning bayramlari" so'zboshisida yozib qoldirgan. Ya'ni bu davrda Romitanda Jo'ra Fozilov nomida ijod qiluvchi ikki ijodkor bo'lgan. Jo'ra Fozil yozgan tanqidiy maqolalar uchun ijodkorning adashi "baloga qolgan". Shunga qaramay, u gazetachilikka kirishib ketdi. Bu orada harbiy xizmatga chaqirishdi. 1968-1970 yillarda dastlab Boyqo'ng'irda, keyin Uzoq Sharqning Amur viloyatida askarlik burchini o'tadi. Bu yillar adib asarlarida o'z ifodasini topdi. Harbiy xizmat uning uchun ham jismoniy, ham ma'naviy chiniqish maktabi bo'ldi. Xizmatni tugatgach, yana tuman gazetasida musahhihlik qildi, bir muddat adabiy xodim bo'lib ishladi. So'ng u Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU) jurnalistika fakultetiga o'qishga kirdi. 1976-yilda mazkur universitetni muvaffaqiyatli

⁶⁷Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. Бухоро: "Дурдона", 2015. Б.526.

tamomladi va jonajon gazetasiga ishga qaytdi. U mazkur gazetada adabiy xodimlikdan bosh muharrirlikkacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Gazeta unga hayotni o'rganish va tadqiq etish maktabi bo'ldi, xalq turmushini obdon o'rgandi, sho'ro zamonidagi soxtagarchiliklar, rejalar ijrosidagi qo'shib yozishlar sabablarini tahlil qildi.

Shundan boshlab, bo'lajak adib o'z hayotini jurnalistika bilan chambarchas bog'ladi. U turli yillarda turli lavozimlarda faoliyat ko'rsatdi. 1972-1982-yillarda Romitan tuman gazetasi adabiy xodimi, mas'ul kotibi, muharrir o'rinbosari, 1982-1983-yillarda Gazli ijroiya qo'mitasi bo'lim mudiri, 1983-1984-yillarda Romitan tumani partiya qo'mitasi bo'lim mudiri, 1984-1989-yillarda Romitan tuman gazetasi muharriri, 1991-1999-yillarda Romitan tuman Kengashi 2-kotibi, 1991-2000- yillarda "Mulkdor" gazetasining Buxoro viloyati muxbiri lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. 2000-yildan Romitan tuman "Romitannoma" gazetasi muharriri sifatida ishladi. Hozirda nafaqada.

Jo'ra Fozil ijtimoiy faoliyatni badiiy ijod bilan uyg'unlikda olib bordi. U hayotiy kuzatishlarini faqat gazetadagi maqola yoki reportajlar bilan ifodalab bo'lmasligini ich-ichidan his qilardi. Shu bois ijodkor dastlab hikoyachilikka qo'l urdi. 1991-yilda dastlabki hikoyalar to'plami "Muhabbatning bayramlari" nomi ostida besh ming nusxada nashr etildi va kitob tezda qo'lma-qo'l bo'lib ketdi. 1992- yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi bo'ldi. Shundan so'ng adibning bir qancha kitoblari birin-ketin nashr etila boshlandi: "Barqut mavsum", "Buxoroyi sharif elchisi", "Baxt yulduzi", "Mening qizil gulim", "Bolalikning yolg'iz yodgori", "Buxoriyning qaytib kelishi", "Ayriliq ostonasi", "Tiyramoh armonlari", "G'oziyon zindoni", "Yo'lbarsdaraning so'nggi sultoni", "Oshiq Buxoriy qissalari", "Xongulning sarguzashtlari" kabi hikoya, qissa va romanlardan iborat kitoblari bunga misol bo'la oladi. Adib ijod yo'lida o'z mahoratini charxlash maqsadida A.Chexov, M.Gorkiy, A.Qahhor, S.Ahmad, Ch.Aytmatov, O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh.Xolmirzayev asarlarini qizg'in mutolaa qilishga kirishdi. Shunda tarjima vositasida mahorat sirlarini o'zlashtirishga ayrica e'tibor ko'rsatdi. Shu niyatda K.Paustovskiy, V.Astafyevlarning bir qancha hikoya, qissa va romanlarini o'zbek tiliga o'girdi. Jumladan, K.Paustovskiyning yigirmadan ziyod hikoyasi va "Xayolparastlar" romanini, A.Astafyevning "Yulduzlar uchganda", "Sashka Lebedev" qissalari, "G'amgin sarguzasht" romanini o'zbek tiliga o'girdi, ularning

san'atkorlik sirlaridan xabardor bo'ldi va ijodiy mahoratini takomillashtira bordi. Bulardan ayrimlari matbuot yuzini ko'rdi va kitobxonlar, adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. Mazkur tarjimalar yozuvchining ijod pillapoyalaridan yuqoriga ko'tarilishida o'ziga xos turtki bo'ldi.

Jo'ra Fozilning "Do'stga zor bo'lgan kuning" hikoyasi asosida qozog'istonlik kino ijodkorlar tomonidan kinofilm suratga olingan. Uning asarlari jahon xalqlarining 15 dan ortiq tiliga tarjima qilingan. Jo'ra Fozil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 28 yilligi" oldidan "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlandi. 2021- yilda "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Ikkinchi Jahon urushidagi g'alabaning 75 yilligi munosabati bilan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi, O'zbekiston Respublikasi davlat xavfsizligi hamkorligida "G'alaba 75" tanlovi e'lon qilingan edi. Ushbu tanlovda yozuvchi Jo'ra Fozil o'zining "Urush hikoyalari" turkumi bilan ishtirok etdi. Turkumning "Urushning so'nggi ertagi" hikoyasi "Eng yaxshi nasriy asar" nominatsiyasida g'olib deb topilib, I o'rinni egalladi. Yaqinda Turkiya poytaxti Anqara shahrida chop etiladigan "Qardosh qalamlar" adabiy-badiiy-ijtimoiy jurnalda sevimli adibimiz yozuvchi, jurnalist va tarjimon Jo'ra Fozilning "Otbozor hibsonasi" hikoyasi turk tilida e'lon qilindi. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan e'lon qilingan "Qatag'on qurbonlarini yod etish" tanlovida "Ochiq eshiklar" hikoyasi rag'batlantiruvchi mukofotga loyiq deb topildi. Ushbu hikoya o'tgan asrning 1935-1937 yillarda sobiq sho'ro tuzumi tomonidan o'tkazilgan mislsiz qatag'on voqealariga bag'ishlangan. "Qardosh qalamlar" jurnali dunyoning turkologiya kafedralari mavjud bo'lgan 32 ta Universiteti kutubxonalariga yuboriladi. Jurnalning O'zbekistonda ham obunachilari bor. Bundan tashqari ijodkorning hikoyalari yurtimiz gazeta, jurnallarida ham mumtazam ravishda e'lon qilib kelinmoqda. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Nasr kengashining 2019-yil yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishida adibning "Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilingan "Uyqudagi dunyo" hikoyasi "Yilning eng yaxshi hikoya"laridan biri sifatida e'tirofgan sazovor bo'ldi.

Jo'ra Fozilning 150 dan ortiq hikoya, 6 ta qissa, 3 ta roman, 300 dan ortiq ocherk, esse va publitsistik maqolalar muallifi ekanligi ham adabiyotimizga naqadar salmoqli hissa qo'shganligidan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarida Jo'ra Fozil nasrining turli qirralari tadqiqiga doir bir qator maqolalar e'lon qilingan. Xususan, buxorolik yetuk olim Oxunjon Safarov "Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar" nomli maqola va risolalardan iborat kitobida Jo'ra Fozil ijodiga ham to'xtalib o'tadilar. "Tarix va talqin" nomi ostidagi kattagina bir maqolada ijodkorning hikoya, qissa va romanlaridagi obrazlar olami, asar kompozitsiyasi, badiiyati va asarlardagi ba'zi bir kamchiliklar tahlilga tortiladi. Shuningdek, ijodkor mahoratining shakllanish omillari asoslanib, adibning tarjimonlik faoliyatiga to'xtalangan. "Muhabbatning bayramlari" hikoyalari to'plami haqida muhim va asosli tahlillar keltirilgan. Tahlillar va xulosalar, asosan, ijodkor hayot yo'li bilan qiyoslangan tarzda olib borilgan va biografik metoddan samarali foydalanilgan. Buxoro davlat universiteti professori G'ayrat Murodov bir necha maqolalarida, xususan, "Yoshlik" jurnalining 2020-yil 4-sonida chop etilgan "Yo'lovchi tasviri" nomli maqolalarida Jo'ra Fozilning "Tiramoh armonlari" romani tarkibidagi yo'lovchi obrazini tahlilga tortgan.

Bundan tashqari tarix fanlari doktori, professor Qahramon Rajabov "Sharq yulduzi" jurnalining 2022-yil 12-sonida nashr etilgan "Tarixni adabiyotga muhrlayotgan adib" nomli maqolasida Jo'ra Fozilning tarixiy asarlari, xususan, "Ayriliq ostonasi" romanida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligi haqida qarashlarini aks ettiradi. Shuningdek, 2022-yilda himoya qilingan F.Abdullayevaning magistrlik dissertatsiyasi va 2024-yilda G'.Murodov hamda S.Latipova hammuallifligida chop etilgan monografiyalar adib ijodiga bag'ishlangan ahamiyatli tadqiqotlardir.

Adibning ilk kitobi, asosan, bolalik xotiralari bilan yo'g'rilgan hikoyalardan tashkil topgan. Kitobda "Bolalik ko'chalarida", "Labihovuz", "Ashula darsi", "Qalam", "Jazo" singari turli mavzu va hajmdagi hikoyalar o'rin olgan. Hikoyalar hayotiy mazmuni, ixchamligi bilan ajralib turadi. 1993-yilda adib "Boyqo'ng'ir hikoyalari" turkumini nashr ettirdi. Bu turkum adibning harbiy xizmat davrigi taassurotlari asosida yaratilgan. Shu sababli ular real hayotiy voqelikning xotirada tiklangan badiiy manzaralari sifatida taassurot uyg'otadi.

Hikoyachilikdagi tajriba va intilishlar adibni qissa yozish sari qanotlantirdi. “Barqut mavsum” shu yo‘ldagi ijodiy izlanishlar samarasi sifatida bunyodga keldi. Unda tasvirlangan voqelik sobiq sho‘ro tuzumi, yaqin tariximizga aloqador. Qissada o‘tgan asrning 70-80-yillarida tanazzulga yuz tuta boshlagan sho‘ro tuzumi sharoitida tabiatga va insonga zug‘um qilishning fojealari qalamga olingan. Qissa bir-biriga tutashib ketgan Qizqal’a, Tiksovut va Yo‘lbarsdara singari to‘qayzorlarni bag‘riga olgan sahro, undagi nabotot va hayvonot olami tasviridan boshlanadi. Adib sahro tabiati sir-u asrorini teran kuzatgani va obdon bilganidan uning manzarasini jonli va ta’sirli chiza olgan. Shu sababli nomi tabiatning “Qizil kitob”iga kiritilgan Buxoro bug‘ularining barqut mavsumidagi erkaliklari, Sardor bo‘lish niyatidagi olishuvlari, nihoyat bu olishuvda g‘olibning sardor sifatida urg‘ochilar haramini boshqarishi, bug‘ular olamida bu holatning qonuniyligi, urchishlari, durkun bolalari bilan o‘ynab sahroda ko‘zni quvontiradigan go‘zallik bag‘ishlashlari, binobarin, ularni muhofaza qilishda Karim akaning voqelikka aralashuvi bilan yuqorida eslatilgan syujetdagi ikki oqim o‘zaro tutashib ketadi.

Qissa personajlari tabiatga va odamlarga munosabatlariga ko‘ra, bir biriga raqib ikki tarafga bo‘linadi, qissa syujetini harakatga keltiruvchi konflikt shu negizda qurilgan. Birinchi tarafda tabiatni va inson qalbini muhofaza qilish tarafdorlari sifatida Karim aka, Gulnihol, Anvar, Nusrat tog‘a, Nurmat Ochil, Mahbuba, Orif Odilovlar harakat qilishsa, ikkinchi tarafdagilarning nomlarini adib umumlashtiradi. Bu safda viloyat rahbari, uning ijrochilari, tuman gazetasi muharriri, suyuqoyoq magazinchi va nafs bandalari bo‘lgan ovchilar harakat qilishadi. Ular garchi ayrim epizodlardagina ko‘rinishsa-da, qissa syujetining izchil bo‘lishida ijobiy personajlar tabiatini yorqinlashtirishga xizmat qiladi. Chunonchi, asardagi markaziy qahramonlardan sanaluvchi to‘qay begi Karim aka foje’ qismatini bevafo xotin va uni yo‘ldan urgan semiz magazinchi hamda xongullarga qiron solayotgan vahshiy ovchilarsiz; Gulnihol taqdiridagi foje’likni o‘zini xon, ko‘lankasini maydon sanagan viloyat boshlig‘isiz va nihoyat yosh yozuvchi Anvar qismati fojiasini yetimliksiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Jo‘ra Fozil Buxoro tarixining kuychisi. U ona yurt tarixini jon-u dilidan sevadi. “Aslida Buxoroni, uning ming yilliklar bilan bo‘ylashadigan tarixini ustoz Ayniy asarlarini o‘qib, unga qiziqib qolganman, – deb yozadi adib. Nazarimcha, Buxoro tarixi haqida

yozganlar ko‘p, lekin hech biri ustozchalik uni butun foje’ nuqtalari bilan g‘oyat bir keng miqyosda samimiy va tanti ifodalamagan”⁶⁸. Haqiqatan, Buxoroning badiiy tarixini yaratish yo‘lida ustoz Ayniy nasrda, Fitrat dramaturgiyada boshlab bergan an’anani Oybek, Jalol Ikromiy, Uyg‘un, Komil Yashin, Maqsud Qoriyev, Omon Muxtor singari adiblar davom ettirdilar. J.Fozil ham ana shu ulug‘ salaflariga ergashib tarixiy mavzudagi hikoyalar yozdi. “Yangi oy chiqqan kecha”, “Toshga tomgan ko‘z yoshi”, “So‘nggi Somoniyning o‘limi” singarilar shular jumlasidandir. Nihoyat, adib tarixiy mavzuga qilingan ana shu ekskursiyalardan so‘ng “Buxoroyi sharif elchisi” tarixiy qissasini yozishga jur‘at etdi. Dastlab “Buxoro elchisi” deb nomlangan mazkur qissa 1994-yilda yozilgan. Qissa o‘zbek diplomatiyasi tarixiga bag‘ishlangan. Unda 18-asrda Buxoro va Rossiya o‘rtasida diplomatik munosabatlarning qaror topish tarixi hikoya qilingan. Binobarin, u real tarixiy voqelik asosida yozilganligi tufayli aksar qahramonlari ham real tarixiy shaxslardir. Muallif ana shu tarixiy haqiqatning real badiiy manzarasini yaratish maqsadida Rossiyaning o‘sha davrda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan munosabatlari tarixini, tarixiy hujjatlarni puxta o‘rganishga harakat qilgan. Buxoro amirlari Subhonqulixon, Ubaydulloxon, Abulfayzxon, Muhammad Rahimxon, Fozil to‘ra, Doniyorbiy, Xiva xonlari: Shohniyozi, Sherg‘ozixon, Rusiya imperatori Pyotr 1, Yelizaveta Petrovna hazrati oliyalari, Yekaterina II, Buxoro elchilari Xolquli to‘pboshi (Pyotr Rodikov), Ernazar elchi (Ernazar Maqsud), Turkiya sultonlari va boshqa real tarixiy shaxslar obrazlarini yaratgan.

Yozuvchi tarixiy qissachilik yo‘nalishidagi izlanishlarini davom ettirib, “Buxoriyning qaytib kelishi” turkumini yaratdi. Bu turkum Buxoroning 2500 yilligiga tuhfa sifatida yozilgan. Unda “Buxoro malikasi”, “Ibtido va intiho”, “Qizil quyun” nomli uchta qissa mavjud. “Buxoro malikasi” VII asrning so‘nggi choragida Buxoroda saltanatdorlik qilgan ayol, Buxorxudotning malikasi Qaboj xotunning arab bosqinchilariga qarshi kurashda, molparast va ishratboz arab sarkardalari bilan har qanday shart-sharoitlarda sulh-u amniyat shartlarini tuzib, Buxoroni ular tajovuzidan omon saqlashda ko‘rsatgan jasoratiga bag‘ishlangan. Aytish mumkinki, o‘zbek dostonchiligida bu mavzuda Jamol Kamolning “Varaxsha” dostoni yaratilgan. Asar uchun

⁶⁸Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. Бухоро: “Дурдона”, 2015. Б.559.

Buxorxudot o'limidan keyin arab fотиhi Qutaybaning Varaxshaga bostirib kelishi va Buxorxudotning bevasi, jasoratli va sadoqatli ayol Turkon xotunga og'iz solishi hamda shu hiyla yo'li bilan Buxoroni qo'lga kiritishga intilishi singari uzoq o'tmishda kechgan tarixiy voqealar asos qilib olingan. Ayni paytda shoir o'z obrazlarining ruhiy holatini, qalb kechinmalarini, insoniy tuyg'ularini aks ettirishga ham e'tibor qaratgan. Dostonda Turkon xotun, To'qson chilangar, Ernafas, Qutayba obrazlari yaratilgan. Shundan Turkon xotun, arab fотиhi Qutayba tarixiy shaxslar bo'lsa, To'qson chilangar va Ernafas xalq vakili timsolida gavdalanadi. Dostonda Turkon xotun sadoqatli yor, chinakam vatanparvar qiyofasida namoyon bo'ladi. Bu asardagi Qutayba qo'shinining Buxoroga bostirib kelishi lavhalarida yorqin aks etgan.

“Ibtido va intiho” Somoniylar sulolasining inqiroziga bag'ishlangan. “Qizil qyun” qissasi esa Amr Olimxonning ishratparastlikka berilib, davlat ishlari ijrosida g'aflatda qolishi, bolsheviklarning Buxoroni egallashlari, shaharning talanishi voqealari tasvirlangan.

Qissa janridagi bunday muvaffaqiyatli qadamlar Jo'ra Fozil qalamini yanada charxladi. “Buxoro adabiy muhitida XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o'zining o'tmishdagi buxorolik mashhur salafлари Sadriddin Ayniy, Jalol Ikromiy, Ne'mat Aminov, Omon Muxordan so'ng roman yozgan beshinchi romannavisga aylandi.”⁶⁹

Buning samarasi sifatida 1998-2004-yillar oraliq'ida yozilgan “Ayriliq ostonasi” nomli tarixiy romani bunyodga keldi. Ushbu roman hajman ixcham bo'lsa-da, o'zida zalvorli bir yukni tashiydi. Romanda milloddan avvalgi III-II asrlarda turkiy xalqlar tuzgan Ulug' Xuni saltanati, ushbu saltanatning asoschisi O'g'uzxon xoqon haqida puxta fikr yuritiladi. Mode Xoqon nomi bilan mashhur bo'lgan O'g'uzxon milloddan avvalgi 210-17- yillarda xoqonlik qilgan bo'lib, u ulug' Xuni xoqonligiga asos solgan mashhur sarkarda va davlat arbobi hisoblanadi.

“Tiyraromoh armonlari” esa adibning zamonaviy romanchilikdagi ijodiy izlanishlari mahsuli sifatida ahamiyatli. Roman mutoalasiga kirishar ekanmiz, ushbu roman avtobiografik xarakterga ega deb bemalol ayta olamiz.

Bundan tashqari adib 2020-2022-yillar orasida yangi uslubda ijod etdi. “Kichik va eng kichik hikoyalar” rukni ostida “Kuzdek parishon bahor” nomli ijod mahsulini e'lon qildi. Ijodkor bu asarini “zamonaviy

⁶⁹Rajabov Q. Tarixni adabiyotga muhrlayotgan adib. Toshkent: “Sharq yulduzi”, 2022. 12-son.B.158.

o‘zbekona roman deb atadi. Adibning bu ijodi uning hayot, jamiyat, dunyoning bugungi manzarasi, insonlarning bir-biriga munosabati kabi ko‘plab masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”, Asqad Muxtorning “Tundaliklar”, No‘mon Rahimjonning “Dil bitiklar” kabi asarlariga o‘xshab ketadi. Unda ijodkorning qisqa va lo‘nda ifoda etilgan xulosalari aks etgan. Masalan, adib “Yozuvchi va zamona” xususidagi fikrlarini quyidagicha yoritadi: “Shoir, yozuvchi, umuman, ijodkorlar haqida juda ko‘p yozilgan, yozilayapti. Ularning hammasi o‘z yo‘liga. Hech nimani inkor etmagan holda shuni aytmoqchimanki, yozuvchi hamma qatori yashay olmaydi. Bu ham yetmaganidek hamma qatori o‘la ham bilmaydi. Unga doim nimadir yetmaydi yoki ortiqchalik qiladi. ko‘pchilik buyuk ijodkorlar hayoti fojeligini shunda bo‘lsa kerak.” Haqiqatdan ham, ijodkorlar hamma qatori yashay olishmaydi, ularni ijodkor bo‘lishiga sabab ham shu – befarq bo‘lolmasligi, isyonkor ko‘nglidir. Jo‘ra Fozil fikrlarini davom ettirar ekan, haqiqiy asar – qalb isyonlaridan kelib chiqadigan asardir deya xulosa qiladi: “Isyonkor ko‘ngil”: “Yozuvchi bo‘lib yetishishning eng muhim shartlaridan biri isyonkor ko‘ngildir. Barcha nohaqliklarga chidab, ko‘nikib jimgina yuraveradigan kishidan haqiqiy ijodkor chiqmaydi. Chunki badiiy asar yolg‘onchi dunyo jabr-sitamlariga qarshi isyon sanaladi.”

Adib ijodining mavzular olami. Jo‘ra Fozil nasrini kuzatar ekanmiz, adibning mavzu tanlashi bugungi kun o‘quvchisining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda hayotiy materiallarni tanlashini ko‘rishimiz mumkin. Adib ijodida abadiy mavzularda ham, davriy mavzularda ham ijod etilganligini ko‘ramiz. Xususan, uning “Tiramoh armonlari” romanida sevgi muhabbat, do‘stlik, inson ma‘naviyati kabi masalalar bugungi kun nuqtai nazaridan qalamga olinadi.

Adib hikoyalarini kuzatar ekanmiz, ularning rang-barangligi va serqirraligini ko‘rishimiz mumkin. Umumiy holatda Jo‘ra Fozil hikoyalarining mavzular olaminini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Tabiat mavzusidagi hikoyalar.
2. Sevgi muhabbat mavzusidagi hikoyalar.
3. Ona mehri tasvirlangan hikoyalar.
4. Oilaviy munosabatlarga bag‘ishlangan hikoyalar.
5. Urush mavzusiga doir .
6. Inson ma‘naviyati, xususan, kitobxonlikka bag‘ishlangan hikoyalar.

7. Tarixiy mavzudagi hikoyalar.

8. Insonlardagi turli illatlar (xiyonat, yolg'onchilik, ikkiyuzlamachilik) qoralangan hikoyalar.

Ma'naviy qadriyatlar, axloq, tarbiya masalalari o'tmish davrlardan bugunga qadar hamisha muhim muammolar sifatida talqin etib kelinadi. Insoniy munosabatlarning murakkab qirralari talqin etilgan asarlarda xarakterlar va ularning ruhiyati talqiniga alohida diqqat qaratiladi. Bu borada o'zbek adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri Jo'ra Fozil ijodi e'tiborni tortadi.

Ijodkorning tarixiy va zamonaviy mavzuda yaratilgan roman, qissa va hikoyalarida o'ziga xos ma'naviy olam va ruhiyatga, murakkab taqdirga ega bo'lgan inson talqin etiladi.

Insoniyat paydo bo'libdiki, tinch va osoyishta yurtda o'z yaqinlari yor-u do'stlari bilan farovon va baxtli umr kechirishni istaydi. Tinchlik bo'lmagan yurtning ayanchli hayoti xususida yuksak aql va tengsiz qalb sohibi bo'lgan ijodkorlar necha asrlardan buyon o'z asarlarini yozib, urushdan katta manfaat ko'radigan siyosatchilar qalbini uyg'otishga harakat qilib kelmoqdalar.

Ernest Xeminguey "Alvido,qurol!" romani so'z boshisida "urushlarni boshlaganlar, uning oloviga yana olov qo'yib turganlar iqtisodiy raqobatdan, foyda undirishdan boshqa narsani o'ylamaydigan to'ng'izlardir. Men urushda boylik orttirganlar, urush olovini yoqqanlar urushning birinchi kunlaridayoq mamlakat fuqarolarining muxtor vakillari tomonidan otib tashlanishlari kerak, deb hisoblayman",- deganida naqadar haq edi.

Jo'ra Fozil ijodini kuzatar ekanmiz, Xeminguey tabiri bilan aytganda badiiy adabiyotning mangu mavzulari – inson, muhabbat, mehnat, urush, o'limga – qayta- qayta murojaat qilinganiga guvoh bo'lamiz. Iste'dodli adibning "Nastarin ifori", "Urushning so'nggi ertagi", "O'zga bog'ning olmasi" va "G'oziyon zindoni" hikoyalari ham Xeminguey e'tirof etgan urush va urushning ayanchli oqibatlari xususidadir.

"G'oziyon zindoni" hikoyasida Rossiya hukumati tomonidan mustamlakaga aylantirilgan yurtimiz aholisining nochor hayoti, paxta siyosati, hattoki birgina buyum (arava g'ildiragi)ning inson hayoti qadr-qimmatidan ustun qo'yilganligi g'oyat jonli ochib berilgan. "1937- yil qavs oyi o'rtalari. Qor aralash yomg'ir yog'ar, huvillagan bog'larni makon tutgan qora zog'lar ho'l qanotlarini og'ir silkitib, shoxdan-

shoxga uchib o'tishar, poyonsiz dalalar chetidagi yalang'och tut daraxtlari bor-budidan mosuvo odamlardek nochor mung'aygan..." Asarning boshlanmasidagi tabiat tasviriyoq qahramonlar ruhiyatidan dalolat beradi. Ijodkor ushbu tasvirlar orqali o'quvchini bir fojia yuz berishiga tayyorlab boradi. Asar voqealari markazida o'zbeklar boshiga ofat olib kelgan "paxta siyosati" turadi. Qavs oyi kirib dalalardagi g'o'zapoyalar sovuq zabtidan muzlab qolgan bo'lsada, "ulug' dohiy" nomiga munosib bo'lish va amal kursisidan tushmaslik uchun "Stalin" nomli kolxoz raisi "qora otida qishloqma- qishloq kezib, xotin- xalaj bormi bola- chaqa bormi, hammani qor bosgan dalaga haydagandi". Ular orasida ikki oylik chaqalog'ini qaynonasi Rahima xolaga qoldirib chiqqan o'n to'qqiz yoshli Manzura ham bor edi. Hikoyada Rossiya hukumati tomonidan xomashyo bazasiga aylantirilgan yurtimiz aholisining ayanchli qismati Azim va Manzura obrazi orqali ochib beriladi. Paxtani punktga olib borishda kechikkan Azimjon raisning haqorati va kaltagiga chidolmay uni tepib yuboradi. Qalbida vatandoshlik, rahm - shafqat tuyg'usi umuman bo'lmagan rais Azimni arava xildiragini sindirgani va raisga qo'l ko'targani uchun "zararkunanda" va "xalq dushmani" sifatida qamatib yuboradi. Azim qamalgan G'oziyon zindoni esa 1776-yilda Buxoroda bunyod etilgan 28 hujrali G'oziyon madrasasi edi. Sovet hukumati yuritayotgan siyosatda esa madrasadan ko'ra ko'proq qamoqxonalar zarur edi. Shu boisdan tabarruk ilm dargohlari azob-u uqubatlar maskaniga aylantiriladi. Varvara Gromovaning Azim bilan olib borgan tergov jarayoni O'tkir Hoshimovning "O'zbek ishi" hikoyasini eslatadi. Hikoyada Jumanov o'ziga qilingan tuhmatni bo'yniga olmagani uchun Vasiliy Stepanovich unga quyidagicha tahdid qiladi: "- Bir zum sukut saqladi-da, Ambartsumyan o'rgatgan eng oxirgi, eng qat'iy zarbani urdi. - Eshitib qo'y, -dedi istehzoli kulib. -Ertaga, yo'q, bugun senga g'alati tomosha ko'rsataman! Kampir-xotiningni retsidevistlar o'tirgan kameraga tiqaman. Bir yo'la uchtasi baravar zo'rlaydi! Sen tuynukdan tomosha qilasan!". Bunday tahqir-u azoblarga chiday olmaga Jumanov xona derazasidan uzini tashlab fojiali halok bo'ladi. Bu erksizlik, adolatsizlikning fojeali ko'rinishi bo'libgina qolmay o'zbek erkaklariga xos bo'lgan milliy xarakter va or- nomusning yorqin ko'rinishidir. Zero, hikoyada Vasiliy Stepanovichning rafiqasi boshqa bir erkakni sevib qolgani va undan xomilador bo'lib qolgani, lekin u erkak bunga loyiq emasligini anglab yetib bolani oldirmoqchiligini, bunday keyin bunaqa

ish qilmasligi eriga aytadi va ular hech narsa bo‘lmagandek yashashda davom etishi voqeasi bekorga kiritilmagan. Ijodkorning yuksak mahorati ham shunda. Ikkila millat ruhini taqqoslashni o‘quvchiga qoldiradi. Bunday hikoyalar o‘z-o‘zidan tug‘ilmaydi. Bu voqealar o‘sha davr realizmining og‘riqli nuqtalaridir. Jo‘ra Fozil qahramoni Azim ham uch kecha-yu uch kunduz davom etgan tergovdan so‘ng, G‘oziyonning muz bosgan xonalarida sovuq suv “muolaja”sidan so‘ng bir hafta isitmalab yotib, “qahraton tonglarning birida Ergash bobo qo‘lida jon berdi”. Hikoyadagi rais hatti - xarakatlarini milliy fojea deyishimiz mumkin. Sovet gumashtalariga yaxshi ko‘rinish uchun o‘z millatini sotgan rahbarlar o‘sha davrning eng katta dushmanidir. Ijodkor ushbu hikoyasida sovet siyosatining bor kirdikorlarini, shaxsiy manfaati uchun millatidan, xalqidan osongina kechib yuborgan millatfurushlarni qiyofasini ro‘y-rost ochib beradi.

Jo‘ra Fozil hikoyalari mavzulari ijodkor hayotda ko‘rgan yoki bevosita ishtirok etgan hayot voqeligi asosida yuzaga kelgan. Biz aksariyat adib hikoyalarida qahramon sifatida ijodkorning o‘zini ko‘rishimiz mumkin. Bu holat hikoya mavzusining ishonchli haqqoniy chiqishini ta‘minlagan. Ijodkor hayot materialini mavzu qilib hikoyaga kiritar ekan ayrim hollarda voqea ishtirokchisi bo‘lgan, o‘zi bilgan, tanigan qahramonlarni hikoyaga tashqi qiyofasi, hatto manzili va ismini ham o‘zgartirmagan holda olib kiradi. Mavzu doirasidan kelib chiqib, uning ichki dunyosini xarakter xususiyatlarini yoritib beradi.

Adibning “Oq olma” hikoyasida o‘z akasi va yangasi tomonidan xo‘rlangan, azoblangan Sayyora ismli yetim qizning ayanchli qismati qalamga olingan. Hikoya sarlavhasi va qishloqqa yangi agronomning kelishidan boshda hikoya olma yetishtirish haqida bo‘lsa kerak degan tasavvur uyg‘onadi. Ammo hikoyani o‘qish jarayonida sarlavha ham ramziy, hikoya butunlay boshqa masalaga bag‘ishlanganligiga guvoh bo‘lamiz.

Nosir oq olma deganda Sayyorani nazarda tutadi. Odatda bo‘yga yetgan, orzulariga ulashib, baxtiga erishgan qizlarga nisbatan “qizil olma” birikmasi ishlatiladi. Sayyoraga nisbatan “oq olma” birikmasining ishlatilishi ham bejizga emas. Sho‘rlik qiz yoshligida ota-onasidan ajralib, akasi va yangasi qo‘lida qoladi. Hali juda yosh bo‘lishiga qaraman butun uy yumushlari uning qo‘lida, u hech narsadan nolimay, tinmay mehnat qilar edi. U har qancha mehnat qilmasin yangasining ta‘sirida akasi tomonidan kunora do‘pposlanar edi. Uning bu kabi og‘ir

yashash tarzidan faqat qo'shni xonadon xabardor, chunki kechalari akasining zulmidan qochib bu hovlida uzoq yig'lar, ulardan yordam so'rardi. Bu zulmlardan qochib tog'alarining yoniga Zarqishloqqa qochib ketmoqchi bo'lganida esa vahshiylar qo'lida zo'rlanadi va Zarafshon daryosiga o'zini tashlab halok bo'ladi. Sayyoraning "oq olma" qa qiyoslanishi uning yoshligi, azobli hayoti, "qizarish"ga ulgurmay nobut bo'lishiga ishora. Bundan tashqari oq sifati orqali uning beg'uborligi va aybsizligiga urg'u beriladi. Chunki o'z joniga qasd qilgan Sayyora haqida turli gap-so'zlar bo'lsa-da, u zo'rlikka, nomusga chiday olmay o'zini daryo bag'riga yashirdi. Ham o'z yaqinlari akasi va yangasi, ham bezorilar uning yashashga bo'lgan umidini, orzularini o'ldirgan edilar. Shu sabab u beg'ubor, etilib pishishga ulgurmagan, shu holatda payhon etilgan oq olmaga qiyoslangan.

Sayyoraning akasi – qishloq agronomi esa o'z xonadoni – o'z bog'idagi oq olmani parvarishlay, asray olmagan, aksincha uning fojeasiga sabab bo'lgan razil kimsa. Shu sabab adib uni qishloq o'simliklarini parvarishlashga nomunosib deb biladi. Hikoya boshidan unga nisbatan qahramonlar tilidan o'z munosabatini bildirib boradi. U ichkilikka berilganligi, qop-qora motosiklda yurishi, o'zini tutishi butun qishloq ahlining hafsalasini pir qilgan edi. Hikoyachi yigitning otasi bu agronom nomiga nomunosib ekanligi va buni firqa qo'mitasi vakillariga ham aytishini aytadi. Ko'rinadiki, hikoya qahramonining kasbi, harakatlari, xarakteri o'rtasidagi ziddiyatni adib o'ziga xos tarzda yoritishga intilgan.

Jo'ra Fozilning "Ayriliq ostonasi" tarixiy romanida turkiy qavmlar tarixida mashhur bo'lgan O'g'uzxon tarixini ko'rishimiz mumkin. Nosir romanni yozishda O'g'uzxon obrazi bilan bog'liq ilk manbalarga tayanadi. Avvalo xalq og'zaki dostoni bo'lmish "O'g'uznoma" dostonini sinchiklab o'rganganligiga guvoh bo'lamiz. Ammo ijodkor bu syujetni tayyor holda o'z asariga olib kirmaydi. "Ayriliq ostonasi" romanida Jo'ra Fozilning ulug' hukmdorlarga bo'lgan cheksiz hurmatini, ularni tushunishga bo'lgan intilishni, vatanga bo'lgan cheksiz muhabbatini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, ijodkor O'g'uzxon obrazini, uning o'g'illari va yurishlari bilan bog'liq voqealarni jonlantirishda, "O'g'uzxondan qolgan mulk", Bichurinning "Qadimgi davrda O'rta Osiyoda yashagan xalqlar haqida ma'lumotlar to'plami" nomli uch qismdan iborat asariga tayanganligini ko'ramiz. Chunki ushbu asarlarda O'g'uzxon Ko'ktangriga sig'inuvchi shomon sifatida gavdalanadi.

Shunga ko'ra Jo'ra Fozil asarida ham O'g'uzxonning mumsulmon bo'lganligiga doir qarashni uchratmaymiz.

Roman muqaddima bilan boshlanib, unda to'qqiz yashar turk o'g'loni Imloqqa enagasi aytib bergan ertak keltiriladi, aslida bu O'g'uzxon haqidagi ertak bo'lib, asar syujeti to'qimasida ekspozisiya vazifasini bajargan. Shundan so'ng romandagi voqealar tasviriga o'tiladi. Voqealar oqimi esa O'g'uzxon taqdirining uch bosqichi sifatida romanda uch qismga bo'lingan holatdagi tarixiy jarayon ifodalangan.

Xulosa qilib aytganda, Jo'ra Fozil ushbu romanni yaratar ekan, tarixiy manbalar bilan tanishib, ularni o'zaro solishtiradi. O'g'uzxon obrazining jonli va ulug' xonga muvofiq qiyofasini yaratish uchun turli badiiy to'qima obrazlar va voqealardan mohirona foydalanadi. Adibning tarixiy voqelikni badiiy haqiqatga aylantirishdagi mahorati tufayli asar bugungi kun kitobxonini davr muhiti, qahramonlar qiyofasi bilan yaqqol tanishtira oladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Jo'ra Fozil hayotiga doir muhim sanalarga to'xtaling.
2. Nosir ijodining mavzular olami haqida so'zlang.
3. Adib asarlari va ularning janrlari haqida ma'lumot bering.
4. Nosir hikoyalarida qanday mavzular yetakchilik qiladi?
5. Avtobiografik asar qanday asar?
6. Jo'ra Fozilning avtobiografik asarlari qaysilar?
7. Jo'ra Fozil qissalari haqida ma'lumot bering.
8. "Yo'lbarsdaraning so'nggi sultoni" asari janri va g'oyasi haqida so'zlang.
9. "Ayriliq ostonasi" romanini tahlil qiling.
10. Romandagi O'g'uzxon obrazi haqida qanday tarixiy ma'lumotlarni bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov O. Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. – Buxoro.2015.
2. Fozilov J. Kitob sotayotgan odam.– Buxoro nashriyoti,2016 .
3. Fozilov J. Yo'lbarsdaraning so'nggi sultoni: Roman, hikoyalar: – T.:Sharq, 2015.
4. Fozilov J. Ayriliq ostonasi: Tarixiy roman, qissa, hikoyalar: –T.: Sharq, 2006. Fozilov J. Oshiq Buxoriy qissalari. – Toshkent:Yangi asr avlodi, 2017 . – 320 b

5. Fozilov J. Xongul . –T.:Sharq, 2016.
6. Fozilov J. G`oziyon zindoni . – T.:O`zbekiston, 2014.
7. Rajabov Q. Turon tarixining badiiy kechmishi. Kitobda: Jo`ra Fozil. Ayriliq ostonasi. Tarixiy roman. Toshkent: “Sharq”, 2006.
8. Murodov G`. Yo`ldagi odam tasvirlari. “Buxoronoma”, 2019

XULOSA

Buxoro asrlar osha ilm-ma'rifat va ziyo maskani bo'lib kelmoqda. Bu tabarruk go'shadan bir qancha ulug' avliyo-yu, shayxlar, fiqh va aqoyid ilmining darg'alari, shoiru, olimlar yetishib chiqdi. Ana shu nuqtayi nazardan Buxoro adabiy muhitining shakllanish davri uzoq tarixga ega. Ushbu adabiy muhitning o'ziga xos jihati shunda ediki, bunda zullisonayn, ya'ni ikki tillilik barcha davrlar uchun xosdir. Bu muhitda qalam tebratgan ijodkor har ikkala tilda, fors-tojik va o'zbek tilida birdek nodir asarlar yarata olgan. Shuning uchun Buxoro adabiy muhitida ilod etgan shoirlarning aksariyatida ham turkiy, ham forsiy tildagi devonlari mavjud. Ammo ta'kidlash lozimki, ba'zi shoirlarning devonlarida ham turkiy, ham forsiy she'rlar bir muqova ostida jamlangan. Har ikkala tilda birdek muloqot qila oladigan Buxoro xalqi uchun bu odatiy hol edi. Buxoro adabiy muhiti bilan tanishar ekanmiz, ustod Ro'dakiyning sodda, ammo jo'shqin, o'ynoqi misralari, tabobat ilmining sultoni Ibn Sinoning falsafiy ruboiylari, Muhammad Avfiy va Poshoxo'janing ibratli hikoyatlari, Ismat Buxoriyning g'azal va qasidaları, tasavvuf ruhi bilan yo'g'rilgan Qul Ubaydiy ijodi, birdamlik va totuvlik targ'ibotchisi Turdi Farog'iyning da'vatkor baytlari bizni hayratga soladi. Bu va bu kabi mumtoz ijodkorlarimiz asarlaridagi shakl va mazmun mutanosibligi, yuksak badiiy mahorat nuqtalariga alohida ahamiyat qaratish lozim. Ayniqsa, zakiy qalam sohiblarining fors-tojik va o'zbek tilidagi zullisonaynlik an'anasi asosida yaratgan asarlari asrlar osha xalqimiz ma'naviyatining rivojiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. XIX asarning ikkinchi yarmi XX asrning dastlabki yillarida ham ushbu an'ana izchil davom etdi. Bu davrda faoliyat yuritgan Muslihabegim Miskin, Tamkin Buxoriylar ijodi shular jumlasidandir. Shuningdek, Ahmad Donish, Sadriddin Ayniylar ijodi serqirraligi bilan ajralib turadi. Ahmad Donish faoliyatiga e'tibor qaratsak, tarix va adabiyot uyg'unligini hamda xattotlikning nodir namunalarini ko'ramaiz. Hozirda nodir manbalar saqlanuvchi qo'lyozma va toshbosmalar fondida Donish ko'chirgan 20 ga yaqin asarlar mavjud. Sadriddin Ayniy esa shoir, yozuvchi, tilshunos, matnshunos, olim sifatida qator ilmiy va badiiy asarlarni yaratgan. Uning ijodida kichik hajmli hikoyadan boshlab, katta hajmli epopeyagacha uchratish mumkin. Yoki Ijodini, ya'ni ham badiiy, ham ilmiy faoliyatini o'zbek va

fors-tojik tillarida olib borgan. Chunki ayrim badiiy asarlarini tojik tilida yaratgan bo'lsa, ayrimlarini o'zbek tilida yozgan. Hatto, ilmiy maqolalarini ham tojik va o'zbek tillarida yozgan. Ushbu faoliyatini yuksak qadrlab, Tojikiston hukumati Ayniyga Tojikiston Fanlar Akademiyasining Birinchi VitsePrezidenti unvonini taqdim etdi. Bu bilan bog'liq qator mulohazalarni qayd etish mumkin. XX asarning ikkinchi yarmida ham Buxoro adabiy muhiti gullab yashnadi. Bu davrda bir qator iste'dodli shoir va yozuvchilar yetishib chiqdi. Bu borada Mukarrama G'aforova, Tilak Jo'ra, Sulton Jo'ra, Ne'mat Aminov, Omon Muxtor, G'ulom Shomurod, Sulaymon Shodiyev, Sadriddin Salim Buxoriy, Samandar Vohidovlarning nomlarini alohida qayd etish lozim. Ular qoldirgan ma'naviy meros o'zbek mumtoz adabiyoti xazinasini o'ziga xos, rangin iforlar bilan boyitdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mustaqillik davrida ham Nusratilla Naimov, Fozil Jo'ra kabi nasr ustalari barakali ijod etishmoqda.

Mazkur qo'llanmada ana shu yuksak iste'dod egalaridan ayrimlarining faoliyati va ijodi tahlil qilindi, chunki kichik bir qo'llanma ularning barchasini qamrab olishi, imkoniyatdan tashqari bir holatdir. O'ylaymizki, siz-aziz kitobxon Buxoro adabiy muhiti vakillari ijodini sevib o'qiysiz, qo'llanmada nomlari zikr etilmagan ijod ahllarini mustaqil o'qib o'rganishingizga ishonchimiz komil.

“BUXORO AABIY MUHITI” FANIGA OID G L O S S A R I Y

AN’ANA – o‘tmishdan kelajakka meros qoladigan, avloddan avlodga o‘tadigan, jamiyat hayotining turli ohalarida namoyon bo‘ladigan

moddiy va ma’naviy qadriyat.

ADABIY AN’ANA – dunyoni badiiy idrok etish, bilish sohasida davrdan davrga, avloddan-avlodga o‘tib kelgan adabiy tajribalar: estetik qarashlar, tasviriy vositalar, tildagi obrazlilik, emotsionallik va uslubdagi rangbaranglik.

ADABIY TA’SIR – bir ijodkorning boshqa bir qalam sohibi asaridan ta’sirlanishini anglatadi. Bunday ta’sir uning asarida hayot va qahramon ifodasida sezilib turadi.

ADABIY MUHIT – muayyan zamon va makonda yuzaga kelgan, yirik shoir va adiblar ta’sirida shakllangan, o‘ziga xos an’analarga ega bo‘lgan ijodiy muxit. Adabiy muxitning vujudga kelishi yirik ijodkorlar faoliyati, ular barpo qilgan ijodiy maktablar bilan bog‘liq. Adabiy muxit adabiy oqim va yo‘nalishlardan farq qiladi. Bir adabiy muxitda bir necha adabiy yo‘nalish va oqim faoliyat ko‘rsatishi mumkin. Uzbek adabiyoti tarixida Toshkent, Qo‘qon, Buxoro, Samarqand va Xorazm adabiy muxitlari mashxurdir.

ANTOLOGIYA (yun. anthologia – guldasta) – biror milliy adabiyot, davr, adabiy yo‘nalish va sh.k.larga mansubligi jihatidan tanlangan ijodkorlar asarlaridan namunalarni jamlovchi to‘plam. A.lar tuzish an’anasi qadimgi Yunonistonda boshlangan bo‘lib, keyingi davrlarda uning turfa ko‘rinishlari paydo bo‘lgan. Sharq adabiyotidagi tazkiralar ham mohiyatan A.ga yaqin turadi. Shuningdek, Fitratning “Eng eski turk adabiyoti namunalari” (1927) va “O‘zbek adabiyoti namunalari” (1928) nomli xrestomatiyalariga ham A. prinsiplari asosida tartib berilgan. XX asr o‘zbek adabiyotida bir qator A.lar tuzilgan. Jumladan, “O‘zbek yosh shoirlari” (1922), “O‘zbek poeziyasi antologiyasi”(1949), “Antologiya uzbekskoy poezii” (1950), “O‘zbek modern she’riyati”(2005), “XX asr o‘zbek she’riyati antologiyasi”(2007) va boshqalar.

BADIIY ADABIYOT – ijtimoiy ong shakllaridan biri. Badiiy adabiyot – insonning ruhiy faoliyati mahsuli. Adabiyotda borliq badiiy obrazlar vositasida idrok etiladi. Shuning uchun adabiyotshunoslik

metodologiyasi falsafiy dunyoqarash bilan ham bogʻlanadi.

BADIIY SHAKL VA MAZMUN – voqelikdagi har qanday narsa oʻzining tashqi koʻrinishi (shakli) va shu shakl orqali anglashilayotgan mohiyati (mazmun)ga ega. Shakl va mazmun kategoriyalari umumfalsafiy xarakterda boʻlib, ular voqelikni (narsani) idrok qilishda muhim ilmiy abstraksiyalardir. Zero, shakl va mazmun tarzida boʻlish shartli, negaki, ular – yaxlit bir narsaning har vaqt birlikda mavjud boʻlgan va bir-birini taqozo etadigan ikki tomoni. Shakl narsaning biz bevosita koʻrib turgan, his qilayotgan tomoni va aynan u bizga oʻsha narsaning nimaligini – mazmun-mohiyatini anglatadi.

VAZN (arab. – oʻlchov, tarozi, ogʻirlik) – sheʼrda tovush tuzilishini uyushtirish usuli. Sillabik sheʼr tuzilishicha boʻgʻin va turoq soni, tonik sheʼr tuzilishi stopalar oʻlchovi va soni bilan aniqlanadi. Sheʼriy ritm, ohangdorlik hamda musiqiylikning hosil boʻlishi vazn va uning xususiyatlariga bogʻliq.

JANR – (frans. qenre – jins, tur) – sanʼat turlarida tarixan shakllangan ichki boʻlinish hamda mazkur boʻlinishni ifodalovchi tushuncha; shakl va mazmun birligidagi oʻziga xos xususiyatlariga ega boʻlgan sanʼat asarining alohida turi. Sanʼat asarlarining janr guruhlariga boʻlinishi turli (tanlangan mavzu, badiiy-gʻoyaviy mazmun, shakl jihatlar va b.) mezonlarga tayanib amalga oshiriladi; har bir sanʼat turida janr tasnifi oʻziga xos tizimni tashkil etadi.

OBRAZ – badiiy obraz - voqelikni faqat sanʼatga xos usulda oʻzlashtiradigan va oʻzgartiradigan xarakterlovchi estetik kategoriya. Shuningdek, badiiy asarda ijodiy qayta yaratilgan har qanday voqea ham obraz deb yuritiladi.

NOVATORLIK – (lot. novator – yangilovchi, yangilanuvchi) – adabiy jarayon bilan bogʻliq kategoriya, adabiy jarayonda anʼana bilan har vaqt dialektik aloqada mavjud boʻlgan hodisa, adabiyot taraqqiyotining muhim ichki omili, badiiy tafakkur rivojiga sezilarli taʼsir oʻtkazib, keyinchalik anʼanaga aylanuvchi muhim badiiy-estetik yangilik.

KOMIL INSON – tasavvuf falsafasining asosiy tushunchalaridan biri. Har jihatdan yetuk kishi. Axloqiy jihatdan oliy poklikka erishgan, borliq va Allohni anglashda toʻliq bilimga ega boʻlgan va natijada Haqqa etishgan (yoki Qurʼon oyatlarining tub mohiyatini tushunadigan) inson.

RAMZ – (arab. – ishora qilmoq) (badiiy adabiyotda) – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog‘liq bo‘ladi va ko‘pma’noliligi bilan ajralib turadi. Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko‘pchilik xalqlar adabiyoti va san’atida mushtarak mazmunni ifodalaydi. Mas, sher – mardlik, tulki – makkorlik, bo‘ri – ochko‘zlik va boshqalar.

MAQOM – (arab. joy, makon, o‘rin) – musulmon Sharqi musiqasida asosiy tushunchalardan biri. Dastlab muayyan balandlikdagi tovushni hosil etish uchun torli cholg‘uning dastasida barmoq bilan bosiladigan joy, parda ma’nosida ishlatilgan. Keyinchalik Sharq musiqa nazariyasi rivojlanishi jarayonida maqomning mazmun doirasi tobora kengayib, bir-biriga nisbatan bog‘liq boshqa ma’nolarni ham anglata boshladi.

SAN’AT – ijtimoiy ong va inson faoliyatining o‘ziga xos shakli. San’at qadimiy tarixga ega bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog‘liq holda vujudga kela boshlagan.

SHARH – ochmoq; bayon qilmoq, tushuntirmoq, yoritmoq, izohlamok; bo‘laklab kesmoq.

G’AZAL – (arab. – ayolni sevish, unga oshiqona munosabatda bo‘lish) Sharq adabiyotida eng keng tarqalgan lirik janr. G’azal atamasi dastlab VI-VII asrlarda arab she’riyatida paydo bo‘lgan. So‘ng O‘rta Osiyo va Sharq xalqlari adabiyotlariga o‘tib, XIII-XIV lara to‘la shakllangan. Ilk bayti matla’ yoki mab’da, oxirgisi maqta’ deb ataladi. Agar ikkinchi baytning misralari ham o‘zaro qofiyalansa, zebi matla’yoki husni matla’ deyiladi. G’azalning paydo bo‘lishi va rivojlanishi musiqa san’ati bilan chambarchas bog‘liq. Dastlab g’azalga taxallus qo‘yilmagan, bu keyinchalik an’anaga aylangan.

QOFIYA – (arab. – ergashish, izidan borish) – she’riy misralarning muayyan o‘rnida ohangdosh so‘z yoki so‘z birikmalarining izchil takrorlanib kelishi. Qofiya she’rning mazmuni, janri, shakli va kompozitsiyasida muhim o‘rin egallaydi. Qofiya hosil qiluvchi so‘zlarning ohangdoshligi o‘zak bilan o‘zak yoki qo‘shimcha bilan qo‘shimcha o‘rtasidagi uyg‘unlik tufayli yuzaga keladi.

MUNDARIJA

Abu Abdulloh Ro‘dakiy hayoti va ijodi.....	5
Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodi.....	14
Muhammad Avfiy Buxoriy hayoti va ijodi.....	27
Xoja Ismat Buxoriy hayoti va ijodi.....	37
Poshshoxo'ja Abdulvahobxoja o'g'li xoja hayoti va ijodi.....	47
Qul Ubaydiy hayoti va ijodi.....	64
Turdi Farog'iy hayoti va ijodi.....	73
Mujrim Obid hayoti va ijodi.....	79
Mirzo Sodiq Munshiy hayoti va ijodi.....	89
Shamsiddin Shohin hayoti va ijodi.....	99
Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi.....	106
Ahmad Donish hayoti va ijodi.....	117
Sadriddin Ayniy hayoti va ijodi.....	125
Hozirgi o‘zbek nasrida Jo‘ra Fozil ijodining o‘rni.....	135
Xulosa.....	151
Glossariy.....	152

MA'RIFAT RAJABOVA

ZILOLA AMONOVA

NASIMA QODIROVA

BUXORO ADABIY MUHITI

(O'quv qo'llanma)

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi:
Bichimi 60x84. Kegli 14 shponli. «Times New Roman» garn.
Offset bosma usulida chop etildi. Offset bosma qog'ozi.
Bosma tabog'i 6,2. Adadi 50.

“Fan ziyosi” nashriyoti
Bahosi kelishilgan holda.
“Dunyo poligraf plyus” X/K
bosmaxonasida chop etildi.

Mustaqillik ko'chasi 21-uy, Tel.: (91) 416-50-09